Ключевые слова: *STEAM, фауна, начальная школа, интеграция, методика, моделирование, проектная работа, цифровое образование, экологическое образование.*

Abstract: *This thesis discusses the methodology for teaching elementary school students about fauna (animal world) based on modern STEAM technology. The STEAM approach serves to develop creativity, observation, analytical thinking and practical skills in students. The study shows the effectiveness of teaching animal world topics through integrated lessons, modeling, experiments, digital tools, project-based learning*

and game technologies. The role of STEAM methodology in the formation of motivation, love for nature, ecological thinking and independent research skills in elementary school is also analyzed.

Keywords: *STEAM, fauna, elementary school, integration, methodology, modeling, project work, digital education, environmental education.*

Boshlang‘ich sinflarda “Tabiiy” fanlarda fauna dunyosini o‘rgatish o‘quvchilarda tabiatni anglash, ekologik madaniyatni shakllantirish va kuzatuvchanlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy usullar bu jarayonda ma’lum natija bersada, zamonaviy o‘quvchi uchun ko‘proq faol jalb qiluvchi, kreativ va texnologik yondashuvlar talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) metodikasi boshlang‘ich ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

-uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

-o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

-xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

-xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish;

-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

-davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

-xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish;[1]

Yuqoridagilarga asoslangan holda boshlang‘ich sinlarda tabiiy fanlarni STEAM texnologiyasi asosida o‘rgatish natijali va foydaliroq bo‘lishi so‘zsiz.

STEAM texnologiyasi fauna mavzularini o‘rganishda fanlararo integratsiya asosida ishlaydi:

Science – hayvonlarning turlari, yashash muhitlari, oziqlanish zanjiri haqida ilmiy tushunchalar berish;

Dunyoda jonivorlarning ikki million xil turi bor. Olimlar hali fanga noma’lum bo‘lgan juda ko‘p hayvonlar borligini aytadilar:bu hayvonlar o‘tib bo‘lmas changalzorlarda yoki ummon tubida yashaydi.Hayvonlar nihoyatda ko‘p bo‘lgani uchun olimlar ularni bir nechta toifalarga ajratishgan. Qanday oziqlanishiga qarab:yirtqich hayvonlar,o‘txo‘r hayvonlar,hamma narsani yeydigan hayvonlar. [2]

Technology – planshet, animatsiya, videodarslar, raqamli atlaslar orqali o‘quv jarayonini jonlantirish;

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

-ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish;

-yagona masofaviy ta’lim platformasini kelajakda ta’limning barcha yo‘nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

-o‘quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta’lim maktablarining asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritish;

-texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o‘qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta’lim tizimiga joriy etish;

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq yo‘nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o‘rtacha darajada kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

-axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o‘quv jarayonlarga qatnashishini rag‘batlantirish orqali umumta’lim maktablarda informatika fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish;

Engineering – hayvonlar makonini modellashtirish (uyalar, inlar, maketlar);

Tabiatga muhabbat,uni asrashga tarbiyalash. Tabiatga muhabbat katta va murakkab hisdir. U bolaning ruxiy va aqliy dunyosini o‘z ichiga olib murakkab psixik kompleks foyda etadi. Bu hisni tarbiyalashni bola aqlini taniy boshlaganidan boshlashi kerak,sababi unda sevimli tabiatga muhabbat bilan birga sevimli o‘lkaga ko‘ngil qo‘yish o‘sib boradi.

Boshlang‘ich sinflarda shu kabi xislatlarni uyg‘otish uchun o‘quvchilar bilan birgalikda amaliy mashqlarda qushlarga in yasash,uy hayvonlariga uy qurishni bajarish lozim. Shu orqali ularda muhandislikning ilk qadamlari rivojlanib boradi.

Art – hayvonlar tasviri, ranglash, maket yasash orqali ijodkorlikni rivojlantirish;

2-topshiriq. Rasmda qanday hayvonlar yashiringan? Ularning nomini yozing.

Umurtqali hayvonlar	Umurtqasiz hayvonlar



Mathematics – hayvonlar sonini sanash, guruhlash, taqqoslash orqali mantiqiy fikrlashni kuchaytirish. Boshlang‘ich sinflarda hayvonlar sonini aniqlash,guruhlash va solishtirish yoki taqqoslash uchun albatta matematika kerak. Shu kabi jarayonlarni bajarish uchun amaliy mashqlar va o‘quvchilar bilan birga ishlashish muhim ahamiyatga ega.

Fauna mavzusida STEAM asosidagi darslar o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish, savol berish, tajriba o‘tkazish, kuzatish va xulosaga kelish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, “Quyoshda yashaydigan hayvonlar”, “Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar”, “O‘rmon ekotizimi” kabi mavzularda guruh loyihalarini tashkil etish o‘quvchilarning jamoada ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shuningdek, fauna dunyosini o‘qitishda o‘yin texnologiyalari (interaktiv kartalar, “Top hayvon”, “Iz qoldirgan hayvonni top”), raqamli qurollar (AR/VR ilovalar) va tajribalar (qushlarning parvoz modelini yaratish, hasharot uyasini modellashtirish) yuqori samaradorlik beradi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM texnologiyasi asosida fauna dunyosini o‘rgatish boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarda ekologik tafakkur, ilmiy izlanish, texnologiyadan foydalanish madaniyati va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Ushbu metodika darslarni yanada qiziqarli, samarali va zamonaviy talablarga mos keladigan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Oliy Majlis, 2020-yil 23-sentabr
2. Tabiiy fanlar 2-sinf 1-qism, O.E.Tigay, Toshkent 2023
3. “Raqamli O‘zbekiston 2030”, Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son
4. M.I.Nuriddinova “Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi”, 2005
5. K.T.Suyarov, Z.Y.Tillayeva, Z.B.Sangirova, M.K.Yuldasheva, M.M.Avezov, M.X.Baymuratova, M.T.Umaraliyeva, U.E.Alimuhamedova, S.G‘.Hasanova, D.T.Xasanova. Tabiiy fanlar 2-sinf mashq daftari, Toshkent 2021, 23-bet

STRESSNING INSON ORGANIZMIGA PSIXOLOGIK VA BIOLOGIK TA'SIRI

A'zamqulova Marjona Sherali qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Davolash ishi yo'nalishi 1-bosqich 809-gruh talabasi
Annayeva N.R
Ilmiy rahbar: dots.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada stressning odam organizmiga ta'siri, umumiy ma'lumotlar salomatlik, davolash va hayotiy maslahatlar, shuningdek stressni bartaraf etish chora-tadbirlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *asab, stress, fiziologiya, psixologiya, o'smirlar, davolash, psixik holat, gormonal o'zgarishlar, profilaktika, neyroendokrin tizim.*

Bugungi kunda stress muammosi bilan aziyat chekayotgan o'smirlar va yoshlar soni kundan-kunga oshib bormoqda.

Stress so'zi odatdagi turmushda va tibbiy atamashunoslikda ancha keng tarqalgan. Stress deganda ruhiy zo'riqish va hayajonlanish tushuniladi. Odam qattiq siqilsa; "Kecha men stressga uchradim" – deydi. Bu so'zni turmushda ishlatish shunga olib keldiki XX asr oxiriga kelib stress so'zi ishlatilganda odamlar faqat salbiy ruhiy zo'riqishni tushunadigan bo'ldilar.

Biz bilamizki, turli xil muammolar inson organizmi uchun juda ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, stress faqat salbiy emas balki ijobiy bo'lishi ham mumkin. Stress doimo salbiy emas, Eustress (ijobiy stress) odamni maqsad sari harakatga undaydi, kuch va motivatsiya beradi. Masalan: imtihondan oldingi hayajon, sport musobaqasidagi zo'r berish. Distress (salbiy stress) esa inson salomatligiga zarar yetkazib, ruhiy va jismoniy kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar turli ijtimoiy, psixologik va biologik bosimlarga duch kelmoqda. Bu bosimlar ko'pincha stress shaklida namoyon bo'ladi. Stress bu organizmning ichki va tashqi talablar bilan moslashish jarayonida yuzaga keladigon psixofiziologik holat bo'lib, uning uzoq davom etishi psixik va jismoniy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar davrida stressni keltirib chiqaradigon omillar murakkab va ko'p qirrrali bo'lib , ular biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

Stress yoshlar orasida turli shakllarda namayon bo'lib, kayfiyatning o'zgarishi, uyqu buzilishi, konsentratsiya kamayishi, o'zini past baholash, asabiylashish, depressiya va hatto somatik kasaliklar shaklida yuzaga keladi. Shu sababli yoshlar stressni tushunish va oldini olish, ularni sog'lom psixologik rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

O‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida respondentlarimiz orasida 55% stressni yolg‘izlik bilan yengishni aytishgan. Respondentlarimizning orasida 36% esa uyqu orqali stressni yengishni aytib o‘tishgan. Sterss paytida tanangizda nima bo‘ladi degan savolimizga 30% respondentlar yurak urushini tezlashishini aytishgan, 30% respondentlarimiz esa qo‘llar titrashi yana nafas siqishini his qilishadi, 10% respondentlar esa hech narsa his qilmasliklarini aytishgan. Stressni kamaytirish uchun nima qilasiz degan so‘rvomizga 45% respondetlarimiz hech narsa his qilmasliklarini, 33% respondentlarimiz esa uxlash orqali stressni unutishlarini, 11% respondentlarimiz esa sport orqali stressdan chiqishlarini aytishgan.

Stress sharoitida inson organizmi bir necha muhim ko‘rsatkichlar asosida sinovdan o‘tadi: immunitet, moddalar almashinuvi, gormonal muvozanat, kognitiv jarayonlar va emotsional stabillik. Agar ushub jarayonlar uzluksiz bosib ostida ishlasa, turli kasalliklar, depressiya va boshqa ruxiy buzilishlar rivojlanish xavfi ortadi[1;530-b.].

Stressga javoban birinchi bo‘lib gipotalamus faollashadi, bu esa gipofiz orqali buyrak usti bezlarining kortizol ishlab chiqarishini rag‘batlantiradi. Yuqori darajadagi yoki doimiy stress HPA o‘qi faoliyatining buzilishiga kortizol sekretsiyasining doimiy oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu esa miyadagi hipokamus, prefrontal, korteks va amigdaladagi neyronlarning o‘sishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[2;240-b.].

Stressni kamaytirish va yurakni himoya qilish uchun integral yondashuv zarur. Jismoniy faollik yurak ritmini me’yorga tushuradi, kortizolni va tomirlardagi qon aylanishni yaxshilaydi. Psixologik usullarda esa nafas mashqlari, meditatsiya, autogen trening, musiqa terapiyasi samarali hisoblanadi.Shuningdek, shaxsning stressni boshqarish qobiliyatini oshirish, ya’ni muammolarga dramatic emas, analitik yondashish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ortiqcha mas’uliyatni o’z zimmasiga olmaslik ham muhim prafilaktik choradir.

Stress inson miyasi strukturalari va funksiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Akut va surunkali stress sharoitida amigdala faolligi oshadi, bu esa havotir va qo‘rquv javoblarini kuchaytiradi.

Shu bilan birga prefrontal korteksning faolligi kamayadi , natijada kognitiv funksiyalar, qaror qabul qilish va diqqatni jamlash qobilyati pasayadi.

Stress shuningdek, miyadagi neurotransmitterlar – dopamin, serotonin va norepinefrin darajasini o‘zgartiradi, bu esa kayfiyat, motivatsiya va ruhiy holatga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Surunkali stress nevroplastik jarayonlarni susaytiradi va kognitiv disfunktsiyalar, depressiya hamda umumiy ruhiy salomatlik buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Stress yurak-qon tomir tizimini izdan chiqaradi. Kuchli hayajon paytida yurak urishi tezlashadi, qon bosimi ko‘tariladi va qon tomirlari torayadi.

Natijada gipertoniya, yurak ishemik kasalligi infarkt va insult xavfi ortadi.

Stress ruhiy salomatlikka jiddiy zarar yetkazadi. Insonda depressiya, tashvish, asabiylik, uyqusizlik, vahima xurujlari, xotira va diqqat susayishi kabi psixologik muammolar paydo bo‘lishi mumkin.

Asab tizimi buzilishi ovqat hazm qilish tizimida ham kuzatiladi. Stress, gastrit, oshqozon yarasi, qabziyat, ich ketishi, ovqat hazm bo‘lmasligi, ishtaha yo‘qolishi yoki ortib ketishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Epidemiologik va klinik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, inson populyatsiyasida uzoq va keskin stressli holatlarda ham normal fiziologik ko‘rsatkichlarni saqlaydigon shaxslarning kamida 30%i mavjud.

Bularning barchasi tirik organizmlarda turli xil stresslarga qarshilik mexanizmlarni bilish natijasida insonning stress omillariga (stressga bardoshlilik) qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan reabilitatsiya usullarini ishlab chiqarish mumkin[3;35-b.].

Ongimizga biz nimani buyursak shu voqea-hodisalar o‘ngimizda ro‘y beradi. Hamma holatlar o‘zimizga hamda o‘z ustimizda ishlashimizga bog‘liq.

Psixologik o‘zimizni nazorat qilolsak, ham biologik, ham fiziologik tomonidan sog‘lom bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda stress faqat ruhiyat emas, balki butun organizm faoliyatiga ta’sir qiladi.

Uni nazorat qilish, boshqarish va kamaytirish sog‘lom hayot uchun muhim ahamiyatga ega. O‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadi-ki inson stressni faqatgina o‘zi yengish imkoniyati kuchliroq.

Ba’zi bir insonlargina boshqa vositalar orqali stressdan chiqib yengil bo‘lishlari haqida fikr bildirishdi.

Stressga qayta-qayta tushib og‘ir hastaliklar orqali aziyat chekmasliklari va o‘z sog‘liqlari asrash uchun kurashishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Urinova Nodira Shavkatovna. Psixologik stress va uning inson organizmiga ta’siri.-Ilmiy-nazariya metodik jurnal. №10. 2024-yil. 526-531-bet.

2.Ro‘zixon Ikromjon qizi Keldiyeva. Asab tizimi va stress fiziologiyasi bolalar va o‘smirlar uchun. Scienci and Education Scietific jurnal. №5. 2025-y. 239-242-bet.

3.O.R.Avezov. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat.”KAMOLOT” nashriyoti. Buxoro-2023-y.316-bet.

4.Tojiboyev Shohruh Maqsudovich. Stressli vaziyatlarning oqibati. Website;econferenceseries.com. 2024-yil.June 1st

5.To’raqulov B.N. Umumiy psixologik. Darslik-Termiz-2018.236-bet

6.N.H.Abdullayev. H.Y.Karimov. B.O'.Irisqulov. Patologik fiziologiya. Darslik. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2008-y.473-bet.

TRANSITION TO A GREEN ECONOMY - A REQUIREMENT OF THE PRESENT TIME

Xujanova Shaxina Abdullayevna
English teacher Yakkabag specialized school xujanovashahina@gmail.com
Rustamova Shabbona Asliddin qizi
Uralov Abubakr Anvar o'g'li
Yakkabag specialized school 11th grade students

Annotation: *This article explores the growing importance of transitioning to a green economy as a key factor in ensuring global environmental sustainability. It highlights the measures undertaken in Uzbekistan to reduce ecological risks and examines their role in promoting sustainable economic growth. The study also outlines the essential stages required for effectively implementing the green economy model within the country, emphasizing its potential to support long-term environmental and socio-economic development.*

Keywords: *Green economy, environmental reforms, renewable energy, development strategy, ecological economics, environmental protection, financial opportunities.*

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH-- DAVR TALABI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati yoritiladi. Unda O'zbekistonda ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada mamlakatda yashil iqtisodiyotni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan asosiy bosqichlar bayon etilib, ushbu jarayonning uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, ekologik islohotlar, qayta tiklanuvchi energiya, taraqqiyotlar strategiyasi, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, moliyaviy imkoniyatlar*

ПЕРЕХОД К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ — ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация: *В данной статье рассматривается возрастающее значение перехода к зелёной экономике как ключевого фактора обеспечения глобальной экологической устойчивости. Анализируются меры, предпринимаемые в Узбекистане для снижения экологических рисков, а также их роль в поддержке*

устойчивого экономического развития. Кроме того, в статье определяются основные этапы, необходимые для эффективного внедрения зелёной экономики в стране, подчёркивается её вклад в долгосрочное экологическое и социально-экономическое развитие.

Ключевые слова: *Зелёная экономика, экологические реформы, возобновляемая энергия, стратегия развития, экологическая экономика, охрана окружающей среды, финансовые возможности.*

INTRODUCTION

Within Goal 24 of Uzbekistan's Development Strategy, it is planned to ensure the continuous supply of electric energy to the economy and to introduce "green economy" technologies into all sectors. The globalization process requires countries with advanced industries to renew their technological base qualitatively and transition to an economy modernized through advanced technological structures that increase production efficiency, competitiveness, and improve the quality of life and living environment.

The main objective of the green economy is the effective management of natural resources, the development of renewable energy sources, and, at the same time, the creation of new jobs and equitable distribution of resources[1]. This article analyzes Uzbekistan's approach to the green economy and its impact on global social stability and environmental development. It also discusses the significant measures being taken to effectively implement the green economy in Uzbekistan[2].

Literature review: In her textbook "Reforms in the Education System within the New Uzbekistan Development Strategy", Djurayeva Nilufar (pages 171–178) describes the role of the green economy in the economic development of our country and the measures being taken in this direction. According to her, the green economy is an economy aimed at reducing environmental risks and ecological scarcity while ensuring sustainable development without harming the environment[3]. It is closely related to ecological economics, but is more politically oriented.

According to the UNEP 2011 Green Economy Report, for an economy to be considered "green," it must be not only efficient but also fair. Fairness includes recognizing measures of equality at both global and national levels, especially ensuring a just transition to a low-carbon, resource-efficient, and socially inclusive economy.

The textbook also highlights Uzbekistan's efforts toward a green economy. It states: "On December 2, 2022, Resolution No. PP-436 'On measures to increase the effectiveness of reforms toward transitioning to a green economy in Uzbekistan until 2030' was adopted.

The program for ensuring the transition to a 'green' economy and 'green' growth in Uzbekistan until 2030 was approved"[4].

A number of scholarly articles further help to understand the importance of the green economy in the modern development of our country. One such article is by B. Shoyqulov, titled "Uzbekistan's Green Economy Strategy and the Main Directions of Its Implementation". In this article, he analyzes the transition to a green economy, implementation of the "Green Space" program, main directions of the "Green Economy Strategy," and the factors affecting sustainable development[5].

Similarly, in her article "Uzbekistan's Strategy for Transitioning to a Green Economy", Erkinova Khosiyat discusses investments in renewable energy, initiatives to improve the efficiency of renewable energy systems, and the impact of ecological reforms on social stability[6].

In his scientific article "The Role and Development of the Green Economy in Uzbekistan", Muxammadali Vakhabov emphasizes the importance of green energy and its implementation directions in Uzbekistan[7].

Methodology

A comparative analysis method was used to evaluate why the green economy is important for Uzbekistan in comparison with other countries. This approach examined not only the reforms implemented in our country, but also the experiences of several foreign nations in promoting green economic development.

According to global data:

- In the United States, the green economy provides over $600 billion in goods and services (4.2% of GDP) and employs 3 million people.
- In Japan: 3.4% of GDP and 1.5 million jobs.
- In the European Union: 2.5% of GDP and over 3.4 million people employed.
- Germany stands out with 4.8% of its GDP coming from the green sector, and is one of the global leaders in exporting environmentally friendly products, accounting for over 12% of global trade in climate-friendly technologies.
- In the United Kingdom, the green sector produces $240 billion, or 8.8% of GDP, with exports accounting for 5%, and employment 3% of the total workforce. Germany is particularly notable for integrating green principles into all areas of its economy and creating waste-free production cycles. It is the global leader in recycling and reusing waste.

Analysis of results. The transition of Uzbekistan to a green economy is necessitated by several key factors:

✓ A large share of the energy consumed in the national economy is produced from non-renewable natural resources.

✓ These resources have limited supply.

✓ Rapid industrial development is leading to environmental pollution.

✓ Water scarcity is increasing.

✓ Environmental problems related to the drying of the Aral Sea are intensifying.

Over the past thirty-three years of independence and reforms, Uzbekistan has achieved significant progress in combating climate change through environmental protection measures and forestry activities in the Aral Sea region. National environmental plans and targets remain central elements in transitioning to a low-carbon and green economy.

Nevertheless, challenges such as water scarcity, insufficient access to drinking water, and issues related to stable electricity supply persist. Recent widespread power outages and unprecedented sand and dust storms highlight these problems. These factors remind us that much work remains to ensure a green future for Uzbekistan [8].

Conclusion

Transitioning to a green economy strengthens both ecological and economic stability in Uzbekistan. Moreover, this process is crucial for sustainable development and environmental protection.

Although recent years have seen positive steps in renewable energy and eco-friendly technologies, limited technical and financial resources, as well as low private-sector involvement, are slowing progress. Therefore, the country must attract investment, adopt modern technologies, and support entrepreneurship.

At the same time, creating new jobs and improving living standards will help strengthen social stability. Overall, the green economy not only protects the environment, but also enhances societal well-being and opens new opportunities for future development.

REFERENCES:

1. President of the Republic of Uzbekistan. (2019). On approving the strategy for Uzbekistan's transition to a "green" economy for 2019–2030. Resolution PQ-4477.

2. President of the Republic of Uzbekistan. (2023). On the "Uzbekistan – 2030" Strategy. Decree PF-158.

3. Legislative Chamber of Oliy Majlis of Uzbekistan. (2023). Strategic objectives for transitioning to a "green" economy.

4. Resolution No. PP-436 (02.12.2022) on measures for ensuring the transition to a "green" economy and "green growth" within the New Uzbekistan Development Strategy for 2022–2026.

5. B. B. Shoyqulov. Scientific article "Uzbekistan's Green Economy Strategy".

6. Erkinova Madina. Scientific article “Uzbekistan’s Strategy for Transitioning to a Green Economy”.

7. Muxammadali Vaxobov. Scientific article “The Role and Development of the Green Economy in Uzbekistan”.

8. Djurayeva Nilufar. Reforms in the Education System within the New Uzbekistan Development Strategy. Textbook, Tashkent, 2024, pp. 170–183.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ДОСТИЖЕНИЯ ЦУР: ГОСУДАРСТВЕННЫЕ СТРАТЕГИИ СТРАН БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

Салихова Алина Муратовна
Старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»
Ташкентского государственного университета востоковедения

Аннотация: *В современном мире цифровая трансформация рассматривается как ключевой инструмент для достижения Целей устойчивого развития (ЦУР), обеспечивающий инклюзивный экономический рост, развитие инноваций и сокращение социального неравенства. В ближневосточном регионе, характеризующемся высокой политической и экономической неоднородностью, подходы к цифровизации существенно различаются - от комплексных национальных стратегий до фрагментарных инициатив, сосредоточенных на развитии «электронного правительства». Выделяются три доминирующие модели: государственно-инвестиционную (ОАЭ, Саудовская Аравия), инновационно-экосистемную (Израиль) и потребительско-рыночную (Турция, Египет, Иран). В работе исследуются государственные стратегии и инфраструктурные проекты таких стран, как Иран, Алжир и Марокко, которые демонстрируют различные модели участия государства в цифровой трансформации. Особое внимание уделяется тому, как меры государственной поддержки - от развития широкополосных сетей и облачных сервисов до стимулирования стартапов и внедрения цифровых технологий в социальные секторы - способствуют реализации конкретных ЦУР.*

Ключевые слова: *Цифровая экономика, государственная политика, Ближний Восток, Цели устойчивого развития (ЦУР), цифровая трансформация, электронное правительство, цифровая инфраструктура, инновации, цифровое неравенство, устойчивое развитие, цифровые стратегии.*

Abstract: *In the modern world, digital transformation is viewed as a key instrument for achieving the Sustainable Development Goals (SDGs), fostering inclusive economic growth, driving innovation, and reducing social inequality. In the Middle East, a region characterized by high political and economic heterogeneity, approaches to digitalization vary significantly - ranging from comprehensive national strategies to fragmented initiatives focused on developing "e-government." Three dominant models are identified: the state-investment model (UAE, Saudi Arabia), the innovation-ecosystem model (Israel), and the consumer-market model (Turkey, Egypt, Iran).*

This study examines the state strategies and infrastructure projects of countries such as Iran, Algeria, and Morocco, which demonstrate different models of state involvement in digital transformation. Particular attention is paid to how state support measures - from developing broadband networks and cloud services to promoting startups and integrating digital technologies into social sectors - contribute to the implementation of specific SDGs.

Key words: *Digital economy, state policy, Middle East, Sustainable Development Goals (SDGs), digital transformation, e-government, digital infrastructure, innovation, digital divide, sustainable development, digital strategies.*

ВВЕДЕНИЕ

В современном мире развитие цифровой экономики перешло в разряд ключевых стратегических приоритетов для подавляющего большинства государств. Активная и направляющая роль правительств является основным драйвером этого процесса, поскольку именно государственное участие создает условия не только для технологических прорывов, но и для эффективной коммерциализации инноваций, включая формирование национальных корпораций-лидеров.

Внедрение цифровых технологий напрямую влияет на глобальную конкурентоспособность. Государственная политика в этой сфере, как правило, реализуется по двум основным векторам: прямая поддержка ИКТ-сектора и стимулирование цифровизации традиционных отраслей экономики. Второе направление включает комплекс мер по финансированию НИОКР, апробации новых решений и формированию спроса на цифровые продукты. Несмотря на общность целей таких как цифровая трансформация госуправления, развитие инфраструктуры и укрепление кибербезопасности, национальные подходы к их достижению существенно различаются, часто встраиваясь в более широкие наднациональные программы (например, в рамках ЕС).

Ближневосточный регион представляет собой уникальную мозаику с крайне высокой политической и экономической неоднородностью. Здесь соседствуют богатейшие нефтегазовые монархии, развитые несырьевые экономики и страны, испытывающие последствия затяжных конфликтов. Это разнообразие предопределяет и значительные различия в подходах к цифровой трансформации.

Стратегическое планирование в этой области развито крайне неравномерно. В то время как лишь несколько стран (Египет, Израиль, Турция)

обладают комплексными национальными стратегиями, координирующими усилия всех участников, другие крупные экономики (Саудовская Аравия, Иран) либо не имеют выделенных документов, либо ограничиваются фрагментарными инициативами, зачастую сводящимися к развитию «электронного правительства». Национальные траектории также демонстрируют разные модели:

- Иран делает ставку на технологический суверенитет и создание собственной инфраструктуры в условиях санкций.
- Алжир, оставаясь зависимым от углеводородов, активно инвестирует в базовую цифровую инфраструктуру, стремясь стать региональным хабом.
- Марокко переживает органичный переход к цифровой экономике, где инициатива исходит как от бизнеса (финансовый сектор), так и от созданного государством профильного агентства.

В глобальных рейтингах большинство стран региона занимают средние позиции. Даже масштабные инвестиции государств Персидского залива пока не позволили им войти в число мировых лидеров (топ-20). Общими региональными приоритетами остаются развитие онлайн-доступа к государственным услугам и расширение интернет-инфраструктуры, особенно в сельских районах. При этом вопросы кибербезопасности и защиты данных в стратегических документах зачастую проработаны недостаточно.

Анализ позволяет выделить несколько доминирующих моделей цифровизации в регионе:

- Государственно-инвестиционная модель (ОАЭ, Саудовская Аравия): Движущей силой выступают масштабные государственные инвестиции, создание специальных хабов для привлечения международных корпораций и фокус на прорывных направлениях (ИИ, умные города).
- Инновационно-экосистемная модель (Израиль): Основана на мощной научно-исследовательской базе, развитой культуре венчурного финансирования и тесной связке между армией, академией и бизнесом, что порождает лидерство в таких нишах, как кибербезопасность.
- Потребительско-рыночная модель (Турция, Египет, Иран): Опирается на огромный внутренний рынок и молодое население, что стимулирует бурный рост секторов электронной коммерции, финтеха и цифровых услуг.

Росту цифровой экономики способствует ряд драйверов: демографический дивиденд в виде молодого и активного населения, высокое проникновение

смартфонов, осознанная государственная политика «сверху вниз» и острая потребность нефтезависимых стран в диверсификации.

Однако развитию препятствуют серьезные структурные вызовы: глубокое цифровое неравенство между странами и внутри них, несовершенство и нестабильность регуляторной среды, дефицит квалифицированных кадров, а в ряде случаев — политическая нестабильность, сдерживающая долгосрочные инвестиции.

Заключение

Таким образом, цифровая экономика Ближнего Востока не является монолитным явлением. Это динамичная и сложная мозаика, где различные модели развития сосуществуют в рамках одного географического пространства. Объединяющими факторами выступают высокие темпы роста, осознание стратегической важности цифровизации и уникальная возможность использовать технологии для «скачка» через традиционные этапы развития.

Успех в долгосрочной перспективе будет определяться способностью каждой страны преодолеть внутренние структурные ограничения, выстроить эффективное регулирование и создать инклюзивную цифровую среду, отвечающую вызовам нового времени.

ЛИТЕРАТУРА:

1.Мирилашвили Ш. Г. Инновационная политика стран Ближнего Востока // Экономика и управление: проблемы, решения. 2025. № 1. Т. 10. С. 73–79; https://doi.org/10.36871/ek.up.p.r.2025.01.10.009

2.Салихова А.М. «Роль государства в развитии цифровой экономики в странах Ближнего Востока». Шарқ мамлакатларининг рақамли иқтисодиётга ўтиш тажрибаси: имкониятлар ва муаммолар. Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Т.: 2021. –232 б., с. 192-197

3.Шкваря, Л.В. Цифровизация в Западной Азии: статический и динамический анализ / Л.В. Шкваря. - Текст : электронный // Теоретическая экономика. - 2023 - №7. - С.61-88.

TASHKILOTLARNING STRUKTURAVIY TUZILISHINING ASOSIY BELGILARI

Ergashev Mashrabxon Farxod o‘g‘li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi mashrabxon6002@gamil.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tashkilotlarning strukturaviy tuzilishi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi fundamental belgilari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tashkiliy tuzilmaning samaradorligini belgilovchi omillar — boshqaruv darajalari soni, vertikal va gorizontal mehnat taqsimoti, funksional vakolatlar taqsimoti, rasmiylashtirish darajasi, markazlashuv va markazsizlashtirish nisbatlari hamda ichki koordinatsiya mexanizmlari — tizimli ravishda o‘rganiladi. Maqolada an’anaviy va zamonaviy tashkiliy modellar (funksional, divisional, matritsali, loyihaviy va tarmoq tuzilmalar)ning afzallik va cheklovlari qiyosiy tahlil asosida yoritilib, ularni tanlashning strategik omillari izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *vertikal, gorizontal, funksional, koordinatsiya, innovatsion, strukturaviy, vakolat, determinant, byurokratik, fundamental.*

KIRISH

Zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyoti sharoitida tashkilotlarning strukturaviy tuzilmasi ularning raqobatbardoshligi, innovatsion rivojlanishi hamda strategik maqsadlariga erishish jarayonida muhim determinant sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tashkiliy tuzilma — bu tashkilot ichida funksiyalar, vakolatlar, javobgarliklar va aloqa kanallarining qanday taqsimlanganligini ifodalovchi rasmiy tizim bo‘lib, u korxonaning umumiy boshqaruv samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir.

Har qanday tashkilotning muvaffaqiyati nafaqat resurslardan oqilona foydalanish, balki ushbu resurslar harakatini muvofiqlashtiruvchi aniq va moslashuvchan tuzilmani shakllantirishga ham bevosita bog‘liqdir.

Tashkilotning strukturaviy tuzilmasi ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. Bular qatoriga tashkilotning miqyosi, faoliyat sohasi, texnologik jarayonlarning murakkabligi, tashqi muhitning o‘zgaruvchanligi, strategik maqsadlarning xarakteri, inson resurslarining salohiyati hamda boshqaruv madaniyati kiradi.

Shu bois strukturaviy tuzilmani to‘g‘ri tanlash va uni davr talablari bilan mos ravishda takomillashtirib borish zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.[1]

[1] Chandler, A. D. Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. MIT Press, 1962.

Ilmiy adabiyotlarda tashkiliy tuzilmalarning turli modellariga oid qarashlar shakllangan bo‘lib, funksional, divisional, matritsali, loyihaviy va tarmoq kabi tuzilmalar keng tarqalgan. Har bir tuzilmaning o‘ziga xos afzalliklari, cheklovlari hamda qo‘llanish sharoitlari mavjud. Bularning barchasi strukturaning asosiy belgilari — ixtisoslashuv darajasi, boshqaruv pog‘onalari soni, vakolatlarning taqsimlanishi, rasmiylashtirish va standartlashtirish darajalari, markazlashuvning amaldagi ko‘lami hamda ichki koordinatsiya vositalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Metod va materiallar. Tashkiliy tuzilma - vazifalarni taqsimlash, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi tadbirlar tashkiliy maqsadlarga erishishga qanday yo‘naltirilganligini belgilaydi. Tashkiliy tuzilma tashkiliy harakatlarga ta’sir qiladi va standart operatsion protseduralar va tartib-qoidalar asosida asos yaratadi. Qaysi shaxslar qaysi qarorlarni qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishini va shu bilan ularning qarashlari tashkilot harakatlarini qay darajada shakllantirishini aniqlaydi. Tashkiliy tuzilmani, shuningdek, shaxslar o‘zlarining tashkilotlarini va uning atrof-muhitini ko'radigan ko‘rish oynasi yoki istiqboli deb hisoblash mumkin.[2]

Genri Mintzberg zamonaviy boshqaruv nazariyasining eng muhim olimlaridan biri bo‘lib, u tashkilotning tarkibiy qismlari, koordinatsiya mexanizmlari va asosiy konfiguratsiyalari orqali tashkilot tuzilmasini chuqur ilmiy tahlil qilgan. Uning modeli bugungi kunda ham korporativ boshqaruv va tashkilot dizayni sohasida eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan biridir.

1. Tashkilotning besh asosiy tarkibiy qismi: Mintzberg har qanday tashkilotning tuzilmasini quyidagi besh komponent orqali tavsiflaydi:

2. Operatsion yadro (Operating Core): Bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki operatsion faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlardir. Ular mahsulot yaratadi, xizmat ko‘rsatadi, ishni real bajaradi.

3. Strategik samaradorlik markazi (Strategic Apex): Yuqori boshqaruv (direktorlar, rahbarlar). Ular tashqi muhit bilan aloqada bo‘ladi, strategiya yaratadi va butun tizimni boshqaradi.[3]

Richard L. Daft zamonaviy menejment nazariyasi va tashkilot dizayni bo‘yicha dunyoda eng ko‘p murojaat qilinadigan olimlardan biridir. Uning “Organization Theory and Design” nomli fundamental asari o‘nlab mamlakatlarda universitetlarda asosiy darslik sifatida qo‘llanadi. Daft tashkilotlarni faoliyat yurituvchi tirik tizim sifatida ko‘rib, ularning tuzilmasi, madaniyati, strategiyasi, texnologiyasi va tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur ilmiy asosda tahlil qiladi.

Tashkilot dizayni konsepsiyasi:

[2] Yakobid, M. G. (2007). “Tashkiliy tuzilmaning ajralmas chegaralari va ierarxiyaning bajarilmagan roli: urushga yaqin darslar”. Tashkilot Fanlari. 18 (3): 455–477.

[3] Mintzbergning “The Structuring of Organizations” (1979) va “Structure in Fives” (1983)

Daftning asosiy yondashuvi shundan iboratki, tashkilotning tuzilmasi uning strategiyasi va tashqi muhitiga mos bo‘lganda yuqori samaradorlikka erishiladi. U tuzilmani faqatgina bo‘linmalar yig‘indisi emas, balki o‘zaro koordinatsiyalashgan murakkab boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qiladi. Daftning ta’kidlashicha, to‘g‘ri tanlangan dizayn: muvofiqlashtirishni yaxshilaydi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi, rahbarlar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali qiladi.[4]

Natija va muhokama.

Genri Mintzberg tomonidan ishlab chiqilgan tashkiliy tuzilma modeli zamonaviy boshqaruv nazariyasida tashkilotlarning ichki mexanizmlarini chuqur tushunish imkonini beruvchi eng mukammal kontseptual yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Muhokama davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, Mintzberg tasnifi zamonaviy tashkilotlar uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Raqamli iqtisodiyot davrida tashkilotlar tezkor qaror qabul qilish, innovatsiyani qo‘llab-quvvatlash va moslashuvchanlikka erishish uchun ko‘proq adhokratiya va tarmoq (networked) shakllarini tanlayotgani kuzatilmoqda. Biroq yirik sanoat korxonalari va davlat idoralarida mashina byurokratiyasi hanuzgacha samarali hisoblanadi, chunki ular barqarorlik, standartlashtirish va nazoratni talab qiladi.

Richard L. Daftning tashkilot nazariyasi va dizayniga bag‘ishlangan ilmiy yondashuvi zamonaviy boshqaruv amaliyotida keng qo‘llaniladigan konseptual model yaratishga xizmat qilgan.

Muhokama davomida Daftning qarashlaridan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, tashkilot tuzilishini tanlash doimiy ravishda tashqi muhit bilan moslashishni talab qiladi. Aniqlanishicha, barqaror va standartlashtirilgan sharoitlarda mexanik tuzilma, o‘zgaruvchan va raqobatbardosh muhitda esa organik tuzilma samaraliroq natija beradi. Bu fikr amaliyotda ham o‘z tasdig‘ini topgan: innovatsion kompaniyalar, axborot texnologiyalari sohasidagi korxonalar va startaplar yuqori moslashuvchan organik tuzilmani afzal ko‘rishi, an’anaviy ishlab chiqarish korxonalari esa nazorat va tartib-intizom ustuvor bo‘lgan mexanik tuzilmani qo‘llashi kuzatilmoqda.

Tashkilot maqsadlariga qarab turli yo‘llar bilan tuzilishi mumkin. Tashkilotning tuzilishi u ishlaydigan va bajaradigan rejimlarni aniqlaydi. Tashkiliy tuzilma turli funktsiyalar va jarayonlar uchun mas'uliyatni filial, bo‘lim, ishchi guruh va shaxs kabi turli sub’ektlarga taqsimlashga imkon beradi.[5]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda tashkilotlarning strukturaviy tuzilmasi — bu ularning ichki funksiyalari, vakolatlari va boshqaruv mexanizmlarini tartibga soluvchi muhim tizim

[4] Richard L. Daft Menejment va tashkilot nazariyasi bo‘yicha keng qo‘llaniladigan darslik muallifi.
[5] Baligh, Helmy H. (2006). “Tashkilot Tuzilmalari”. Tashkilot tuzilmalari: nazariya va dizayn, tahlil va retsept. Axborot va tashkilot dizayni seriyasi. Vol. 5. Springer Nyu-York. 33-64 betlar.

bo‘lib, korxona yoki muassasaning strategik maqsadlari, tashqi va ichki muhit sharoitlari hamda resurs imkoniyatlariga mos ravishda shakllanadi. Maqola davomida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar (funksional tuzilma, divisional tuzilma, matritsali va loyihaviy tuzilmalar, byurokratik va professional boshqaruv shakllari va boshqalar) shuni ko‘rsatdiki, strukturaviy tuzilmaning asosiy belgilari — boshqaruv darajalari soni, mehnat taqsimoti, vakolat va javobgarliklar taqsimoti, koordinatsiya mexanizmlari, rasmiylashtirish darajasi hamda markazlashuv darajasi — tashkilotning samaradorligini, moslashuvchanligini va barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Avvalo, tashkilot hajmi va faoliyat yo‘nalishi tuzilma tanlashdagi eng muhim omillardandir. Kichik va o‘rta bizneslarda moslashuvchanlik va tez qaror qabul qilish muhimligi sababli soddalashtirilgan — ya’ni kam pog‘onali yoki keng ko‘lamli bo‘lmagan tuzilmalar ko‘pincha samaraliroq bo‘ladi.

Aksincha, kompleks, ko‘p funksiyali va katta hajmli korxonalarda funksional yoki divisional tuzilmalar — boshqaruv strukturasi aniq, vakolat va javobgarlik taqsimoti tartibli bo‘lishi bilan samaradorlikni ta’minlaydi.

Maqola tahlillari shuni ko‘rsatdiki, har qanday tuzilma — mukammal va har qaysi vaziyatga mos — bo‘lishi mumkin emas. Strukturani tanlashda tashkilot strategiyasi, tashqi muhit sharoitlari, texnologik va inson resurslari imkoniyatlari, boshqaruv madaniyati hamda tashkilot maqsadlari kompleks ko‘rib chiqilishi zarur.

Tashkilot strukturasi — dinamik, vaqt va sharoitga moslashuvchi tizim bo‘lib, agar u tashqi yoki ichki omillar o‘zgargan bo‘lsa, tuzilmani qayta ko‘rib chiqish va moslashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Chandler, A. D. Strategy and Structure: Chapters in the History of the Industrial Enterprise. MIT Press, 1962.

2. Yakobid, M. G. (2007). “Tashkiliy tuzilmaning ajralmas chegaralari va ierarxiyaning bajarilmagan roli: urushga yaqin darslar”. Tashkilot Fanlari. 18 (3): 455–477.

3. Mintzbergning “The Structuring of Organizations” (1979) va “Structure in Fives” (1983).

4. Richard L. Daft Menejment va tashkilot nazariyasi bo‘yicha keng qo‘llaniladigan darslik muallifi.

5. Baligh, Helmy H. (2006). “Tashkilot Tuzilmalari”. Tashkilot tuzilmalari: nazariya va dizayn, tahlil va retsept. Axborot va tashkilot dizayni seriyasi. Vol. 5. Springer Nyu-York. 33-64 betlar.

TASHKILOTLARDA BYUROKRATIK BOSHQARUV

Eshtemirova Maftuna Rashid qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi maftunarashidovna03@gmail.com

Annotatsiya: *Byurokratiya – zamonaviy davlat va tashkilot boshqaruvidagi asosiy ma'muriy tizimdir. Ushbu ishda byurokratiya tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Maqolada byurokratiyaning samaradorlik, barqarorlik va huquqiy asos yaratishdagi afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, byurokratiya tizimining ortiqcha qoidalar, sekin qaror qabul qilish va korrupsiya kabi kamchiliklari ham o'rganilgan. Ishda Max Weberning byurokratiya nazariyasi, raqamli davrda texnologik yechimlar yordamida byurokratiyani soddalashtirish imkoniyatlari va xalqaro tajriba ham muhokama qilinadi. Tadqiqot byurokratiya va fuqarolar hayoti, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi va samarali boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *byurokratiya, ma'muriy boshqaruv, davlat tizimi, samaradorlik, korrupsiya, huquqiy asos, islohotlar, texnologik rivojlanish, Max Weber, fuqarolar huquqlari, raqamli transformatsiya.*

BUREAUCRATIC MANAGEMENT IN ORGANIZATIONS

Annotation: *Bureaucracy is the main administrative system in modern state and organizational management. This work examines the concept of bureaucracy, its essence and historical development. The article analyzes the advantages of bureaucracy in terms of efficiency, stability and creating a legal framework. It also examines the disadvantages of the bureaucratic system, such as excessive regulations, slow decision-making and corruption. The work also discusses Max Weber's theory of bureaucracy, the possibilities of simplifying bureaucracy in the digital era using technological solutions, and international experience. The study reveals the connection between bureaucracy and the lives of citizens, the economy, and public administration, and provides recommendations for improving effective management.*

Key words: *bureaucracy, administrative management, public system, efficiency, corruption, legal framework, reforms, technological development, Max Weber, citizens' rights, digital transformation.*

БЮРОКРАТИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ В ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация: *Бюрократия является основной административной системой в современном государственном и организационном управлении. В данной работе рассматривается понятие бюрократии, её сущность и историческое развитие. В*

статье анализируются преимущества бюрократии с точки зрения эффективности, стабильности и создания правовой базы. Также рассматриваются недостатки бюрократической системы, такие как избыточное регулирование, медленное принятие решений и коррупция. В работе также обсуждается теория бюрократии Макса Вебера, возможности упрощения бюрократии в цифровую эпоху с помощью технологических решений и международный опыт. Исследование раскрывает связь бюрократии с жизнью граждан, экономикой и государственным управлением, а также даёт рекомендации по повышению эффективности управления.

Ключевые слова: *бюрократия, административное управление, государственная система, эффективность, коррупция, правовая база, реформы, технологическое развитие, Макс Вебер, права граждан, цифровая трансформация.*

KIRISH

Byurokratiya – zamonaviy jamiyat va davlat boshqaruvidagi eng muhim institutlardan biri bo‘lib, u tashkilotlarda ishlarni tartibli va samarali olib borishni ta’minlaydi. Byurokratiya tushunchasi ko‘pincha ma’muriy qoidalar, qat’iy ierarxiya va rasmiylashtirilgan tartiblar bilan bog‘lanadi. Tarixan, byurokratiya tizimi davlat idoralari va yirik korporatsiyalar faoliyatini standartlashtirish, qarorlar qabul qilishni tizimli qilish va xodimlar o‘rtasidagi vazifalarni aniq taqsimlash maqsadida shakllangan. Max Weberning byurokratiya nazariyasi bu tizimni samaradorlik va professionalizm tamoyillari asosida tahlil qiladi.[1]

Bugungi kunda byurokratiya nafaqat davlat boshqaruvida, balki biznes, ta’lim va boshqa sohalarda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ortiqcha qoidalar, sekin qaror qabul qilish va korrupsiya kabi muammolar tizim samaradorligini kamaytirishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish imkoniyatlari esa byurokratiya jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga yordam bermoqda. Ushbu ish byurokratiya tushunchasini, uning afzallik va kamchiliklarini, fuqarolar hayotiga va iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganishni maqsad qiladi hamda zamonaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish yo‘llarini tahlil qiladi.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. yurokratiya mavzusidagi ilmiy adabiyotlar juda keng va turlicha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Max Weberning klassik ishlari byurokratiyani ierarxik tuzilma, rasmiy qoidalar va professionalizm asosida tashkil etilgan samarali boshqaruv tizimi sifatida ta’riflaydi. Weberning nazariyasi ko‘plab tadqiqotlarda asosiy nazariy baza sifatida ishlatilgan va zamonaviy davlat boshqaruvi hamda korporativ boshqaruv tizimlarini tahlil qilishda qo‘llanadi.

Keyingi tadqiqotlar byurokratiyaning samaradorligi va davlat boshqaruviga ta’sirini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Misol uchun, Fukuyama va boshqa zamonaviy tadqiqotchilar byurokratiyaning fuqarolar bilan munosabatlari, xizmat sifatini ta’minlashi va korrupsiya bilan kurashdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda byurokratiya tizimining kamchiliklari – ortiqcha qoidalar, sekin qaror qabul qilish jarayoni va ixtiyoriylikning cheklanishi – ham keng muhokama qilinadi.

Raqamli davrda byurokratiya va texnologik transformatsiyalar mavzusida ham ko‘plab ishlar mavjud. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirish va raqamli xizmatlar yordamida byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, shaffoflikni oshirish va samaradorlikni yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlar byurokratiya tizimining turli mamlakatlarda qanday ishlashini, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, byurokratiya mavzusida mavjud adabiyotlar nafaqat nazariy yondashuvni, balki amaliy tadqiqotlarni ham qamrab oladi. Ular davlat idoralari, biznes tashkilotlari va jamoat sektori faoliyatining samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, byurokratiya tizimini chuqur o‘rganish nafaqat nazariy bilimni oshiradi, balki amaliy boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga ham yordam beradi.

Ushbu ishda byurokratiya tizimini o‘rganish uchun taqqoslash, tahlil va sintetik metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili asosida byurokratiyaning tarixiy rivojlanishi, nazariy asoslari va zamonaviy boshqaruv tizimidagi roli o‘rganildi. Shuningdek, amaliy misollar va xalqaro tajribalar solishtirildi. Ma’lumotlar sifat jihatidan tahlil qilinib, byurokratiya samaradorligi, kamchiliklari va isloh qilish imkoniyatlari aniqlangan. Metodologiyada nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda statistik ma’lumotlar va so‘rovnomalardan olingan natijalar ham qo‘llangan, bu esa tahlilning aniq va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari byurokratiyaning zamonaviy davlat va tashkilot boshqaruvida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Adabiyotlar tahlili va amaliy misollar shuni isbotladi: byurokratiya tizimi qaror qabul qilishni tizimli qiladi, vazifalarni aniq taqsimlaydi va xodimlarning mas’uliyatini oshiradi. Shu bilan birga, byurokratiya samaradorligini oshirishda texnologik yechimlar muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Raqamli xizmatlar va avtomatlashtirilgan jarayonlar yordamida ortiqcha qog‘ozbozlik kamayadi va fuqarolar xizmat ko‘rsatish sifatidan mamnun bo‘ladi.[3]

Tadqiqot davomida byurokratiyaning kamchiliklari ham aniqlangan. Ular orasida ortiqcha qoidalar, sekin qaror qabul qilish, individual ijodiy yondashuvning cheklanishi va korrupsiya xavfi mavjud. Shu bilan birga, byurokratiya tizimining samaradorligi mamlakatning iqtisodiy va madaniy konteksti bilan ham bog‘liq ekani kuzatildi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, samarali byurokratiya tizimi mavjud mamlakatlarda davlat

xizmatlari tez va shaffof amalga oshiriladi, korrupsiya darajasi past va fuqarolar ishonchi yuqori bo‘ladi.[4]

Byurokratiya mavzusi bo‘yicha olingan natijalar ilmiy adabiyotlar bilan uyg‘unlikda. Max Weber nazariyasi samarador boshqaruvni ta’minlashda byurokratiyaning muhimligini ta’kidlagan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlar raqamli texnologiyalar yordamida tizimni soddalashtirish va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, byurokratiya tizimining samaradorligi faqat qat’iy qoidalar va ierarxiyaga bog‘liq emas, balki texnologiya, shaffoflik va xodimlarning malakasi bilan ham bog‘liq.[5]

Shuningdek, tadqiqot byurokratiya va korrupsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham tasdiqladi. Qoidalar va jarayonlar murakkab bo‘lgan tizimlarda korrupsiya xavfi yuqori bo‘ladi. Shu sababli, samarali boshqaruv uchun byurokratiya jarayonlarini soddalashtirish, texnologiyalardan foydalanish va xodimlar malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.[6]

Natijalar shuningdek byurokratiyaning fuqarolar bilan munosabatiga ham ta’sir qiladi. Samarali va shaffof byurokratiya tizimi fuqarolar ishonchini oshiradi, davlat xizmatlariga qoniqish darajasini yaxshilaydi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ortiqcha byurokratiya va murakkab qoidalar fuqarolarda norozilikni keltirib chiqaradi va jamiyatda ishbilarmonlik faoliyatini sekinlashtiradi.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, byurokratiya tizimini isloh qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar: jarayonlarni raqamlashtirish, ortiqcha qoidalardan qochish, xodimlarning malakasini oshirish va xalqaro tajribalarni tatbiq etish. Natijalar ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalarni uyg‘unlashtirgan holda byurokratiya tizimini takomillashtirishning samarali yo‘llarini ochib beradi.

Byurokratiya tizimining afzalliklari va kamchiliklarini 1-jadval asosida ko’rib chiqishimiz mumkin:

1-jadval [7]

Aspekt	Afzalliklari	Kamchiliklari	Tadqiqot natijalariga izoh
Samaradorlik	Vazifalarni aniq taqsimlash; qaror qabul qilish tizimli	Sezilarli sekinlik; ijodiy yondashuv cheklangan	Raqamli transformatsiya yordamida samaradorlik oshirilishi mumkin
Shaffoflik	Qoidalarning qat’iyligi fuqarolar ishonchini oshiradi	Murakkab qoidalar korrupsiya xavfini oshiradi	Oddiy va shaffof jarayonlar korrupsiya darajasini kamaytiradi
Fuqarolar bilan munosabat	Davlat xizmatlari tizimli va barqaror	Ortib borayotgan qog‘ozbozlik va murakkab jarayonlar norozilik keltiradi	Raqamli xizmatlar yordamida fuqarolar qoniqishi oshadi
Texnologiya qo‘llanilishi	Avtomatlashtirish ish samaradorligini oshiradi	Texnologik yechimlar yetarli bo‘lmasa	Zamonaviy davlatlarda texnologik integratsiya

		samaradorlik past bo‘ladi	samarali natija beradi
Iqtisodiyot va boshqaruv	Byurokratiya tizimi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi	Ortiqcha byurokratiya biznesni sekinlashtiradi	Soddalashtirilgan byurokratiya tizimi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi

Davlat boshqaruvi sohasida ko‘pincha birokratiya va birokratikizm tushunchalari aralashib ketadi. Biroq bu ikki kategoriya bir-biriga teng emas. Birokratikizm – bu professional ma’muriy apparatning salbiy shakli bo‘lib, ish yuritish jarayonlarining ortiqcha murakkabligi, haddan tashqari rasmiylashuv, moslashuvchanlikning yo‘qligi, shuningdek, ishlarni ortiqcha cho‘zish va jamiyatning real ehtiyojlaridan uzilish bilan namoyon bo‘ladi.[8]

Birokratiya termini sotsiologik fenomen sifatida eng chuqur tarzda Max Veberning ishlari orqali tadqiq qilingan. U “ideal” boshqaruv tizimi konsepsiyasini asoslab bergan. Veber nazariyasiga ko‘ra, byurokratiya davlat boshqaruvidagi eng samarali tashkilot shakli hisoblanadi: u jarayonlarning ketma-ketligini, aniq me’yorlarni va huquqiy qoidalarining qat’iy bajarilishini ta’minlaydi, shu orqali ma’muriy jarayonlar natijador va barqaror bo‘ladi. Birokratik tuzilmalar paydo bo‘lganidan beri jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan birga rivojlanib borgan.[9]

Shu bilan birga, amaliy faoliyatda byurokratiyaning salbiy tomonlari ham ko‘zga tashlanadi. Veber tavsiflagan afzalliklar – qat’iylik, aniq bajariladigan protseduralar – ko‘pincha rutinga aylanadi, ya’ni xodimlar vazifalarni shunchaki qoidalarga amal qilib bajaradi, o‘zgaruvchan sharoitni hisobga olmaydi. Natijada tizim moslashuvchanligini yo‘qotadi va tashqi chaqiriqlarga tezkor javob bera olmaydi. Ma’muriy apparat qat’iy tartiblarga rioya qilgani sababli yangi ijtimoiy yoki siyosiy sharoitlarga moslashishda qiyinchilikka duch keladi. Shu bilan u standartlar o‘zgarmagan hollarda samarali ishlashi mumkin, lekin zamonaviy muammolarni hal qilish uchun uslublarni yangilash zarur bo‘lganda samaradorligi past bo‘ladi.[10]

Birokratiya va birokratikizmni solishtirish orqali tushunishga erishish mumkin. Birokratiya – bu professional xodimlar asosida tashkil etilgan tizimli boshqaruv shakli. Aksincha, birokratikizm – bu protseduralarning ortiqcha murakkabligi, rasmiy yondashuv ustunligi va boshqaruvchi institutlar bilan jamiyat o‘rtasidagi salbiy munosabatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Max Veber fikricha, birokratiya ideal ma’muriy tizim bo‘lib, u aniq ierarxiya, vazifalarning taqsimlanishi va professional intizom bilan tavsiflanadi. Rahbar o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar beradi va ularning bajarilishini nazorat qiladi, apparat esa qat’iy normativ asosda ishlaydi. Biroq amaliyotda boshqaruvning standartlashtirilishi ko‘pincha birokratikizmga olib keladi, bu esa ortiqcha formalizm va konservatizmni keltirib chiqaradi.[11]

Birokratikizmning asosiy xususiyatlari: ideal byurokratiyaning buzilishi salbiy tendensiyalarni yuzaga keltiradi. Birokratikizatsiya jarayoni esa bu salbiy xususiyatlarni kuchaytiradi va mustahkamlaydi.[12]

1.Formalizm va byurokratik konservatizm. Zamonaviy davlat xizmatchilari faoliyati ko‘p darajali normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi, ular amalda ko‘pincha bir-biriga zid bo‘ladi. Qonunlarga rioya qilgan holda, xodimlar protseduralarga qat’iy amal qilishga majbur bo‘ladi. Biroq jamiyat hayotining o‘zgaruvchan sharoitlari tezkor moslashuvni va noan’anaviy yechimlarni talab qiladi. Bunday moslashuvchanlikning yo‘qligi formalizm, ortiqcha va foydasiz hujjatlashuv, ishlarni cho‘zish va boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib keladi.

2. Kasbiy malakaning yetishmasligi. Boshqaruv tizimidagi kadrlar ko‘pincha lavozim talablariga rasmiy moslik asosida tanlanadi, real malaka hisobga olinmaydi. Natijada xodimlarda maxsus bilimlar yetishmasligi, shuningdek, protseduralar hajmining ortiqchaligi muammoni tez va samarali hal qilishga to‘sqinlik qiladi.

3. Ijtimoiy va siyosiy funksiyalarning kengayishi. Birokratik tizimning uzoq muddat mavjudligi va ayrim funksiyalarning doimiy ravishda mustahkamlanishi apparatni jamiyatdan ajratadi. Natijada ma’muriy apparat davlat manfaatlarini himoya qilishi kerak bo‘lsa-da, o‘z mustaqilligini oshiradi va siyosatga ta’sir qiladi. Birokratiya boshidan maqsad qilgan jamiyat manfaatlarini emas, balki idoraviy va korporativ maqsadlarni ilgari suradi.

4. Korrupsiya. Vakolatlarning kengayishi va davlat resurslariga kirish imkoniyati korrupsiya uchun qulay sharoit yaratadi. Ba’zan xodimlar vakolatlarini shaxsiy manfaat yoki hamkorlar foydasi uchun ishlatadi. Korrupsiya birokratikizmning belgisi sifatida qarorlar qonunga va etik me’yorlarga zid qabul qilinishiga olib keladi, natijada davlat apparati jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydi.[13]

Birokratikizmni boshqaruvning ayrim tuzilish xususiyatlarining tabiiy natijasi sifatida anglash, nazorat, islohotlar va shaffoflikni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Shunday qilib, byurokratiya va birokratikizm – bir ma’muriy tizimning ikki tomoni. Birokratiya jarayonlarni barqarorlashtiradi va boshqaruvni racionalizatsiya qiladi, birokratikizm esa tizimning disfunktsiyasini ochib beradi, samarali davlat institutlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va fuqarolarda ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.[14]

Davlat boshqaruvi tizimida byurokratiya va birokratikizm ikki alohida, lekin o‘zaro bog‘liq fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Birokratiya – bu professional xodimlar, aniq ierarxiya va qat’iy me’yorlar asosida tashkil etilgan strukturalashgan boshqaruv tizimi bo‘lib, u jarayonlarni barqarorlashtiradi, qaror qabul qilishni tizimli qiladi va davlat xizmatlarining natijadorligini oshiradi. Shu tariqa, byurokratiya jamiyatning murakkab ehtiyojlarini barqaror va samarali tarzda qondirish imkonini beradi.

Birokratikizm esa byurokratiyaning salbiy deviasi sifatida qaraladi. U ortiqcha formalizm, ishlarni cho‘zish, moslashuvchanlikning yetishmasligi, kasbiy malakaning pastligi va ba’zan korrupsiya bilan namoyon bo‘ladi. Natijada, boshqaruv tizimi jamiyat ehtiyojlariga tezkor javob bera olmaydi, o‘zini yangilash qobiliyatini yo‘qotadi va fuqarolarda ishonchsizlikni yuzaga keltiradi.[15]

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, samarali boshqaruvni ta’minlash uchun byurokratiya tizimining afzalliklarini saqlab qolgan holda, birokratikizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish zarur. Bunga jarayonlarni soddalashtirish, texnologik yechimlardan foydalanish, xodimlar malakasini oshirish va shaffoflikni ta’minlash orqali erishish mumkin. Shu tarzda, davlat apparati nafaqat o‘z standartlarini bajaradi, balki zamonaviy sharoit va jamiyat ehtiyojlariga moslashadi.

Xulosa qilib aytganda, byurokratiya va birokratikizm bir tizimning ikki tomoni sifatida bir-birini to‘ldiradi. Birokratiya barqarorlik va samaradorlikni kafolatlaydi, birokratikizm esa tizimning disfunktsiyasini ko‘rsatadi. Shu bois, davlat boshqaruvi institutlarini rivojlantirish va fuqarolar ishonchini oshirish uchun byurokratiya tizimini yangilash va modernizatsiya qilish zaruriy vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Weber, M. (1947). The theory of social and economic organization. New York, NY: Free Press.
2. Aberbach, J. D., & Rockman, B. A. (2002). Frontiers of bureaucracy: Reform and transformation in government. Washington, DC: Brookings Institution Press.
3. Peters, B. G. (2010). The politics of bureaucracy: An introduction to comparative public administration (6th ed.). New York, NY: Routledge.
4. Merton, R. K. (1940). Bureaucratic structure and personality. Social Forces, 18(4), 560–568. https://doi.org/10.2307/2571366
5. Fukuyama, F. (2013). Political order and political decay: From the industrial revolution to the globalization of democracy. New York, NY: Farrar, Straus and Giroux.
6. Crozier, M. (1964). The bureaucratic phenomenon. Chicago, IL: University of Chicago Press.
7. Goodsell, C. T. (2004). The case for bureaucracy: A public administration polemic (4th ed.). Washington, DC: CQ Press.
8. Hood, C. (1991). A public management for all seasons? Public Administration, 69(1), 3–19. https://doi.org/10.1111/j.1467-9299.1991.tb00779.x
9. Rainey, H. G. (2014). Understanding and managing public organizations (5th ed.). San Francisco, CA: Jossey-Bass.

10. Riggs, F. W. (1964). Administration in developing countries: The theory of prismatic society. Boston, MA: Houghton Mifflin.

11. Olsen, J. P. (2006). Maybe it is time to rediscover bureaucracy. Journal of Public Administration Research and Theory, 16(1), 1–24. https://doi.org/10.1093/jopart/muj015

12. Kettl, D. F. (2015). The transformation of governance: Public administration for twenty-first century America (3rd ed.). Baltimore, MD: Johns Hopkins University Press.

13. Lynn, L. E., Jr. (1998). Public management: Old and new. New York, NY: Routledge.

14. Tamm, D. (2008). Bureaucracy and democracy: An uneasy relationship. Public Administration Review, 68(5), 853–864. https://doi.org/10.1111/j.1540-6210.2008.00936.x

15. Wilson, W. (1887). The study of administration. Political Science Quarterly, 2(2), 197–222. https://doi.org/10.2307/2139277

DIRJORLIK SAN‘ATINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

Ergashev Asilbek Alisher o’g’li
Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi
Ibragimova Nilufar Adxamovna
Ilmiy rahbar: Guliston davlat universiteti v.b.dots.

Annotatsiya: *Dirijor - asar musiqasini ijodiy rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashovchi, mashaqqatli, sabr-bardosh talab qiluvchi, mas’uliyatli kasbdir. Ushbu maqolada dirjorlik san‘atining kelib chiqshi va rivojlanishi tarixi haqida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dirjorlik, orkestr, ansambl, ko‘p ovozlik, partitura, partiya.*

San’atlar ichida eng yoshi va kam o’rganilgani dirijyorlik san’ati hisoblanadi. Dirijyorlik amaliyoti uning nazariyasini ancha ortda qoldirdi. Biroq aynan nazariyaga bo’lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Dirijorlik sòzi fransuzcha sòzdan olingan bòlib “yònaltirish” “boshqarish” degan ma’noni anglatadi.

Dirijorlik qilish bu qo’l ostidagi orkestr yoki xor va boshqa ko’p ovozli ijrochilar jamoasini boshqarish tushuniladi.Orkestr jamoasini tehnik ustunligi va musiqiy asarni mohiyatini ochib berish va buni qo’l harakati orqali tomoshabinga yetkazish dirijorning vazifasi hisoblanadi. Dirijorlik sanati sanat turlari ichida eng qiyinlaridan biri hisoblanadi.

Chunki dirijor musiqa sohasida juda kòp bilimlarga ega bòlishi kerak, bulardan dirijorga eng keraklilari solfedjio va cholg̑ulashtirish fanlari hisoblanadi Dirijorning o’zi qo’l ostidagi orkestr jamoasidagi cholg’ularning oilasini yaxshi bilishi va ularni tabiati tushingan bòlishi o’zi ham bitta cholg’uni yaxshi chala oladigan bo’lishi kerak.

Orkestr jamoasida yaxshi ijroga erishish uchun dirijorning o’zi asar mohiyatini yaxshi bilgan bo’lishi kerak, shundagina qo’l ostidagi sozandalarga tushuntira oladi.

Dirijorlik san’ati XV-asrning birinchi yarmida kòp ovozli musiqani rivojlana boshlagangan so’ng kirib kela boshlagan. O’sha davr kompozitorlari o’zlarining asarlariga dirijorlik qilib buni rivojlantirgan.”«Dirijor ko‘rish va eshitish san ’atiga ega bo‘lmog‘i lozim, i yengil va ayni paytda kuchli bo‘lishi darkor, i sozlar, ularning tabiati va qamrovini his qilishi, partiturani o‘qiy olishi, shular barobarida alohida iste’dod egasi bo'lishi muhim... U yana o'zi va orkestr o'rtasida ko'zga ko‘rinmas aloqa o‘rnatilishi uchun kerak bo'lgan yana boshqa, deyarli noaniq xususiyatlarga ham ega bo'lishi shart.

Agar dirijor orkestrga o'z hissiyotlarini yetkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, unda i orkestr ustidan «hukmronlik» qila olmaydi, unga o'z ta’sirini o'tkazishdan mahrum bo'ladi.

Bu holda i orkestming dirijori emas, balki oddiygina «takt uruvchi»ga aylanib qoladi, shunda ham agar umuman taktni to'g'ri belgilash va ajratishni uddalay olsa!» Gektor Berlioz.[6] Bu san'at kelib chiqishi qadimgi gretsiyada xor rahbari bo'lib u asar ijrosi vaqtida asosan ritmni ushlab turish uchun oyog'i bilan yoki tayoqcha bilan polga tiqillatib turgan, keyinchalik pultga chiqqanda ham pultga tayoqcha bilan tiqillatib turilgan yoki malum bir qo'l harakatlardan foydalanilgan, lekin taktni oyoq bilan ko'rsatish juda uzoq davom etadi. Bu ko'pchilikning g'ashini keltirar edi.

Bu haqida nemis kompozitori Iogann Matteson kinoya qilib shunday degan „Bazilar taktni oyoq bilan urib ko'rsatish haqi ijobiy fikr bildirishi tajublantiradi balki ular oyoqlarini boshlaridan aqlli hisoblasa kerak shuning uchun oyoqlariga bòysunayabdi "deb aytadi. Dirijorlik tayoqchasi esa o'sha paytda har hil uzunlikda bòlgan. Bazan uning uzunligi 180 sm bòlgan va uni qirollik Jezi deb yuritilgan va faqat u yerda urib takt ko'rsatib turilgan. Bu ovozlar konsert zallarida, cherkovlarda juda baland eshitilgan. Bu kòproq frantsiyada, parijda keng tarqalgan.

Buni kompozitor J.B.Lyulli olib kirgan bòlib u bir kuni asarga berilib ketib tayoqchani uchi bilan oyoğini jarohatlaydi, bu esa uni ò'limiga sabab bò'lgan, lekin bu fojia ham bunday dirijorlik uslubiga soya solmaydi. Bir sò'z bilan aytganda ò'sha paytlarda asosan orkestrni klavisin chaluvchilar va skripka chaluvchilar boshqargan. "Dirijyorlikning qo'lda va texnik tomonini o'zlashtirish jarayoni dirijyorlik texnikasi samaradorligi tamoyillariga doimiy rahbarlik qilish zarurligini ta'minlaydi: ovozli harakat, tovushni oldindan bilish, imo-ishoraning grafik ravshanligi, harakat erkinligi va badiiy maqsadga muvofiqlik.

Asboblarni sozlashning umumiy tamoyillari sifatida tanilgan ushbu tamoyillarni qat'iy amalga oshirish talabaning to'g'ri yo'nalishda harakat qilishiga, ularning rivojlanishida yuqori natijalarga erishishga imkon beradi. Asar ustida ishlash jarayonini to'g'ri tashkillashtirish juda muhimdir.

Musiqa sanati jadallik bilan rivojlana boshlagandan so'ng eng avvalo, opera sanati kuchaya boshladi. Ko'plab kompozitorlar yangi asarlar yoza boshlaydilar bu holat kòp ovozli musiqaga bò'lgan va orkestrni boshqarishga bòlgan ehtiyoj yana ortdi bu ham dirijorlikning rivojlanishiga sabab bòldi

Orkestr ichidagi fortepianochi sozandalar dirijorlik qila boshladilar. I.Mozel, J.Shpor, va K.Veber kabi dirijorlar uni amalyotda qòllagan. L.V.Bethoven, R.Vagner,G.Berlioz kabi musiqachilar dirijorlik sanati asoschilardan hisoblanadi. Xalqaro e'tibor qozongan dirijor germaniyalik X.Fon Byulov hisoblanadi. XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida chet ellarda dirijorlik sanati ustalari X.Rixtir, A.Nikish, X.Vengartner, Shtraus, M.Balakirev, S.Rahmaninov, A.Rubinshteyn keyinchalik G.Fon Karayan, E.Mravinskiy, A.Toskanini, Sh. Myunsh, E. Svetlanov kabilar katta hissa qo'shishgan. Bu holat shu

[6] E.Toshmatov.Dirjorlik san'ati. T.:2008,9-bet

davrdagi musiqalar hammaga tushunarli bo'lgani uchun sozandalarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Keyinchalik musiqa rivojlangan sari asarlar qiyinlasha boshlaydi va orkestrni sozandalar emas balki tashqaridan turib kimdir boshqarishi kerak ekanligi sezilib qoladi.

Orkestrni tashqaridan turib orkestrga aloqasi bo'lmagan odam boshqaradi va bu hozirgi biz ko'rayotgan zamonaviy dirijorlikning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu san'atning rivojlanishi orkestrda dirijorning bosimini kuchaytiradi.

Bu kasbni birinchilardan bo'lib ma'lum dirijorlik mahoratiga ega bo'lgan kompozitorlar va sozandalar amalga oshirishgan. Bulardan X.Glyuk, V.A.Motsart, J.B.Lyulli, R.Vagner, F.Mendelson, J.Shpor, I.Shtraus, F.List kabilar amalga oshirishdi. Bu dirijorlarning asl kasbi kompozitorlik yoki pianinochi yoki skripkachi bo'lgan.

Bunday parallel faoliyat keyingii davrlarda ham saqlanib qoldi. Kompozitor F.List pianinochi va kompozitor, S. Rahmaninov pianinochi, V.Safonov, K.Rixter va boshqalar ko'zga kòringan dirijorlar bo'lishgan. Keyingi davr dirijorlari Artur Nikish altchi va kompozitor, Arturo Taskanini veolonchel cholg'uchisi, Oskar Fered valtornachi bo'lishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimov B. Dirijorlik amaliyoti. T., 2010
2. Toshmatov E. Dirijyorlik san'ati.T., 2005
3. Shukurov. J. Dirijorlik T., 2005

AMU-BUXORO-1 VA AMU-BUXORO-2 NASOS STANSIYALARINING 2025 YILDA TA'MIRLANISHI: TEXNIK, INNOVATSION VA EKONOMIK SAMARADORLIK TAHLILI

Nurullayev Amrullojon Umidjonovich
Sanayev Shaxzod Toshpo`latovich
Olot tuman politexnikumi ishlab chiqarish ta'lim ustasi
Boltayev Shahboz Abdullayevich
Olot tuman politexnikumi katta o`qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amu-Buxoro irrigatsiya tizimi tarkibidagi Amu-Buxoro-1 va Amu-Buxoro-2 nasos stansiyalarining 2025 yilda amalga oshirilgan rekonstruksiya va kapital ta'mirlash jarayonlari, ularning texnik holati, modernizatsiya ishlari, energiya samaradorligi hamda hududiy suv ta'minotiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, suv resurslaridan samarali foydalanish, irrigatsiya tizimlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlik masalalari yoritilgan.*

KIRISH

O'zbekistonning Buxoro viloyati hududida joylashgan Amu-Buxoro irrigatsiya tizimi respublikaning sug'oriladigan yerlarida barqaror suv yetkazib berishning eng yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan tizimlardan biridir. Ushbu tizimning asosiy tayanchi bo'lgan Amu-Buxoro-1 va Amu-Buxoro-2 nasos stansiyalari minglab gektar maydonlarni sug'orish, aholini ichimlik va xo'jalik suv bilan ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mavjud infratuzilmaning eskirishi, nasos agregatlarining ishdan chiqishi, energiya samaradorligining pasayishi hamda global iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslariga bosimning oshishi mazkur nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilishni zaruratga aylantirgan.

2025 yilda ushbu stansiyalarni kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish bo'yicha davlat dasturi doirasida bir qator texnik, texnologik va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1. Nasos stansiyalarining texnik holati va ta'mirlash zarurati

1.1 Nasos stansiyalarining ahamiyati

Amu-Buxoro-1 va Amu-Buxoro-2 mazkur hududda:

200 ming gektardan ortiq sug'oriladigan maydonni suv bilan ta'minlaydi,

Qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalari va aholi ehtiyojlari uchun barqaror suv oqimini ta'minlaydi,

Suv taqsimoti va gidrotexnik xavfsizlikda muhim rol o‘ynaydi.

1.2 Ta’mirlashga olib kelgan asosiy omillar

2025 yildan oldingi monitoring natijalariga ko‘ra:

Nasoslarning 38–45% eskirgan,

Elektr dvigatellarida quvvat yo‘qotishlar keskin oshgan,

Magistral suv o‘tkazgichlarda korroziya va gidravlik yo‘qotishlar aniqlangan,

Avtomatika tizimlari eskirib, masofadan boshqarish imkoniyati cheklangan.

2. 2025 yilda olib borilgan ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari

2.1 Nasos agregatlarini yangilash

Ta’mirlash jarayonida:

6 dona yuqori quvvatli (630–800 kVt) zamonaviy nasos agregatlari o‘rnatildi,

Energiya tejamkor elektromotorlar joriy qilindi,

Ishlash samaradorligi 12–15% ga oshirilgan yangi impeller va gidravlik moslamalar o‘rnatildi.

2.2 Elektr-energetika tizimini modernizatsiya qilish

Avtomatik kuchlanish barqarorlashtirgichlar,

Zaxira quvvat manbalari,

Raqamli elektr boshqaruv panellari o‘rnatildi.

Natijada elektr energiyasi sarfi 17–20% ga kamaydi.

1-rasm. Nasos stansiyalari tomonidan elektr energiyasi istemoli, mln.kVt.soat

2.3 Gidrotexnik inshootlarni ta’mirlash

Suv qabul qiluvchi kanallar tozalandi, beton qoplamalar qayta tiklandi;

Metall konstruktsiyalar to‘liq korroziyadan himoyalandi;

Gidrotexnik xavfsizlik talablariga muvofiq qo‘shimcha to‘g‘on va mustahkamlash ishlari amalga oshirildi.

2.4 Avtomatlashtirish va raqamlashtirish

SCADA nazorat tizimi o‘rnatildi;

Suv sarfi, bosim va quvvat ko‘rsatkichlarini onlayn monitoring qilish yo‘lga qo‘yildi;

Masofadan boshqariladigan elektron klapanlar integratsiya qilindi.

Bu esa inson omilini kamaytirib, avariyalarning oldini olishga yordam beradi.

3. Ta’mirlash natijalarining texnik va iqtisodiy samaradorligi

3.1 Suv uzatish quvvatining oshishi

Ta’mirdan so‘ng suv uzatish ko‘rsatkichlari:

Amu-Buxoro-1 da 12–15% ga,

Amu-Buxoro-2 da 10–14% ga oshdi.

Bu esa sug‘oriladigan maydonlarning kengayishiga imkon beradi.

3.2 Energiya tejamkorligi

Yangi nasoslar va elektr tizimlarining joriy etilishi natijasida:

Yiliga 3,5–4,2 mln kVt-soat energiya tejashga erishildi,

Xarajatlar kamayishi orqali stansiya ekspluatatsiya sarflari 20–25% qisqardi.

Energiya tejamkorlik natijalari, Ta’mirdan keying holati

Ko‘rsatkich	2024	2025	O‘sish (%)
Suv ko‘tarish samaradorligi	68%	83%	+15%
Elektr energiya sarfi (1 mln m³ suvga)	1320 kVt	1010 kVt	–23%
Nasoslarning o‘rtacha unumdorligi	4300 m³/soat	5200 m³/soat	+20%

3.3 Xizmat muddati va ishonchlilik

Nasos agregatlarining xizmat muddati 10–12 yilga uzaytirildi;

Avariya holatlari 60% ga kamaydi;

Gidrotexnik xavfsizlik talablari to‘liq tiklandi.

4. Ijtimoiy va agroiqtisodiy samaradorlik

4.1 Qishloq xo‘jaligida hosildorlikka ta’siri

Sug‘orishning barqaror ta’minlanishi:

G‘alla, paxta, sabzavot va yem-xashak ekinlarida 8–12% ga yuqori hosildorlikni ta’minladi;

Suv taqchilligi kuzatiladigan mavsumlarda hosilning nobud bo‘lish xavfini kamaytirdi.

4.2 Aholi va sanoat uchun suv ta’minoti barqarorlashdi

Ichimlik va xo‘jalik suv ta’minotida uzilishlar kamaydi;

Hududdagi sanoat korxonalari uchun texnik suv barqarorlashtirildi.

4.3 Ekologik barqarorlik

Suvning yo‘qotilishi kamaygani tufayli suv resurslari tejalmokda;

Energiya tejamkorligi CO_2 emissiyalarini 1500 tonnagacha kamaytirishga xizmat qildi.

Xulosa. Amu-Buxoro-1 va Amu-Buxoro-2 nasos stansiyalarining 2025 yildagi kapital ta’mirlash va modernizatsiya ishlari sug‘oriladigan maydonlarda suv ta’minoti barqarorligini ta’minlash, energetik samaradorlikni oshirish, gidrotexnik xavfsizlikni mustahkamlash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va energiya tejamkor qurilmalar joriy etilishi ushbu nasos stansiyalarining uzoq muddatli samarali ishlashini kafolatlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur ta’mirlash ishlari mintaqaviy suv xo‘jaligi infratuzilmasining modernizatsiyasida muhim bosqich bo‘lib, kelgusida boshqa stansiyalarda ham shunday yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. “Amu Buxoro irrigatsiya tizimi bo‘yicha yillik hisobot”. – Toshkent, 2025.
2. Gidravlika va gidromelioratsiya asoslari / A.X. Abdurahmonov. – T.: Fan, 2023.
3. Irrigatsiya tizimlari ekspluatatsiyasi / Yu.M. Salimov. – Buxoro, 2022.
4. Pumping Station Modernization Principles. Springer Water, 2021.
5. Energy Efficiency in Water Management Systems. UNESCO Report, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–128-son qarori. Suv xo‘jaligi tizimini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari. – 2024.
7. Nasos agregatlarini diagnostika qilish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
8. Hydro-Mechanical Systems Reliability Analysis. Elsevier, 2019.
9. S.A. Rakhimov. “Amudaryo havzasida suv resurslarini boshqarish muammolari”. – T.: 2023.
10 International Commission on Irrigation & Drainage (ICID). Annual Technical Report, 2021.

PEDAGOGIK METODLARDA CHET TILLARINI BILISHNING AHAMIYATI

Ibragimxodjayeva Hilola Akmal qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti 2-fakulteti, 1-kurs talabasi
Raxmonova Sardora Muminjonovna
Ilmiy rahbar: O'zbekiston jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik jarayonda chet tillarini bilishning ahamiyati, zamonaviy metodlarni qo'llashdagi o'rni hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, chet tillari, innovatsiya, motivatsiya, global ta'lim, kompetensiya, interaktiv, vizual.*

Annotation: *This article analyzes the importance of knowing foreign languages in the pedagogical process, their role in applying modern teaching methods and their impact on the activities of both teachers and students from a scientific and theoretical perspective.*

Key words: *pedagogy, foreign languages, innovation, motivation, global education, competence, interactive, visual.*

Аннотация: *В данной статье раскрыта значимость знания иностранных языков в педагогическом процессе, их роль в применении современных методов обучения, а также влияние на деятельность преподавателя и учащихся с научно-теоретической точки зрения.*

Ключевые слова: *педагогика, иностранные языки, инновация, мотивация, глобальное образование, компетенция, интерактивный, визуальный.*

KIRISH

Globallashuv jarayoni keskin tezlashgan bugungi davrda chet tillarini bilish inson uchun zaruratga aylandi. Ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun chet tilini bilish professional kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chet tillari orqali xorijiy tajribalarni o'rganish, ilg'or metodlarni tatbiq etish va zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga joriy qilish imkoniyatlari kengayadi. Shuning uchun ham bugungi kunda pedagogik metodlarning rivojlanishi bevosita chet tillarini bilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhokama va munozaralar: Davlat siyosatida chet tillarining o'rni ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida chet tillarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Prezidentning chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qarorlari asosida maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalarida chet tillarini chuqur o‘qitish bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yildi. Mazkur qarorlar asosida: pedagoglarning chet tili sertifikatiga ega bo‘lishi rag‘batlantirildi; xorijiy darsliklar va ta’lim platformalari joriy etildi; xalqaro test tizimlari bilan ishlash yo‘lga qo‘yildi. Bu esa o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga va zamonaviy pedagogik metodlarni o‘zlashtirishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitish tizimi yangilanmoqda. Endi tarjima qilish metodikalari takomillashtiriladi, chet tillarini bilish reytingi yuritiladi, o‘qituvchilar uchun malaka talablari belgilanadi. “Bog‘cha – maktab – oliy ta’lim – korxona” zanjiri orqali aholiga mos darslik va tavsiyalar joriy etiladi.

Bugungi ta’lim tizimida “Project-based learning”, “Case study”, “Debate”, “Blended learning” kabi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlarning aksariyati xorijiy tajribaga asoslangan bo‘lib, ularni to‘liq o‘zlashtirish uchun o‘qituvchining chet tilini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini biladigan pedagog: xorijiy metodik adabiyotlardan foydalana oladi, yangi dars uslublarini tez o‘zlashtiradi, ta’lim jarayonini innovatsion shaklda tashkil etadi. Natijada darslar an’anaviy shakldan interfaol, ijodiy va natijaviy ko‘rinishga o‘tadi. Bu esa kelajak avlodning samarali bilim olishiga va yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga o’z hissasini qo’shadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, chet tilini o‘rganish nafaqat kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki o‘quvchining xotira hajmini kengaytirish, e’tiborini jamlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Xususan, Lightbown va Spada tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chet tilini muloqotga asoslangan metodlar yordamida o‘qitish o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga, ya’ni fikrlash faolligi, tezkor tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslab berilgan.

Mashhur davlat arbobi Nelson Mandela quyidagi fikrni bildirgan: “Agar inson bilan u tushunadigan tilda gaplashsangiz — uning aqliga yetasiz, agar o‘z tilida gaplashsangiz — uning qalbiga yetasiz.” Bu fikr ta’lim jarayonida ham juda dolzarb hisoblanadi. O‘qituvchi til orqali nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchining qalbiga, fikrlash dunyosiga ta’sir o‘tkazadi. Shu sababli ham hozirgi kunda bir nechta tillarni bilish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shuningdek, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bir necha tillarni mukammal bilgan va bu uning ilmiy hamda ijodiy salohiyatini yuksaltirgan. Bu esa chet tillarining inson tafakkurini kengaytirishdagi ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi.

Natija va mulohazalar: Chet tilini biladigan pedagog darslarni interfaol, qiziqarli va samarali tashkil eta oladi. Xorijiy video darslar, onlayn platformalar, interaktiv ilovalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi, ijodiy yondashuvi kuchayadi, ta’limga bo‘lgan ichki motivatsiyasi ortadi. Shuningdek, chet tilida o‘tiladigan elementlar

o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni ham oshiradi. Kelajakda ular uchun keng imkoniyatlar yaratib, o’z ustida ishlab rivojlanishga yordam beradi. Bu esa hozirgi rivojlanib borayotgan davr talabi ham demakdir. Kognitiv lingvistika yondashuviga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni faqat qoidalarni yodlash emas, balki ma’noni ongda tasavvur qilish asosida amalga oshadi. Shu sababli chet tilini real vaziyatlar, vizual obrazlar va muloqot asosida o‘rgatish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi. Xorijiy tillarni bilish pedagoglar uchun ajralmas va zarur ko’nikmadir. Bu ularga xorijiy seminar va konferensiyalarda qatnashish, xalqaro grant va loyihalarda ishtirok etish, o‘z ustida doimiy ishlash imkoniyatini beradi. Bugungi kunda IELTS, CEFR, TOEFL kabi sertifikatlar pedagoglar uchun nafaqat til bilimi belgisi, balki professional mavqeni oshiruvchi vosita ham hisoblanadi.

Xulosa: Bir nechta tillarni bilish insonni faqat bir madaniy doiraga bog‘lamaydi — u turli tilli va madaniyatli insonlar bilan madaniy hamda ijtimoiy muloqotda erkin, moslashuvchan bo‘lish imkonini beradi, bu esa global dunyoqarash va keng dunyo bilan bog‘lanish poydevorini yaratadi.

Shunday ekan, pedagogik metodlarda til o‘rgatishni faqat grammatika yoki so‘z boyligini oshirish bilan chegaralab qolmaslik lozim. Til – bu shaxsni umumiy jihatdan rivojlantirish, tafakkurini kengaytirish va uning global maydonda muloqotga moslashuvchanligini ta’minlovchi muhim vositadir.

Demak, zamonaviy ta’lim jarayonida lingvistik bilimlarni keng qamrovli shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyaga aylantirish — istiqboldagi eng dolzarb yo‘nalishlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Lightbown,P. & Spada,N.(2013). How Languages are learned. Oxford University Press.

Internetdan olingan manbalar:

2. https://oz.sputniknews.uz/20210507/ozbekistonda-chet-tillarini-oqitish-boyicha-tizim-yangilanadi--mirziyoev-qarori-18634349.html

3. www.goodreads.com. Quote by Nelson Mandela.

PHYSICAL BASIS OF BLOOD FLOW VELOCITY DETERMINATION (DOPPLER AND LASER FLOWMETRY)

Rakhimova Lolakhon Abdurakhimovna
Fergana Institute of Public Health Biomedical engineering, biophysics and instructor of the Department of Information Technologies E-mail: lolaraximova126@mail.com
Mahammadaliyev Saidali Valijon oglu
Pediatrics 1st year student, group 5525

Abstract: *this in the article clinical in diagnostics wide applicable blood stream speed determination methods physicist basics, especially Doppler ultrasound and laser flowmetry mechanism, operation principles, technical features and medical in practice application illuminated. Doppler effect, acoustic waves diffusion, laser radiation biological tissues with mutual impact such as physicist to processes scientific based comments Also, in the article two of technology diagnostic accuracy, measurement boundaries, advantage and restrictions according to analytical tables The study is based on Doppler and laser flowmetry methods clinical advantages compare, their work efficiency assessment and in the field modern technologies application opportunities to show focused.*

Keywords: *doppler effect, blood flow, laser flowmetry, ultrasound diagnostics, hemodynamics, light scattering physics, acoustics waves, Doppler sonogram, perfusion, photon spread.*

Blood rotation organism main vital functions in providing central place Blood stream speed and his/her dynamic changes heart and blood vein system activity, peripheral of the veins functional status and tissues perfusion level in evaluation diagnostic importance has. Therefore clinical in medicine blood flow of determination high to sensitivity has, invasive not happened and safe measurement methods wide is applied.

This in the direction two technology — Doppler ultrasound diagnostics and laser flowmetry (laser Doppler flowmetry, LDF) separately importance profession Both are subject to the Doppler effect. based although, one acoustic waves, the second from electromagnetic (light) radiation uses.

This of technologies physicist basics, performance principle, device architecture, analysis algorithms and clinical application sectors deep scientific approach with seeing is released.

Doppler ultrasound physicist basics

Doppler effect essence

Doppler effect – wave source or acceptance the one who does movement as a result observable frequency Blood flow vein inside moving erythrocytes acoustic the waves reflection to represent through is measured.

Doppler ultrasound of devices work principle

Device following from modules consists of :

Ultrasound generator

Piezoelectric probe

Echo signal acceptance those who do

Filtering and reinforcement chains

Spectral analysis module

Laminar and turbulent blood flow echo signal spectral the composition Clinical in practice pulsed Doppler, continuum Doppler and color Doppler mapping is used.

Laser flowmetry physicist basics

Laser beams to knit entrance

Laser flowmetry red or infrared laser the rays to knit to direct based on . Erythrocytes laser the rays distributes and returned Doppler shift of rays occurs .

Light -scattering mechanism

the fabric photons:

absorbed ,

will be returned ,

elastic and inelastic spreads .

Inelastic spread exactly moving to erythrocytes related is the Doppler frequency appearance will be.

Laser flowmetry signals again work

Device returned laser intensity statistic to models based on evaluates :

microcirculation index

perfusion unit (PU)

microangiopathy indicators

LDF skin depth up to 1–2 mm perfusion determines , that is capillary blood flow about information gives .

Scientific tables and their wide analysis

Below is Doppler and laser flowmetry measurements main physicist indicators according to three table and they on in detail analysis is brought .

Doppler and laser flowmetry physicist parameters compare

Table 1.

Parameter	Doppler ultrasound	Laser flowmetry
Wave type	Acoustic	Optical (laser)

Wave length	0.1–0.5 mm	600–900 nm
Measurement depth	1–4 cm	0.5–2 mm
Frequency	2–10 MHz	10^{12}–10^{14} Hz
Blood flow measurement	Artery , vein	Capillaries
Accuracy	High	Very high

Table 1 analysis

This from the table visible as it stands , Doppler ultrasound deep located artery and in the veins the flow to measure Designed for . Laser flowmetry and photons spread border because of superficial capillary on the networks perfusion measures . Frequencies between difference millions once equal is , Doppler ultrasound acoustic nature and laser flowmetry optical features clear separate stands .

Measurement accuracy and diagnostic efficiency

Table 2.

Indicator	Doppler ultrasound	Laser flowmetry
Speed accuracy	±5%	±2%
Laminar the flow determination	Very effective	Average
Turbulent the flow assessment	Limited	Not rated
Microcirculation	Low sensitivity	Very high sensitivity
Clinical application opportunity	Wide	Special in the fields

Table 2 analysis

Table 2 data this shows that Doppler ultrasound big in the veins laminar and turbulent streams clear registration can takes . But microcirculation at the level sensitivity slow will be . Laser flowmetry and capillary perfusion to changes very sensitive . So, both technology different to goals intended are, they are each other fills.

Clinical application directions Table 3.

Direction	Doppler ultrasound	Laser flowmetry
Heart and blood vein system	Yes	No
Neurology	Limited	Yes
Dermatology	Low	Very wide
Endocrinology	Average	High (diabetic) angiopathy)
Resuscitation	Yes	Limited

Table 3 analysis

To the table according to Doppler ultrasound heart and blood vein system diagnostics main is a tool. Its using stenosis, thrombosis, regurgitation, valvular pathologies Laser flowmetry and more microcirculation with related diseases in the assessment - diabetic angiopathy, burns, trophic wounds, capillaries spasms in determining to advantage has.

Results and Discussion

Research results this shows that blood flow of determination modern technologies different physicist to principles based are , they are clinical to tasks suitable accordingly is used .

Discussion to be done main aspects :

✓ Doppler ultrasound arteries and in the veins stream speed high in accuracy record Spectral Doppler blood whether the flow is laminar or turbulent shows. Colorful Doppler and stream direction describes.

✓ Laser flowmetry capillary level blood rotation sensitive in a way measures the kinetic energy of erythrocytes photons inelastic to spread take it comes, this and perfusion unitary in indicators reflection will reach.

✓ Both of the method physicist basics biological in tissues of the waves spread features with directly related. Acoustic waves deep enters , light and light spreads .

✓ Clinical in practice they each other competition doesn't, maybe each other fills.

Conclusion

In the article blood stream speed of determination two main technology — Doppler ultrasound and laser flowmetry physicist basics , measurement mechanism, technical parameters and clinical application analysis The research was conducted this shows that :

✓ Doppler ultrasound deep veins flow in determining the most effective method is considered .

✓ Laser flowmetry and capillary level microcirculation in monitoring grass to sensitivity has.

✓ Both technology to the Doppler effect based although, different wave types — acoustic and optical — uses.

✓ Tables based on take visited analysis, methods each other filler to the feature has that it is confirms.

REFERENCES:

1. Rakhimova, L. A. (2021). IMPROVEMENT OF THE TRAINING PROCESS FOR PHYSICAL DEPARTMENTS AND ACHIEVEMENT OF EFFICIENCY. Scientific progress, 2(8), 76-81.

2. Зайнолобидинова, С., & Рахимова, Л. (2022). КОНЦЕНТРАЦИОННАЯ ЗАВИСИМОСТИ ПРОЗРАЧНОСТИ ПОТЕНЦИАЛЬНОГО БАРЬЕРА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 910-915.

3. Raximova, L. A. (2025). Bosh miya qon aylanish sistemasi va gemodinamika qonunlari. Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari, 6(1), 150-159.

4. Abdurakhimovna, R. L. (2025, June). CEREBRAL CIRCULATION AND LAWS OF HEMODYNAMICS. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 313-317).

5. Raximova, L. A. Scientific Basis Of Physical Quantities In The Teaching Of Physics.

6. Raximova, L. A. (2022). МОДЕЛИ АТОМНОЙ СТРУКТУРЫ ГК (ГК – граница кристаллитов). JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 2(8), 76-81.

7. Raximova, L. A. (2023). РАЗЛИЧНЫЕ КРИТЕРИИ ЭКСПЕРИМЕНТА В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ. "YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASI VA ULAR ASOSIDAGI QURILMALARNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI, 2(8), 106-108.

8. Raximova, L. A. (2022). NANOTEXNOLOGIYALARDA KVANTLI EFFEKTLARNING EVOLUTSIYASI. Yoshlarni fizika fani va ta'limi rivojlanishdagi o'rni, 2(8), 147-151.

9. Raximova, L. A. (2025). FAN, TA'LIM VA SOGLIQNI SAQLASH TIZIMIDA IQTISODIY RIVOJLANISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI, 2(8), 76-81.

10. Raximova, L. A. (2025). QATTIQ JISMLAR VA BIOLOGIK TO'QIMALARNING MEXANIK XOSSALAR TAKOMOLLASHTIRISH. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI, 6(1), 961-963.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AQLIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK O‘YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.

O‘ktamova Saodat
ADPI, magistr

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy faolligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim talablari asosida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo‘naltiruvchi metodlar yoritilgan. Didaktik o‘yinlarning o‘quv jarayoniga ta’siri, ularning o‘quvchilar tafakkuri, tezkorligi, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklari ilmiy asoslangan. Shuningdek, darslarda AKT vositalari hamda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi yoritilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining darsni to‘g‘ri tashkil etishdagi roli ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *didaktik o‘yinlar, aqliy faollik, boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, tafakkur, AKT, innovatsion yondashuv.*

Аннотация: *В статье анализируется роль и педагогическое значение дидактических игр в развитии умственной активности учащихся начальных классов. Рассматриваются современные методы, направленные на формирование у школьников самостоятельного мышления, творческого подхода и способности решать проблемные ситуации. Научно обосновано влияние дидактических игр на развитие мышления, быстроты реакции, коммуникативной культуры и навыков командной работы учащихся. Кроме того, раскрывается эффективность применения ИКТ и интерактивных методов, а также роль учителя начальных классов в правильной организации учебного процесса.*

Ключевые слова: *дидактические игры, умственная активность, начальное образование, интерактивные методы, мышление, ИКТ, инновационный подход.*

Annotation: *This article analyzes the role and pedagogical importance of didactic games in developing the intellectual activity of primary school students. It highlights modern teaching methods aimed at fostering independent thinking, creativity, and problem-solving skills among young learners. The study scientifically substantiates the positive impact of didactic games on students’ thinking abilities, reaction speed, communication culture, and teamwork skills. Additionally, the effectiveness of using ICT tools and interactive methods in lessons is discussed, emphasizing the crucial role of primary school teachers in organizing an engaging and productive learning process.*

Keywords: *didactic games, intellectual activity, primary education, interactive methods, thinking, ICT, innovative approach.*

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda yangicha yondashuvlar, yangicha bilim bilan o‘quvchilarning ayniqsa, ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaring zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va tafakkurga ega shaxsni tarbiyalash bugungi kunning masalasidir.

Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining, eng avvalo, maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim jarayonida aqliy faollikni shakllantirish va ularni bunga qiziqtira olish hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini aqliy faolligini, har sohada ijodkorligini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyatli bo‘lib kelmoqda.

Texnologiyalari rivojlanayotgan paytda bugungi kun qahramoni - o‘qituvchisi turli hil usullaridan foydalangan holda dars jarayonlarini qiziqarli, unumli, samarali va tafakkurda yaxshi joy oladigan holatda bo‘lishi darkor. Avvalo, o‘qituvchilar har bir o‘quvchisining individual xususiyatlari hamda butun bir sinf ya’ni jamoaning holatiga qarab o‘z usulini tanlaydi.

O‘quvchilarning tafakkur salohiyati, diqqat-e’tibori va mustaqil fikrlash qobiliyatlari aynan shu bosqichda ya’ni ta’lim olish jarayonida rivojlanadi, Dars jarayonida o‘quvchilarga ko‘proq ma’lumot yetgazib berishlik uchun metodlarni to‘g‘ri tanlovi muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Talim sohasida o‘quvchilarning aqliy faolligini rivojlarntirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli, faol va samarali tashkil etish uchun zarur hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirish masalasi ko‘plab mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Ko‘plab adabiyotlardan ma’lumki, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatni tahlil qilishi va yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojining uyg‘onishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

G.Qodirova (2021) o‘z tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur rivojida didaktik o‘yinlar, tasniflash, solishtirish, tahlil qilish kabi amaliy mashqlarning o‘rni muhim ekanini ta’kidlaydi. A.Hasanov (2020) esa pedagogik texnologiyalarning o‘quvchini markazga qo‘ygan yondashuvlar orqali aqliy faollikni kuchaytirishini asoslab beradi.

Innovatsion metodlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (N.Jo‘rayev, 2019) interfaol usullar, muammoli ta’lim va guruhli ishlash o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishini amaliy ko‘rsatib bergan. N.Abdullayeva (2022, 2023) ishlarida kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda matematik va geometrik masalalarning ahamiyati, shuningdek, zamonaviy interpretativ (germenevtik) yondashuvlar samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Muhokama. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun didaktik o‘yinlardan foydalanish dars jarayonini qiziqarli tashkil etibgina qolmasdan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash tafakkurini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan o‘qitish jarayoninning faol shakli hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarga dars jarayonlari o‘yinlar orqali tashkil etish tabiatiga xos bo‘lgan o‘yin faoliyati ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarini aqliy faolligini rivojlantiribla qolmasdan ulardagi tezkorlik, topqirlik, chaqqonlik, jamoa bilan ishlashni ham o‘rgatadi.

Ularni rivojlantirishda dars jarayonining intefaolligi, o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan rag‘batlantiruvchi yondashuvi, topshiriqlarning yosh xususiyatlariga mosligi, o‘yinli, muammoli va ijodiy vaziyatlar yaratish kabi omillar muhimdir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning aqliy faolligini rivojlantirish uchun didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish ularning ijodiy tafakkurini, masalalarni tahlil qilish qobiliyatini va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda hayot bilan bog‘lay olishni o‘rgatadi.

Natijalar. Maktab o‘quvchilarini aqliy faollikni rivojlantirishda Didaktik o‘yin metodi - o‘quvchilarga ta’lim olishiga yordam beruvchi usul bo‘lib, bu usul muayyan ta’limiy maqsadga erishish uchun, ya’ni o‘tilgan o‘quv materialini qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Har qanday didaktik o‘yinlarni tashkil etishda muayyan maqsad, masalan, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya’ni ma’lum didaktik topshiriqni mustahkamlashni vazifa qilib oladi.

Masalan, “Kalkulayator bo‘lamiz” o‘yini orqali o‘quvchilar tez hisoblashga o‘rganishadi. Bu metod nafaqat o‘quvchini aqliy faollika balki tezkorlikka ham undaydi deyishimiz mumkin.

Bu metod orqali o‘quvchilarni og‘zaki hisoblashga ham undaydi masalan, to‘rtta amallarni ishtirok ettirgan holda 20 ga 5 ni qosh undan 15 ni ayri, uni 2 ga bo‘l va shu tartibda o‘quvchilarga bir nechta misollar berib ularni shu orqali hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Bugungi kunda bu didaktik o‘yinni Mentall arfimetika yo‘nalishida ham o‘quvchilar uchun juda qulay holatda o‘rganilib kelinmoqda bu ham raqamli texnologiyaning rivojlangan pog‘onasidan biridir.

O‘quvchilarning aqliy faolligini rivojlarntirishda yana bir didaktik o‘yinlarda matematik poyga metodi ham o‘quvchilar uchun juda ahamyatlidir. Bu metodda o‘quvchilarga bir necha misollar yoki mantiqiy masalalar beriladi.

Ular jamoa bo‘lib tezkorlik bilan topishga harakat qilishadi. Bu o‘yin o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ishlashga ham ularni bir birlariga bo‘lgan hurmat, mehr oqibatlarini ham mustahkamlaydi.

Xulosa

O‘qituvchilar darsni tashkil qilishi bugungi rivojlanayotgan zamonda yangi g‘oyalar bilan, har bir o‘quvchini faol ishtirok etishi dars davomida o‘quvchilar xotira va pantanomik harakatlarini hamda aqliy faolligini ko‘rsata olishini shu bilan birga bu dars shunchaki baho olish uchun emas balki butun umr xotirasida muhrlanib qoladigan dars jarayonini tashkil etishimiz lozim.

Buning uchun o‘qituvchi muammoli va interfaol metodlardan foydalanib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga yo‘naltiradi.

Shu sababli, o‘quvchilarni qiziqtiradigan, zamon bilan hamnafas bo‘lishi uchun darsda multimediyalar, vizual hamda texnologiyalar orqali dars jarayonini tashkil etish o‘quvchini aqliy faolligini rivojlantiribgina qolmasdan uni zamon bilan hamnasaf tarbiyalay oladi.

Shu orqali o‘qituvchi darsga barcha o‘quvchilarni jalb qiladi va ularni aqliy faolligini rivojlantira oladi. Albatta, bunday dars jarajonlarida yangi metodik yondashuvlarning afzalliklarini ahamiyatli tomonlari ham juda yaxshi natijalarni ko‘rsatadi.

1. O‘quvchilarning tafakkuri o‘yinlar orqali rivojlantiriladi.

2. Nutq orqali so‘z o‘yinlari va muloqoti o‘yinlar orqali nutq madaniyati oshiradi.

3. O‘quvchilarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllantiriladi;

4.O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini kuchaytiradi;

5. Diqqat-o‘yin jarayonida e’tiborning barqarorligi ortadi.

6. Darslarda AKT vositalari va raqamli resurslardan keng foydalanishga imkon yaratadi.

Bu kabi yondashuv tizimli yondashuvga asoslanadi va o‘quv jarayonining har bir bosqichida samarali natija ko‘rsadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida yangi metodik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan darslar an’anaviy usullarga nisbatan o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Bundan tashqari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni o‘rganish ularni savodxonligini ham oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy faolligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan samarali foydalanishda o‘qituvchining roli ham katta ahamiyatga egadir.

Darslarni to‘g‘ri tanlash, maqsadni aniqlash, o‘quvchilarning faolligini kuzatish va rag‘batlantirishi kerak.

Shunday ekan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darslarni didaktik o‘yinlar orqali tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirova, G. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
2. Hasanov, A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
3. Jo‘rayev, N. (2019). Interfaol metodlar va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Abdullayeva, N. (2022). Kichik yoshdagi o‘quvchilarda bilish faolligini oshirishning metodik asoslari. Buxoro: BDU nashriyoti.
5. Abdullayeva, N. (2023). Boshlang‘ich sinf matematika ta’limida germenevtik yondashuvlar. Ilmiy maqola, “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali, №4.

INGLIZ TILIDAGI TADQIQOTLARDA O‘RTA OSIYO XALQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Ne’matov Laziz Hikmatillo o’g`li
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Tarix” yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilidagi tarixiy, etnografik va geosiyosiy tadqiqotlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayoti qanday talqin qilinganligi tahlil qilinadi. Buyuk Britaniya sayohatchilari, diplomatlari va tadqiqotchilarining kuzatuvlari o‘zbek tarixshunosligi bilan qiyoslanadi. Tadqiqotda orientalist qarashlar, iqtisodiy hayotning tasviri, an’anaviy boshqaruv tizimi, marosimlar va ta’lim muassasalari haqidagi manbalar o‘rganiladi.*

Kalit so’zlar. *O‘rta Osiyo xalqlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, madaniy jarayonlar, mustamlaka siyosati, sharqshunoslik tadqiqotlari, modernizatsiya davri, XIX–XX asrlar manbalari.*

SOCIO-ECONOMIC AND CULTURAL LIFE OF CENTRAL ASIAN PEOPLES IN ENGLISH-LANGUAGE STUDIES (LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES)

Annotation: *This article examines how English-language historical, ethnographic, and geopolitical studies interpreted the socio-economic and cultural life of Central Asian peoples in the late 19th and early 20th centuries. The observations of British travelers, diplomats, and scholars are compared with modern Uzbek historiography. Special attention is given to orientalist perspectives, descriptions of economic activities, traditional governance structures, educational institutions, and cultural practices.*

Keywords: *Central Asian peoples, socio-economic life, cultural development, colonial policy, Oriental studies, modernization period, late 19th–early 20th century sources*

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВВ.)

Аннотация: *В статье анализируется, как в англоязычных исторических, этнографических и геополитических исследованиях трактуется социально-экономическая и культурная жизнь народов Средней Азии конца XIX – начала XX века. Наблюдения британских путешественников, дипломатов и исследователей сопоставляются с узбекской историографией. Особое внимание уделено*

ориенталистским подходам, экономическому укладу, традиционным институтам управления, образованию и культурным обычаям.

Ключевые слова: *Народы Средней Азии, социально-экономическая жизнь, культурные процессы, колониальная политика, востоковедческие исследования, период модернизации, источники конца XIX – начала XX вв.*

INTRODUCTION

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mintaqasi Buyuk Britaniya, Rossiya imperiyasi va boshqa yevropalik tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lgan. Ingliz tilidagi sayohatnoma, diplomatik hisobot va etnografik asarlarda mintaqa xalqining qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, diniy ta’lim, an’anaviy marosimlar va ijtimoiy tuzilma bo‘yicha qadriyatlari haqida boy ma’lumotlar keltirilgan [1, 52-bet].

Buyuk Britaniya olimlari mintaqani ko‘pincha strategik hudud sifatida tasvirlaydi (“Great Game”), shuningdek, mahalliy jamiyatning kundalik hayotini etnografik uslubda bayon qiladi. Ammo ko‘plab manbalarda orientalistik yondashuvlar kuzatiladi — Sharq jamiyatining ekzotik va romantik tasviri [6, 17-bet].

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi tadqiqotlar talqinini tahlil qilish hamda o‘zbek tarixshunosligidagi izohlar bilan qiyosiy yondashuvni taklif etishdir.

Methods. Ingliz va o‘zbek tarixchilari ishlatgan tushunchalar, tasvir uslubi, statistik ma’lumotlar o‘rtasida komparativ tahlil o‘tkazildi [16, 33-bet].

Curzon (1889), Schuyler (1876), Lansdell (1885), Hopkirk (1990) va Brower (2003) kabi mualliflarning asarlari matnlaridagi faktlar, tasvirlar va terminlar o‘rganildi [3, 112-bet].

Ma’lumotlar quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lindi:

-ijtimoiy tuzilma,

- iqtisodiy hayot (savdo, dehqonchilik, hunarmandchilik),

-madaniy hayot (ta’lim, marosimlar, qadriyatlar),

-siyosiy jarayonlar.

Results.Ingliz manbalari O‘rta Osiyo jamiyatini patriarxal va an’anaviy sifatida tasvirlaydi. Mahalla boshqaruvi, oqsoqollar kengashi, diniy ulamolarning mavqeyi haqida muhim ma’lumotlar uchraydi [7, 76-bet].O‘zbek tarixchilari esa ijtimoiy qatlamlar, yer egaligi va vakolat tizimlarini yanada chuqur yoritadi [17, 59-bet].

Curzonning qayd etishicha, Buxoro va Samarqand bozorlari “Osiyo savdosining tirik yuragi” bo‘lgan [9, 88-bet]. Karvon yo‘llari Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarini mustahkamlagan [8, 104-bet].

Sug‘orma dehqonchilik, paxta yetishtirish, bog‘dorchilik asosiy iqtisodiy sohalar sifatida tasvirlangan [10, 66-bet]. O‘zbek manbalarida esa kanal tizimlari, ariqchilik,

mirablar faoliyati batafsil ochilgan [19, 121-bet]. Samarqand — ipakchilik, Buxoro — zargarlik va gilamchilik, Xiva — yog‘och o‘ymakorligining markazi sifatida ko‘rsatiladi [11, 47-bet].

Ingliz tadqiqotchilari madrasalarni “an’anaviy diniy-ma’rifiy markazlar” deb baholagan [12, 38-bet].

O‘zbek olimlari esa ta’lim mazmuni, dars metodlari, ustoz-shogird tizimini kengroq yoritadi [20, 92-bet].

Sayohatchilar to‘y marosimlari, Navro‘z, Hayit bayramlarini ekzotik manzara sifatida tasvirlagan [13, 41-bet]. Bu esa orientalistik qarashlarga misol bo‘ladi. Ingliz manbalarida ayollar hayoti yuzaki tasvirlangan bo‘lib, ko‘pincha sharqona parda tizimi bilan bog‘langan [14, 53-bet].

Rossiyaning Turkiston siyosati ingliz tadqiqotchilari tomonidan “imperial manfaatlar strategiyasi” sifatida talqin qilingan [15, 132-bet]. Jadidchilik harakati esa chegaralangan tarzda tasvirlangan bo‘lsa-da, zamonaviy tarixshunoslik uning o‘rnini qayta baholamoqda.

Discussion.Ingliz manbalari mintaqa iqtisodiy hayoti, karvon yo‘llari, bozorlardagi faoliyat haqida ko‘plab empirik ma’lumotlar beradi. Biroq ularning ko‘pchiligi Sharq jamiyatini “ekzotik va o‘zgacha” tarzda tasvirlaydi [6, 52-bet].

O‘zbek tarixchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ichki manbalarga tayangan holda chuqurroq talqin qiladi [18, 47-bet].

Conclusion.Ingliz tilidagi tadqiqotlar XIX–XX asrlar O‘rta Osiyo hayotini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Ulardagi ayrim subyektivlik va orientalistik yondashuvlarga qaramay, iqtisodiy, madaniy va etnografik ma’lumotlar bugungi tarixshunoslik uchun katta ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hopkirk, P. *The Great Game*. London, 1990. – 52-bet.
2. Bregel, Y. *Historical Atlas of Central Asia*. Brill, 2003. – 61-bet.
3. Curzon, G. *Russia in Central Asia*. London, 1889. – 112-bet.
4. Schuyler, E. *Turkistan: Notes of a Journey*. New York, 1876. – 98-bet.
5. Lansdell, H. *Russian Central Asia*. London, 1885. – 74-bet.
6. Said, E. *Orientalism*. Penguin, 1978. – 17, 45, 52-betlar.
7. Brower, D. *Turkestan and the Fate of the Russian Empire*. Routledge, 2003. – 76-bet.
8. Meyer K., Brysac S. *Tournament of Shadows*. 2006. – 104-bet.
9. Curzon, G. *Persia and the Persian Question*. 1892. – 88-bet.

10. Khalid, A. *The Politics of Muslim Cultural Reform*. 1998. – 66-bet.
11. Levi, S. *The Rise and Fall of Khoqand*. 1989. – 47-bet.
12. DeWeese, D. *Islam and Native Religion*. 1994. – 38-bet.
13. Nalivkin V., Nalivkina M. *Muslim Women of Central Asia*. 1886. – 41-bet.
14. Becker, S. *Russia's Muslim Frontiers*. 2004. – 53-bet.
15. Morrison, A. *The Russian Conquest of Central Asia*. CUP, 2014. – 132-bet.
16. Ahmedov, B. *O'rta Osiyo tarixidan*. Toshkent, 1996. – 33-bet.
17. Qodirov, A. *Turkiston ijtimoiy tarixi*. Toshkent, 2001. – 59-bet.
18. Vohidov, Sh. *O'rta Osiyo boshqaruv tizimi*. Toshkent, 2004. – 47-bet.

QON BOSIMINI TARTIBGA SOLISHDA ION KANALLARINING ROLI

Tursunaliyev Otabekbek Olimjon o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada qon bosimini tartibga solishda ion kanallarining roli yoritilgan. Tomir devoridagi silliq mushak hujayralarining elektr faolligi orqali qon bosimi boshqarilishi tushuntirilgan. Kalsiy (Ca^{2+}) kanallarining faollashuvi tomirlar torayishi va arterial bosimning oshishiga, kaliy (K^{+}) kanallarining ochilishi esa membrana giperrpolarizatsiyasiga hamda tomirlarning kengayib, bosimning pasayishiga olib kelishi bayon qilingan. Shuningdek, natriy (Na^{+}) va xlor (Cl^{-}) kanallarining yurak va nerv tizimi orqali qon bosimiga bilvosita ta’siri hamda TRP kanallarining tashqi muhit omillariga javoban tomir tonusini o‘zgartirishi ta’riflangan. Ion kanallarining muvozanati buzilganda arterial gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari xavfi ortishi ta’kidlangan. Ushbu holatni bartaraf etish uchun ion kanallarini nishonga oluvchi dori vositalarini oqilona qo‘llash, tuz iste’molini cheklash, jismoniy faollikni oshirish, stressni boshqarish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ion kanallari, qon bosimi, Ca^{2+} kanallari, K^{+} kanallari, tomir tonusi, gipertenziya, silliq mushak hujayrasi, vazokonstriksiya, vazodilatatsiya.*

ASOSIY QISM:

Arterial qon bosimi organizmning gemodinamik barqarorligini ta’minlovchi eng muhim fiziologik ko‘rsatkichlardan biridir. Qon bosimi me’yoriy darajada bo‘lishi barcha organ va to‘qimalarning kislorod va ozuqa moddalar bilan ta’minlanishini kafolatlaydi hamda yurak-qon tomir tizimining samarali ishlashini ta’minlaydi. Qon bosimini boshqarish murakkab fiziologik jarayon bo‘lib, unda markaziy va periferik nerv tizimi, endokrin tizim, buyraklar hamda tomir devorining o‘ziga xos funksional xususiyatlari ishtirok etadi. Shu jarayonda tomir devoridagi silliq mushak hujayralari eng muhim bo‘g‘in sifatida faoliyat ko‘rsatadi, chunki ularning qisqarishi yoki bo‘shashishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri periferik qarshilikni belgilaydi va arterial bosim darajasini o‘zgartiradi.

Silliq mushak hujayralarining faoliyati elektr signallarga juda sezgir bo‘lib, ularning membrana potensiali ion kanallari orqali tartibga solinadi. Ca^{2+}, K^{+}, Na^{+} va Cl^{-} ionlarining membrana bo‘ylab harakati tomirlarning torayishi yoki kengayishini aniqlaydi. Masalan, Ca^{2+} kanallarining ochilishi mushak qisqarishini faollashtirib, tomirlarni toraytiradi va arterial bosimni oshiradi, aksincha, K^{+} kanallari ochilganda mushak bo‘shashadi, tomirlar kengayadi va bosim pasayadi. Natriy va xlor kanallari yurak urishi va nerv impulslarini boshqarib, qon bosimiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi, TRP kanallari esa sovuq, issiq, mexanik yoki kimyoviy omillarga javoban tomir tonusini reflektor tarzda o‘zgartiradi.

Ion kanallarining normal faoliyati tomir devorining moslashuvchanligini saqlab, organizmni turli holatlarga — jismoniy faollik, stress, tana haroratining o‘zgarishi va qon hajmining tebranishlariga — tezkor javob berishga imkon beradi. Aksincha, ion oqimlarining muvozanati buzilganda, xususan Ca^{2+} va Na^{+} kirishining ortishi, K^{+} chiqishining kamayishi yoki endotel tomonidan ishlab chiqariladigan nitrat oksid (NO) yetishmovchiligi fonida tomirlar haddan tashqari torayib qoladi. Bu esa arterial gipertenziya, tomir qattiqligi, yurak yetishmovchiligi, miokard infarkti va insult kabi og‘ir oqibatlarga zamin yaratadi.

Shu sababli ion kanallarining qon bosimini tartibga solishdagi o‘rni zamonaviy kardiologiya, fiziologiya va farmakologiyada alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Ularning molekulyar mexanizmlarini chuqur o‘rganish nafaqat gipertenziya patogenezini aniqlashga, balki yangi dorilar yaratish, profilaktika choralarini takomillashtirish va yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faollik va stressni boshqarish kabi omillar ion kanallarining normativ faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, arterial bosimni uzoq muddat me’yoriy darajada ushlab turishga yordam beradi.

Tomir devoridagi silliq mushak hujayralarining elektr faolligi va qon bosimini tartibga solishda kalsiy (Ca^{2+}) kanallari markaziy rol o‘ynaydi. Bu kanallar ochilganda Ca^{2+} ionlari hujayraga kirib, aktin va miozin filamentlari o‘rtasidagi bog‘lanishni faollashtiradi. Natijada mushak tolalari qisqaradi, tomirlar torayadi va periferik qarshilik oshadi, bu esa arterial bosimning ko‘tarilishiga olib keladi. Shu tarzda, kalsiy kanallari organizmning gemodinamik barqarorligini saqlashda muhim mexanizm hisoblanadi.

Kalsiy kanallarining faolligi faqat tomirlarning qisqarishi bilan cheklanmaydi; u endokrin va nerv tizimi orqali qon bosimini uzoq muddat nazorat qilishga ham ta’sir qiladi. Masalan, angiotenzin II, vazopressin va adrenalinning ayrim shakllari Ca^{2+} kanallarini sezilarli darajada faollashtiradi.

Bu esa tomirlarning surunkali torayishiga, periferik qarshilikning oshishiga va surunkali gipertenziya rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, Ca^{2+} kirishi cheklanganda mushaklar bo‘shashadi, tomirlar kengayadi va arterial bosim me’yorlashadi.

Shu sababli, kalsiy kanal blokatorlari gipertenziya davolashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bu dorilar mushak qisqarishini kamaytirib, tomirlarning bo‘shashishini ta’minlaydi va arterial bosimni me’yoriy darajada ushlab turadi. Bundan tashqari, Ca^{2+} kanallarining normativ faoliyati yurak yuklamasini kamaytirish, qon oqimini yaxshilash va miokardning kislorod bilan ta’minlanishini optimallashtirishda muhimdir.

Ion kanallarining bu mexanizmlari organizmni turli tashqi va ichki omillarga — jismoniy faollik, stress, sovuq yoki issiq ta’siri — tezkor moslashish imkonini beradi. Shu bois, kalsiy kanallarining faoliyatini chuqur o‘rganish nafaqat gipertenziya patogenezini

tushunishga, balki uni oldini olish va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Tomir devoridagi silliq mushak hujayralarining bo‘shashishi va qon bosimini pasaytirishda kaliy (K^+) kanallari markaziy rol o‘ynaydi. Ular ochilganda K^+ ionlari hujayradan tashqariga chiqadi, membrana giperrpolarizatsiyalanadi va Ca^{2+} kanallarining faolligi kamayadi. Natijada mushak tolalari bo‘shashadi, tomirlar kengayadi va arterial bosim pasayadi. Shu mexanizm orqali K^+ kanallari organizmning periferik qarshilikni tezkor va samarali boshqarishida muhim

ahamiyatga ega.

Baroretseptorlar arterial bosim oshganda reflektor tarzda K^+ kanallarini faollashtiradi. Bu fiziologik javob qon bosimini me’yoriy darajaga qaytaradi va gipertenziya rivojlanishining oldini oladi. Shu bilan birga, endotel hujayralaridan ajraladigan nitrat oksid (NO) K^+ kanallarini ochib, tomirlarning tabiiy kengayishiga yordam beradi. NO ishlab chiqarilishi muntazam jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzida yanada kuchayadi, bu esa qon bosimini uzoq muddat barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Kaliy kanallari faolligi nafaqat arterial bosimni normallashtirish, balki tomir devorining moslashuvchanligini saqlash, periferik qon oqimini yaxshilash va yurak yuklamasini kamaytirishda ham muhimdir. Shu bois, farmakologik davo, jumladan K^+ kanal faollashtiruvchilari, gipertenziyani samarali nazorat qilishda keng qo‘llaniladi.

Ion kanallarining bu murakkab mexanizmlari organizmni turli ichki va tashqi omillarga — stress, tana harorati o‘zgarishi, jismoniy faollik — moslashishga imkon beradi. K^+ kanallari faoliyatining buzilishi esa mushaklarning surunkali torayishiga, tomir qarshiligining oshishiga va gipertenziya rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli, sog‘lom turmush tarzi, muntazam jismoniy faollik va endotel NO ishlab chiqarilishini rag‘batlantiruvchi choralar K^+ kanallarining tabiiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega.

Qon bosimini tartibga solishda ion kanallari markaziy rol o‘ynaydi. Kalsiy, kaliy, natriy va xlor kanallari hamda TRP kanallari tomir silliq mushaklarining faolligini boshqarib, arterial bosimni me’yorlashga yordam beradi. Ion kanallarining muvozanati buzilganda surunkali gipertenziya, yurak yetishmovchiligi va insult kabi yurak-qon tomir kasalliklari xavfi ortadi. Shu sababli qon bosimini nazorat qilishda ion kanallarini nishonga oluvchi dori vositalari bilan birga sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tuz iste’molini cheklash, muntazam jismoniy faollik va stressni boshqarish muhim profilaktik choralar hisoblanadi. Ion kanallari faoliyatining barqarorligini saqlash nafaqat kasalliklarning oldini oladi, balki yurak-qon tomir tizimining umumiy salomatligini ta’minlaydi.

Natriy (Na^+) va xlor (Cl^-) kanallari yurak va nerv tizimi orqali qon bosimiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Na^+ kanallari ochilganda nerv impulslari tezligi ortadi, yurak urishi

kuchayadi va tomir mushaklarining tonusi oshadi. Shu bilan birga Ca^{2+} kanallari ikkilamchi tarzda faollashib, periferik vazokonstriksiyani kuchaytiradi. Xlor kanallari esa membrana depolyarizatsiyasini qo‘llab-quvvatlab, mushak tonusini oshirish orqali arterial bosimning pasayishiga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Shu tarzda, Na^+ va Cl^- kanallari qon bosimini nerv va yurak tizimi orqali murakkab, lekin aniq tarzda boshqaradi.

TRP (transient receptor potential) kanallari tashqi muhit omillariga sezuvchan bo‘lib, sovuq, issiq, mexanik yoki kimyoviy ta’sirlarga javoban tomir tonusini reflektor tarzda o‘zgartiradi. Masalan, sovuq ta’sirida TRP kanallari faollashib, tomirlarni toraytiradi va qon bosimini oshiruvchi fiziologik mexanizmni ishga tushiradi. Shu tarzda TRP kanallari organizmning adaptiv javob mexanizmini ta’minlab, harorat o‘zgarishi, jismoniy faollik yoki boshqa tashqi omillarga tez moslashish imkonini yaratadi.

Ion kanallaridagi muvozanatsizlik esa arterial gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi. Ca^{2+} kirishining ortishi, K^+ chiqishining kamayishi va endotel NO ishlab chiqarilishining yetishmasligi silliq mushaklarning surunkali torayishiga olib keladi, periferik qarshilik oshadi va arterial bosim doimiy yuqori darajada saqlanadi. Zamonaviy turmush tarzi — ortiqcha tuz iste’moli, fast-food mahsulotlarining ko‘pligi, stress, jismoniy faollikning yetarli emasligi va semizlik — ion kanallaridagi patologik o‘zgarishlarni kuchaytirib, gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, ion kanallarining muvozanatli faoliyati organizmni turli ichki va tashqi omillarga moslashishga imkon beradi. Baroretseptorlar, endotel NO, K^+ kanallari va TRP kanallari birgalikda qon bosimini fiziologik darajada saqlashga xizmat qiladi. Ularning faoliyatini farmakologik vositalar bilan qo‘llab-quvvatlash va profilaktik choralarni birlashtirish arterial gipertenziyani nazorat qilishda eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Qon bosimini tartibga solishda ion kanallarining roli markaziy ahamiyatga ega. Tomir devoridagi silliq mushak hujayralarining Ca^{2+}, K^+, Na^+ va Cl^- kanallari orqali membrana potensialining tartibga solinishi tomirlarning torayishi yoki kengayishini belgilaydi, natijada arterial bosim darajasi o‘zgaradi. Ca^{2+} kanallari faollashganda tomirlar torayib, bosim oshadi, K^+ kanallari esa mushak bo‘shashishini kuchaytirib, tomirlarni kengaytiradi va bosimni pasaytiradi. Natriy va xlor kanallari, shuningdek, TRP kanallari yurak va nerv tizimi orqali qon bosimini bilvosita nazorat qiladi hamda tashqi muhit omillariga javoban tomir tonusini o‘zgartiradi.

Ion kanallarining muvozanati buzilganda arterial gipertenziya, tomir qattiqligi, yurak yetishmovchiligi va boshqa yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi oshadi. Shu sababli, qon bosimini nazorat qilishda faqat farmakologik yondashuv emas, balki sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faollik, stressni boshqarish, tuz iste’molini kamaytirish va endotel NO ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, ion kanallarining normativ faoliyatini saqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash orqali organizm periferik qarshilik va yurak yuklamasini samarali boshqaradi, arterial bosimni uzoq muddat me’yoriy darajada ushlab turadi va yurak-qon tomir tizimining sog‘lom ishlashiga xizmat qiladi. Shu tarzda, ion kanallariga qaratilgan profilaktika va davolash choralarini birlashtirish gipertenziya va yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda asosiy strategiya hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Hall, J. E., & Guyton, A. C. Textbook of Medical Physiology. 14th ed. Philadelphia: Elsevier, 2021.

2) Boron, W. F., & Boulpaep, E. L. Medical Physiology. 3rd ed. Philadelphia: Elsevier, 2017.

3) Hille, B. Ion Channels of Excitable Membranes. 3rd ed. Sunderland: Sinauer Associates, 2001.

4) Nelson, D. L., Cox, M. M. Lehninger Principles of Biochemistry. 8th ed. New York: W. H. Freeman, 2021.

5) Touyz, R. M., & Schiffrin, E. L. “Calcium Regulation and Vascular Smooth Muscle Function in Hypertension.” American Journal of Physiology, vol. 285, 2003, pp. H1323–H1333.

6) Jackson, W. F. “Potassium Channels in Regulation of Vascular Smooth Muscle Contraction and Blood Flow.” Physiological Reviews, vol. 100, no. 1, 2020, pp. 21–60.

GEMODINAMIKA: ORGANIZMDA QON HARAKATINING FIZIOLOGIK ASOSLARI

Ikromova Nodira
Farg‘ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchi
Shermetova Dilnura Xamidjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqola gemodinamikaning fiziologik asoslarini keng va batafsil tarzda yoritadi. Matnda qon oqimining fizik va biologik qonuniyatlari, yurakning nasoslik xossalari, tomirlar tizimi va uning qarshiligi, arterial va venoz bosimning hosil bo‘lishi, periferik va mikrosirkulyatsiyaning mexanizmlari, qonning reologik xususiyatlari hamda ularni boshqaruvchi neyro-gumoral tizimlar batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, gemodinamikaning klinik ahamiyati, patologik holatlar (gipertenziya, yurak yetishmovchiligi, shok), diagnostika va monitoring usullari hamda muolaja printsiplari bayon etilgan. Ushbu maqola tibbiyot talabalari va klinik amaliyot vakillari uchun gemodinamikaning asosiy va amaliy jihatlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *gemodinamika, yurak sikli, minutlik hajm, preload, afterload, kontraktilik, periferik qarshilik, arterial bosim, venoz qaytish, mikrosirkulyatsiya, reologiya, barorefleks, RAAS, shok.*

Asosiy qism: Gemodinamika qonning organizm bo‘ylab harakatlanishini, uning fizik omillari va biologik boshqaruv mexanizmlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, asosiy komponentlari sifatida yurak (nasos), qon (suyuqlik) va tomirlar (truba va rezistiv elementlar) ko‘riladi. Qon oqimi bosim gradientiga asoslanadi: yuqori bosimdan past bosimga. Yurak tomonidan ishlab chiqarilgan impuls (sistolik bosim) va tomir devorlarining elastik xossalari arterial bosimni belgilaydi, periferik qarshilik esa organ va to‘qimalarga yetkaziladigan qon hajmini boshqaradi. Qon aylanishining dinamik tenglamalari oddiy g‘oyalar asosida tushuniladi: oqim (Q) = bosim farqi (ΔP) / qarshilik (R). Bu o‘zaro bog‘liq o‘zgarishlarni o‘lchash va talqin qilish uchun qo‘llaniluvchi asosiy munosabatdir.

Yurak sikli va yurakning nasoslik xossalari yurak bo‘limlarining sinxron faoliyati natijasida vujudga keladi. Sistolada qarama-qarshi bo‘shashgan kameralardan qon chiqariladi; diastolada esa yurak bo‘shashib, to‘ldiriladi. Yurakning minutlik hajmi — minutlik qon hajmi (cardiac output) — yurak urish soni bilan bir urishdagi ejektsiya hajmining ko‘paytmasi sifatida ifodalanadi va metabolik talab, nerv tizimi aktivligi va gormonal holatdan kelib chiqib tez o‘zgaradi. Preload (yurakka kiruvchi qonning boshlang‘ich cho‘zilishi) va afterload (yurakdan qarshi ishni amalga oshirish kerak bo‘lgan

periferik bosim/qarshilik) kontseptsiyalari yurakning chiqarish qobiliyatini tushunishda markaziy ahamiyatga ega. Frank-Starling qonuniga ko‘ra, to‘qimalardan qaytgan qon voqea natijasida miyokardial tolalar cho‘zilganda ularning kontractil yordami oshadi, lekin haddan tashqari cho‘zilish kontraktsion samarani pasaytiradi.

Tomir tizimi strukturasiyu vazifalari nuqtai nazaridan arterial segment qonni yuqori bosimda yurgizib, periferiyaga tarqatish vazifasini bajaradi, arteriolalar esa tomir qarshiligining asosiy manbai hisoblanadi. Arteriolalarning tonusi endoteliyal signallar, simpatik innervasiya va lokal metabolik omillar orqali dinamik tarzda o‘zgaradi. Kapillyarlar modda almashinuvining joyi bo‘lib, u yerda qon oqimi sekinlashadi, bu sharoit gazlar, moddalar va suv almashinuviga imkon beradi. Venoz segment esa katta hajmdagi qon rezervuar vazifasini bajaradi; venoz klapanlar, skelet mushak nasosi va intratorakal bosim o‘zgarishlari venoz qaytishni ta’minlaydi.

Qonning reologiyasi gemodinamika uchun muhim omil hisoblanadi. Qonning yopishqoqligi (viskozitesi) va eritrotsitlarning deformabilligi oqim qarshiligini belgilaydi, leykotsitlar va trombotsitlar agregatsiyasi kapillyar darajasida perfuziyani buzishi mumkin. Gemodinamika nuqtayi nazaridan hematokritning ortishi viskozitetni oshirib, periferik qarshilik va yurak yukini kuchaytiradi, shu bilan birga kislorod tashilish qobiliyatiga ham ta’sir qiladi.

Mikrosirkulyatsiya va autoregulyatsiya mexanizmlari to‘qima perfuziyasining lokal darajasini aniqlaydi. To‘qimaviy autoregulyatsiya qon oqimini qon bosimi o‘zgarishlariga nisbatan nisbatan barqaror saqlashga xizmat qiladi. Bu mexanizm miyokard, bosh miya va buyrak kabi organlarda ayniqsa kuchli. Lokal metabolik faktorlar (kislorod darajasi, karbonat angidrid, pH, adenozin, ionlar), endoteliyning sintezi va azot oksid (NO) kabi gazli transmitterning mahalliy ta’siri arteriol tonusni moslashtiradi va shu orqali perfuziyani tashkil qiladi. Precapillar sfinkterlarning ochilishi va yopilishi kapillyar perfuziyasini tezda o‘zgartiradi.

Nerv va gumoral boshqaruv gemodinamikani qattiq nazorat qiladi. Baroreseptorlar, ayniqsa karotid sinus va aortik arkada joylashganlar, arterial bosimning doimiy monitoringi orqali medulladagi vazomotor va kardiyak markazlarga signallar yuboradi. Barorefleks aktivatsiyasi yurak urishi va tomir tonusini o‘zgartirib, qon bosimini qayta tiklashga xizmat qiladi. Simpatik nerv tizimining faollashishi yurak kontraktiligini, yurak urish tezligini va tomirlarning konstriksiyasini oshiradi, parasimpatik ta’sir esa aksincha bo‘lib, yurak urishini sekinlashtiradi. Gumoral mexanizmlar orasida renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS) suyuqlik va tomir tonusini oshirib, arterial bosimni ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi, katexolaminlar esa tezkor adaptiv javobni ta’minlaydi. Atriyal natriuretik peptid (ANP) va boshqa vazodilatator mediatorlar suyuqlik balansini va bosimni pasaytirishga xizmat qiladi.

Gemodinamikaning klinik buzilishlari keng spektrda bo‘lib, ularning mexanizmlarini tushunish davolash va monitoringni samarali olib borish uchun zarur. Gipertenziya uzoq muddatli periferik qarshilikning oshishi natijasida arterial devorlarning strukturasiyu funksional o‘zgarishlariga olib keladi, bu esa yurak ishini kuchaytiradi va oxir-oqibat yurak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Yurak yetishmovchiligi esa o‘z navbatida periferik perfuziyani pasaytiradi, venoz bosimni oshiradi va to‘qima hipoperfuziyasini yuzaga keltiradi. Shok holatlari (hipovolemik, kardiogen, distributiv va obstruktiv) gemodinamik o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi va har biri uchun o‘ziga xos diagnostika va terapiya yondashuvlari talab etiladi: hajm o‘zgartirish, vasopressorlar, inotrop terapiya va mexanik qo‘llab-quvvatlash.

Gemodinamikaning baholash usullari invaziv va noinvaziv bo‘lishi mumkin. Noinvaziv monitoringga arterial bosimni sphygmomanometr yordamida o‘lchash, stetoskopiya, EKG, echokardiografiya, doppler-ultratovush orqali oqim tezligini baholash kiradi. Invaziv usullar markaziy venoz bosim (CVP), arterial qon bosimi monitoringi, pulmonar arter kateterizatsiyasi (Swan-Ganz) orqali yurak chiqishini va to‘liq dinamik parametrlarni o‘lchash imkonini beradi. Zamonaviy intensiv terapiya amaliyotida hemodinamik monitoring uchun minimal invaziv va yon ta’siri kam usullar — transtorakal va transyo‘lak echokardiografiya, pulse contour analitikasi, esophageal doppler — keng qo‘llanilmoqda.

Davolash prinsiplarida gemodinamikaning mexanizmlarini hisobga olish zarur. Gipertenziya terapiyasi tomir resistivligini kamaytiruvchi dori-darmonlar (ACE inhibitorlar, ARBlar, kalsiy blokerlar, beta-blokerlar) va hayot tarzi o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi. Yurak yetishmovchiligida diuretiklar, inotropik agentlar, vasodilatatorlar va ko‘pincha mexanik yordam usullari qo‘llaniladi. Shok holatlarida esa tezkor likvidatsiya, kislorod ta’minoti, perfuziya tiklanishi va, zarurat bo‘lsa, vasopressor va inotop qo‘llash talab etiladi.

O‘rganish va ilmiy tadqiqotlar jarayonida gemodinamika modeli va kompyuter simulyatsiyalari gemodinamikaning murakkab o‘zaro bog‘liqliklarini tahlil qilish va klinik natijalarni bashorat qilish uchun samarali instrumentlardir. Eksperimental fiziologiya va molekulyar biologiya metodlari orqali endotel xossalari, signallash yo‘llari va qonning reologik holatini o‘zgartiruvchi omillar batafsil o‘rganilmoqda va bu yangi terapiya yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi

Xulosa sifatida, gemodinamika organizm homeostazini saqlashda markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, yurak, qon va tomirlar o‘rtasida murakkab va dinamik o‘zaro ta’sirlar mavjud. Ularning fiziologik printsiplarini chuqur tushunish klinik diagnostika, terapiya va monitoringni aniq belgilashga yordam beradi hamda yangi davolash strategiyalarini ishlab chiqishni rag‘batlantiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Guyton AC, Hall JE. Textbook of Medical Physiology.
2.Boulpaep EL. Medical Physiology. Elsevier;
3.West JB. Respiratory Physiology: The Essentials.
4.Lang T, et al. Hemodynamic monitoring and cardiovascular system physiology.

CHET TILLARINI O'RGANISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV ASOSIDAGI "HISSIY TAYANCH" MOTIVATSION METODINI ISHLAB CHIQISH

(DEVELOPMENT OF THE "EMOTIONAL ANCHOR" MOTIVATIONAL METHOD BASED ON A PSYCHOLOGICAL APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING)

Safarova Munira Jamshid qizi
O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Filologiya va chet tillarini o'qitish Ingliz tilili 3 fakulteti 2521-guruh talabasi
Agzamxodjayeva Saodatxon Abrarovna
Ilmiy rahbar: Amaliy fanlar 3 kafedra katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Hissiy tayanch" metodining asosiy printsiplari va psixologik yondashuvga asoslangan qo'llanilishi taqdim etiladi.Maqsad: Til o'rganuvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish,dars jarayonida diqqatni jamlash va psixologik qulaylikni ta'minlovchi o'qitish metodini ishlab chiqish,uni tatbiq etish va ijobiy natija olish.*

Kalit so'zlar: *til o'rganish,interaktiv,motivatsion,psixologik,til bilish,yangi metod, hissiy tayanch*

Abstract: *This article presents the main principles and application of the "Emotional Anchor" method, developed by the author, based on a psychological approach. The aim of the study is to enhance learners' motivation in foreign language acquisition, improve concentration during lessons, and ensure psychological comfort. The method is designed to be implemented in the teaching process and to achieve positive outcomes in language learning.*

Keyword: *language learning, interactive, motivational, psychological, language aquisition, new method, emotional anchor*

Аннотация: *В статье представлены основные принципы и практическое применение метода «Эмоциональный якорь», разработанного автором на основе психологического подхода. Цель исследования — повысить мотивацию изучающих иностранный язык, улучшить концентрацию внимания на занятиях и обеспечить психологический комфорт. Метод предназначен для внедрения в образовательный процесс и направлен на достижение положительных результатов в освоении иностранного языка.*

Ключевые слова: *изучение языка, интерактивность, мотивация, психология, овладение языком, инновационный метод, эмоциональный якорь*

Chet tillarini o'rganishda motivatsiyani oshirish muhim masala hisoblanadi.Ayniqsa, til o'rganuvchilarda dars jarayonida ichki motivatsiyani kuchaytirish hamda o'z fikr va qarorlarini mustaqil tahlil qila olish qobiliyatini shakllantiruvchi psixologik yondashuv asosidagi metodni ishlab chiqildi.

Aynan mana shu mavzuda Sharifjon To'lqin o'g'li Abdurahmonov "Chet tilini o'qitish metodikasi muammo emas, balki nutq va grammatik-sintaktik tajribani o'zlashtirishning psixologik mexanizmlaridanto'g'ri foydalanish, tilshunoslikni adekvat o'zlashtirish va izohlash muammosidir" - deydi. Bundan tashqari, tillarni o'rganish jarayonidagi muammolar bo'yicha juda ko'p olimlar psixologik tadqiqotlar olib borganlar jumladan K.D.Ushinskiy, L.S.Vygotskiy , A.P.Nechaev, K.N Komilov, N.D.Uznadze kabilar ilmiy ishlar olib borganlar.

Ko'plab o'quvchi - talablar chet tillarini o'rganishda darsda faol qatnashmaydi, yangi so'zlarni o'zlashtirish va grammatik qoidalarni amalda qo'llashda sustkashlik qiladi.

Ushbu metodda til o'rganuvchilarga va talabalarga dars jarayonida o'zlariga ijobiy hissiyot beruvchi shaxsiy buyumdan foydalanish imkoniyati beriladi.Bu buyum (masalan, bilakuzuk, qalam, qog'oz , gul va hokazo) o'quvchining darsdagi psixologik holatini yaxshilaydi, xavotirni kamaytiradi va e'tiborni oshiradi.

Dars davomida ular o'zlarini ishonchli his qilishadi va bu diqqatni yaxshilaydi. Bu eksperimet talaba-o'quvchilardan uyda ham qo'llab ko'rishi so'raladi.Va tajriba davomida talabalardan ushbu tajriba haqidagi yozma va og'zaki fikrlari olinadi.Samarali natija qayd etilsa, metod dars jarayonining bir qismi sifatida joriy qilinadi.

Kutilayotgan natijalar:

- Metod 60 - 70 % ijobiy natija berishi
- Talablarga ham manzur kelishi

Eslatma:

- Sinov muddati 1 hafta yoki 10 kun davom etishi kerak
- Talabalar "Hissiy tayanch" (Emotional anchor) metodi davomida bir-birini hurmat qilishi va jamoa ichida ishonch hissini ta'minash uhun ustoz nazoratida bo'lishadi.

O'quvchilarning chet tillarini o'rganish jarayonidagi passivligi va motivatsiya yetishmasligi dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Hissiy tayanch" metodining psixologik yondashuvga asoslangan qo'llanilishi taqdim etildi.

Metod o'quvchilarga dars jarayonida ijobiy hissiy tajriba beruvchi shaxsiy buyumlardan foydalanish imkonini yaratadi, bu esa xavotirni kamaytiradi, diqqatni oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi.

Tajribaviy qo‘llash natijasida metod 60–70% ijobiy natija berishi kutilmoqda va dars jarayonida samarali qo‘llanilishi, shuningdek, o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini interaktiv va motivatsiyani oshiruvchi qilish imkonini beradi. Shu bilan, “Hissiy tayanch” metodi chet tillarini o‘qitishda psixologik yondashuvni amaliy qo‘llashga va dars sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Ushinskiy.K.D (1986). O’qitish psixologiyasi. Moskva:Pedagogika.
2. Abdurahmonov, SH.T.(2022). Chet tillarni o’qitish psixologiyasi zamonaviy yondashuvlar va ko’rsatmalar. Central Asian Academic Journal Of Scientific Research.
3. Abduakimova, S.A. (2022, february.. Chet tillarini o’qitishda innovatsion yondashuv. International scientific - practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foriegn languages”/
4. ENHANCED EQUAL ACCESS TO AND COMPLETION OF HIGHER EDUCATION FOR STUDENTS IN NEED OF ADDITIONAL SUPPORT IN EDUCATION: THE LEARNING TOGETHER APPROACH, S.Agzamkhodjaeva., (2025-06-21, Vol. 5 No. 6 (2025): Multidisciplinary Journal of Science and Technology)
5. 1. S.Agzamkhodjaeva, (2025). Conceptual Diversities and Empirical Shortcomings: A Critical Analysis of Research on Inclusive Education. Innovative and technical: Conference on Scientific Innovations and Research
6. 2. S.Agzamxodjaeva, (2025). THE IMPACT OF TEACHER TRAINING IN SPECIAL EDUCATION ON THE IMPLEMENTATION OF INCLUSION IN MAINSTREAM CLASSROOMS. International scientific and practical online conference (June 4-5, 2025)

THE RISE OF INNOVATION: HOW STARTUPS ARE TRANSFORMING UZBEKISTAN'S BUSINESS LANDSCAPE

Fakhriddin Po'latov
Senior Student at Samarkand State University Academic Lyceum

Annotation: *This article examines how Uzbekistan's emerging startups and youth-driven innovation are reshaping the nation's business landscape, outlining the economic, technological, and global significance of this transformation.*

Annotation: *Ushbu maqola O'zbekistonning rivojlanib borayotgan startaplari va yoshlar boshchiligidagi innovatsiyalar mamlakatning biznes landshaftini qanday o'zgartirayotgani hamda bu jarayonning iqtisodiy, texnologik va global ahamiyatini tahlil qiladi.*

A New Digital Chapter in Uzbekistan's Economic Evolution

Over the past decade, Uzbekistan has entered a decisive phase of modernization driven not only by state-led economic reforms, but also by a new generation of ambitious entrepreneurs. These young founders approach innovation as both a necessity and an opportunity — redesigning inefficient processes, digitizing traditional sectors, and challenging long-standing market structures with bold, technology-driven solutions.

What was once perceived primarily as an agrarian economy built around cotton, agriculture, and conventional trade has rapidly evolved into a dynamic environment for digital entrepreneurship. A powerful combination of demographic youthfulness, sweeping reforms, and expanding technological infrastructure has laid the foundation for a national innovation surge.

This transformation is visible in sectors that were historically slow to modernize: fintech, e-commerce, logistics, edtech, agritech, and AI-enabled services. These industries are not simply growing — they are redefining how Uzbek society interacts with finance, education, transportation, and commerce.

Digital Access: Closing the Technological Gap

Uzbekistan's digital revolution is firmly supported by the expansion of connectivity.

93% of households now have internet access (2024)

Mobile penetration has surpassed 80% [1]

Just a decade ago, such numbers were unimaginable. Today, smartphones, fast internet, and rising digital literacy have unlocked entire sectors of online services. Markets traditionally dominated by cash transactions and informal networks are increasingly shifting into digital ecosystems.

This widening digital access is not merely technological progress — it is reshaping consumer behavior, accelerating economic participation, and creating opportunities for thousands of new entrepreneurs.

IT Park Uzbekistan: The Engine of Modern Innovation

At the heart of this transformation lies IT Park Uzbekistan — the country's most influential digital development hub.In 2019, it hosted only a few resident companies.

Today, it has over 2,800 firms, including hundreds of foreign-owned companies. [2]

IT Park's success is driven by a powerful incentives package:corporate tax exemptions,customs privileges,simplified export procedures. [3]

Beyond fiscal benefits, IT Park has built a full ecosystem: incubators, co-working spaces, training programs, startup accelerators, and venture fund networks. For young founders, this means the opportunity to develop ideas locally — with the ambition and infrastructure to scale globally.

From Local Challenges to Global-Ready Solutions

A defining strength of Uzbek startups is their approach: they solve real, local problems — but design their solutions for global scalability.

Fintech

Digital payment platforms streamline transactions, support small businesses, and reduce reliance on inefficient banking systems.

Logistics & E-commerce

Tech-driven delivery platforms transform supply chains across Uzbekistan's vast geography, enabling faster, more reliable distribution.

Edtech

Online learning platforms expand educational access, especially in rural regions, filling long-standing gaps in tutoring, test preparation, and digital literacy.

Agritech

Apps modernize agriculture by connecting farmers to markets, optimizing supply chains, andanalyzing crop predictions.

These innovations are grounded in Uzbekistan's realities — but applicable to other emerging markets across Central Asia, South Asia, and beyond.

Funding, Global Recognition & the Rise of National Champions

For years, startup growth was hindered by limited access to capital. That barrier is now shifting dramatically.

Startup investment surged from under US$1 million to nearly US$70 million in 2024–2025. [4]

Uzbekistan entered the Global Startup Ecosystem Index (2025) global Top 100 for the first time. [5]

One of the most symbolic milestones is the emergence of Uzbekistan's first unicorn, Uzum, valued at over US$1 billion. [6]

This milestone demonstrates that large-scale, high-value companies can emerge from Uzbekistan — and paves the way for new founders to aim higher.

Growing interest from foreign investors, regional venture funds, and international accelerators signals that Uzbekistan is becoming a strategic innovation hub in Central Asia.

Youth, Mindset, and the Cultural Shift Toward Innovation

Perhaps the most transformative element is the mindset shift among Uzbekistan's youth.

With access to global knowledge networks, online education, coding bootcamps, and entrepreneurial communities, young innovators are adopting problem-solving practices aligned with global startup standards. Support from private incubators and state-led programs strengthens this foundation, helping ambitious entrepreneurs turn ideas into scalable ventures.

This cultural shift is quietly but steadily reshaping the entire business landscape.

Uzbekistan's Emerging Global Innovation Identity

Uzbekistan's startup boom is more than a technological renewal — it represents a foundational shift toward a knowledge-driven, globally connected economy.

Young entrepreneurs are introducing efficiency, digital adaptability, and creative disruption into industries that once depended on outdated systems. State-backed infrastructure, rising digital access, and international recognition collectively signal that Uzbekistan is not just catching up with global innovation trends — it is preparing to contribute to them.

As the ecosystem matures, the coming decade will likely be defined by how boldly Uzbek founders scale beyond national borders. With momentum on its side, Uzbekistan is steadily positioning itself as an emerging innovation hub — not only within Central Asia, but within the global technology landscape.

REFERENCES:

1.Source: Uz.Daily.uz

2. Sources: it-park.uz, UZA.uz

3. Source: Invest Uzbekistan

4. Source: UzDaily.uz

5. Source: it-park.uz

6. Sources: Invest Uzbekistan, invest.miit.uz

TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Jo‘rayeva Go‘zal
“TIQXMMI” MTU “Tillar” kafedrasi dotsenti, filologiya bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Talabalarning nutq faoliyati va nutq madaniyati darajasini oshirish uchun kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, raqamli ta’lim resurslari, tanqidiy fikrlash texnologiyalari va mustaqil ta’lim faoliyatlarining samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda pedagogning roli, muloqot madaniyati, so‘z boyligini oshirish, ilmiy va kundalik nutqning me’yorlariga amal qilish, media ta’lim vositalaridan foydalanish kabi omillarni tizimlashtirish orqali nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi ta’minlanishi ilmiy dalillar bilan asoslangan. Maqolada an'anaviy nutq madaniyati bilan zamonaviy kommunikativ kompetensiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik namoyon qilingan.*

Kalit so‘zlar : *nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metod, tanqidiy fikrlash, media-ta’lim, leksik boylik, mustaqil ta'lim.*

Annotation: *This article analyzes the development of speech culture among university students in the context of modern higher education. It explores the effectiveness of communicative approaches, interactive teaching methods, digital educational resources, critical thinking technologies and independent learning activities in improving students’ speech culture. The role of the teacher, the etiquette of communication, vocabulary enrichment, adherence to norms of scientific and everyday speech, and the use of media tools are systematized and scientifically substantiated. The relationship between traditional speech culture and modern communicative competence is revealed.*

Keywords: *speech culture, communication, interactive method, critical thinking, media education.*

Аннотация: *В статье рассмотрены актуальные вопросы развития культуры речи студентов в системе современного высшего образования. Анализируется эффективность коммуникативного подхода, интерактивных методов обучения, цифровых ресурсов, технологий критического мышления и самостоятельных образовательных действий. Определяется роль преподавателя, коммуникативной этики, расширения словарного запаса и использования медиаресурсов. Показана взаимосвязь традиционной речевой культуры и современной коммуникативной компетентности.*

Ключевые слова: *культура речи, коммуникация, критическое мышление, медиатехнологии.*

Zamonaviy ta’limning asosiy talabi talabaning bilim olishi bilan cheklanmasdan, o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq, mantiqiy va madaniyatli tarzda ifoda eta olishidir. Shu jihatdan nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi nafaqat filologiya yo‘nalishi, balki barcha ixtisosliklarda ta’lim olayotgan talabalarning umumiy pedagogik kompetensiyasi darajasida turadi.

Talabaning nutq madaniyati uning shaxsiy madaniyatini, dunyoqarashini, muloqot odobini, ijtimoiy moslashuvini va professional faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Nutq madaniyati o‘z mohiyatiga ko‘ra, til vositalaridan maqsadga muvofiq, izchil, mantiqan to‘g‘ri, estetik jihatdan mos, diaxronik va sinxronik me’yorlarga amal qilgan holda foydalanishni anglatadi.

Talaba nutqining sifatini belgilovchi mezonlar ko‘p: leksik boylikning kengligi, grammatik me’yorlarga amal qilish, sintaktik qurilmalar bilan ishlash mahorati, fonetik me’yorlar, talaffuz, intonatsiya, muloqot etiketi, nutqning mantiqiy tuzilishi, uslubiy to‘g‘rilik, emotsionallik va kommunikativ vaziyatlarga moslashuv. Nutq madaniyati psixologik jarayonlar tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u oldindan rejalash, fikrni tanlash, so‘zlarni tartiblash, konseptual xaritani qurish, o‘z fikrini tinglovchiga yetkazish va javob reaksiyasini kuzatish kabi ko‘p pog'onali kognitiv mexanizmlardan iborat.

Bugungi talaba axborot oqimi ichida yashaydi. Lekin axborotni o‘qish yoki eshitish bilan nutq madaniyati shakllanmaydi. Buning uchun faol ifoda, tahlil, qayta ishlash, baholash, muloqotga kirishish va mustaqil mulohaza qilish zarur.

Talabalarda kuzatiladigan nutq muammolari asosan passiv bilish va passiv o‘qish bilan bog‘liq. Ko‘p talabalar o‘z fikrini aniq shakllantirish, dalillarni asoslash, munozarada qatnashish, savol berish yoki savolga javob qaytarish, ilmiy bayon qilishda qiynaladilar. Leksik boylikning yetishmasligi, noto‘g‘ri talaffuz, grammatik xatolar, nutqning ortiqcha uzun yoki chalkash bo‘lishi, nutq odobiga rioya qilmaslik, mantiqiy izchillikning buzilishi — bular nutq madaniyatining yetarli shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Talabaning nutq madaniyatini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv muhim. Muloqot — bu nutqni jonlantiruvchi vosita. Talabalarning nutq faoliyati real muloqot jarayonlarida shakllanadi: munozaralar, guruhiy bahslar, suhbatlar, treninglar, rol o‘yinlari, taqdimotlar, konferensiya ma’ruzalari, intervyular, ilmiy loyihalar himoyasi. Real muloqot vaziyatlari talabaning nutq odobi, mantiqiylik, fikrni asoslash, shaxsiy pozitsiyani himoya qilish, savol-javobga tayyor bo‘lish, o‘z nutq strategiyasini tanlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda interaktiv metodlar alohida o‘rin tutadi. Brainstorming, debate, case-study, klaster tuzish, konseptual xaritalar yaratish, nutq tahlili, tanqidiy savollar, taqdimotlar, video va audio materiallarni tahlil qilish, refleksiya mashqlari — bular nutq faoliyatini faollashtiradi. Interaktiv metodlar talabani muloqot jarayoniga faol

ishtirokchi sifatida jalb qiladi. Ularning afzalligi shundaki, talaba nutq vazifasini bajarishda til vositalarini ongli ravishda tanlaydi, fikrlash jarayonini boshqaradi, o‘z nutqini tinglovchiga moslashtiradi va ta’sirchan nutq strategiyalarini o‘rgana boshlaydi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar nutq madaniyatini rivojlantirishning eng kuchli vositalaridan biridir. Media asosidagi ta’lim nutqni boyitadi, muloqot odobini o‘rgatadi, talaffuzni yaxshilaydi, nutq intonatsiyasini rivojlantiradi. Audio va video ma’ruzalar, podkastlar, TED tarzidagi ma’ruzalar, onlayn konferensiyalar, nutq treninglari, virtual munozaralar — bular talabani muloqot dunyosiga olib kiradi. Media matnlar bilan ishlash matnni tahlil qilish, asosiy fikrlarni ajratish, xulosa chiqarish, ifoda etish kabi nutq ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayonda talaba talabchan tinglovchi, analitik o‘quvchi, puxta nutqiy ishtirokchi bo‘ladi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning roli juda muhim. Tanqidiy fikrlash asosidagi nutq jarayonlarida talaba dalillarni solishtiradi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi, mulohazalarni tahlil qiladi, muammoning yechimini taklif qiladi. Bu jarayon nutqni mantiqan izchil, mazmunan boy, tushunarli va bahsli qiladi. Tanqidiy fikrlashning nutqqa ta’siri shundaki, talaba nafaqat so‘zlaydi, balki so‘zining ichki mantiqini boshqaradi.

Nutq madaniyatini oshirishda mustaqil ta’lim ham yetakchi o‘rin tutadi. Mustaqil o‘qish, konspekt tuzish, ilmiy matnlarni tahlil qilish, esselar yozish, bloglar yuritish, jurnaling qilish, taqdimotlar tayyorlash — bular nutqni tizimlashtiradi. Portfoliolash texnologiyasi orqali talaba o‘z nutq faoliyatini to‘plab, tahlil qilishi, kamchiliklarini ko‘rishi va muvaffaqiyatlarini nazorat qilishi mumkin. Natijada talabaning nutq madaniyati o‘sadi, u jamiyat, kasb, ilm-fan sohalarida muvaffaqiyatli muloqot qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyatini rivojlantirish jarayoni — bu ta’lim tizimining asosiy strategiyasi.

Kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, media ta’lim vositalari, tanqidiy fikrlash va mustaqil ta’lim bir butun kompleks jarayon sifatida amalga oshirilgandagina maksimal natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, M. (2019). Nutq madaniyati va til me’yorlari. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Mamatov, B. (2021). Pedagogik kommunikatsiya asoslari. Samarqand: SamDU.

3. To‘xliyev, B. (2020). O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar. Til va adabiyot ta’limi, 3, 56–62.

4. O‘rinboyeva, M. (2018). Yozma va og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Pedagogika ilmiy jurnali, 2, 44–50.

5. Ashurova, D., & Azizov, O. (2022). Interaktiv ta’lim texnologiyalari va kommunikativ kompetensiya. Toshkent: Innovatsiya.

6. Hasanov, A. (2023). Raqamli muhitda nutq madaniyatini rivojlantirishning psixologik jihatlari. Oliy ta’limdagi islohotlar, 1, 91–98.

7. Norkulova, Z. (2020). Talabalarda nutq madaniyatini takomillashtirish metodlari. Tilshunoslik muammolari, 4, 15–20.

THE CONCEPT OF WORK-FAMILY BALANCE AND ITS PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Makhamatov Nurmukhammat Odilovich
Deputy commander of military unit -28803 Bukhara city

Annotation: *This article analyzes the psychological content of work-family balance, its role in the mental stability of the individual and social adaptation. The article psychologically explains the states of stress, fatigue, withdrawal syndrome and emotional exhaustion that arise as a result of work-family balance disorders. It also discusses the strategies for combining professional and family roles of an individual, modern stress reduction methods and socio-psychological support mechanisms.*

INTRODUCTION:

Maintaining work-family balance in modern human life is becoming increasingly complex. The dynamics of the labor market, technological development, remote work forms and the increase in family responsibilities require a person to have high psychological flexibility. Overload at work, time pressure, leadership requirements or professional stress have a negative impact on family relationships. At the same time, family problems also reduce productivity. Therefore, work-family balance is considered a criterion not only for social, but also for psychological stability.

OBJECTIVE:

The purpose of this study is to analyze the psychological content of the concept of work-family balance, identify the factors influencing its formation, and develop a system of psychological approaches to maintaining this balance.

MATERIALS AND METHODS:

- Psychodiagnostic methods: The Maslach Burnout Inventory, Work-Family Conflict Scale, and Life Balance Test were used to determine the level of stress of a person and emotional exhaustion at work and in the family.
- Observation and interview: Interviews were conducted with men and women working in various fields, and psychological conflicts between work and family were analyzed.
- Correlation analysis: The relationship between time spent at work, emotional exhaustion, and family satisfaction was studied.
- Elements of psychological training: Mini-trainings were conducted on stress reduction, time management, and the development of emotional intelligence.
- Social support factor: The role of psychological support through family members, colleagues, and social networks in maintaining balance was assessed.

RESULTS AND ANALYSIS:

According to the results of the study, the main factors that disrupt the balance between work and family are: excessive workload, stress, lack of time, emotional exhaustion and lack of sufficient communication with family members. According to the results of the analysis, people who are able to maintain a balance between family and work have the following psychological characteristics: high emotional intelligence, stress tolerance, self-management skills, positive outlook and willpower. These characteristics increase a person's professional efficiency and ensure family peace.

In modern times, the balance between work and family is one of the most important psychological issues in human life. Economic pressure, a competitive environment and technological speed put a strong burden on the human mind. As people spend too much time at work, family communication decreases. This reduces the emotional energy of a person. According to psychologists, the loss of balance leads to stress, fatigue and emotional coldness. The family environment is a source of psychological regeneration for a person. Success at work strengthens the feeling of self-esteem. Therefore, harmony between these two areas ensures stable mental health. Ensuring work-family balance is also considered the basis of social stability. This issue depends on the ability of each individual to manage their personal resources.

Psychological factors that shape work-family balance form a multi-level system. First of all, it depends on the level of control of a person's own emotions. People with developed emotional intelligence resolve conflicts constructively. They learn not to transfer pressure from work to the family. Willpower and self-control are manifested as important psychological resources. When a person defines his role and responsibilities, it becomes easier to maintain balance. This process is directly related to the value system and motivational orientations of a person. If both family and work are important values for a person, he strives for stability in both areas. Therefore, psychological harmony is the basis of balance.

Disruption of work-family balance is often accompanied by stress and emotional exhaustion. Excessive demands at work deplete human resources. He returns home tired and his interest in communication decreases. This situation causes emotional alienation. Misunderstanding between family members increases. As a result, the individual feels isolated. Psychologically, this is called "role conflict." A person neglects their family role while fulfilling their professional role. If this inconsistency persists for a long time, it can lead to depressive states. Therefore, stress management is a central factor in balance.

Table 1.

Psychological factors that contribute to work-life balance

Psychological factor	Description

Emotional intelligence	The ability to correctly understand and manage one's own and others' emotions
Stress tolerance	The ability to maintain a positive mental state in difficult situations
Adaptability	The ability to quickly adapt to changes in work and family circumstances
Time management	The ability to optimally divide work and family responsibilities
Social support	The psychological support provided by the family and social circle
Motivational alignment	The compatibility of professional and personal values

Adaptability is an important quality that determines the stability of work-family balance. An adaptable person can find a positive solution in any situation. This is also called psychological immunity. Resilience leads a person to internal stability. He looks for a way to constructively resolve any conflict. If these qualities are not developed in a person, he will be stressed even by the smallest changes. Adaptable people perceive changes in life as natural. They know how to manage time, set priorities, and say "no." This helps maintain mental health. Thus, psychological resilience is the basis of work-family harmony. Social support acts as a positive force in work-family balance. Support from family members, friends, and colleagues reduces stress. A person does not feel alone. This activates psychological defense mechanisms. Psychological support acts as an "emotional buffer." In an atmosphere of trust within the family, a person feels valued. In the workplace, team cohesion also increases mental stability. Studies show that people who have social support are more resilient to stress. Such people have high self-confidence. As a result, they are more successful in maintaining balance.

Proper time management is one of the most practical skills for maintaining balance. Planned daily activities reduce stress. A person feels in control. This increases the feeling of inner satisfaction. From the point of view of psychological theory, this is a "self-control" mechanism. It expresses a person's conscious attitude to his/her activities. Incorrect distribution of time creates conflicts between family and work. This increases mental instability. When a person distributes his/her energy correctly, efficiency increases. As a result, a person appears as a subject who controls his/her life. Gender differences play an important role in the issue of work-family balance. Women usually fulfill more family obligations. Therefore, they experience "two-way stress". Men, on the other hand, are more under professional pressure. This forms different psychological defense mechanisms. For women, social support is important, while for men, professional success is the main source. Therefore, an individual approach is necessary to maintain balance. Gender psychology deeply studies the specifics of this process. In Uzbek society, this issue is also inextricably

linked with national values. Therefore, the cultural context is important in analyzing balance.

Emotional intelligence is the psychological basis of work-family balance. It represents the ability to understand, control and manage emotions. A person with high emotional intelligence is able to direct his emotions constructively. He maintains healthy communication both in the family and at work. Effective communication ensures early resolution of problems. Psychologists call this "emotional literacy". By developing this quality, conflicts are reduced. Family members maintain mutual love and respect. The team spirit at work is also strengthened. As a result, overall psychological well-being increases.

Another factor in balance is the system of personal values. If a person sees work as the only goal of his life, family ties weaken. On the contrary, a person who is focused only on family values may be sluggish in the professional sphere. Therefore, motivational harmony is necessary. When a person establishes a balance between his values, he feels peace of mind. Such a person is more satisfied with life. He finds the meaning of his life in the harmony of work and family happiness. Psychological research calls this "vital integration". As a result, a person's level of self-awareness increases. This increases his stress tolerance.

Work-family balance is a criterion that determines the internal stability of a person's life. A person who is able to maintain this balance is mentally healthy, socially active and happy. He feels harmony in various aspects of his life. Psychologically, this is called a state of "inner harmony". When success at work is complemented by family peace, a person develops a strong sense of self-awareness. This situation facilitates social adaptation. A person directs his energy to positive activities. As a result, depression, fatigue and stress are prevented. Therefore, the system of psychological services should pay special attention to this issue. Maintaining work-family balance is a guarantee of the mental health of society.

CONCLUSION:

Maintaining work-family balance is an indispensable psychological necessity of modern human life. If a person cannot combine work and family roles, this leads to mental fatigue, stress, aggressiveness and social exclusion. Psychological analysis shows that in order to ensure balance, a person must develop emotional stability, communicative culture and skills for proper time management. Employers and psychological service providers need to develop comprehensive programs in this area. As a result, the combination of work and family is considered the basis of human well-being and social stability.

REFERENCES:

Avezov O.R. Shaxs psixologiyasi va kouching. Buxoro: "Kamolot" nashriyoti, 2025.

Greenhaus, J.H., & Beutell, N.J. Sources of Conflict Between Work and Family Roles. Academy of Management Review, 1985.

Frone, M.R. Work–Family Balance: Conceptual and Empirical Clarification. Journal of Vocational Behavior, 2003.

Kossek, E.E., & Ozeki, C. Bridging the Work–Family Policy and Productivity Gap. Academy of Management Journal, 1998.

Allen, T.D. Family-Supportive Organizational Perceptions: Work-Family Conflict and Positive Spillover. Journal of Vocational Behavior, 2001.

Voydanoff, P. Work, Family, and Community: Exploring Interconnections. Lawrence Erlbaum Associates, 2007.

Avezov O.R., Ruziyev N.I. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari. Buxoro: “Kamolot” nashriyoti, 2024.

O‘SMIRLARNING KASBIY O‘ZINI ANGLASHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Yo‘ldoshqulov A.B

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti 2-bosqich magistranti asadbekyoldoshqulov6@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘smirlarning kasbiy o‘zini anglash jarayonida psixologik omillarning ahamiyati, xususan, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi, temperament va xarakter xususiyatlarining kasb tanlashga ta’siri ko’rsatishi bayon etildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida o‘smirlarning kasbiy o‘zini anglashida psixologik jarayonlar va individual xususiyatlarning roli, ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy omilar, shuningdek ularda uchraydigan muammolar “o‘smirlarning o‘z qobiliyatlarini yetarli baholay olmasligi sabablari”, “o‘ziga ishonchsizlik va motivatsiya pasayishi” sabablari va ularning yechimlari haqida natijalar tahlili bayon qilinmoqda.*

Tayanch so‘zlar: *kasbiy o‘zini anglash, psixologik omillar, qobiliyat, motivatsiya, temperament, xarakter, qiziqishlar, o‘zlik kontsepsiyasi.*

Аннотация: *В статье рассматривается значение психологических факторов в процессе профессионального самосознания подростков, в частности, влияние их интересов, способностей, мотивации, темперамента и черт характера на выбор профессии. В результате исследования представлен анализ результатов, касающихся роли психологических процессов и индивидуальных особенностей в профессиональном самосознании подростков, социальных факторов, влияющих на них, а также проблем, с которыми они сталкиваются, в частности, «причины, по которым подростки не могут адекватно оценить свои способности», «неуверенности в себе и снижения мотивации» и путей их решения.*

Ключевые слова: *профессиональное самоопределение, психологические факторы, способности, мотивация, темперамент, характер, интересы.*

Abstract: *The article describes the importance of psychological factors in the process of adolescents' professional self-awareness, in particular, the influence of their interests, abilities, motivation, temperament and character traits on the choice of profession. As a result of the research, an analysis of the results is presented on the role of psychological processes and individual characteristics in adolescents' professional self-awareness, the social factors affecting them, as well as the problems they encounter, the reasons for which are "the reasons why adolescents cannot adequately assess their abilities", the causes of "lack of self-confidence and decreased motivation" and their solutions.*

Keywords: *career self-determination, psychological factors, abilities, motivation, temperament, personality traits, interests.*

KIRISH

O‘smirlarning kasbiy o‘zini anglashiga ta’sir etuvchi qanday omillarni bilasiz? Bundan tashqari hozirgi kunda o‘smirlarning kasb tanlashiga qanday psixologik omillar ta’sir etmoqda? Kasb tanlashda shaxsning individual xususiyatlari muhim ro’l kasb etadimi yoki ijtimoiy tasirlarmi? Bu savollarga quydagicha javob bersak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi davrda ta’lim taraqqiyotiga o‘smirlarni ta’limga yoki kasbga yo‘naltirish maqsadida ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik puxta o‘zlashtirishga qodir, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi [1].

Insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo‘lidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo‘lib uning yoshiga hamda shaxsining taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutaxassisning mahorat darajasiga erishish sur’ati uning kasb tanlash motivlari bilan o‘zaro aloqadordir,[4.1] mehnat bozori talablari va jamiyatdagi kasblar xilma-xilligi o‘smirlardan o‘z kasbiy kelajagi haqida ongli qaror qabul qilishni talab etadi. Psixolog olimlarning izlanishlarining natijalariga ko‘ra, o‘smirlik davri kasbiy o‘zini anglashning eng faol shakllanadigan bosqichidir. Shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari, xarakter xususiyatlari, shaxs xususiyatlari va motivatsiyasi aynan ushbu davrda barqarorlashib, kasb tanlovida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi [1].

Afsuski, o‘quv jarayonida barcha o‘quvchilar o‘z psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri baholay olmasligi, kasblar to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasligi yok iota onasi farzandining qobilyatlariga to‘g‘ri baho bermasligi va ularni o’zlari bolalaiklarida amalga oshira olmagan orzularining qurboni qilishlari sababli kasbiy tanlovda qiynalishadi. Shu bois o‘smirlarning kasbiy o‘zini anglash jarayonida psixologik omillarni chuqur o‘rganish va o‘z imkoniyatlarini, qobilyatlarini anglangan holatda chuqurroq o‘rganish muhim hisoblanadi.bu esa har bir shaxsning kasbiy faoliyatida, jamiyatda, rivojlanishini bundan tashqari o’z kasbini rivoijlantirishiga va davlatining rivojiga juda katta tasir ko‘rsatatadi.

Ushbu maqolada o‘smirlarning kasbiy o‘zini anglashiga ta’sir etuvchi muammolar ularning yechimlari, ularning qiziqishlari, kasb tanlashga ta’sir etuvchi psixologik omillar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi va amaliy yechimlar taklif etiladi.

Psixologik omillarning kasbiy tanlovga ta'siri yani o'smirlarda qiziqishlar va motivatsiyasiga etibor qaratadigan bo'lsak. Kasbiy qiziqish – o'smirning ma'lum faoliyat turiga nisbatan ijobiy munosabatini bildiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi. O'smirlarda qiziqishning shakllanishi ularning kasbga bo'lgan ongli munosabatini rivojlantiradi. Olimlarning olib borgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasb tanlovida ichki motivlar – qiziqish, o'zini namoyon qilish istagi, jamiyatga foyda keltirish kabi omillar yetakchi o'rin tutadi [2].

O'smirlarning qiziqishi, mayli, intilishi, qobiliyati, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish ular uchun katta hayotiy masaladir. Kasb tanlash jarayonida o'spirinlarga o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishlari kerak. Zero, bu amaliy faoliyat fuqarolik jamiyati rivojlanishiga xizmat qiladi. Psixologiya fanida kasbiy shakllanish jarayonini davrlashtirishning bir necha variantlari ishlab chiqilgan.

Bu borada rus olimi T.V.Kudryavsev shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko'ra kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:

1) kasbiy moyillikning paydo bo'lishi va shakllanishi;

2) kasbiy ta'lim va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish;

3) kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o'z o'rnini topishga faol intilish;

4) kasbiy mehnatda shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi [4.2]

Mazkur tasnifda keltirilgan har bir bosqichda kasb tanlashga undagan motivlarning kuchi va sifati muhim ahamiyatga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari qobiliyat va intellektual rivojlanish ham o'smirlarning rivojlanishiga katta tasir ko'rsatadi. Qobiliyatlar o'smirning kasbiy yo'nalishini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. O'quvchilarning umumiy (mantiqiy fikrlash, xotira, e'tibor, tafakkur) va maxsus qobiliyatlari (texnik, lingvistik, ijodiy) rivojlanishi kasbiy tanlovda muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar qobiliyat va kasb o'rtasidagi moslik kasbiy muvaffaqiyatning 60% dan ortig'ini tashkil etishini ko'rsatadi [3].

Har bir shaxisning dunyo qarashi, fikirlashi, temperament va xarakter xususiyatlari bir-biridan tuptan farq qiladi. Bu esa ularning turli kasb tanlashiga sabab bo'luvchi muhim omillardan dir. Temperament o'smirning psixik jarayonlar sur'atini belgilaydi va kasb tanloviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan:

- sangviniklar – kommunikativ kasblarga; jurnalist, menejer, o'qituvchi, psixolog
- flegmatiklar – tartibli, tahliliy ish joylariga; hisobchi, dasturchi, injener
- xoleriklar – yuqori dinamika talab qiluvchi kasblarga; rahbar, harbiy, sportchi
- melanxoliklar – ijodiy-senzitiv faoliyatlarga moyil bo'ladilar; dizayner, yozuvchi, musiqachi

Xarakter xususiyatlari – mas'uliyatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, qat'iyatlilik kasbiy moslashuv jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ham shaxslarni turli sohalarda faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omildir.

O'smirlarning kasb tanlashiga ta'sir qiluvch omillardan biri ularning "Men-kontsepsiyasi" va kasbiy identifikatsiyasi. Kasbiy o'zini anglashning asosida o'smirning o'z shaxsiga nisbatan tasavvurlari yotadi. O'zlariga bo'lgan ishonchi qanchalik yuqori bulsa kasb tanlashga bo'lgan qo'rquvi shunchalik past bo'ladi. Bunga misol qilib shuni keltirishimiz mumkunki psixologlar ta'kidlashicha, "ideal men" va "real men" orasidagi moslik yuqori bo'lsa, kasb tanlash jarayoni barqarorroq kechadi. Aks holda o'smirda ikkilanish, o'ziga ishonchsizlik, motivatsiya pasayishi kuzatiladi [1.1]. Kasb tanlash jarayoni nafaqat intellektual, balki emotsional va irodaviy barqarorlik bilan ham bog'liq. O'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan, maqsadga intiluvchan o'smirlar kasbiy qaror qabul qilishda faolroq bo'ladilar.

Tavsiya etiladigan yechimlar:

- psixologik diagnostika testlari (qiziqishlar, qobiliyatlar, shaxs tipologiyasi);
- kasb tanlash bo'yicha treninglar;
- ota-onalar bilan maslahatlar;
- maktablarda muntazam kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari;
- real kasblar bilan tanishtiruvchi amaliy uchrashuvlar.

Xulosa

O'smirlarning kasbiy o'zini anglash jarayoni murakkab psixologik tizim bo'lib, qiziqishlar, qobiliyatlar, temperament, xarakter, motivatsiya va o'zlik tasavvuri bilan chambarchas bog'liqdir. Psixologik tadqiqotlar ushbu omillarni hisobga olgan holda kasbiy yo'naltirish olib borilganda o'quvchilarning ongli va barqaror kasbiy tanlov qilish imkoniyati oshishini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida psixologik yondashuv asosida kasbga yo'naltirishni tashkil etish alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.

2. Qosimova A.X., Holiqova F.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2004.

3. Zamonaviy psixologiya manbalari asosida olingan umumiy ilmiy tahlillar (umumlashtirilgan ilmiy ma'lumot).

4. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №3) ISSN 2181-1709 (P)

KASBIY RIVOJLANISH BO‘YICHA ASOSIY ILMIY YONDASHUVLAR VA NAZARIY KONSEPSIYALAR

Yo‘ldoshqulov A.B

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti 2-bosqich magistranti asadbekyoldoshqulov6@gmail.com

Bugungi kunimizda mamlakatimizda barkamol, malakali va kasbiy jihatdan yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni o‘z kasbiga sadoqatli, mas’uliyatli va raqobatbardosh tarzda tarbiyalashga alohida e’tibor berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq ta’lim tizimini isloh qilish, kasbiy tayyorgarlikning sifatini oshirish hamda yoshlar rivojlanishida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash masalalariga katta ahamiyat berildi. Ma’lumki, kasbiy rivojlanish shaxsning ong darajasi, qiziqishlari, motivlari va psixologik xususiyatlari bilan belgilanadigan murakkab jarayondir [1].

Kasbiy rivojlanish shaxsning psixik va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi, psixologik moslashuvchanligi va tajribasi asosida shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu sababli, kasbiy rivojlanish masalasi fanda doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitning o‘zgarishi shaxsning kasbiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, oilaviy muhit, tarbiya va shaxsiy fazilatlar ham uning kasbiy o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [2].

Kasbiy rivojlanish muammosi fanda doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Buning sababi, birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy talablar har bir insonning kasbiy shakllanishini ma’lum yo‘nalishda rivojlantiradi; ikkinchidan, shaxsning oilaviy muhiti, tarbiyasi, ijtimoiy tajribasi va shaxsiy xususiyatlari uning kasbiy o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [2]. Har bir insonning kasbiy shakllanishi uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, temperament tipi, aqliy salohiyati va psixologik moslashuviga shaxs xususiyatlariga tayanadi. Kasbiy rivojlanish bo‘yicha turli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar turli yo‘nalishlarda bo‘lib, har biri shaxsning kasbiy shakllanishining o‘ziga xos jihatlarini yoritadi.

Kasbiy rivojlanish nazariyalariga ko‘ra, kasbiy shakllanish ma’lum bosqichlarda kechadi. Masalan, D. Superning “Kasbiy hayot davri” konsepsiyasida kasbiy rivojlanish o‘sish, izlanish, amalga oshirish, barqarorlashuv va pasayish bosqichlariga bo‘linadi. U shaxsning kasbiy “Men-kontsepsiyasi” kasb tanlash va kasbiy o‘sishning asosiy omili ekanini ta’kidlaydi [1].

Zamonaviy kontekstdagi o‘zgarishlar, masalan, uzluksiz ta’lim, qayta tayyorlov va reskilling, bu konsepsiyani yanada dolzarb qiladi. Hozirgi kunda shaxs kasbiy barqarorlashuvni ma’lum bir yoshda emas, balki butun hayoti davomida davom ettiradi

Kasbiy rivojlanishning differensial yondashuvi (F. Parson, G. Myunstenberg) shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari va temperamentiga mos ravishda kasb tanlash zarurligini qayd etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, har bir kasb o‘z talablari bilan shaxsning psixologik xususiyatlariga mos kelishi kerak [2]. Shuning uchun ham kasbiy diagnostika vositalari yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu yondashuv psixodiagnostika va professional yo‘naltirish sohasida keng qo‘llanmoqda. IQ va EQ testlari, kreativlik va kompetensiyalar monitoringi orqali yoshlarning kasbiy yo‘nalishi oldindan aniqlanadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va texnologik o‘zgarishlar sharoitida shaxsning bir nechta kasbiy yo‘nalishga moslashuvchanligi ham muhim ahamiyatga ega.

Faoliyat yondashuvi (A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn) shaxsning kasbiy rivojlanishini bevosita faoliyat jarayonida yuzaga keladigan motivlar, malaka va kompetensiyalarning takomillashuvi bilan bog‘laydi [2]. Bugungi kunda bu yondashuv “kompetensiyalar modeli”, “soft skills”, “metakompetensiyalar” tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Masalan, ishchi malakalari bilan bir qatorda, kommunikativ, kreativ, digital savodxonlik ko‘nikmalari ham muhim hisoblanadi.]. L. S. Vigotskiy esa insonning kasbiy shakllanishidagi sifat o‘zgarishlarini “psixik rivojlanishning yangi tuzilmalari” bilan bog‘laydi va kasbiy shakllanish doimo sifat jihatdan o‘zgarib borishini ta’kidlaydi [3]. Shu bilan faoliyat yondashuvi zamonaviy sharoitda shaxsning moslashuvchanligini, ijodkorligini va kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy yondashuvga aylanadi.

Kasbiy rivojlanishni izohlovchi yirik nazariyalardan yana biri J. Hollondning RIASEC modeli bo‘lib, unda shaxs tiplari (realistik, intellektual, ijtimoiy, tadbirkor, badiiy, an’anaviy) bilan kasbiy muhit o‘rtasidagi moslik kasbiy muvaffaqiyatning asosiy sharti sifatida talqin qilinadi [1]. Bu yondashuv kasbiy tanlovni aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy konsepsiyalarda kompetensiyaviy yondashuv asosiy o‘rin egallaydi. Unda shaxsning nafaqat bilim va malakalari, balki kreativ fikrlashi, kommunikativligi, mas’uliyati, tashabbuskorligi kabi integrativ sifatlari ham kasbiy rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi [2]. Shuningdek, motivatsion yondashuv (K. Levin, E. Deci) kasbiy o‘sishning harakatlantiruvchi kuchi shaxsning ichki motivlari va o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan ehtiyoji ekanini ta’kidlaydi.

Kasbiy rivojlanish bo‘yicha barcha nazariy yondashuvlar birgalikda shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sharoitda shaxsning kasbiy o‘sishi nafaqat bilim va malaka, balki motivatsiya, kreativlik, kommunikativ va moslashuvchanlik ko‘nikmalari bilan belgilanadi. Superning hayot davomida kasbiy bosqichlar konsepsiyasi, Vigotskiy va Leontyevning faoliyat yondashuvi, Parson va Myunstenbergning differensial yondashuvi, Hollondning shaxs tipi modeli hozirgi globallashgan, raqamli va tezkor o‘zgaruvchi mehnat bozorida to‘liq amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki,Bugungi kunda kasbiy rivojlanish — shaxsning doimiy o‘sishi, malakasini yangilash, yangi kompetensiyalarni egallash va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, u barcha olimlarning g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, zamonaviy karyera va kasbiy taraqqiyot nazariyasi hamda amaliyoti klassik konsepsiyalarni integratsiyalashgan holda, shaxsning kasbiy muvaffaqiyatini, moslashuvchanligini va raqobatbardoshligini ta’minlaydi [1][2][3].

Har bir yondashuv kasbiy rivojlanishning o‘ziga xos tomonlarini yoritadi. Shaxsning kasbiy shakllanishi davomida uning malakalari takomillashadi, ayrim sifatlar yo‘qoladi, yangilari paydo bo‘ladi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Demak, kasbiy rivojlanish — shaxsning butun hayoti davomida amalga oshadigan, sifat va miqdoriy o‘zgarishlarni o‘zida mujassam etgan uzluksiz jarayondir [3].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Super D. Career Development Theory. — N.Y., 1990.
2. Parsons F., Myunstenberg G., Rubinshteyn S.L., Leontyev A.N. Kasbiy rivojlanish psixologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar. — M., 1989.
3. Vigotskiy L.S. Psixik rivojlanish nazariyasi. — M., 1982.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY TAHLIL VA AUDITORLIK FAOLIYATINI XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Karimova Iroda Abdusattarovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti dotsenti v.b.
Qobilov Javohir Kabil o'g'li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti iqtisodiyot yo'nalishi talabasi email:beagl661@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. Xalqaro tajribalar asosida samarali metodlar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni iqtisodiy tahlil va audit jarayonlariga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy tahlil, auditorlik, xalqaro tajriba, innovatsiyalar*

Аннотация: *В данной работе рассматриваются актуальные вопросы развития экономического анализа и аудиторской деятельности в условиях цифровой экономики. Анализируются эффективные методы и инновационные подходы на основе международного опыта. Результаты исследования включают рекомендации по интеграции цифровых технологий в процессы экономического анализа и аудита.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, экономический анализ, аудит, международный опыт, инновации*

Abstract: *This thesis examines the current issues of developing economic analysis and auditing activities in the context of the digital economy. Effective methods and innovative approaches based on international experience are analyzed. The results of the study include recommendations for integrating digital technologies into economic analysis and audit processes.*

Keywords: *digital economy, economic analysis, auditing, international experience, innovations*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimlarning rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. U iqtisodiy jarayonlarni raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va real vaqtda monitoring qilish imkonini beradi.

Raqamli integratsiya, ma'lumotlar tahlili, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish va innovatsion texnologiyalar auditorlik va iqtisodiy tahlil samaradorligini oshiradi. Xalqaro

tajribaga ko‘ra, Estoniya, Singapur va Kanada kabi mamlakatlar elektron audit va bulutli hisoblash texnologiyalarini joriy etish orqali moliyaviy tahlilning aniqligi va tezligini sezilarli darajada oshirgan. Masalan, Estoniyada “e-audit” tizimi auditorlarga moliyaviy ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini beradi, xatoliklarni kamaytiradi va shaffoflikni oshiradi. Shuningdek, katta ma’lumotlar (Big Data), sun’iy intellekt (AI), mashina o‘rganish (Machine Learning) va blokcheyn texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda ilg‘or metodlar sifatida qo‘llanilmoqda.[6] Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini rivojlantirish normativ-huquqiy baza, xodimlarning raqamli savodxonligi va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashishni talab qiladi. Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlikni rivojlantirishning xalqaro tajribaga asoslangan metodologik va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi hamda milliy iqtisodiyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar olish maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Adabiyotlarni tizimli tahlil qilish (Systematic Literature Review). Tadqiqot davomida xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, jurnallar, kitoblar, korporativ va davlat hisobotlari o‘rganildi. Shu jumladan, OECD, IMF, World Bank va boshqa xalqaro tashkilotlarning raqamli audit va iqtisodiy tahlilga oid standartlari va tavsiyalari tahlil qilindi [2],[3]. Bu metod orqali ilg‘or davlatlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida audit va tahlil jarayonlarining samarali yondashuvlari aniqlanib, ularni milliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyot va auditorlik faoliyatidagi ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish maqsadida Estoniya, Singapur, Daniya va Kanada kabi mamlakatlar misolida tizimli taqqoslash amalga oshirildi. Taqqoslash natijalari asosida milliy auditorlik va iqtisodiy tahlil jarayonlaridagi kamchiliklar, samaradorlikni oshirish imkoniyatlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish istiqbollari aniqlangan. Kvalitativ va kontseptual tahlil (Qualitative and Conceptual Analysis). Xalqaro tajribaga asoslangan case-study metodlari yordamida raqamli audit va iqtisodiy tahlil jarayonlarida muvaffaqiyatli yondashuvlar va texnologik innovatsiyalar tahlil qilindi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt, mashina o‘rganish, bulutli hisoblash va blokcheyn texnologiyalarini joriy qilish orqali auditorlik jarayonlarining samaradorligini oshirish usullari o‘rganildi. Integratsiyalashgan metodlar (Integrated Approach). Tadqiqotda kvantitativ va sifatli metodlarni birlashtirish orqali raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik jarayonlarining ilmiy asoslangan tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Bu yondashuv, nafaqat mavjud jarayonlarni tahlil qilish, balki ularni raqamli texnologiyalar bilan optimallashtirishga qaratilgan ilmiy asosli yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu metodlar kombinatsiyasi tadqiqotning ilmiy ishonchliligini oshiradi, xalqaro tajribaga asoslangan holda milliy iqtisodiyotda raqamli auditorlik va tahlil jarayonlarini takomillashtirish uchun asos yaratadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator muhim xulosalarni ko‘rsatdi. Xalqaro tajribaga asoslanib quyidagi asosiy natijalar aniqlangan: Raqamli platformalar va sun’iy intellektning samaradorligi: Auditorlik jarayonlarida sun’iy intellekt (AI) va mashina o‘rganish (Machine Learning) texnologiyalarini joriy qilish natijasida moliyaviy ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi sezilarli darajada oshadi.[7] AI algoritmlari moliyaviy hisobotlardagi xatoliklarni aniqlash va risklarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Shu tariqa, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamayadi va audit jarayoni yanada shaffof bo‘ladi. Bulutli hisoblash va katta ma’lumotlar (Big Data) integratsiyasi: Bulutli xizmatlar va markazlashtirilgan ma’lumotlar bazalari iqtisodiy tahlilning real vaqtda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Masalan, moliyaviy ko‘rsatkichlar, operatsion ma’lumotlar va boshqa statistik ma’lumotlarni birlashtirish orqali korxona darajasida tezkor va aniq tahlilni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu jarayon auditorlarga tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi va tahlil sifatini oshiradi.

Xalqaro tajribadan olingan ilg‘or yondashuvlar: Estoniya va Singapur misolida raqamli iqtisodiyotda auditorlik standartlarini avtomatlashtirish va monitoring tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha muvaffaqiyatli yondashuvlar mavjud. Ular elektron audit platformalari, blokcheyn texnologiyalari va raqamli imzo tizimlaridan foydalanish orqali audit jarayonini soddalashtiradi, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi va monitoringni real vaqtda amalga oshirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish imkoniyatlari: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt, blokcheyn va avtomatlashtirilgan tizimlarni auditorlik va iqtisodiy tahlil jarayonlariga joriy qilish, nafaqat jarayon tezligini oshiradi, balki moliyaviy va iqtisodiy hisobotlarning ishonchliligini ham yaxshilaydi.

Shu bilan birga, korxona va davlat organlarining qaror qabul qilish jarayonlari yanada aniq va asosli bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyotning normativ va institutsional ta’siri: Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik jarayonlarining samaradorligi nafaqat texnologiyaga, balki normativ-huquqiy bazaga, xodimlarning raqamli savodxonligiga va institutsional muhitga ham bog‘liq.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlarda elektron audit va tahlil standartlari, xodimlarni doimiy ravishda qayta tayyorlash va ma’lumotlar xavfsizligi tizimlari muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Muhokama. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish jarayonida bir qator muhim muammolar yuzaga keladi. Ulardan asosiylari quyidagilar: Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik: Raqamli platformalarda moliyaviy va iqtisodiy ma’lumotlarni elektron shaklda qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonida kiberxavfsizlik masalalari dolzarb bo‘ladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or davlatlarda (Estoniya, Kanada) blokcheyn texnologiyasi va shifrlash algoritmlari auditorlik jarayonidagi ma’lumotlarni himoya qilishda asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001 va GDPR) tatbiq etilishi auditorlik jarayonining ishonchliligini oshiradi.

Raqamli savodxonlik va kadrlar malakasi: Raqamli auditorlik va iqtisodiy tahlilning samarali ishlashi xodimlarning raqamli savodxonligi va yangi texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlar o‘qituvchilar, auditorlar va moliyaviy mutaxassislar uchun doimiy raqamli treninglar, master-klasslar va sertifikatlash tizimlarini joriy etgan.

Bu yondashuv milliy iqtisodiyotda auditorlik sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash imkonini beradi. Normativ-huquqiy baza va institutsional muhit yetishmovchiligi: Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli platformalar orqali monitoring qilish uchun aniq va mos normativ-huquqiy baza talab etiladi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, elektron audit standartlari va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash orqali jarayonlar shaffofligi, nazorat va javobgarlik mexanizmlari aniq belgilanadi. Xalqaro tajribadan olingan asosiy tavsiyalar: Raqamli platformalarni joriy etish va xodimlarni o‘qitish: Milliy auditorlik tizimlarida elektron audit va tahlil platformalarini yaratish, xodimlar uchun doimiy raqamli treninglar tashkil etish orqali jarayonlar samaradorligi oshiriladi.

Standartlashtirilgan elektron audit va tahlil jarayonlarini ishlab chiqish: Xalqaro standartlar asosida elektron audit protokollari va tahlil metodologiyalarini joriy qilish, shuningdek, monitoring va tekshiruv jarayonlarini avtomatlashtirish. Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlarini integratsiya qilish: AI, Machine Learning va Big Data texnologiyalarini auditorlik va iqtisodiy tahlil jarayonlariga tatbiq etish orqali tezkor va aniq natijalar olish, risklarni oldindan prognoz qilish imkoniyati yaratish.[8]

XULOSA

Ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik tavsiyalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar

ishlab chiqish: Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali auditorlik va iqtisodiy tahlil jarayonlarini optimallashtirish imkonini beruvchi amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Bu qo‘llanmalar jarayonlarni standartlashtirish, xatoliklarni kamaytirish va moliyaviy hamda iqtisodiy hisobotlarning aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korxona va davlat organlari xodimlari uchun elektron audit tizimlaridan samarali foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Xalqaro tajribaga asoslangan elektron audit standartlarini joriy etish: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlarda (Estoniya, Singapur, Kanada) elektron audit standartlari auditorlik jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni himoya qilish va monitoringni real vaqtda amalga oshirish imkonini beradi.

Milliy iqtisodiyotda shunday standartlarni joriy etish, raqamli auditorlikning sifatini oshiradi va xalqaro talablar bilan mos keladigan tizimlarni yaratishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim va korxona darajasida raqamli kompetensiyalarni oshirish: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi auditorlar, iqtisodiy tahlilchilar va moliyaviy mutaxassislarning raqamli savodxonligini oshirishni talab qiladi. Shu maqsadda, oliy ta’lim muassasalari va korxonalarda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari bo‘yicha malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etilishi lozim. Bu esa auditorlik jarayonining samaradorligini oshiradi va zamonaviy iqtisodiy tahlilning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi. Ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha nazorat mexanizmlarini takomillashtirish: Raqamli auditorlik jarayonlarida ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, korxona va davlat organlarida ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha nazorat mexanizmlari, shifrlash texnologiyalari, blokcheyn tizimlari va kiberxavfsizlik protokollarini tatbiq etish zarur. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kuchli nazorat va xavfsizlik mexanizmlari auditorlik jarayonining shaffofligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu tavsiyalar nafaqat ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini takomillashtirishning amaliy yo‘nalishlarini belgilaydi, balki milliy va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilgan samarali tizimlarni yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.

2. OECD. (2020). Digitalisation and Economic Analysis: Implications for Auditing and Business Reporting. Paris: OECD Publishing.

3. IMF. (2021). Digitalization and its Implications for Financial Sector Supervision. Washington, D.C.: International Monetary Fund.

4. Estonian Ministry of Finance. (2019). E-Audit System Implementation Report. Tallinn: Government of Estonia.

5. Singapur Accounting and Corporate Regulatory Authority (ACRA). (2020). Digital Audit Guidelines and Case Studies. Singapore: ACRA.

6. Kshetri, N. (2018). Blockchain's roles in strengthening cybersecurity and digital audit. Journal of Strategic Information Systems, 27(2), 101-123.

7. Deloitte. (2020). AI in Audit: Transforming the Future of Assurance. Deloitte Insights.

8. He, W., Tian, X., & Liu, Z. (2020). Digital Economy and Corporate Auditing: Opportunities and Challenges. Journal of Business Research, 116, 456-466.

“XALQARO HAVO YUK TASHISH JARAYONLARI: ILG‘OR TAJRIBALAR VA ULARNI MILLIY AMALIYOTGA INTEGRATSIYALASH”

Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi
TDIU Biznes va boshqaruv kafedrasi tayanch doktoranti. +998998909490 mrs.anvarova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola havo transporti orqali yuk tashish jarayonlarini global tajribalar – Germaniya va Xitoy misolida tahlil qiladi hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot Germaniya va Xitoyning avia-logistika tizimlaridagi ilg‘or amaliyotlarni, jumladan yirik kargo aeroportlari, multimodal transport integratsiyasi, elektron tijoratga moslashgan tez yetkazib berish tizimlari va raqamlashtirish jarayonlarini o‘zaro taqqoslaydi. Mazkur tahlil asosida O‘zbekiston uchun strategik model ishlab chiqilgan bo‘lib, unda Toshkent, Samarqand va Nukus aeroportlarini xalqaro va mintaqaviy hub sifatida rivojlantirish, multimodal transport tizimini shakllantirish, e-commerce yetkazib berish tizimlarini joriy etish, shuningdek ekologik barqaror va raqamlashtirilgan monitoring tizimlarini tatbiq etish tavsiya qilinadi. Maqola natijalari O‘zbekiston transport siyosatini rivojlantirish, global va mintaqaviy savdo jarayonlarida raqobatbardosh pozitsiyani mustahkamlash hamda havo yuk tashish sektorining samaradorligini oshirishga ilmiy va amaliy asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *havo yuk tashish, avia-logistika, multimodal transport, elektron tijorat, strategik model, Germaniya, Xitoy, O‘zbekiston.*

Abstract: *This article examines air cargo transportation processes through a comparative analysis of global best practices in Germany and China and explores their applicability within the context of Uzbekistan. The study analyzes advanced strategies in air logistics, including major cargo hubs, multimodal transport integration, e-commerce-driven rapid delivery systems, and digitalization initiatives. Based on this analysis, a strategic model for Uzbekistan is proposed, emphasizing the development of Tashkent, Samarkand, and Nukus airports as international and regional hubs, the establishment of an integrated multimodal transport system, the implementation of efficient e-commerce delivery networks, and the adoption of sustainable, digital monitoring mechanisms. The findings provide a scientific and practical foundation for enhancing Uzbekistan’s transport policy, strengthening its competitive position in regional and global trade, and increasing the efficiency and strategic capacity of its air cargo sector.*

Keywords: *air cargo, air logistics, multimodal transport, e-commerce, strategic model, Germany, China, Uzbekistan.*

KIRISH

Global iqtisodiyotning chuqur integratsiyalashuvi, raqamli savdoning kengayishi va xalqaro ta’minot zanjirlarining murakkablashuvi sharoitida havo transporti orqali yuk

tashish jarayoni strategik ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori qiymatga ega mahsulotlarni qisqa muddatda yetkazib berish, ishlab chiqarishning “just-in-time” modeli va savdo oqimlarining tezkorligi avia-logistikaning global raqobatdagi o‘rnini yanada kuchaytirmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, havo yuk tashish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kargo aviakompaniyalarini rivojlantirish va multimodal logistika markazlarini shakllantirish eksport salohiyati hamda tashqi savdo samaradorligini sezilarli oshiradi. Germaniya va Xitoyning avia-logistika tizimlari bunga yorqin misoldir: Germaniya integratsiyalashgan aeroportlar tarmog‘i va raqamlashtirilgan logistika tizimi bilan Yevropaning asosiy kargo tuguniga aylangan bo‘lsa, Xitoy elektron tijorat bozorining jadal o‘sishi asosida global tezkor logistikaning yetakchi markaziga aylandi.

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni o‘rganish dolzarbdir. Mamlakatning geostrategik joylashuvi, transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish ehtiyoji va yuqori qiymatli yuklar ulushining oshib borishi aviatsiya-logistika tizimini modernizatsiya qilish zaruratini kuchaytiradi. Germaniya va Xitoyning multimodal integratsiya, raqamlashtirish, kargo aeroportlari samaradorligini oshirish hamda maxsus yuk aviakompaniyalari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tajribasi O‘zbekiston uchun muhim yo‘nalishlar sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Germaniya va Xitoyning havo yuk tashish sohasidagi ilg‘or yondashuvlarini tahlil qilish, ularning ustunliklari va rivojlanish omillarini aniqlash hamda ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini baholashdir. Ushbu tahlil respublikaning transport siyosatini takomillashtirish, xalqaro savdo jarayonlarida raqobatbardoshlikni oshirish va logistika tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

II. Germaniya Tajribasi va zamonaviy logistikadagi stategik o’rni.

Bilamizki Germaniya Yevropaning markaziy davlatlaridan biri hisoblanadi, shuningdek, bu davlat logistikasi nafaqat o’zi uchun, balki, butun Yevropa iqtisodiyoti uchun juda muhim o’rinni egallaydi. Tarixga nazar soladigan bo’lsak, Germaniyada yuk tashishga bo’lgan qadam birinchi bor 1911-yilda samalyo’t orqadi Berlindan Frankfurtgacha olib keltirilgan pochta xabari bilan boshlangan. 1926-yilda kargo xizmatlari uchun tashkil qilingan Luft Hansa aviakompaniyasi 2 yil o’tib havo transporti qatnovlarini amalga oshirishni boshlagan. Birinchi qonuniy yuk tashuvchi kompaniya – “Luftfrako” esa 1920-yilda tashkil etilda.

Ikkinchi jahon urushidan, bir necha yillik iqtisodiy zararlardan keyin logistika industriyasi kelajak uchun chuqur umid tikilgan. Shuningdek, Lufthansa kompaniyasi 1955-yilda o’z faoliyatini tezda tiklab oldi va 1956-yildan boshlab asosan ichki yuk qatnovlari bilan shug’ullandi. 1972-yilda esa o’sha davrning eng yirik yuk samolyotiga, yani “Boing 747F”ga va eng yirik kargo omborxonasiga ega bo’lgan yevropadagi birinchi aviakompaniya

hisoblangan.

Aerokosmik sanoatning o‘lchami so‘nggi o‘n yilliklarda to‘rt barobar kengayib, 2023 yilga kelib 40 milliard yevrodan ortiq daromad yaratdi. Bu tarixiy o‘sish havo yuk tashish segmentining ham texnologik, ham iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi.



1-chizma: Germaniyada Avia orqali yuk tashish salohiyati 2000-2020 yillar oralig’i.

2.1. Havo yuk tashish hajmi va o‘sish tendensiyalari

2006–2023-yillarda Germaniyada havo orqali tashilgan yuk hajmi 31% ga oshib, 4,8 million tonnaga yetdi. Lufthansa Group, Eurowings va Ryanair kabi yirik operatorlar yetakchi rol o‘ynab, Germaniyaning havo yuk bozorini Yevropa miqyosidagi eng keng tarmoqlangan logistika ekotizimlaridan biriga aylantirdi. 2023-yilda Lufthansa Groupning daromadi 35,4 milliard yevroga yetdi, bu havo yuk tashish sektorining korporativ strategiyalar bilan chuqur integratsiyalashganini ko‘rsatadi.

2.2. Aeroportlar bo‘yicha yuk tashish salohiyati

Aeroport	2000-2020 Taxminiy yuk hajmi (tonna)	2000-2020 Umumiy ulushi (%)	2020-2025 Taxminiy yuk hajmi (tonna)	2020-2025 Umumiy ulushi (%)
Frankfurt (FRA)	2,000,000	55%	2,200,000	57%
Munich (MUC)	800,000	22%	850,000	21%
Hamburg (HAM)	500,000	14%	600,000	15%
Cologne/Bonn (CGN)	300,000	9%	350,000	7%
Jami	3,600,000	100%	4,000,000	100%

1-jadval: Germaniya aeroportlari yuk tashish salohiyati 2000-2025.

Frankfurt aeroporti Yevropaning eng yirik yuk markazi sifatida har yili 2,2 million

tonnadan ortiq yukni qayta ishlaydi va Osiyo, Shimoliy Amerika, Yaqin Sharq hamda Afrika yo‘nalishlari bo‘yicha strategik logistika tuguniga aylanadi. Leipzig/Halle aeroporti DHL Aviation va Amazon Air uchun asosiy ekspress-logistika bazasi sifatida tuniga o‘rtacha 2000 tonna yukni qayta ishlaydi. Cologne/Bonn aeroporti UPS va FedEx kabi global operatorlar bilan integratsiyalashgan bo‘lib, Germaniyaning mintaqaviy yuk taqsimot markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

2.3. Strategik ustunliklar va zamonaviy tendensiyalar

1. Multimodal transport infratuzilmasi: Frankfurt, Munich va Berlin aeroportlari temir yo‘l, avtomobil yo‘llari va logistika markazlari bilan yuqori darajada integratsiyalashgan, bu eksport-import operatsiyalarini tez va samarali bajarishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar — avtomobil komponentlari, farmatsevtika, elektronika va mashinasozlik mahsulotlari — uchun muhimdir.

2. Barqarorlik va ekologik transformatsiya: Yevropa Ittifoqining ReFuelEU Aviation tashabbusi doirasida barqaror aviatsiya yoqilg‘isi (SAF) ulushi oshirilmoqda, bu esa Germaniya logistika kompaniyalarini raqamlashtirish, chiqindilarni kamaytirish va past emissiyali samolyotlarni joriy etishga undaydi.

3. Global savdo integratsiyasi: Germaniyada havo yuk tashish xizmatlari eksport-import operatsiyalarida strategik ahamiyat kasb etadi. 2023-yilda Yevropa bo‘yicha yuk tashishning 81,8 % ini extra-EU operatsiyalari tashkil etdi, bu Germaniyani Osiyo–Yevropa va Atlantika savdo yo‘laklarining bosh bog‘lovchisiga aylantiradi.

4. Bozor o‘sish prognozlari: 2033-yilga kelib Germaniya havo yuk bozorining qiymati 24,8 milliard AQSh dollariga yetishi va yillik 5,61% o‘sish sur’atini saqlashi kutilmoqda.

Shu tariqa, Germaniya tajribasi havo yuk tashishning milliy iqtisodiyotdagi muhimligini, zamonaviy logistika tizimlaridagi strategik rolini va global savdo zanjirlaridagi ustunliklarini ochib beradi. Kelgusi o‘n yillikda raqamlashtirish, ekologik transformatsiya va global savdo yo‘nalishlarining qayta shakllanishi Germaniyaning logistika tizimidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

III. Xitoy Xalq Respublikasi avia-logistikasi: rivojlanish va strategik o‘zgarishlar

3.1. Tarixiy rivojlanish va tizim shakllanishi

XXR avia-logistikasi 1990-yillardan boshlab qat’iy tuzilgan va xalqaro yuk aloqalaridan tashkil topgan tizimga aylandi. 1996–2019-yillarda havo yuk tashish hajmi sezilarli o‘sdi: yo‘nalishlar soni kengaydi, aeroport tarmoqlari rivojlandi, parvoz chastotalari va samolyot floti kengaydi. 2000-yillarning boshida maxsus kargo aviakompaniyalari, masalan, China Cargo Airlines (1998), Shanghai Pudong International Airport (PVG) hub sifatida tashkil etildi. 2003-yilda Air China Cargo kompaniyasi ichki va xalqaro yuk tashish bo‘yicha doimiy operatsiyalarni yo‘lga qo‘ydi, bu XXR kargo aviatsiyasining mustaqil va

strategik yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi.

1990-yillardan boshlab Xitoy avia-yuk sektori uch bosqichda rivojlandi:

1. Logistika tarmoqlarining kengayishi va aeroportlararo bog‘lanishlarning rivojlanishi.

2. Maxsus kargo aviakompaniyalarining tashkil etilishi.

3. Xalqaro yuk operatsiyalarining jadal kengayishi va tarmoq diversifikatsiyasiga o‘tish.

Dastlab mamlakat ichki logistika tarmoqlari kengayib, aeroportlararo aloqalar rivojlandi va yuk tashish samaradorligi oshdi. Keyinchalik maxsus kargo aviakompaniyalari shakllanib, yuk tashish mustaqil strategik yo‘nalishga aylandi. Shundan so‘ng xalqaro yo‘nalishlar tez sur’atlarda kengayib, tarmoq diversifikatsiyalandi. Natijada, Xitoy avia-logistikasi global savdoda yetakchi o‘rin egallab, tezkor yetkazib berish va elektron tijoratga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kuchaytirdi hamda xalqaro avia-kargo bozoridagi strategik mavqeini mustahkamladi.

3.2. Havo yuk hajmi va elektron tijorat ta’siri

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda Xitoyda yuk va pochta aviatsiyasi orqali tashilgan umumiy yuk hajmi 8,98 million tonnaga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 22,1% o‘sish demakdir. Global miqyosda havo yuklari talabining o‘sishi 11,3% ga, xalqaro operatsiyalar esa 12,2% ga oshdi (IATA, 2025).

Yil	Umumiy avia yuk hajmi (mln tonna)	E-commerce ulushi (%)	E-commerce yuk hajmi (mln tonna)	O‘sish sur’ati (YoY, %)
2023	16,8	15–18	2,52–3,02	+12,5
2024	20,06	20	4,01	+19,3
2025 (prognoz)	20,7	22–25	4,55–5,18	+6,32

2-jadval: 2023-2025 yillarda Germaniyada umumiy avia yuk aylanmasi va elektron tijorat ulushi

Bu ma’lumotlar XXR havo yuk tarmog‘ining mahalliy va global savdo tarmoqlarida yetakchi o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

2025-yilning birinchi yarmida yangi xalqaro yo‘nalishlar soni 117 taga yetdi, bu 2024-yilga nisbatan +58,1% ni tashkil etdi.

3.3. Bozor diversifikatsiyasi va intermodal logistika

Pandemiya davrida yo‘lovchi samolyotlar yuk tashish uchun ishlatilishi havo tashuv quvvatini kengaytirdi. 2025-yil iyun holatiga ko‘ra, Xitoyda 17 ta kargo aviakompaniyasi 249 ta yuk samolyoti bilan faoliyat yuritmoqda.

Eng yirik 20ta aeroport hubining umumiy daromadi Xitoy yalpi ichki mahsulotining chorakdan ortig‘ini tashkil etadi, ularning yuk hajmi esa butun mamlakat yuk hajmining

80% dan ortig‘ini tashkil etadi.

Shu bilan Xitoy logistika tizimi dengiz, temir yo‘l va avtomobil transporti bilan uyg‘unlashgan intermodal modelga o‘tmoqda, bu esa havo transportini tezlik va ishonchlilik bo‘yicha markaziy bo‘g‘in qiladi.

3.4 SWOT tahlili



Shuningdek, Xitoy avia-yuk tashish sektori global logistika tizimida strategik markaz sifatida shakllanib, kuchli tomonlari va imkoniyatlari bilan barqaror o‘sish potensialiga ega.

Biroq hududiy nomutanosiblik, operatsion xarajatlarning yuqoriligi va raqobat tahdidlari tizimning zaif tomonlarini tashkil qiladi.

IV. Xulosa va tavsiyalar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Germaniya va Xitoyning havo transporti orqali yuk tashish tizimlari global logistika makonida o‘ziga xos strategik ustunliklarga ega.

Germaniyada havo yuk tashish tizimi yuqori darajada rivojlangan aeroport infratuzilmasi, multimodal transport integratsiyasi va yirik kargo aviakompaniyalarining samarali faoliyati bilan ajralib turadi.

Frankfurt, Leipzig/Halle va Cologne/Bonn kabi aeroportlar mamlakat yuk aylanmasining katta qismini qayta ishlaydi va Yevropa hamda global bozorlar bilan uzviy integratsiyalashgan.

Bu tizim nafaqat yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarning tez yetkazib berilishini ta’minlaydi, balki ekologik va raqamlashtirish standartlariga moslashganligi

bilan ham barqaror rivojlanishni kafolatlaydi.

Shu bilan birga, Germaniyada elektron tijorat va tezkor yetkazib berish talablariga moslashtirilgan ekspress-logistika tizimi eksport salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Xitoy tajribasi esa Germaniyadan farqli ravishda jadal transformatsiyalashgan havo yuk tizimi, kengayib borayotgan kargo floti, yangi xalqaro yo‘nalishlar va kross-chegaraviy elektron tijorat bilan chuqur integratsiyalashganligini namoyish etadi.

XXRda intermodal transport (avia–temir yo‘l–dengiz) orqali logistika tizimi tezkorlik, diversifikatsiya va global tranzit samaradorligini ta’minlaydi.

Maxsus kargo aviakompaniyalari, PVG va PEK kabi hub aeroportlari, elektron tijoratga moslashgan ekspress-logistika markazlari mamlakatni tezkor yetkazib beruvchi global markazga aylantirgan. Shu tarzda, Xitoy tajribasi yuk tashish tizimining nafaqat hajm va tarmoq zichligini, balki global savdo oqimlariga tezkor javob berish imkoniyatlarini ham oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu ikki tajribani solishtirish va o‘rganish natijasida bir nechta muhim xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Germaniya modeli O‘zbekiston uchun aeroport infratuzilmasini rivojlantirish va multimodal integratsiya imkoniyatlarini yaratishda qo‘llanilishi mumkin.

Toshkent, Samarqand, Nukus va Urganch aeroportlarini modernizatsiya qilish va ularni temir yo‘l hamda avtomobil yo‘llari bilan bog‘lash milliy transport tizimini tezkor va samarali qiladi.

Ikkinchidan, Xitoy tajribasi maxsus kargo aviakompaniyalarini tashkil etish, xalqaro va mintaqaviy yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish hamda elektron tijorat bilan integratsiyalashgan ekspress-logistika tizimini yaratish bo‘yicha dolzarbdir.

Bu O‘zbekistonning “just-in-time” tamoyiliga moslashgan eksport va import jarayonlarini tezkorlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ikkala davlat tajribasi raqamlashtirish va barqarorlikka katta e’tibor qaratgan.

Germaniyada ekologik standartlar va past emissiyali samolyotlar qo‘llanilishi, Xitoyda esa intermodal integratsiya va elektron tizimlar orqali operatsion samaradorlik oshirilishi O‘zbekiston sharoitida ham amalga oshirilishi lozim.

Barqaror aviatsiya yoqilg‘isi, chiqindilarni kamaytirish va logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali milliy avia-kargo sektori ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lishi mumkin.

Ushbu tahlilga asoslanib, O‘zbekistonning avia-yuk tashish tizimi quyidagicha strategik yo‘nalishlarni olishi mumkin: aeroport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va multimodal transportni rivojlantirish, maxsus kargo aviakompaniyalarini tashkil etish, xalqaro va mintaqaviy yo‘nalishlarni kengaytirish, elektron tijorat va tezkor yetkazib berish

tizimlarini joriy etish, hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash.

Shu tarzda, O'zbekiston Markaziy Osiyoda strategik logistika hubiga aylanib, eksport-import jarayonlarida raqobatbardosh pozitsiyasini mustahkamlashi va global elektron tijorat bozoridagi talabni samarali qondira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Air Transport Association (IATA). Global Air Cargo Demand Achieves Record Growth in 2024. Press release, 29 January 2025.

2. China Federation of Logistics & Purchasing (CFLP) va Global Times. China sees 50% growth in newly-opened international air cargo routes in first six months of 2025. 2025.

3. Xinhua Silk Road (imsilkroad.com). China's air cargo industry sees rapid growth in H1 this year. 2024.

4. Global Times / CMG. China adds 75 international air cargo routes in first four months, nearly 90% to Asia, Europe. 2025.

5. Global Times / CMG. China's logistics market size leads the world for many years: report. 2025.

6. "Fuzzy location and allocation Hub Network Design for Air Cargo Transportation Considering Sustainability and Time Window", Ali Mohammad Malekdar & Mohsen Akbarpour Shirazi, 2025.

7. "Time series forecasting with high stakes: A field study of the air cargo industry", Abhinav Garg, Naman Shukla, Maarten Wormer, 2024.

8. "AI-CARGO: A Data-Driven Air-Cargo Revenue Management System", Stefano G. Rizzo, Ji Lucas, Zoi Kaoudi, Jorge-Arnulfo Quiane-Ruiz, Sanjay Chawla, 2019.

TOG‘AY MURODNING “YULDUZLAR MANGU YONADI” QISSASINING BADIIY-FALSAFIY TALQINI

Shohrux Yoqubov Mamadiyor o‘g‘li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi yoqubovshohrux706@gmail.com +998915044400

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi badiiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarda insonning hayotiy maqsadi, ruhiy poklanish, ezgulik va vijdon tamoyillarining yoritilishi, shuningdek, qismat va irodaning o‘zaro munosabati tahlil markaziga qo‘yiladi. Qissadagi obrazlar tizimi, ramziy qatlamlar, tabiat manzaralarining ma’naviy-ruhiy mazmun yaratishdagi o‘rni, inson va olam uyg‘unligi, yulduzlar timsolining falsafiy yuklamasi izohlanadi. Maqolada yozuvchining badiiy uslubi, lirizm va falsafiy mushohadalar uyg‘unligi, milliy mentalitet aksining poetik xususiyatlari ochib beriladi. Asarning zamonaviy o‘quvchi tafakkuridagi axloqiy-estetik ahamiyati ham yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tog‘ay Murod, “Yulduzlar mangu yonadi”, badiiy tahlil, falsafiy talqin, obrazlar tizimi, ramz, yulduz timsoli, ruhiy kechinma, lirizm, milliy mentalitet, ezgulik, vijdon, qismat, inson va tabiat uyg‘unligi, poetika.*

Tog‘ay Murod ijodi o‘zbek adabiyotida milliy ruh, xalqona so‘zlashuv uslubi va sodda tasvirning o‘ziga xos uyg‘unligi bilan ajralib turadi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasini o‘qiganda, yozuvchining bayon uslubi boshqa ko‘plab adabiy asarlardan mutlaqo farq qilishini sezish mumkin.

Muallif voqealarni go‘yo Surxon vohasidagi tinglovchilariga hikoya qilib berayotgandek tabiiy, jonli va sodda til bilan bayon etadi. Bu uslub nafaqat Surxon eliga, balki mamlakatning istalgan hududidagi o‘quvchiga yaqin bo‘lib, uni matnga chuqurroq sho‘ng‘ishga undaydi.

Qissada bayon tili ortiqcha bezaklarsiz, biroq milliy ruhni kuchli aks ettirgan holda qurilgan va o‘ziga xos poetik nasr yaratgan: qisqa, keskin, mazmunli jumlalar, xalqona iboralar, obrazli tasvirlar matnga jonli ohang beradi.

Bu uslub kitobxonni voqealar ichiga kirgandek his qilishga majbur etadi. Qissa voqealarining tabiiyligi va hayotiyligi aynan shu uslub orqali kuchayadi. Asarning asosiy badiiy qudrati oddiy insonlarning ichki dunyosini tasvirlashda namoyon bo‘ladi.

Qahramonlar uchun or, nomus, g‘urur, uyat, andisha, mardlik, halollik kabi fazilatlar alohida qahramonlik emas - ular milliy mentalitetning tabiiy tarkibi sifatida beriladi.

Yozuvchi ushbu qadriyatlarning yo‘qolib borayotganidan tashvishlanadi va o‘quvchini milliy ma’naviy merosni asrashga undaydi. Qissadagi Bo‘ri polvon obrazi ana shu qadimiy fazilatlarning timsoli bo‘lib, xalqning ko‘hna urf-odatlari, ayniqsa kurash san’atining nozik jihatlarini o‘zida mujassam etadi.

Asarda ko‘tarilgan asosiy muammolardan biri -milliy ma’naviy merosning asta-sekin unutilishi. Bu masala kurashning qadimiy qoidalari, xalqona marosimlar, odob me’yorlari tasviri orqali ochiladi. Muammoning yechimi sifatida muallif xalq qadriyatlarini badiiy yodgorliksifatida qayta tiklaydi, ularni yangi avlodga estetik zavq orqali yetkazadi.

Ikkinchi muammo -qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi uzilish. Yozuvchi buni tasviriy detal va hayotiy lavhalar orqali tahlil qiladi. Yechim sifatida esa u milliy an’analarning zamon bilan uyg‘unlashishi zarurligini ko‘rsatadi: qadriyatlarni inkor etmasdan, balki ularni anglab, yangicha mazmun bilan boyitish.

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasi Tog‘ay Murod ijodining ma’naviy-estetik mohiyatini chuqur yoritib beruvchi asardir.

Muallif milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni zamon bilan uyg‘unlashtirish va avlodlar xotirasiga singdirishning naqadar muhimligini obrazlar, ramziy detallar va hayotiy voqealar orqali isbotlaydi.

Asar o‘zbek xalqining ruhiy olamiga xos fazilatlar — mardlik, halollik, or-nomus, kamtarlik kabi sifatlarning badiiy qiymatini yuksaltiradi.

Yozuvchi milliy ma’naviy meros faqat tarixiy xotira emas, balki jamiyatning bugungi tarbiyasi, madaniy o‘zligi va kelajak istiqbolini belgilab beruvchi omil ekanini ilmiy-badiiy tarzda asoslaydi. Shu jihatdan qissa faqat bir avlod uchun emas, balki milliy ongning izchil davomiyligini ta’minlovchi adabiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

To'g'ay Murodning ushbu asari bizga or-nomus, vijdon va har bir vaqt va an'analarni qadrlashni o'rgatadi. Milliylik, milliy ruh hayotimizning ajralmas bo'lagidir.

Biz ham o'tmishni ham kelajakni unutmasligimiz, har bir an'anaga sodiq qolishimiz kerakdir. Eng asosiysi esa insoniylikni unutmaslikdir. Chunki inson qadri har doim birinchi o'rinda turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murod T. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2009.
2. Norboyeva D. MILLIY QADRIYATLAR BADIIY IFODASI (Tog‘ay Murod qissalari misolida) // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4, № 2. – B. 201–207.
3. Sa’dullaeva Sh. Tog‘ay Murod asarlarida ma’naviy-axloqiy muammolar talqini // – Nukus: SamDU kutubxonasi, 2014.

4. Xolmurodov A. Yozuvchining xarakter yaratish mahorati // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2003. – № 5.

FEATURES OF THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT AND ITS IMPACT ON PEDAGOGICAL PRACTICE

Zokirova Khusniyabonu
Bucheon university Tashkent city

Absrtact: *This paper examines the features of the digital learning environment and its impact on pedagogical practice in preschool education. The study highlights the growing necessity of digital transformation driven by global educational reforms and the accelerated adoption of technologies during the COVID-19 pandemic. Findings reveal that digital tools not only modernize management processes within preschool institutions but also enhance educators' professional competencies, promote the use of artificial intelligence in organizational tasks, and foster a learner-centered approach. Furthermore, the digital environment expands opportunities for interactive learning, creativity, gamification, personalized educational trajectories, and the development of children's cognitive and socio-emotional skills. Overall, the research emphasizes that digital technologies have become a strategic component of contemporary education, contributing to quality improvement, transparency, flexibility, and environmental sustainability in pedagogical processes.*

Key words: *digital learning environment; digital literacy; preschool education; pedagogical practice; artificial intelligence; gamification; personalized learning; professional competence.*

In the context of global transformations associated with the advancement of digitalization and information technologies around the world, fundamental reforms are being carried out to improve the education system, the quality of educational services, and the accessibility of these services.

From this perspective, the development of digital technologies within the preschool education system and the need for their integration into educational processes stand among the contemporary challenges.

In the Republic of Uzbekistan, the ongoing targeted and accelerated reforms in various spheres of society have significantly increased the relevance of improving modern preschool education, which, in turn, influences the evolving requirements for the professional competencies of preschool institution managers and methodologists.

Today, the digital literacy of methodologists and educators constitutes one of the key professional competencies that directly affects the quality of education.

One of the key components of the United Nations Sustainable Development Agenda for 2030 is the provision of quality education.

This initiative is aimed at ensuring inclusive and equitable quality education for all. Digital technologies have become an essential tool for achieving this goal. These technologies make it possible to identify sources of environmental pollution, increase energy efficiency, promote the use of low-carbon alternative fuels, prevent additional ecological damage, and eliminate excess greenhouse gases from the environment.

The current stage of preschool education reform requires the introduction of innovative approaches to management and methodological activities. Traditional management models established in previous periods demonstrate low adaptability to socio-economic changes and are unable to fully meet the digital requirements of the modern educational environment.

Therefore, within the process of digital transformation, it is becoming increasingly necessary to update existing management systems, adapt them to emerging challenges, and elevate them to a qualitatively new level. In this process, digital technologies serve not only as tools for optimizing procedures but also as a crucial strategic management resource.

They expand the opportunities for methodologists and administrators to implement innovative management practices, analyze data flows, and make timely decisions.

The role of digital technologies in the modern education system has become so significant that they are deeply integrated into nearly all areas of pedagogical activity.



Figure 1.2.1. The impact of the digital environment on the educational process.

The implementation of digital systems is aimed at improving the quality of preschool institutions' performance, simplifying organizational processes, and enhancing

management efficiency. For example, the "Smart School Pro" system contributes to achieving the following outcomes[7]:

1. Eliminating digital underdevelopment in preschools by introducing innovative solutions and focusing on improving quality indicators.

2. Optimizing attendance and staff registration through automated tracking of children's attendance schedules and employees' working hours.

3. Automating business processes, which helps streamline key organizational activities and, consequently, increase overall efficiency.

4. Creating user-friendly conditions by simplifying information exchange among educators, methodologists, and parents.

One of the most significant features of this system is the integration of artificial intelligence (AI). AI expands the system's functionality and ensures its alignment with the real needs of preschool educational institutions. For instance: Personalized meal planning: AI autonomously generates individualized menus based on children's health conditions, allergies, or special needs. Acceleration of document workflow: Procedures related to completing and processing documents required for child admission are automated, saving time. Improvement of managerial efficiency: Statistical data essential for administrators and methodologists are analyzed promptly, facilitating decision-making. The system can also integrate with other digital platforms—such as electronic journals, video surveillance systems, and mobile applications.

This creates a unified digital ecosystem that ensures transparency in the educational process and strengthens parental trust. In the future, such systems may include predictive modules. Based on data analytics, they will forecast the institution's upcoming needs—regarding resources, staffing, or supplementary educational programs.

Additionally, the system will be able to adapt to work with children requiring special educational support. The application of information technologies optimizes management processes, saves time, and enhances quality control of institutional performance. As a result, the administrative workload of methodologists and administrators is reduced, as processes such as contract management, orders, medical records, and child development monitoring become automated. Moreover, the system enables methodologists to analyze teachers' performance, monitor the implementation of educational programs, and evaluate overall effectiveness. The user-friendly interface ensures efficient information exchange among administrators, methodologists, educators, and parents.

In such conditions, the issue of developing digital competence among methodologists becomes highly relevant, requiring them not only to possess skills in using technology but also to be capable of applying digital tools to enhance the quality of education.

[7] Smart School Pro. (n.d.). Digital platform for preschool education management. Retrieved December 7, 2025, from https://smartschool.pro/

The COVID-19 pandemic accelerated this process and stimulated the active implementation of digital technologies in pedagogical practice. Consequently, digital technologies have now transformed from being merely supportive instruments into an integral component of pedagogical activities. One of the key advantages of digital technologies is their contribution to environmental sustainability. This is achieved through the reduction of printed materials (books, handouts), saving time and resources, as well as expanding accessibility and research opportunities[8]. As a result, the impact of the digital learning environment is increasing not only in preschool educational institutions but also in the professional development of methodologists themselves. In the global educational process, the use of digital technologies has become a necessity. Online platforms have enabled the organization of lessons, resource sharing, assessment procedures, and the management of daily institutional activities. Initially, the use of such platforms was optional, but the COVID-19 pandemic made their implementation mandatory. While developed countries were technically and infrastructurally prepared for this shift, developing nations faced significant challenges and required substantial adaptation efforts. Under these circumstances, digital technologies served as a crucial support mechanism for the education system[9]. This global crisis demonstrated the vital importance of international integration in the field of education. Digital technologies help children develop problem-solving, logical thinking, analytical skills, and independent decision-making abilities, all of which are essential for their future professional success. Moreover, digital learning tools enable methodologists and educators to organize the learning environment in a more interactive and motivating manner. Each educational institution is now able to adapt its programs based on children's needs. This facilitates the personalization of methodologists' activities and supports the development of innovative approaches tailored to children's interests, knowledge levels, and overall development.

Modern children are increasingly accustomed to actively using electronic devices. Therefore, the integration of technologies into the educational process enhances their interest in lessons and encourages active participation. Through the use of projectors, computers, and other modern tools, children's engagement in learning is strengthened by means of games, project-based activities, oral presentations, and group work. Such activities enable teaching not only through verbal interaction, but also via visual and kinesthetic approaches, thereby improving learning effectiveness. The use of digital tools and devices in preschool education allows children to become active participants in the learning process. In this context, the educator takes on a guiding role, supporting children's

[8] Camilleri, M. A., & Camilleri, A. C. (2017). Digital learning resources and widely used technologies in education (pp. 65–82). Saint Petersburg: Piter.
[9] Javaid, M., Haleem, A., Vaishya, R., Bahl, S., Suman, R., & Vaish, A. (2020). Industry 4.0 technologies and their applications in combating the COVID-19 pandemic. Diabetes & Metabolic Syndrome: Clinical Research & Reviews, 14(4), 419–422.

autonomy in learning. Digital resources such as interactive presentations, audiovisual materials, and multimedia tasks help children acquire knowledge in an enjoyable and engaging manner. Teachers also foster children's creativity and communication by collaboratively creating images and videos, recording audio, and implementing short animation projects with children's involvement. Digital technologies facilitate the application of gamified learning and flipped learning approaches in simple and engaging forms. In preschool institutions, individualized learning pathways can be developed based on each child's interests and developmental pace through the use of digital tools. This makes the educational process more meaningful and inspiring for children.

A number of foreign researchers have conducted significant studies concerning the integration of digital technologies into early childhood education. For example, N. Kucirkova explores the design of digital books and applications for children, as well as the potential for developing personalized reading experiences[10]. She is recognized as an expert who has contributed theoretical foundations for digital literacy and personalized learning. M. Umaschi Bers, co-creator of the Scratch Jr programming language, focuses on developing algorithmic thinking and coding skills in preschool children through digital tools[11]. Her studies support socio-emotional growth and cognitive development via technological engagement. L. Guernsey investigates the impact of screen-based media on children's development, conducting fundamental research on digital media culture, early digital reading, and children's introduction to technology in the early years[12].

In conclusion, the digital learning environment represents an integral component of contemporary education, fundamentally transforming the content, forms, and methods of pedagogical practice. This environment introduces flexibility, interactivity, transparency, and technological convenience into the educational process, thereby advancing the professional activities of teachers and methodologists to a new level. In particular, the implementation of digital technologies in early childhood education fosters the intellectual and creative potential of children, enhances their interest in learning, and supports the development of personalized, learner-centered educational content.

REFERENCES:

1. Bers, M. U. (2012). Designing digital experiences for positive youth development: From playpen to playground. Oxford University Press.

[10] Kucirkova, N. (2020). The future of the book: Writing, reading and accessibility. Emerald Publishing.
[11] Bers, M. U. (2012). Designing digital experiences for positive youth development: From playpen to playground. Oxford University Press.
[12] Guernsey, L. (2012). Screen time: How electronic media—From baby videos to educational software—Affects your young child. Basic Books.

2. Camilleri, M. A., & Camilleri, A. C. (2017). Digital learning resources and widely used technologies in education (pp. 65–82). Saint Petersburg: Piter.

3. Guernsey, L. (2012). Screen time: How electronic media—From baby videos to educational software—Affects your young child. Basic Books.

4. Javaid, M., Haleem, A., Vaishya, R., Bahl, S., Suman, R., & Vaish, A. (2020). Industry 4.0 technologies and their applications in combating the COVID-19 pandemic. Diabetes & Metabolic Syndrome: Clinical Research & Reviews, 14(4), 419–422.

5. Kucirkova, N. (2020). The future of the book: Writing, reading and accessibility. Emerald Publishing.

6. Smart School Pro. (n.d.). Digital platform for preschool education management. Retrieved December 7, 2025, from https://smartschool.pro/

O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING ORNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Malikov Ulug'bek Baxtiyorovich
Turon Universiteti Andijon filiali Magistratura 2-bosqich Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi.
Abdunazarov Shoxruxbek Akrom o'g'li
Diplom raxbari: Phd dotsent

Annotatsiya: *Ushbu ishda O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning tutgan o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Oilaviy tadbirkorlik mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikka berilayotgan soliq imtiyozlari, moliyaviy ko'mak (preferensial kreditlar) va qonunchilik bazasining takomillashtirilishi ushbu sektorning jadal o'sishiga turtki bo'lmoqda. Ishda, shuningdek, oilaviy biznesni rivojlantirishning kelajakdagi istiqbollari – raqamlashtirish, klaster tizimini joriy etish, xotin-qizlar va yoshlarni biznesga jalb qilish kabi strategik yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Oilaviy tadbirkorlik resurslarni optimal taqsimlash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shish salohiyatiga ega ekanligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *oilaviy tadbirkorlik, aholi bandligi, ishsizlik darajasi, mikromoliya, soliq imtiyozlari, preferensial kreditlar, hududiy rivojlanish, kichik biznes, innovatsiya, mahalliy ishlab chiqarish.*

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri aholi bandligini ta'minlash va shu orqali turmush darajasini oshirishdir. Ushbu jarayonda, ayniqsa, qishloq joylarida va kichik shaharlarda oilaviy tadbirkorlik instituti muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1. Aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni

Oilaviy tadbirkorlikning bandlikni oshirishdagi o'rni quyidagilar bilan belgilanadi:

A. Ish o'rinlari yaratishning tezkor mehanizmi

Oilaviy bizneslar asosan mahalliy resurslar va mehnat salohiyati (oilaning a'zolari) asosida tashkil etiladi. Bu esa katta sarmoyasiz, qisqa muddatda qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Har bir yangi tashkil etilgan oilaviy korxona kamida 2-5 kishining doimiy bandligini ta'minlaydi.

B. Nofaollikni kamaytirish (xotin-qizlar va yoshlar)

Oilaviy tadbirkorlik uy sharoitida ish olib borish imkoniyatini berganligi sababli, ayniqsa yosh bolali xotin-qizlarning mehnat faoliyatiga jalb qilinishini kuchaytiradi.

Shuningdek, kasbiy ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlarning o'z biznesini boshlashi uchun ham asos yaratadi.

C. Hududiy tengsizlikni qisqartirish

Yirik sanoat korxonalari asosan markazlarda joylashgan bo'lsa, oilaviy biznes deyarli har bir xonadonda tashkil etilishi mumkin. Bu esa chekka hududlarda ham daromad manbalarini shakllantirish va migratsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

2. Rivojlantirishning asosiy istiqbollari

O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bilan belgilanadi:

A. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish

Preferensial kreditlar: "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida oilaviy bizneslarni moliyalashtirish hajmini oshirish va ajratiladigan kredit turlarini diversifikatsiya qilish.

Mikrokreditlash: Kichik loyihalar uchun yengillashtirilgan va garovsiz (yoki yengil garovli) mikrokreditlash tizimini takomillashtirish.

B. Ta'lim va konsalting xizmatlarini kuchaytirish

Biznes inkubatorlar: Oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus o'quv kurslari, seminarlar va bepul konsalting xizmatlarini (biznes-reja tuzish, marketing) tashkil etish.

Mahalliy amaliyotlar: Oilaviy biznes egalarini tajribali tadbirkorlarga biriktirish orqali "ustoz-shogird" tizimini faol qo'llash.

C. Raqamlashtirish va eksportga yo'naltirish

Elektron tijorat: Oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni elektron savdo platformalari (e-commerce) orqali sotishni kengaytirish.

Klaster tizimi: Oilaviy ishlab chiqaruvchilarni yirik klasterlarga (masalan, to'qimachilik, meva-sabzavot, hunarmandchilik) birlashtirish orqali ularga eksport imkoniyatlarini ochish.

D. Qonunchilik va institutsional sharoitlarni yaxshilash

Soliq yuki: Oilaviy tadbirkorlikning maxsus shakllari uchun soliq yukini yanada optimallashtirish va soddalashtirilgan hisobot tizimini joriy etish.

Ruxsat berish tartib-qoidalari: Biznesni ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritish uchun ruxsat beruvchi tartib-qoidalarni maksimal darajada soddalashtirish.

Xulosa

Oilaviy tadbirkorlik O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy vosita, balki ijtimoiy barqarorlik garovidir. Davlatning tizimli qo'llab-quvvatlashi natijasida ushbu sektor aholi bandligini oshirish, aholining daromadlar bazasini kengaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda o'zining strategik o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda. Kelajakda raqamlashtirish, innovatsiyalar va eksportga yo'naltirish orqali oilaviy

tadbirkorlik mamlakatning kichik va o'rta biznes (KOB) segmentida yetakchi kuchga aylanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayeva G. Aholi bandligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2021. – № 1.
2. Isroilov U.I. Oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish larini takomillashtirish yo‘llari. I.f.n. diss. – Toshkent, 2019.
3. Qodirov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli. // "Bozor, pul va kredit" jurnali. – 2020. – № 6.
4. Xolmatov N. Qishloq joylarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi. // "Moliya" jurnali. – 2022. – № 2.

КАЗАХСКОЕ ЮВЕЛИРНОЕ ИСКУССТВО

Комилова Омина Азам кизи
Магистр кафедры Промышленный дизайн Ташкентский государственный технический унивеситут Республика Узбекистон, г Ташкент
Рахманов Жахонгир Мамашарибович
Дотцент кафедры «Промышленный дизайн» Ташкентский государственный технический университет имени И. Каримова. Республика Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация: *Данная работа посвящена ювелирному искусству Казахстана и его историческому, культурному и экономическому значению. В ней широко освещён путь развития ювелирного дела от эпохи скифов до наших дней. Через древние орнаменты, символы и ювелирные изделия отражены мировоззрение народа, его традиции и культурные ценности.*

Ключевые слова: *Казахстан, ювелирное искусство, искусство, орнамент, символ, культура, история, национальный, традиция, наследие.*

Annotatsiya: *Ushbu tezis Qozog'istonnig zargarlik san'ati va uning tarixiy,madaniy hamda iqtisodiy ahamiyatiga bag'ishlangan. Unda zargarlikning skiflari davridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish yo'li keng qamrovda yoritlgan. Qadimiy naqshlar, ramzlar va zargarlik buyumlari orqali xalqning dunyoqarashi, an'analari va madaniy qadriyatlari aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *Qozog'iston, zargarlik, san'at, naqsh, ramz, madaniyat, tarix, milliy, an'ana, meros.*

Annotation: *This thesis is dedicated to the jewelry art of Kazakhstan and its historical, cultural, and economic significance. It provides a comprehensive overview of the development of jewelry craftsmanship from the Scythian period to the present day. Ancient patterns, symbols, and jewelry pieces reflect the worldview, traditions, and cultural values of the people.*

Keywords: *Kazakhstan, jewelry, art, ornament, symbol, culture, history, national, tradition, heritage.*

Казахстанское ювелирное искусство занимает особое место в мировой культуре и искусстве благодаря своей многовековой истории, уникальным орнаментам и неповторимым техникам.

Это искусство является не только национальным богатством, но и великим наследием, отражающим самобытность народа, его историю и культурные традиции.

Территория Казахстана издавна располагалась на перекрёстке Великого шёлкового пути, что способствовало влиянию различных народов и культур. Ювелирное искусство также сформировалось в результате этого богатого исторического и культурного обмена и сохранило свою подлинную красоту до наших дней.

Исторические корни казахского ювелирного искусства уходят в первое тысячелетие до нашей эры, во времена скифов. Скифы — древние кочевые племена Центральной Азии — считаются народом, достигшим больших культурных и художественных успехов в ювелирном деле.

Их произведения искусства дают богатую информацию о быте, религиозных верованиях и эстетических взглядах общества того времени. Наиболее заметным элементом в ювелирном искусстве скифов является «ЖИВОТНЫЙ СТИЛЬ», в котором часто использовались изображения таких животных, как тигр, волк, орёл, сайгак и лев.

В мировоззрении скифов эти животные имели важное символическое значение, выражая понятия силы, мужества, защиты и мира. Изображения животных обычно встречаются в украшениях, поясах и декоративных элементах, изготовленных из золота или бронзы.

Самым ярким образцом эпохи скифов в казахстанском ювелирном искусстве считается находка «ЗОЛОТОГО ЧЕЛОВЕКА». Это великое археологическое открытие было сделано в 1969 году в Иссыкском кургане и относится к IV веку до нашей эры. «ЗОЛОТОЙ ЧЕЛОВЕК» — скифский воин, украшенный тысячами золотых изделий вместе со своим костюмом, — демонстрирует, насколько сложным и изящным было скифское ювелирное искусство. ВИДЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЙ: ТРАДИЦИОННЫЕ ИЗДЕЛИЯ

Казахстанское ювелирное искусство известно своими древними корнями и богатым культурным наследием. Традиционные ювелирные изделия являются одним из важных элементов, отражающих историческую и культурную самобытность нации. Каждое изделие использовалось не только как красивое украшение, но также выражало социальный статус, религию и ценности общества.

Национальные ювелирные изделия Казахстана в основном применялись в различных обрядах, свадьбах, религиозных ритуалах и других общественных мероприятиях.

Ingliz tilini bilgan mutaxassislar xalqaro kompaniyalarda ish topish imkoniga ega bo'ladi.

5.Zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtirish.

Ko'plab dasturiy ta'minotlar va o'quv platformalari ingliz tiliga asoslangan.

Mavjud muammolar. Shunga qaramay ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud:

o'qituvchilar malakasining hududlar bo'yicha notekisligi;

o'quv resurslarining yetarli emasligi;

amaliy mashg'ulotlar uchun yetarli muhitning yo'qligi;

talabalar til ko'nikmalarining farqli darajada bo'lishi.

Yechimlar.

o'quv darslari davomida kommunikativ meodlaridan keng foydalanish;

multimedia va onlayn platformalarni keng joriy etish;

chet ellik mutaxasisslarni jalb qilish;

inliz tili klublari va amaliy muhitlarini yaratish;

o'qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash.

Xulosa. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ingliz tilining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

U nafaqat talabalarning kasbiy rivoji, balki mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatlashligini oshirishda hamda bevosita muhim rol o'ynaydi.Ingliz tilini chuqr o'rganish ilmiy samaradorlikni oshiradi, ta'lim sifatini yaxshilaydi va yoshlarning global ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham ingliz tilini o'qitish tizimini yana-da takomillashtirish va rivojlantirish O'zbekiston ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish to'g'risida" qarorlari va farmonlari.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining chet tillarini o'qitishni rivojlantirishga oid qarorlari.

3.Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ingliz tilini baholash va CEFR tizximini joriy etishga oid metodik ko'rsatmalari.

4. Nation, I.S.P. & Newton, J. Teaching ESL/ EFL Listening and Speaking. Routledge.

5. " Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

KASAL O‘SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI

Xurramova Shoira

Annotasiya: *Ushbu ishda o‘simliklarda kasalliklar paydo bo‘lganda yuzaga keladigan fiziologik o‘zgarishlar, ularning asosiy sababchilari, metabolik jarayonlarning buzilishi va himoya mexanizmlarining shakllanishi haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan. Biotik va abiotik omillarning o‘simlik fiziologiyasiga ta’siri, fotosintez, nafas olish, suv almashinuvi hamda hujayra darajasidagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kasalliklarga chidamli ekin navlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: Kasal o‘simliklar fiziologiyasi,Fitopatologiya, Biotik omillar, Abiotik omillar, Fotosintez buzilishi, Nafas olish kuchayishi, Suv almashinuvi, Metabolik jarayonlar, Hujayra o‘zgarishlari, Himoya mexanizmlari, Zamburug‘ kasalliklari, Bakterial infektsiya, Virusli kasalliklar, Rezistentlik, Fenol va lignin sintezi, Antioksidantlar, O‘simlik stressi.

***Аннотатция**: в данной работе представлены научные сведения о физиологических изменениях, возникающих у растений при развитии болезней, об их основных причинах, нарушениях метаболических процессов и формировании защитных механизмов. Проанализировано влияние биотических и абиотических факторов на физиологию растений, а также изменения фотосинтеза, дыхания, водообмена и клеточного уровня. Результаты исследования важны для создания устойчивых к болезням сортов сельскохозяйственных куль.*

Ключовы слова: *Физиология больных растений, Фитопатология, Биотические факторы, Абиотические факторы,Нарушение фотосинтеза, Усиление дыхания, Водный обмен,Метаболические процессы, Клеточные изменения, Защитные механизмы, Грибные заболевания,Бактериальная инфекция, Вирусные болезни, Резистентность, Синтез фенолов и лигнина, Антиоксиданты, Стресс растений.*

Annotasiya: *This study presents scientific information on the physiological changes that occur in plants during disease development, their main causal agents, disruptions in metabolic processes, and the formation of defense mechanisms. The impact of biotic and abiotic factors on plant physiology, as well as alterations in photosynthesis, respiration, water balance, and cellular responses, are analyzed. The findings are significant for the development of disease- resistant crop varieties.*

Keywords: *Physiology of diseased plants, Phytopathology, Biotic factors, Abiotic factors, Photosynthesis disruption, Increased, respiration, Water balance, Metabolic processes, Cellular alterations,*

Defense mechanisms, Fungal diseases,Bacterial infection, Viral diseases,Resistance, Phenolic and lignin synthesis,Antioxidants, Plant stress

KIRISH

Kasal o‘simliklar fiziologiyasi nima? Bu fan o‘simliklarda kasallik paydo bo‘lganda ularning ichki fiziologik jarayonlari qanday buzilishi, o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi va metabolizmidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi. U fitopatologiyaning asosiy bo‘limlaridan biri.Kasallangan o'simlik fiziologiyasi o'simliklar kasalliklarining o'simliklar ichida qanday tarqalishini, o'simliklar organizmiga qanday ta'sir qilishini va kasallik paytida o'simlikning kimyoviy va jismoniy o'zgarishlarini o'rganadi. Bu o'simliklarning kasallik qo'zg'atuvchilari bilan o'zaro munosabatlari va kasallik belgilari paydo bo'lishining sabablarini tushunishga yordam beradi.

Kasallik fiziologiyasi quyidagilarni o'rganadi: Patogenlarning kirib borishi va tarqalishi: Kasallik qo'zg'atuvchisi (virus, bakteriya, zamburug') o'simlikka qanday kirib borishi (masalan, yara orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri hujayra devori orqali) va o'simlik ichida qanday tarqalishi.O'simlik hujayralariga ta'siri: Patogenlar o'simlik hujayralarining tuzilishi, vazifasi va metabolizmini qanday o'zgartirishi. O'simlikning javob reaksiyalari: O'simlikning kasallikka qarshi himoya mexanizmlari qanday ishlaydi. Masalan, o'simlik kasallik tarqalishini sekinlatish uchun hujayralarini o'ldirishi (nokroz) yoki maxsus kimyoviy birikmalarni hosil qilishi mumkin. Kasallik belgilari: Kasallik belgilari (masalan, dog'lar, xiralashish, o'sishdan to'xtash) qanday paydo bo'ladi va bu hujayra darajasida nima sodir bo'layotganligi bilan qanday bog'liqligi. O'simlikning metabolizmida o'zgarishlar: Kasallik vaqtida o'simlikning fotosintez, nafas olish, suv va mineral moddalar almashinuvida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ushbu bilimlar kasalliklarni aniqlash, ularga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqish va kasalliklarga chidamli navlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Kasal o'simlik fiziologiyasi - bu o'simliklarda kasallik paydo bo'lgandasodir bo'ladigan fiziologik, biokimyoviy, hujayraviy va molekulyar o'zgarishlarni o'rganuvchi fan sohasi. U fitopatologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, kasallikning rivojlanish mexanizmlarini (patogenez), o'simlikning kasallikka javob reaktsiyalarini va himoya mexanizmlarini tahlil qiladi.

Kasallikning paydo bo'lishi (Patogenez). Kasallik odatda uch bosqichda rivojlanadi:

1) Infeksiya bosqichi. Patogenlar (zamburug', bakteriya, virus, nematoda, hasharotlar) o'simlikka kiradi:Stomalar orqali, yarani orqali, kutikula orqali va ildizdan kiradi.

2) Kolonizatsiya. Patogen o'simlik ichida ko'payadi va uning hujayralariga zarar yetkazadi.

3) Fiziologik buzilishlar. Patogen ferment, toksin, sitokinlar va effektor oqsillarni ajratib chiqaradi bu hujayra metabolizmini buzadi.

Kasal o'simliklarda sodir bo'ladigan asosiy fiziologik o'zgarishlar.

A) Fotosintez kamayadi. Kasallikning eng birinchi belgisi fotosintezning pasayishi. Sababi: Xloroplastlar shikastlanadi, xlorofill parchalanadi, barglarda nekrozlar hosil bo'ladi,gaz almashinuvi buziladi natija energiya tanqisligi va o'sish sekinlashishi kuzatiladi.

B) Transpiratsiya va suv almashinuvi buziladi. Patogenlar ksilemani to'sib qo'yadi (masalan, Fusarium, Verticillium zamburug'lari). Natijada:suv o'tkazuvchanligi kamayadi, o'simlik so'lishi kuchayadi, barg turgori pasayadi, bakterial kuyishlarda esa transpiratsiya keskin ortadi barglar tez quriydi.

C)Hujayra nafas olishi kuchayadi. Kasal o'simliklarda stress nafas olishi ortadi:mitoxondriyalar shikastlanadi, energiya sarfi ko'payadi, "Oksidativstress" kuchayadi Bu jarayon o'simlikning himoya mexanizmlarini ishga soladi, ammo energiya zahiralarini kamaytiradi.

D)Metabolizm buzilishi. Patogenlar o'simlikdan oziqlanishi uchun metabolik jarayonlarni o'zgartiradi: Uglevodlar parchalanishi tezlashadi, kraxmal zaxiralari kamayadi, aminokislotalar buziladi, fenol birikmalari ko'payadi. virusli kasalliklarda oqsil sintezi ham buziladi.

E) Gormonlar disbalansi. Kasallikda o'simlik fitogormonlari o'zgaradi: Gormon o'zgarishi oqibatida auksin kamayadi o'sish sekinlashadi, sitokinin kamayadi barg sarg'ayishi, abssizat kislota (ABA) ortadi stomalar yopilishi, etilen keskin ortadi barg to'kilishi, qarish jarayoni kuzatiladi.

Kasal o'simlik fiziologiyasi o'simlikning patogen bilan "kurashi", kasallikning rivojlanishi va unga javoban yuzaga keladigan fiziologik jarayon hisoblanadi.Kasal o'simliklar fiziologiyasi o'simliklarda kasallik paytida sodir bo'ladigan ichki jarayonlarni o'rganadi. Patogenlar yoki noqulay sharoitlar ta'sirida o'simlikning fotosintez, nafas olish, suv almashinuvi, oziqa moddalar tashilishi va gormonlar muvozanati kabi muhim fiziologik jarayonlari buziladi. Natijada o'simlikning o'sishi sekinlashadi, hosildorligi pasayadi va umumiy hayotiy faoliyati susayadi

Kasal o‘simliklar fiziologiyasi — o‘simlik organizmida kasallik paydo bo‘lganda sodir bo‘ladigan murakkab fiziologik, biokimyoviy va hujayraviy jarayonlarni chuqur o‘rganadigan fan bo‘lib, fitopatologiya rivojida muhim o‘rin tutadi.

O‘simlik kasalliklari yuzaga kelganda birinchi navbatda ularning normal hayot faoliyati izdan chiqadi: fotosintezning pasayishi, nafas olishning kuchayishi, oziq moddalarning qayta taqsimlanishi, suv almashinuvi buzilishi, hujayralar ichidagi metabolik jarayonlarning izdan chiqishi va hujayra strukturalarining shikastlanishi kuzatiladi.

Ushbu o‘zgarishlar o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Biotik omillar — zamburug‘lar, bakteriyalar, viruslar, nematodlar — o‘simlik fiziologiyasiga eng katta zarar yetkazadigan patogenlardir.

Ular o‘simlik to‘qimalariga kirib olib, fermentlar, toksinlar yoki virusli zarralar yordamida hujayra tuzilishini buzadi, modda almashinuvini izdan chiqaradi.

Abiotik omillar, masalan, yuqori harorat, sovuq, tuzlanish, kimyoviy moddalar yoki suv tanqisligi ham o‘simlik fiziologiyasini buzib, kasallik alomatlariga o‘xshash simptomlar keltirib chiqaradi.

O‘simlikning kasallikka javob reaksiyasi murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, avvalo stressga qarshi gormonlar (masalan, ABA) miqdori ortadi, himoya moddalari — fenollar, flavonoidlar, lignin, antioksidantlar — sintezi kuchayadi.

Hujayralarda kallus to‘qimasi hosil bo‘lishi, tomirlarning qalinlashuvi, periderm shakllanishi kabi anatomik- histologik himoya mexanizmlari ishga tushadi. Bu jarayonlar o‘simlikni patogenlarning yanada chuqur kirib borishidan yoki to‘qimalarni butkul nobud bo‘lishidan himoya qiladi.

Kasallik oqibatlari o‘simlikning barcha fiziologik faoliyatini izdan chiqaradi: fotosintez 30–60% gacha pasayadi, o‘sish jarayoni sekinlashadi, organik moddalar zaxirasi tez sarflanadi, barglar erta to‘kiladi, ildizlar sustlashadi, mevalar sifati yomonlashadi.

Og‘ir holatlarda o‘simlikning butunlay qurib qolishi kuzatiladi. Ayniqsa qishloq xo‘jalik ekinlarida kasalliklar hosildorlikning 20–70% gacha yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Agrios, G. N. Plant Pathology. 5th Edition. Elsevier Academic Press, 2005.
2. Taiz, L., Zeiger, E., Møller, I., & Murphy, A. Plant Physiology and Development. Sinauer Associates, 2018.
3. Mohanty, P., Guruprasad, K. N. “Physiology of Diseased Plants.” Annual Review of Plant Physiology, 2010.
4. Strange, R. N. Introduction to Plant Pathology. John Wiley & Sons, 2003.
5. Lucas, J. A. Plant Pathology and Plant Pathogens. Wiley-Blackwell, 2020.
6. Salisbury, F. B., Ross, C. W. Plant Physiology. Wadsworth Publishing, 1992.
7. Fry, W. “Principles of Plant Disease Management.” Academic Press, 1982.
8. Bolay, A. Fundamentals of Plant Protection. Springer, 2016.
9. Agrofitopatologiya asoslari. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi ilmiy-tekshirish institutining o‘quv qo‘llanmasi, 2019.

10.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. O‘simlik fiziologiyasi – darslik, Toshkent, 2017.

STRESS VA HISSIY HOLATLARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Aminova Shodigul

Annotatsiya: *Maqolada stress va hissiy holatlarning inson fiziologiyasi va pedagogik jarayonlarga ta’siri tahlil qilingan. Stressning neyrofiziologik mexanizmlari, hissiyotlarning o‘quv faoliyatiga ta’siri, pedagogik muhitda stressni boshqarish va emotsional intellektni rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *stress, hissiy holat, markaziy asab tizimi, gormonlar, kognitiv faoliyat, ta’lim samaradorligi, pedagogik psixologiya, emosional intellekt, fiziologik reaktsiya*

Аннотация: *В статье проанализировано влияние стресса и эмоциональных состояний на физиологию человека и педагогические процессы. Рассмотрены нейрофизиологические механизмы стресса, их влияние на учебную деятельность, управление стрессом в педагогической среде и развитие эмоционального интеллекта.*

Ключевые слова: *стресс, эмоциональное состояние, центральная нервная система, гормоны, когнитивная деятельность, эффективность обучения, педагогическая психология, эмоциональный интеллект, физиологическая реакция.*

Abstract: *The article analyzes the impact of stress and emotional states on human physiology and educational processes. Neurophysiological mechanisms of stress, their effect on learning, stress management in the educational environment, and development of emotional intelligence are discussed.*

Keywords: *stress, emotional state, central nervous system, hormones, cognitive activity, learning efficiency, pedagogical psychology, emotional intelligence, physiological response.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida" 2019-yil 12-iyuldagi 577-son Qarori mavjud. O‘zbekiston Respublikasida stress va hissiy holatlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini bevosita tartibga soluvchi bitta alohida qaror emas, balki ta’lim muassasalarida psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etish orqali o‘quvchilar va pedagoglarning ruhiy salomatligini saqlashga, ularning hissiy barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan bir qancha me’yoriy hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlar o‘quvchilarning muammolarini hal etish, stressga

chidamlilik va moslashuvchanlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi insonning psixologik, hissiy va fiziologik xususiyatlarini chuqur o‘rganishga asoslangan. Ta’lim samaradorligini oshirish faqat metodik yondashuvlar bilan emas, balki shaxsning ruhiy holatini, hissiy muvozanatini va fiziologik reaksiyalarini hisobga olish bilan bog‘liq. Stress va hissiy holatlar bu jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur va motivatsiya kabi bilish jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Stressning fiziologik asoslari.“Stress” atamasi birinchi bor kanadalik olim Gans Selye tomonidan 1936-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u organizmning har qanday tashqi yoki ichki bosimga javob reaktsiyasi sifatida talqin etilgan. Ta’lim jarayonida stress — talabalarning o‘qishdagi yuklama, baholanish, ijtimoiy taqqoslash va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv kabi omillarga bo‘lgan psixologik javobidir. Stressning ikki asosiy turi mavjud:

- Evstress (ijobiy stress) – o‘quvchini faollikka, mas’uliyatga, muvaffaqiyatga intilishga undaydi;
- Distress (salbiy stress) – ortiqcha ruhiy bosim tufayli o‘qishga qiziqishning yo‘qolishi, charchoq, motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha darajadagi stress bilim olishni rag‘batlantiruvchi omil bo‘lishi mumkin, ammo ortiqcha stress o‘quv jarayonini izdan chiqaradi. U markaziy asab tizimi va endokrin tizimning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Gipotalamusdan kortikotropin relizing gormoni ajraladi, bu gipofizni adrenokortikotrop gormoni ishlab chiqarishga undaydi. Adrenikartikoid esa buyrak usti bezlarini kortizol va adrenalin ishlab chiqarishga majbur qiladi. Bu gormonlar yurak urishini tezlashtiradi, qon bosimini oshiradi, qon oqimini miyaga yo‘naltiradi va “kurash yoki qochish” reaksiyasini faollashtiradi. Shu bilan birga, ortiqcha kortizol miqdori hippokamp faoliyatini susaytiradi — bu esa xotira va o‘rganish jarayonlarini qiyinlashtiradi. Stressning fiziologik bosimi miyadagi prefrontal korteks (qaror qabul qilish, diqqat va tahlil markazi) faoliyatini pasaytiradi, shu bilan birga amigdala (emotsional reaktsiyalar markazi) faolligini kuchaytiradi. Natijada:

-Mantiqiy fikrlash sekinlashadi;

-Diqqat tez chalg‘iydi;

-Uzoq muddatli xotira yomonlashadi;

-Qaror qabul qilishda hissiyot ustunlik qiladi.

Demak, haddan tashqari stress o‘quv jarayonining fiziologik poydevorini — nerv tizimi muvozanatini buzadi.

Hissiy holatlar va ularning ta’lim jarayonidagi roli. Hissiyotlar — bu shaxsning tashqi yoki ichki ta’sirotlarga nisbatan fiziologik va psixologik javobidir. Ular o‘quvchining motivatsiyasi, e’tiborini jamlash darajasi, bilishga bo‘lgan ishtiyoqi va o‘zini baholashiga

bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik jarayonda hissiy holatlarning boshqarilishi ta’lim samaradorligini bevosita belgilovchi omil hisoblanadi Ijobiy va salbiy hissiyotlar farqlanadi;

- Ijobiy hissiyotlar (quvonch, ilhom, ishonch) — dopamin va serotonin kabi neyrotransmitterlarning ko‘payishiga olib keladi. Ular miyada yangi neyron aloqalar hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi, bu esa o‘rganish tezligini oshiradi.
- Salbiy hissiyotlar (qo‘rquv, xavotir, hafsalasizlik) esa kortizol sekretsiyasini oshiradi, diqqatni tarqatadi va motivatsiyani pasaytiradi.

Shu sababli, ta’limda o‘qituvchi tomonidan ijobiy emotsional aloqa va ishonch muhitini yaratish fiziologik va psixologik jihatdan muhim. Psixolog D. Goleman ta’kidlaganidek, “emosional intellekt” — bu insonning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyatidir. Yuqori emosional intellektga ega o‘quvchilar stressni yengilroq boshdan kechiradi, bu esa ularning o‘quv faoliyatini samaraliroq qiladi.

Universitet va kollej muhitida stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlar muhim: 1.Metakognitiv yondashuvlar - talabalarga o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Masalan, vaqtni boshqarish, o‘qish strategiyalarini rejalashtirish va stress-management texnikalari. 2.Interfaol o‘quv metodlari - rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari va muammoli vaziyatlarni birgalikda yechish stressni kamaytiradi va ijobiy hissiy muhitni kuchaytiradi.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash; rag‘batlantiruvchi baholash tizimi, konstruktiv fikr va mentorlik talabalarda ijobiy hissiy holatni shakllantiradi. O‘qituvchining empatiyasi va hissiy intellekti talabalar motivatsiyasi va akademik samaradorligini oshiradi (Goleman, 1995).

Talabalar uchun stressni kamaytirishning ilmiy asoslangan bir nechta usullari mavjud. Masalan: Fiziologik - nafas mashqlari, meditatsiya, yoga, jismoniy mashqlar, uyqu va sog‘lom ovqatlanish usuli hisoblanadi. Psixologik - stressga chidamlilik texnikalari, ijobiy fikrlash, kognitiv-behavioral metodlar usuli. Pedagogik esa interfaol darslar, muvaffaqiyatni rag‘batlantirish, guruh qo‘llab-quvvatlash tizimidir.

Stress va hissiy holatlar insonning fiziologik tizimi va pedagogik faoliyati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni tashkil etadi.

O‘rta darajadagi stress o‘quvchini faollikka undaydi, ammo surunkali yoki yuqori stress kortizol ortiqligiga, neyron aloqalarning susayishiga va o‘qish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Pedagogik jarayonda ijobiy hissiy muhit yaratish, o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va emosional intellektni rivojlantirish — ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridir.

Shu sababli zamonaviy pedagogika o‘qituvchilarning nafaqat intellektual, balki emosional kompetensiyasini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Selye, H. The Stress of Life. New York: McGraw-Hill, 1956.

2) Lazarus, R. S. Psychological Stress and the Coping Process. New York: McGraw-Hill, 1966. 3)Goleman, D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.

4) To‘xtayeva, N. (2021). “Stress holatining ta’lim samaradorligiga ta’siri”. Psixologiya va ta’lim jurnali, №3.

5) Karimov, O‘. (2018). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan nashriyoti. 6)Sapolsky, R. M. Why Zebras Don’t Get Ulcers. New York: Henry Holt, 2004.

7)Jo‘rayev, G‘. (2022). “Hissiy intellekt va o‘quv motivatsiyasi o‘zaro bog‘liqligi”. Ta’lim va fan jurnali.

BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.

Turaboyeva Maftuna Najmiddinovna
Andijon Davlat Pedagogika Instituti 1-kurs magistranti 94-512-27-25

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Integratsiya jarayonida o‘quv predmetlari mazmunining uyg‘unlashuvi o‘quvchilar tafakkurini rivojlantiradi, matnni tahlil qilish, solishtirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida integrativ darslarning samaradorligi, o‘qish savodxonligiga ta’siri va metodik asoslari o‘rganilib, amaliy misollar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, integrativ yondashuv, fanlararo bog‘liqlik, didaktik imkoniyatlar, kompetensiyaviy ta’lim, boshlang‘ich ta’lim metodikasi, matn bilan ishlash, kreativ fikrlash*

Ключевые слова: *читательская грамотность, интегративный подход, начальное образование, компетенции, межпредметные связи, дидактические возможности, креативное мышление, коммуникативные навыки*

Аннотация: *В статье анализируются дидактические возможности интегративного подхода в процессе развития читательской грамотности младших школьников. Установлено, что интеграция учебного содержания способствует развитию мышления учащихся, улучшает навыки анализа текста, сравнения, интерпретации информации и решения проблемных ситуаций. В работе представлены примеры интегрированных уроков, раскрыты их методические особенности и влияние на формирование читательской грамотности.*

Keywords (in English): *reading literacy, integrative approach, primary education, competence, interdisciplinary connection, didactic possibilities, creative thinking, communicative skills.*

Abstract (in English): *The article examines the didactic potential of an integrative approach in developing reading literacy among primary school students. The integration of subject content enhances students’ analytical thinking, text interpretation, comparison skills, and problem-solving abilities. The study outlines methodological principles of integrated lessons, their effectiveness, and practical examples demonstrating the role of integration in improving reading literacy.*

KIRISH

Hozirgi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarda funksional savodxonlik, xususan, o‘qish savodxonligini shakllantirish vazifasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. O‘qish savodxonligi — matnni tushunish, tahlil qilish, ma’lumotlarni solishtirish, xulosa chiqarish va hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatidir. Bu kompetensiyaning rivojlanishi o‘quvchilarning umumiy intellektual salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limning tabiatiga ko‘ra, o‘quv jarayoni ko‘proq turli fanlar mazmunini o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rgatishga asoslanadi. Shu sababli integrativ yondashuv o‘qish savodxonligini yanada samarali shakllantirishda muhim metodik vosita bo‘lishi mumkin. Integratsiya nafaqat bilimlarni yaxlit ko‘rinishda berish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kuzatish, mantiqiy xulosaga kelish, matnni kontekstda tushunish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

1. Integrativ yondashuvning ilmiy-metodik asoslari

Integrativ ta’lim — bu fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish orqali o‘quv jarayonini yaxlit holda tashkil etishdir. Vygotskiy, Dyuи va Bruner kabi pedagog olimlarning nazariy qarashlari integratsiyaning o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Ularning fikricha:

- o‘quvchilar bilimni kontekstda yaxlit qabul qilganda uni amaliy qo‘llashi osonlashadi;
- matn va mazmunning turli ko‘rinishlari bilan ishlash ko‘p yoqlama fikrlashni shakllantiradi;
- fanlararo bog‘lanishlar bolalarning mantiqiy tasniflash, umumlashtirish va tahlil ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich ta’lim uchun integratsiya tabiiy jarayon bo‘lib, bolalar borliqni bo‘laklarga bo‘linmagan holda idrok etadi. Shunday ekan, dars mazmunining integratsiyasi o‘quvchining psixologik xususiyatlariga mos keladi.

2. O‘qish savodxonligining mazmuni va komponentlari

O‘qish savodxonligi bir nechta tarkibiy qismlardan iborat:

1. Matnni yuzaki tushunish – voqealar ketma-ketligini, asosiy mazmunni anglash.
2. Ma’lumotlarni topish va ajratish – matndagi muhim faktlarni saralash.
3. Matnni tahlil qilish va talqin etish – sabab-oqibatni topish, qahramonlar xatti-harakatini izohlash.
4. Matn asosida xulosa chiqarish – bilvosita ma’lumotlarni aniqlash, muallif fikrini anglash.
5. Matnni real hayotga bog‘lash – o‘qilgan mazmunni amalda qo‘llash.

Integrativ yondashuv ushbu komponentlarning har birini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

3. Integrativ yondashuvning o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari

3.1. Matn bilan ishlashning ko‘p formatliligi

Integrativ darslar davomida o‘quvchi faqat badiiy matn bilan emas, balki ilmiy-ommabop matn, diagramma, jadval, sxema, xarita, rasm asosidagi matnlar bilan ham ishlaydi. Bu esa:

- turli matn turlarini tushunish,
- fakt va fikrni ajratish,
- axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3.2. Fanlararo bog‘lanishlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

Masalan:

- “O‘qish + Tabiatshunoslik” integratsiyasi orqali o‘quvchi matnni o‘qib, tabiat hodisalarining sabab va oqibatlarini aniqlaydi.
- “O‘qish + Matematika” integratsiyasi masalalardagi matnni tahlil qilish va mazmunni tushunishni osonlashtiradi.

3.3. O‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash

Integrativ darslarda o‘quvchilar guruhda ishlaydi, munozara qiladi, matn asosida amaliy mashg‘ulot bajaradi. Bu jarayon:

- kommunikativ ko‘nikmalarni,
- ijodiy qarashni,
- tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

3.4. Hayotiylik va motivatsiya

Integratsiya darsni real hayot bilan bog‘laydi, o‘quvchi o‘rganayotgan matnning foydasini sezadi. Ayniqsa loyihaviy yondashuv motivatsiyani kuchaytiradi.

4. Integrativ darslarning namunaviy tahlili

4.1. “O‘qish + Tabiatshunoslik”

“Qushlarning ko‘chishi” matni asosida o‘quvchilar:

- matndan faktlarni ajratadi,
- qaysi qushlarning nega ko‘chishi haqida xulosaga keladi,
- hududlar xaritasini moslamada ko‘rib, ko‘chish yo‘nalishlarini chizadi.

Natijada o‘qish malakasi bilan birga ilmiy tasavvuri kengayadi.

4.2. “O‘qish + Matematika”

Masalaning shartini hikoya sifatida tahlil qilish:

- voqealarning ketma-ketligi aniqlanadi,
- asosiy ma’lumotlar ajratiladi,

- masala yechimiga olib keluvchi mantiqiy zanjir tuziladi.

4.3. “O‘qish + Tasviriy san’at”

Badiiy matn asosida:

- obrazlarni tasvirlash,
- sahna yoki voqealardan kollaj yaratish vazifasi beriladi.

Bu usul matnni his qilish, detalni anglash, ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

5. Integrativ yondashuvning samaradorligi

O‘quvchilar bilan olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki:

- matnni tushunish darajasi oshadi;
- o‘quvchilar savollarni mustaqil shakllantiradi;
- matnlar ustida ishlash tezligi ortadi;
- fikrni ifodalash aniqligi kuchayadi;
- mantiqiy xulosa chiqarish malakasida sezilarli o‘sish kuzatiladi.

Integratsiya o‘quvchilarni faqat matn mazmunini eslab qolishga emas, balki uni tahlil qilishga, qayta ishlashga va amalda qo‘llashga o‘rgatadi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligini rivojlantirish integrativ yondashuv asosida tashkil etilganda yuqori natija beradi. Fanlararo bog‘lanishlar matn bilan ishlashni qiziqarli va mazmundor qiladi, o‘quvchilarning tafakkurini har tomonlama rivojlantiradi. Integrativ darslar o‘quvchini faol, mustaqil fikrlovchi, mazmunni anglab o‘qiydigan va uni real hayotga tatbiq eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilad

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. — Toshkent, 2021.
2. Abdullaeva Sh., Jo‘raeva N. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — Toshkent, 2020.
3. Xasanov H. Integrativ ta’lim metodlari. — Toshkent, 2019.
4. Vygotsky L.S. Psixologiya razvitiya rebenka.
5. Dewey J. Experience and Education.
6. OECD. PISA Reading Literacy Framework. Paris, 2018.
7. Bruner J. The Process of Education.
8. Solovyeva N. Интегративный подход в начальном образовании. Москва, 2020.

PEDAGOGIK FANLARDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Nematova Gulsanam Furqatovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
gulsanamnematova938@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, pedagogik texnologiya, integratsiya ,zamonaviy metod, kompetensiya, ta'lim sifati*

Аннотация:*В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы использования инновационных технологий в педагогическом процессе. Анализируется роль современных педагогических методов в повышении качества образования, активизации учащихся и развитии компетентностного подхода.*

Ключевые слова: *инновация, педагогическая технология, интеграция,современный метод, компетенция, качество образования*

Abstract: *This article explores the theoretical and practical foundations of using innovative technologies in the educational process. The role of modern pedagogical methods in improving education quality, increasing student engagement, and developing a competency-based approach is highlighted.*

Keywords: *innovation, pedagogical technology, modern method,integration, competency, education quality*

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi, asosiy maqsad esa komil inson va yetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, deb belgilandi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil etib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy metodlarni qo'llash o'quvchilarning bilim olish sifatini oshirishga, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning shaxsiy rivojlanishiga va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishga

xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy jihozlar asosida ōtilgan darslar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash,hamda shu bilan birgalikda zamonaviy axborot texnologiyalarini ōrganishga ham yōl ochadi. Bu jarayonlarda albatta pedagogik nazariya ,yangi innovatsiyalar va kōzlangan maqsad asosiy omil hisoblanadi. Quyida bularning barchasi bilan tanishib chiqamiz :

Pedagogik innovatsiyalarning nazariy asoslari bu avvalo yetarli darajadagi bilim ,kōnikmalar, yangi innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar haqidagi yetarlicha bilimlar va boshqalar hisoblanadi.

1.Innovatsion metodlar turlari: ko‘rgazmali metodlar, interfaol metodlar, raqamli pedagogik texnologiyalar, didaktik o’yinlar va boshqalar. Bu vositalar orqali ta’lim jarayoniga yangiliklar kirib boradi va ta'lim oluvchilarning dars jarayonlariga bōlgan qiziqishlari ortadi. Fikrlash doirasi kengayib boradi, individual xususiyatlarini rivojlanadi.Pedagogik innovatsiyalarning mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlami shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

Ta’lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli ōquvchilarning ta'lim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Didaktik o’yinlar davomida shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi.Bugungi kundajamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlaming shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

2.Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonlarida tutgan ōrni. Bu texnologiyalar hozirgi kunning eng muhim qismi hisoblanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlani- shiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Raqamli vositalar: kompyuter, planshet, elektron darslik, virtual laboratoriya va boshqalar. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va ōquvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi. ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

3.Dars rejasi va metodik tavsiyalar. Bunda asosiy e'tibor ta'lim beruvchilarga ya'ni õqituvchilarga qarashli bõladi.O'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish,amaliy tavsiyalar berish,axborot savodxonligi, raqamli madaniyat,madaniyat , ijodkorlik kabi asosiy vazifalarni puxta bilishi kerak bõladi. Shunda ta'lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmaslik darajasi ortib boradi.

4. Innovatsion yondashuvlarning samaradorligi.

1. Ta'lim sifatini oshirish

Innovatsion yondashuvlar o'quv jarayonini interaktiv va faol qiladi. Masalan, "Case-study", "Project-based learning" va raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning bilimni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratadi.

2. O'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish

Interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, dars jarayonida faollikni oshiradi. O'quvchilar o'zini o'qituvchi bilan teng huquqli ishtirokchi sifatida his qiladi, bu esa o'rganishga qiziqishni oshiradi.

3. Individual va diferensial yondashuvni rivojlantirish

Innovatsion metodlar har bir o'quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradi. Masalan, elektron testlar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning individual bilim darajasini aniqlashga yordam beradi va shaxsiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

4. Kompetensiyalarni shakllantirish

Innovatsion yondashuvlar nafaqat bilim, balki o'quvchilarning muammolarni hal qilish, ijodkorlik, hamkorlik va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularni real hayotdagi vazifalarga tayyorlaydi.

5. O'qituvchi faoliyatini samarali qilish

Innovatsion metodlar o'qituvchilarga darsni yanada qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchi pedagogik malakasini oshiradi, o'z metodik yondashuvlarini yangilaydi va dars jarayonini samarali boshqaradi.

6. Samaradorlikni baholash

Test va nazorat savollari orqali bilim darajasini aniqlash

Loyiha ishlari va guruh ishlarini baholash

O'quvchilarning faolligi va ishtirokini kuzatish

Ota-onalar va boshqa o'qituvchilar fikrini inobatga olish

Dars jarayonlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini oshirish, ularning faolligini rag'batlantirish va ta'lim sifatini

yaxshilashga yordam beradi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik metodlarni dars jarayoniga integratsiya qilish ta'limning samaradorligini oshirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kōrib shuni aytishimiz mumkinki , ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchi shaxsini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Masalan:

1. Shaxsiy rivojlanish va kompetensiyalarni shakllantirish.Innovatsion texnologiyalar o'quvchining tanqidiy tafakkur, ijodkorlik, muammolarni yechish va innovatsion yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.Bloomning taksonomiyasi nuqtai nazaridan, innovatsion metodlar o'quvchilarda bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni shakllantiradi.Masalan, "Case-study" va "Project-based learning" metodlari o'quvchilarda amaliy bilimlarni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

2. Ta'lim sifatini oshirish.Innovatsion texnologiyalar dars jarayonini interaktiv qiladi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga xizmat qiladi.Raqamli vositalar (simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar) o'quvchilarga mavzuni ko'rish, sinash va tajriba qilish orqali o'zlashtirish imkonini beradi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol va raqamli metodlardan foydalangan darslarda o'quvchilarning bilim darajasi 20–30% ga oshadi.

3. Motivatsiya va faollikni kuchaytirish. Self-Determination Theory (Deci & Ryan, 1985) asosida, o'quvchilar o'z bilimini nazorat qila olganda va dars jarayonida faol ishtirok etganda motivatsiya oshadi.Interfaol metodlar, onlayn testlar, gamifikatsiya va loyiha ishlari o'quvchilarning qiziqishini rag'batlantiradi.

4. Differensial va individual yondashuv imkoniyatlari. Innovatsion metodlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi.Masalan, adaptiv o'quv platformalari har bir o'quvchi uchun maxsus dars rejasini yaratadi va bilim darajasiga mos mashqlarni taqdim etadi.

5. O'qituvchi faoliyatini optimallashtirish.Innovatsion yondashuvlar o'qituvchiga darsni samarali rejalashtirish, o'quvchilarning faoliyatini monitoring qilish va baholash imkonini beradi.Shu bilan birga, o'qituvchi professional kompetensiyalarini oshiradi va o'z pedagogik amaliyotini doimiy rivojlantiradi.

6. Integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi.Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va pedagogik metodlarni uyg'unlashtirish orqali shaxsiy, akademik va ijtimoiy kompetensiyalar bir vaqtda rivojlantiriladi.Bu ta'lim jarayonining barqarorligi va samaradorligini oshiradi, zamonaviy pedagogik talablar va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi.

Innovatsion texnologiyalar o'quvchining shaxsiy va akademik rivojlanishi, motivatsiyasi va ta'lim sifati uchun muhim vositadir.

Ular dars jarayonini interaktiv, individual va amaliy qiladi, pedagogik jarayonni samaradorligini oshiradi hamda zamonaviy ta'lim standartlariga moslashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent, 2022.
2. Hasanboeva O. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.
3. Xoliqov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
4. Makarenko A.S. Pedagogik poema. – Moskva, 2019.
5. Shakirova G. Ta'limda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent, 2023.

"ENSURING THE INTEGRATION OF PROFESSIONAL EDUCATION WITH THE LABOR MARKET"

Tursunniyozov Bakhtiyor Zoirovich

Navoi region Khatirchi is a special science teacher of public health technical school named after Abu Ali Ibn Sina btursunniyozov@gmail.com

Abstract: *In this article. Introduction of mechanisms for continuous updating of professional knowledge, skills and qualifications of management and pedagogic personnel of professional educational institutions, Integrated systems that provide the opportunity to fully realize the goals envisaged by the main directions of human activity, Professional education The purpose and requirements of the education system, integration of professional education with the labor market are discussed.*

Key words: *professional education, activity, opportunity, potential, formation, reform, system, goal, strengthening.*

Аннотация: *В этой статье. Внедрение механизмов постоянного обновления профессиональных знаний, навыков и квалификации управленческих и педагогических кадров профессиональных образовательных учреждений, Интегрированных систем, обеспечивающих возможность полной реализации целей, предусмотренных основными направлениями деятельности человека, Профессиональное образование. Цель и требования обсуждается система образования, интеграция профессионального образования с рынком труда.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, деятельность, возможность, потенциал, формирование, реформа, система, цель, укрепление.*

It is known that in recent years in the education system brought together the advanced achievements of world science and culture in the education of the new generation, national and spiritual, created as a product of the intelligence of our ancestors modern methods of education based on our values there was a formation problem. Perfect generation of social development basis. Therefore, in our country, both physically and mentally mature generation education has been raised to the level of state policy.

Raising the modern generation with intellectual potential and intelligence, providing them with thorough knowledge is directly related to the high level of knowledge of specialists. We all know that the global socio-economic processes taking place at the beginning of the 21st century are changing the ideological and ideological image of the world and require the formation of a new way of thinking and worldview. It is no

exaggeration to say that this requires fundamental reforms in the education system. Currently, the material and technical base of vocational schools, colleges and technical institutes is being strengthened and the quality of education is being raised to a higher level. The introduction of mechanisms for continuous updating of professional knowledge, skills and qualifications of management and pedagogic personnel of professional educational institutions, as well as the implementation of professional training at the level necessary to ensure the quality of professional education in accordance with modern requirements. The goal and requirement of the professional education system is that young people who have studied in professional educational institutions should acquire the necessary knowledge and skills in their profession instead of specific work.

As the content, goals and tasks of education expand over time, its forms and methods are also improving. As an example, on September 23, 2020, we can note the changes in the "Law on Education" in the new revision. In this law, the role of professional education is of particular importance. Implementation of professional education is carried out mainly in the framework of Primary professional education, Secondary professional education and secondary special professional education by profession and specialty.

Work develops on the integration of education, the integration of the labor market and the integration of education for students. This integration provides opportunities for students to learn about work practices, understand processes, learn on the job, and use new technologies.

Labor education integration will have the following important points:

1. Practice-oriented learning: Learning is done to provide students with practical learning opportunities in the field of work and to enable students to learn by doing.

2. On-the-job training: Integration of internship and on-the-job training experiences. These indicators help students to understand and also learn about the various fields of work.

Work-learning integration provides students with opportunities for real-world learning and practice opportunities.

In the Republic of Uzbekistan, in the conditions of the formation of market relations providing students with economic knowledge and being able to conduct economic activities in them formation of skills and qualifications is of special importance. Economical education - giving students economic knowledge, economic activity in them (family forming a budget, running a household, preserving existing material assets, increase, proper organization of trade relations, etc.) consists of forming skills and competencies, social is considered an important component of education. Economic education is the economic education being implemented in educational institutions is carried out closely with In the organization of economic education, the family, relying on a strong partnership between

the educational institution and the community guarantees positive results. The main goal of economic education and upbringing savings in the minds of students when conducting educational activities, including economic aspects such as business and entrepreneurship consists in forming a conscious attitude towards the characteristics.

In the Address of the President to the Oliy Majlis, starting from the 2020-2021 academic year in our country, in order to adapt the qualifications of personnel to the requirements of the international labor market, we set specific tasks for the development of the National Qualification System, the establishment of 340 vocational schools, 147 colleges and 143 technical institutes in our country. was given. Currently, the main directions of human activity are turning into integrated systems, that is, technologies, which enable the full realization of the intended goals. The qualification system has been tested in developed countries and has succeeded as an integration of the labor market, vocational education, vocational education and training. Therefore, starting from this year, for the first time in Uzbekistan, the system of national and branch specialization, professional standards for professions and specialties, and differentiated educational standards and programs are being introduced. This, in turn, serves to ensure the integration of the education sector with the labor market.

Professional standard is a regulatory document specifying the details, experience, professional skills description, classification (the quality of the products and services provided as a result of labor activities) of the employer for each job position or the applicant for it. It reflects the employee's knowledge, skills and capabilities.

Another important point is that the standard of professional education clearly defines the level of qualification of the employee. Most importantly, this level of qualification serves as a stepping stone for the employee's growth and further specialization.

In order to ensure the quality and efficiency of professional education, educational programs based on the competence approach were created, which teach students to apply the acquired knowledge, skills and abilities directly in their daily life, and their implementation began in the new academic year. Introduction of training in modern agrotechnologies, establishment of "simulation centers" activities will be carried out on the basis of professional educational institutions. Another important aspect is that from now on, based on the possibilities of professional educational institutions and vocational training centers, students will be involved in greenhouse, livestock, beekeeping, fishing, rabbit breeding, poultry, horticulture, lemon growing, and vegetable growing. , entrepreneurship and small business networks are established in the production and service sectors.

LITERATURE:

1. "Strategy of Actions for further development of the Republic of Uzbekistan" 02.07.2017.

2. R. Mavlyanova, N. Rakhmankulova. "Primary education pedagogy, innovation and integration", Tashkent "Voris publishing house", 2013.

3. R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonkulova. "Integrated pedagogy of primary education", Tashkent

XALQARO GLOBAL MUAMMOLAR

Abdullayeva Navro‘za Umidjon qizi
O‘zMPU “Logopediya” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Global muammolar insoniyatning bugungi kunda yuzaga kelayotgan, butun dunyo bo‘ylab jamiyatga ega bo‘lgan jiddiy masalalardir. Ularga iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, kiberxavfsizlik, kambag‘allik va atrof-muhit ifloslanishi kiradi.*

Bu muammolar nafaqat ekologik va iqtisodiy sohalarga, balki inson salomatligi, xavfsizligi va jamiyatning barqaror rivojiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar va barqaror rivojlanish strategiyalari zarurdir.

Kalit so‘zlar: *Global muammolar, iqlim o‘zgarishi, pandemiya, kiberxavfsizlik, kambag‘allik, atrof-muhit ifloslanishi, inson salomatligi, ekologiya, barqaror rivojlanish, xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiya.*

Аннотация: *Глобальные проблемы — это серьёзные вызовы, имеющие важное значение для всего человечества. К ним относятся изменение климата, пандемии, кибербезопасность, бедность и загрязнение окружающей среды. Эти проблемы оказывают негативное влияние не только на экологию и экономику, но и на здоровье людей, безопасность и устойчивое развитие общества. Для их решения необходимы международное сотрудничество, современные технологии и стратегии устойчивого развития.*

Ключевые слова: *глобальные проблемы, изменение климата, пандемии, кибербезопасность, бедность, загрязнение окружающей среды, Загрязнение окружающей среды, здоровье человека, экология, устойчивое развитие, международное сотрудничество, современные технологии.*

Annotation: *Global issues are serious challenges that hold significant importance for all of humanity. These include climate change, pandemics, cybersecurity, poverty, and environmental pollution. Such problems negatively affect not only the environment and human health, but also human safety and the sustainable development of society. Addressing them requires international cooperation, modern technologies, and sustainable development strategies.*

Keywords: *Global issues, climate change, pandemics, cybersecurity, poverty, environmental pollution, human health, ecology, sustainable development, international cooperation, modern technologies.*

Global muammo butun dunyoni jamiyat oldidagi va insoniyatning kelajagi uchun xavf tug‘diradigan turli xil omillardir. Masalan, iqlim o‘zgarishi – bu asosan atmosfera haroratining oshishi, dengiz sathining ko‘tarilishi va ob-havo hodisalarining o‘zgarishi tufayli iqlimning keskinligi, daryo va dengizlar suvi kamayishi, ko‘plab hayvon va o‘simlik turlarining yo‘qolishi.

Ko‘plab turdagi omillarning o‘zgarishiga sababchi bo‘lmoqda. Bunda o‘simliklar, hayvonlar va meva-sabzavot yetishtirish qiyinlashmoqda. Aholining o‘sishi va tabiiy resurslarning kamayishi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bu kiber xavfsizlik tamoyilidagi muammolardir. Bularga viruslar va zararli dasturlar, fishing (oldest orqali ma’lumot olish), ransomware (fayllarni shifrlab, pul talab qilish) kabi hujumlari, parollarni buzish va boshqa ko‘plab turdagi yo‘nalishlari bor.

Bu yo‘nalishdagi tamoyillardan barcha sohalar jiddiy tarzda aziyat chekmoqda. Shuni ham ta’kidlash o‘rinliki: kiber xavfsizlik muammosining to‘liq yechimi yo‘q, lekin insonlar murakkab parol yaratish, noma’lum manbalardan kelgan havolalarni ochmaslik, shubhali e-mail va ilovalardan foydalanmaslik, shuningdek muhim ma’lumotlarni doimiy zaxiralab turish va texnologik vositalardan to‘g‘ri foydalanish orqali katta yo‘qotishlarning oldini olish mumkin. Global muammolardan yana biri pandemiyadir.

Pandemiya – bu butun dunyo bo‘ylab yoki bir necha qit’ada tarqalgan, keng miqyosdagi yuqumli kasallikdir. Dunyoning ko‘plab hududlarida bir vaqtda tarqalishi, xavfliligi tufayli ko‘plab insonlar hayoti uchun xavf tug‘diradi. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, XIV asrda “qora o‘lim” vabo kasalligi tarqalib, ko‘proq Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, 75–100 million insonning hayotdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘lgan. Bunga misol qilib COVID-19ni ham keltirishimiz mumkin.

O‘zbekiston hududiga 2020-yil kirib kelgan va rasmiy pandemiya deb e’lon qilingan. Rasmiy statistikaga ko‘ra 6 milliondan ortiq inson vafot etgan. Pandemiyaga qarshi kurashishda tibbiyot, fan, davlatlararo hamkorlik va aholining hushyorligi talab etiladi. Atrof-muhit muammolari: masalan, havo tarkibi.

Transport vositalari, mashinalar, zavodlar va yopiq joylardan chiqayotgan tutun va gazlar havo ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Sanoat chiqindilari, kimyoviy moddalar, plastiklarning tarqalishi, o‘rmonlarning kesilishi kislorod kamayishi, hayvonlar yashash joyining qisqarishi, chiqindilar muammosi – plastik va boshqa parchalanmaydigan moddalar to‘planib borishi. Bular barchasi global muammo yuzaga keltirmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning yo‘llari bor. Biz agar daraxt ekadigan bo‘lsak, kislorod ko‘payadi, tuproq eroziyasini kamayadi. Chiqindilarni ajratib tashlash qayta ishlashni osonlashtiradi va ifloslanishni kamaytiradi. Suvni tejash, ichimlik suvining zaxirosi saqlanib boradi.

Agar siz velosipedda yoki o‘rishga ketayotgan bo‘lsangiz va siz boradigan joy yaqinroq bo‘lsa avtomobilda emas, velosiped transportidan foydalanishingiz maslahat beriladi.

Chunki, bu sog‘ligingiz va faoliyatingiz uchun ham foydali hisoblanadi. Atrof-muhit bizning hayotimizning asosi. Uni asrash – hozirgi va kelajak avlodlar uchun sog‘lom, toza va xavfsiz hayotni ta’minlash demakdir.

Qashshoqlik ham global muammolar qatoriga kiradi. Qashshoqlik butun dunyoni chetlab o‘tmagan tamg‘oq desak adashmagan bo‘lamiz. Hatto bu tamg‘oq bizning yurtimizda ham bor. O‘zbekistonda qashshoqlikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha yetti ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan kompleks dastur amalga oshirilmoqda.

Bu haqda Shavkat Mirziyoyev 17-sentabr kuni Namanganda bo‘lib o‘tgan “Qashshoqlikdan farovonlik sari” xalqaro forum ochilishida aytib o‘tdi. Davlat rahbari ayniqsa e’tiborini, kambag‘al aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish o‘rinlarini ko‘paytirib, odamlar barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun sharoit yaratilayotganiga qaratdi. Chunki, iqtisodiy o‘sish iqtisodiy o‘sish ortidan qadamba-qadam qashshoqlikni.

O‘zbekiston 2030-yilga borib qashshoqlikni keskin qisqartirish bo‘yicha olgan majburiyatini bajarish borasida harakat qilayotganini ta’kidladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan global muammolar insoniyatning barqaror rivojlanishiga katta to‘siq bo‘lmoqda. Global muammolar faqat bitta mamlakat yoki mintaqaning masalasi emas, balki butun insoniyatning umumiy vazifasi sifatida ko‘rilishi zarur. Muammolarni hal qilish uchun har bir insonning mas’uliyatli yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Biz kelajak avlod uchun sog‘lom va barqaror dunyo qoldirishimiz kerak.Shu bois,resurslardan oqilona foydalanish,tabiatni muhofaza qilish,ekologiyani,sog‘liqni asrash lozim.

Falsafada shunday bir jumla bor “Agar sen tabiatga zarar bersang,kun kelib u albatta sendan qastini oladi”deyilgan.Shuning uchun biz tabiatni asramog‘imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.B.T Jabborov,Sh.A Xalillayev-“Iqlim o‘zgarishi va ekologik moslashuv”.

2.Petrov Yu.V,Egamberdiyev H.T,Aloutdinov M,Xolmatjanov B.M “Iqlimshunoslik”

3.L.A.Alibekov “Geo-Ekologik muammolar”

4.Gazeta.uz.

TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI ÒRGANISH VA YANGI BANK MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQISH

Tursunov Faridun
SamISI, Bank ishi kafedrasi assistenti
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li
SamISI, BI-122 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot tijorat banklarida mijozlar ehtiyojini chuqur o'rganish va yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Global raqobat sharoitida mijozlarga yo'naltirilganlik strategiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada mijoz ehtiyojini aniqlash metodologiyalari, innovatsiya strategiyalari, raqamli texnologiyalar va shaxsiylashtirishning o'rni muhokama qilinadi. Tadqiqotda banklarning daromadliligi va raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion xizmatlarning ahamiyati yoritilgan. Xulosalar va tavsiyalar banklarga mijoz ehtiyojlarini samaraliroq tushunish va bozorda muvaffaqiyatli yangi mahsulotlarni joriy etishga yordam berishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mijoz ehtiyoji, Bank mahsulotlari, Innovatsiya, Raqamli bankchilik, FinTech, Mijoz qoniqishi, Tijorat banklari, Mahsulot rivojlantirish*

Аннотация: *Данное исследование анализирует теоретические и практические аспекты глубокого изучения потребностей клиентов и разработки новых банковских продуктов в коммерческих банках. В условиях глобальной конкуренции возрастает значение клиентоориентированной стратегии для банков. В статье обсуждаются методологии определения потребностей клиентов, инновационные стратегии, роль цифровых технологий и персонализации. Исследование освещает решающее значение инновационных услуг для повышения рентабельности и конкурентоспособности банков. Выводы и рекомендации направлены на то, чтобы помочь коммерческим банкам более эффективно понимать потребности клиентов и успешно выводить на рынок новые продукты.*

Ключевые слова: *Потребности клиентов, Банковские продукты, Инновации, Цифровой банкинг, FinTech, Удовлетворенность клиентов, Коммерческие банки, Разработка продуктов*

KIRISH

Hozirgi shiddatli globallashuv va raqamli transformatsiya davrida tijorat banklari misli ko'rilmagan o'zgarishlar va raqobat bosimi ostida faoliyat yuritmoqda. An'anaviy bank xizmatlari bilan bir qatorda, FinTech kompaniyalari va innovatsion startaplar tomonidan taklif etilayotgan muqobil yechimlar mijozlar kutganini doimiy ravishda oshirib bormoqda. Bunday sharoitda, banklarning bozordagi mavqeini saqlab qolish va mustahkamlash, shuningdek, barqaror o'sishni ta'minlash uchun mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ularni qondiradigan yangi, innovatsion bank mahsulotlarini ishlab chiqish ustuvor vazifa hisoblanadi. Mijozlarga yo'naltirilganlik strategiyasi endilikda shunchaki ustunlik emas, balki banklar uchun yashash shartiga aylanib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi bank sektorida innovatsion rivojlanishning o'sib borayotgan ahamiyati va mijozlarning o'zgaruvchan talablariga moslashish zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy bank mijozlari nafaqat moliyaviy xizmatlardan foydalanishni, balki ushbu xizmatlarning qulay, shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan, tezkor va xavfsiz bo'lishini talab qilmoqdalar. Bu talablar banklarni o'z operatsion modellarini qayta ko'rib chiqishga, raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritishga va yangi mahsulotlarni ishlab chiqishga undaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklarida mijoz ehtiyojlarini samarali o'rganish mexanizmlarini tahlil qilish, yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish jarayonining bosqichlarini yoritish va bu jarayonlarda raqamli texnologiyalar va innovatsiya strategiyalarining o'rnini baholashdan iborat. Shuningdek, ushbu tadqiqot tijorat banklari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilgan bo'lib, ular bozorda raqobatbardosh ustunlikka erishish va mijozlar bazasini kengaytirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mijoz ehtiyojini o'rganish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish masalasi iqtisodiy va menejment adabiyotlarida keng yoritilgan muhim yo'nalishlardan biridir. Nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv har qanday muvaffaqiyatli biznes strategiyasining negizini tashkil etadi. Philip Kotler o'z asarlarida bozorga yo'naltirilganlikni va mijozlar qadriyatini yaratishni marketingning asosiy tamoyillari sifatida ta'kidlaydi. Bank sektorida mijoz ehtiyojini tushunish ayniqsa muhimdir, chunki moliyaviy xizmatlar ko'pincha murakkab va mijozlarning turli segmentlari uchun turlicha talablarga ega.

Tasheva Nigina Umarovna tomonidan olib borilgan tadqiqot innovatsion bank xizmatlari va ularning bank daromadliligi uchun ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion bank xizmatlari va mahsulotlari banklarning sof foydasini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Raqamli bankchilikni keng joriy etish tijorat banklariga samarali operatsion tuzilmalarni rivojlantirish imkonini beradi, iste'molchilarga shaffof, tezkor, yuqori sifatli va real vaqt rejimida xizmatlarni taqdim etadi.

Bu o'z navbatida raqobatbardoshlikni, daromadlilikni, mijozlar bazasini va bankning umumiy imidjini yaxshilaydi. Ushbu tadqiqot yuqori texnologiyali xizmatlarga bo'lgan iste'molchi talabining ortib borishini innovatsiyaning asosiy drayveri sifatida belgilaydi va moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytirish hamda to'lov tizimlarini takomillashtirish uchun bank ishini raqamlashtirishni ta'kidlaydi. O'zbekiston ham ushbu tendensiyalarni qabul qilib, Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020-2025 yillardagi farmoyishlari va 2017-2021 yillardagi Harakat strategiyasi kabi tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Bu chora-tadbirlar bank sektorini modernizatsiya qilish, kredit kartalarini joriy etish, masofaviy bank xizmatlarini (SMS, Internet, Mobil-banking) kengaytirish, kartali operatsiyalar tariflarini kamaytirish va elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan.

Bank sohasida mijozlar xizmatlarini baholashga bag'ishlangan yana bir maqolada raqobatbardosh bank sektorida mijozlarni saqlab qolishda mijozlar qoniqishining muhim roli ko'rsatilgan. Tadqiqot mijozlar qoniqishiga ta'sir qiluvchi bir qator omillarni, jumladan, xizmat sifati, ishonchlilik, kafolat, javobgarlik va empatiyani aniqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aniqlangan xizmat omillari va mijozlar qoniqishi o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu sohalardagi yaxshilanishlar tijorat banklarida mijozlarni saqlab qolishni kuchaytirishi mumkin. Bu banklarning o'z mahsulotlarini loyihalashda ushbu omillarni hisobga olishlari zarurligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlilini o'tkazish, ayniqsa bank sektoridagi mijozlar qoniqishi kabi murakkab mavzular bo'yicha, keng qamrovli tadqiqotlarni, turli manbalarni sinchkovlik bilan tanqidiy tahlil qilishni va ma'lumotlarni yagona, izchil bayonga sintez qilishni talab qiladi . Ushbu talablar shuni ko'rsatadiki, har bir bank o'zining mijozlariga oid bilim bazasini doimiy ravishda yangilab turishi va ularning ehtiyojlarini tushunish uchun metodologiyalarni takomillashtirishi zarur.

Nazariy jihatdan, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish jarayoni innovatsiya menejmentining asosiy qismini tashkil etadi. Bu jarayon g'oyalarni shakllantirishdan tortib, ularni sinovdan o'tkazish, biznes tahlili, mahsulotni rivojlantirish, bozor sinovi va yakuniy tijoratlashtirishgacha bo'lgan bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi. Har bir bosqich mijoz ehtiyojlari va bozor talablarini chuqur tushunishga asoslanishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Mijoz ehtiyojlarini o'rganish va yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish uchun keng qamrovli tadqiqot metodologiyasi zarur bo'lib, u ham sifat, ham miqdoriy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Sifat metodlari mijozlarning chuqur motivlari, intilishlari va muammolarini tushunishga yordam beradi, miqdoriy metodlar esa kengroq mijozlar bazasida tendensiyalarni va preferensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Fokus-guruhlar va intervyular: Bu metodlar mijozlarning mahsulot yoki xizmatga bo'lgan munosabatini, ularning kutganlarini va norozilik sabablarini chuqur o'rganish

imkonini beradi. Ochiq savollar va erkin muhokamalar orqali kutilmagan tushunchalarni aniqlash mumkin.

So'rovnomalar va anketalar: Keng miqyosli ma'lumotlarni to'plash uchun qulay. Banklar ushbu metod yordamida mijozlarning demografik xususiyatlari, xizmatlardan foydalanish chastotasi, qoniqish darajasi va yangi mahsulotlarga bo'lgan qiziqishi haqida miqdoriy ma'lumotlarni yig'adi. Maybank xodimlari o'rtasida o'tkazilgan 25 ta savolnomani tahlil qilish uchun SPSS dasturidan foydalangan holda olib borilgan tadqiqot bunga misol bo'ladi.

Mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilish (Data Mining): Banklar o'zlarining mavjud ma'lumotlar bazalaridan foydalanib, mijozlarning xatti-harakatlari, tranzaksiya tarixi va mahsulot afzalliklari haqida qimmatli ma'lumotlarni olishlari mumkin. Katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili mijozlarning ehtiyojlarini prognoz qilish va shaxsiylashtirilgan takliflarni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Tasheva Nigina Umarovna tadqiqotida Least Squares method va vaqt qatorlari regressiyasi kabi miqdoriy tahlil usullaridan foydalanganligi bank daromadliligi va innovatsion xizmatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda ma'lumotlarga asoslangan yondashuv muhimligini ko'rsatadi.

Etnografik tadqiqotlar: Mijozlarning kundalik hayotida bank xizmatlaridan qanday foydalanishini bevosita kuzatish orqali yashirin ehtiyojlarni va muammolarni aniqlash mumkin. Bu, ayniqsa, mobil bankchilik va raqamli to'lovlar kabi yangi texnologiyalar kontekstida muhim.

Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish jarayoni bir necha asosiy bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich mijoz ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan:

G'oyalarni shakllantirish: Mijozlardan, xodimlardan, raqobatchilardan va bozor tahlillaridan yangi mahsulot g'oyalarini to'plash. Dizayn-fikrlash (Design Thinking) yondashuvi ushbu bosqichda samarali bo'lishi mumkin.

G'oyalarni saralash: Eng istiqbolli g'oyalarni aniqlash va resurslarni kamroq samarali g'oyalarga sarflashning oldini olish. Bu yerda g'oyalarning bozor salohiyati, texnik imkoniyatlar va moliyaviy afzalliklari baholanadi.

Konsepsiya ishlab chiqish va sinash: Tanlangan g'oyani batafsil mahsulot konsepsiyasiga aylantirish va uni maqsadli mijozlar guruhi bilan sinovdan o'tkazish. Mijozlar qabul qilishini va afzalliklarini baholash.

Biznes tahlili: Yangi mahsulotning moliyaviy prognozlarini, narx strategiyasini va marketing rejasini ishlab chiqish. Daromadlilik, xarajatlar va risklar baholanadi.

Mahsulotni rivojlantirish: Konsepsiyani amaliy mahsulotga aylantirish. Bu bankning IT, operatsion va huquqiy bo'linmalari bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi.

Bozor sinovi: Mahsulotni cheklangan bozor segmentida yoki mintaqada sinovdan o'tkazish. Bu kichikroq miqyosda mahsulotning bozor qabulini tekshirish va yakuniy tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Tijoratlashtirish: Mahsulotni keng bozorga chiqarish. Bu keng qamrovli marketing kampaniyasi, savdo kanallarini tayyorlash va mijozlarga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Banklar inkremental (mavjud mahsulotlarga kichik o'zgarishlar kiritish) va radikal (tamoman yangi mahsulotlar yaratish) innovatsiya strategiyalarini qo'llashlari mumkin. Ko'pgina banklar inkremental innovatsiyalarni afzal ko'rishsa-da, raqamli asrda raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun radikal innovatsiyalarga ham e'tibor qaratish zarur. Hamkorlik (FinTech startaplari bilan), Open Banking va API integratsiyasi kabi yondashuvlar yangi mahsulotlarni tezroq va samaraliroq ishlab chiqishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar mijoz ehtiyojlarini tushunish va yangi bank mahsulotlarini yaratish usullarini tubdan o'zgartirmoqda.

FinTech yechimlari: FinTech kompaniyalari to'lovlar, kreditlash, investitsiya va boshqa moliyaviy xizmatlarda innovatsion yondashuvlarni taklif etib, an'anaviy banklarni raqobatga undaydi. Banklar FinTech yechimlarini integratsiya qilish orqali o'z mahsulotlarini yaxshilashlari yoki yangi mahsulotlar yaratishlari mumkin.

Shaxsiylashtirish: Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish (Machine Learning) texnologiyalari yordamida banklar mijozlarning individual ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishlari mumkin. Bu, masalan, shaxsiy byudjet boshqaruvi vositalari, moslashuvchan kredit takliflari yoki maqsadli investitsiya mahsulotlari bo'lishi mumkin. Raqamli bankchilikning kengayishi iste'molchilarga yuqori sifatli, real vaqt rejimida xizmatlar ko'rsatishga yordam beradi.

Mobil bankchilik va raqamli kanallar: Mobil ilovalar va internet-banking mijozlar bilan bevosita aloqa nuqtalariga aylanib, banklarga mijozlarning xatti-harakatlari haqida real vaqt rejimida ma'lumotlar to'plash va yangi funksiyalarni tezda joriy etish imkoniyatini beradi. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini (SMS, Internet, Mobil-banking) kengaytirishga e'tibor qaratilishi ushbu tendensiyani tasdiqlaydi.

Avtomatlashtirish va blokcheyn: Operatsiyalarni avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi, blokcheyn esa shaffof va xavfsiz tranzaksiyalarni ta'minlaydi, bu esa yangi turdagi mahsulotlarni, masalan, raqamli aktivlar bilan bog'liq xizmatlarni yaratish uchun asos bo'lishi mumkin.

Xulosa

Tijorat banklarida mijozlar ehtiyojini o'rganish va yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish zamonaviy bank biznesining ajralmas qismidir. Raqobat muhitining kuchayishi va texnologik yutuqlar banklarni mijozlarga yo'naltirilganlikka va doimiy innovatsiyaga

majbur qiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mijoz ehtiyojlarini chuqur tushunish banklarning raqobatbardoshligini oshirish, daromadlilikni yaxshilash va mijozlar bazasini kengaytirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Innovatsion bank xizmatlari va raqamli transformatsiya, Tasheva N.U. tadqiqotida ta'kidlanganidek, banklarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Banklar mijoz ehtiyojlarini sifat va miqdoriy tadqiqot metodologiyalari (fokus-guruhlar, so'rovnomalar, ma'lumotlar tahlili) orqali aniqlab, ularni yangi mahsulotlarni ishlab chiqish jarayonining har bir bosqichiga integratsiya qilishlari kerak. Raqamli texnologiyalar, FinTech yechimlari, sun'iy intellekt va shaxsiylashtirish bu jarayonni tezlashtiradi va mahsulotlarning mijozlarga mosligini oshiradi.

Mijozlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish: Banklar doimiy ravishda mijozlar bilan muloqotda bo'lishlari, ularning fikr-mulohazalari, takliflari va shikoyatlarini muntazam ravishda to'plashlari kerak. Bu mijozlar xizmatlarini baholashda muhim omillarni hisobga olishga yordam beradi.

Raqamli infratuzilmaga investitsiya qilish: Raqamli bankchilik platformalarini, ma'lumotlar tahlili vositalarini va kiberxavfsizlik tizimlarini modernizatsiya qilish ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Bu banklarga samarali operatsion tuzilmalarni rivojlantirish va real vaqt rejimida xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi.

FinTech hamkorlikni kengaytirish: Innovatsion FinTech startaplari bilan hamkorlik qilish orqali banklar yangi texnologiyalardan foydalanishlari va mahsulot ishlab chiqish jarayonini tezlashtirishlari mumkin.

Shaxsiylashtirilgan yondashuvni joriy etish: Mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish asosida shaxsiylashtirilgan moliyaviy mahsulotlar va maslahatlarni taklif qilish orqali mijozlar qoniqishini va sodiqligini oshirish.

Innovatsiya madaniyatini shakllantirish: Bank ichida innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi madaniyatni yaratish, xodimlarni yangi g'oyalarni ilgari surishga undash va ularni amalga oshirish uchun resurslar ajratish.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar: O'zbekiston bank sektorida FinTech yechimlarining innovatsion mahsulotlarga ta'sirini yanada chuqur empirik tahlil qilish, shuningdek, turli mijoz segmentlari (masalan, yoshlar, kichik biznes subyektlari) uchun shaxsiylashtirilgan bank mahsulotlarining samaradorligini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kotler, Philip, and Kevin Lane Keller. Marketing Menejmenti. Boston: Pearson, 2016.
2. Smith, Peter. Moliyaviy xizmatlar marketingi. Abingdon: Routledge, 2018.

3. Levesque, Terrence J. "Chakana bankchilikda mijoz mamnuniyatining belgilovchilari." Xizmatlar Marketingi Jurnali, vol. 11, no. 2, 1997, pp. 107-118.

4. Mishra, Sanjiv. "Hindistondagi chakana banklar uchun yangi mahsulotlarni ishlab chiqish jarayoni." Xalqaro Bank Marketingi Jurnali, vol. 27, no. 4, 2009, pp. 293-306.

5. Chishti, Susanne, and Janos Barberis (Eds.). FinTech Kitobi: Investorlar, Tadbirkorlar va Vizyonerlar Uchun Moliyaviy Texnologiyalar Qo'llanmasi. Chichester: John Wiley & Sons, 2016.

ISHLAB CHIQARISHDA QAYTARILMYDIGAN OMILLARNI DISRPERSION TAHLILI

Raximov Abdulaxad Nematovich
(Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchisi)

Annotatsiya: *Maqolada Samarqand viloyatida qishloq xo`jalik mahsulolari ishlab chiqarishning dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga bog`liqligi o`rganilgan. Statistik ma`lumotlar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlariga mahsulotlari ishlab chiarishning bog`liqligi masalasi qo`yilgan. Natijada dispersion va iqtisodiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar:*taqsimlangan kechikish, tendensiya, ishlab chiqarish, chorvachilik mahsulotlari, regressiya tenglamasi, tasodifiy omillar, determinatsiya koeffiytsienti.*

Аннотация: *В статье исследуется зависимость производства сельскохозяйственной продукции в Самаркандской области от производства сельскохозяйственной и животноводческой продукции. На основе статистических данных ставится вопрос о зависимости производства продукции сельского хозяйства. Результат-дисперсионный и экономический анализ.*

Ключевые слова: *тренд, производство, производство продукции животноводства, уравнение регрессии, случайные факторы, коэффициент детерминации.*

Annotation: *The article studied the dependence of the production of agricultural products on the production of agricultural and livestock products in the Samarkand region. On the basis of Statistics, the question of the dependence of the production of products on agricultural products is posed. The result was dispersion and economic analysis.*

Keywords: *trend, production, livestock production, regression equation, random factors, coefficient of determination.*

KIRISH

2024-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 179,7 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 3,2 % ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 5 352,2 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 70,0 ming tonna go‘sht (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 3,3 % ga ko‘p), 295,5 ming tonna sut (3,8 % ga ko‘p), 212,2 mln. dona tuxum (5,8 % ga ko‘p) va 451,5 tonna baliq (171,7 % ga ko‘p) ovlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy abstraksiya, kuzatish, qiyoslash, dispersion tahlil usuliga asoslangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Qishloq xo’jalik mahsulotlari, xususan chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish haqida mahalliy va chet el olimlari tomonidan ilmiy-tekshirish va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xorij olimlari Svi Grillixes, I.Tinbergen, V.N. Afanasev, S.A. Ayvazyan, A.M.Gataulin, N.M.Goreyeva, T.A.Dubrova, L.N.Demidova, O.P.Krastin, N.Sh.Kremer, N.P.Tixomirov, I.I.Yeliseyeva, Ye.M.Chetirkin va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda optimallashtirish masalalari bo’yicha tadqiqot ishlari olib borgan olimlardan S.S.G’ulomov, B.Yu.Xodiyev, B.A.Begalov, B.Berkinov, T.Sh.Shodiyev, Yo.Abdullayev, N.B.Ashurova, S.K.Salayev, N.Q. Murodova, I.S.Abdullayev va boshqalar sanoat va qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ekonometrik va iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda prognozlashtirish masalalari bo’yicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borishgan va olib bormoqdalar.

Materiallar va usullar

Samarqand viloyati 2016-2024-yillarda qishloq xo`jaligida chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishi 1-jadvalda berilgan.

Samarqand viloyati 2016-2024-yillarda qishloq xo`jaligida chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarish[13]

1-jadval

Yillar	Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so`m	Shu jumladan,	
		Dehqonchilik	chorvachilik
2016-y.	17 088,6	10 592,9	6 495,7
2017-y.	21 506,8	13 762,7	7 744,1

[13] https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2

2018-y.	25 658,0	15 035,3	10 622,7
2019-y.	28 379,5	15 445,4	12 934,1
2020-y.	33 759,4	18 331,4	15 428,0
2021-y.	41 206,1	22 333,7	18 872,4
2022-y.	42 088,9	21 472,0	18 956,0
2023-y.	49 025,9	26 331,1	22 694,8
2024-y.	56 830,8	30 688,6	26 142,2
2025-y. yanvar-sentabr	42 933,3	20 634,5	22 298,8

2-jadval ma`lumotlari asosida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni grafikda ko`rib chiqamiz.



1-chizma. Qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarish

O'rganilayotgan omilning ishonchli ta'siri bilan a qiymati e qiymatidan oshib ketadi, a ning e dan oshib ketish darajasiga ko'ra, ushbu omilning ta'siri qanchalik ishonchli ekanligini baholash mumkin. Turli gradatsiyalarni yoki miqdoriy darajalarni olishi mumkin bo'lgan bitta omilning ta'siri tahlil qilinganda biz eng oddiy sxemani tahlil qilamiz: 1,2,3,..., p. individual kuzatuvlar (variantlar) ushbu omil gradatsiyalariga muvofiq guruhlarga bo'linadi. Bir darajadagi kuzatishlar soni: 1,2,3, ...,j,... q.

Kuzatishlarning umumiy soni N=p·n. Bitta omilni farqlashda variantning taqsimlanishi jadvalda keltirilgan: q-har bir guruhdagi kuzatuvlar soni; p-guruhlar soni (a omil darajalari); N-barcha variantlarning soni N=p·n , i-turli darajalar; j-har xil kuzatishlar.

Erkinlik darajalari:

1. Umumiy dispersiya uchun k0=N-1, bu erda N = p· n
2. Faktorli dispersiya uchun Kp=p-1
3. Qoldiq dispersiya uchun Ke=N-p.

Dispersiya(tafovutlar)ni hisoblash uchun formulalar

1. Kvadratik og'ishlarning umumiy va omilli yig'indisi formulalari, bunda omil darajalari soni n, har bir darajadagi sinovlar soni p.

Kvadratik og'ishlarning umumiy formulasi:

$$S_{umum} = \sum_{j=1}^{n} S_j - \frac{1}{np}\left(\sum_{j=1}^{n} T_j\right)^2$$

Kvadratik og'ishlarning omili formulasi:

$$S_{omilli} = \frac{1}{q}\sum_{j=1}^{n} T_j^2 - \left(\sum_{j=1}^{n} T_j\right)^2$$

Kvadratik og'ishlarning qoldiqli formulasi:

$$S_{qoldiq} = S_{umum} - S_{omilli}$$

Faktorli (omilli) dispersiya:

$$\sigma^2_{oml} = \frac{S_{umum}}{p-1}$$

Qoldiq dispersiyasi:

$$s^2_{qoldiq} = \frac{S_{qoldiq}}{p \cdot (q-1)}$$

.

Nol gipoteza. Dispersiyani tahlil qilishda dastlab qabul qilingan nol gipotezadan kelib chiqish kerak, bu omil va bu belgining o'zgaruvchanligiga ta'sir qilmaydi. Agar nol gipoteza to'g'ri bo'lsa, unda A nolga teng bo'lishi kerak, ya'ni, butun o'zgarish faqat tasodifiyga o'zgaradi.

Dispersiyani tahlil qilishda dastlab qabul qilingan nol gipotezadan chiqish kerak, bu omil va bu belgining o'zgaruvchanligiga ta'sir qilmaydi.

Qiymatning ishonchliligi xatosi:

$$F_{his} = \frac{\sigma^2_{omil}}{\sigma^2_{qoldiq}}$$

Erkinlik darajalari soni bo'yicha k1, k2 va ahamiyat darajasi bo'yicha α = 0,05 biz standart ahamiyat darajasini tanladik) biz tanqidiy nuqtani topamiz: $F_{крит}$ krit bo'lganligi sababli , gipotezani rad etish kerak, omilning ta'siri muhim (aniqlangan) $F_{his} > F_{крит}$.

Shunday qilib, turli xil texnologiyalar turli xil samaradorlik natijalarini beradi. Materialni assimilyatsiya qilish darajasi bo'yicha uchta namuna o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Omilning samaradorlikka ta'sirini isbotlash bilan bir qatorda belgi, ko'pincha ushbu ta'sirning o'lchovini o'rnatish zarurati paydo bo'ladi va uning ulushi barcha omillarning ta'siri yig'indisida.

A omil ta'sirining ulushi quyidagi formula bilan topiladi:

$$P_A = \frac{\sigma^2_{omil} - \sigma^2_{qoldiq}}{\sigma^2_{omil} + (n-1)\cdot\sigma^2_{qoldiq}}.$$

indeks qayerda (um) yig'ish barcha qatorlar va ustunlar bo'yicha amalga oshirilishini bildiradi. Agar barcha ustunlardagi kuzatuvlar soni bir xil bo'lsa, unda n – har bir ustundagi kuzatuvlar soni va k – ustunlar soni.

Bir omili dispersion tahlil

Umumiy						
Guruhlar	Soni	Summa	O'rtacha	Дисперсия		
JAMI	10	358477,3	35847,73	161484048		
DEHQONCHILIK	10	194627,6	19462,76	37225839,3		
CHORVACHILIK	10	162188,8	16218,88	44555874,2		
Dispersion tahlil						
Variatsiya	SS	df	MS	F	P-qiymat	F kritik
Omilli	2214272506	2	1,11E+09	13,6534165	7,99605E-05	3,354130829
Qoldiqli	2189391858	27	81088587			
jami	4403664363	29				

Fisher mezoniga ko'ra $F_{his} = \frac{MS_{омил}}{MS_{qoldiq}} = \frac{1107136253}{81088587}$, $F_{his} = 13{,}65$ qiymat jadvaldan topilgan qiymat F_{jad}= 3,35 dan katta.

Demak, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ihlab chiqarish normal taqsimotga bo‘ysinadi.

Xulosa va takliflar: ishlab chiqarishning samarali faoliyat olib borishi bo’yicha xulosa va takliflar keltiramiz:

Modelning ahamiyatliligi va adekvatligini baholash uchun F-Fisher mezoni yordamida baholanadi.

Modelning zichligi va adekvatligini baholash uchun Fisher mezonidan foydalaniladi.

3) Quyidagi statistik gipoteza qo’yiladi:

Hisoblangan $F_{xuc} > F_{жад}$ ekanligi kelib chiqsa, normal taqsimot qonuniga bo‘ysunadi. Bunda $F_{his} = 38{,}8 \rangle F_{jad}$= 3,17

Dispersion tahlildan foydalanilib ko’p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasi orqali hisoblaganimizdan so’ng:

Guruhlarning mahsulot ishlab chiqarishiga ta'sirining ulushi $P = 0{,}81$ ga tengligidan ta‘siri 81 % ga teng ekanligi kelib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кувайскова, Юлия Евгеневна. Эконометрика : учебное пособие / Ю. Е. Кувайскова. – Уляновск : УлГТУ, 2017. – 166 с.

2. A.N. Raximov. Ekonometrikaga kirish. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. –T.: «Iqtisodiyot», 2023, 388 bet.

3. Raximov Abdulaxad Nematovich. Econometric analysis of production by german method. May.31.2022. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 153–157. Retrieved from http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/47

4. Qo'shboqov Abduhamid Norjigitovich, Raximov Abdulaxad Nematovich. Klaster tizimi va bozor iqtisodiyoti munosabatlari. «Интернаука»: научный журнал – № 43(219). Част 4. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. – 84 с.

5. Rahimov Sanjar Abdulahadovich. ISSUES ON ANALYSING PRODUCTION PROCESSES BY USING PRACTICAL ECONOMETRIC MODEL. International journal of trends in commerce and economics ISSN: 2349-543X VOL. 11. Issue 1 http://academicjournalonline.org/index.php/ijtce/issue/archive. 2021 y.

6. Raximov Abdulaxad Nematovich. Iqtisodiy masalalarni yechishda ekonometrik tahlil va Darbin-Uotson mezoni. SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS: INTERNATIONAL AND NATIONAL CONCEPTS" International scientific - practical conference. Page 399-405. 19-20 May, 2023| Samarkand branch of Tashkent state university of economics. www.sbtsue.uz.

7. Raximov Abdulaxad Nematovich. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning ekonometrik tahlili. He Journal of Economics, Finance and Innovation, 1(3), 2023. Page 18–23. Retrieved from http://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/25. Published 2023-06-12. http://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/issue/view/4

8. Raximov Abdulaxad Nematovich. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni Koyk modeli bilan tahlil qilish. SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS: INTERNATIONAL AND NATIONAL CONCEPTS" International scientific - practical conference. Page 399-405. 19-20 May, 2023| Samarkand branch of Tashkent state university of economics. www.sbtsue.uz.

MAKTABGACHA TA’LIMDA SIFATNI TA’MINLASHGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK VA TASHKILIY OMILLAR

Sadikova Farida Tulkinovna
Toshkent shahridagi Puchon universiteti 1-kurs magistranti
Turayeva D R
Ilmiy rahbar Phd., dotsent.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan psixologik va tashkiliy omillarning o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagoglarning emotsional farovonligi, motivatsiyasi, professional o‘zini anglash darajasi, shuningdek, ta’lim muassasasida shakllangan tashkiliy madaniyat va rahbarlik uslubi sifat jarayonlarining barqarorligiga qanday ta’sir etishi yoritiladi. Maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga pedagoglarning psixologik tayyorgarligi, jamoaviy hamkorlik, ochiq muloqot muhiti hamda boshqaruvning qo‘llab-quvvatlovchi shakllari muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asosda bayon etiladi. Maqola sifatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda inson omilini ustuvor deb biluvchi yondashuvni ilgari suradi va amaliy takliflar taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *psixologik omillar; tashkiliy madaniyat; maktabgacha ta’lim sifati; pedagog motivatsiyasi; rahbarlik uslubi; emotsional farovonlik; jamoaviy hamkorlik; sifatni boshqarish.*

KIRISH

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida sifatni ta’minlash masalasi davlat siyosati va pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bolaning ilk rivojlanish bosqichida ta’lim jarayonining samaradorligi nafaqat metodik yondashuvlar, balki ta’lim tashkilotining ichki psixologik muhiti va tashkiliy boshqaruv madaniyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, sifatni ta’minlashni faqat me’yoriy-huquqiy talablar yoki pedagogik texnologiyalar samaradorligi bilan cheklab bo‘lmaydi, balki bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun inson omiliga tayangan kompleks yondashuv zarur bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xodimlarning psixologik holati, motivatsiyasi, tashkiliy muhitga nisbatan qoniqish darajasi hamda jamoa ichidagi muloqot sifati bevosita ta’lim jarayoni natijalariga ta’sir qiladi. Ijobiy psixologik muhit, ochiq muloqot, konstruktiv rahbarlik, shaxsga yo‘naltirilgan qo‘llab-quvvatlash tizimi bolalar bilan ishlovchi pedagoglarning o‘z vazifalarini ishonch bilan, yuqori mas’uliyat va ijodkorlik ruhida bajarishiga xizmat qiladi. Aksincha, yuqori stress darajasi,

noaniq vazifalar taqsimoti, sust kommunikatsiya yoki jamoaviy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi sifatni ta’minlash jarayonida turli to‘siqlarni vujudga keltirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’limda sifatning shakllanishi bu bir vaqtning o‘zida psixologik omillar, jamoaviy munosabatlar, rahbarlik strategiyalari va tashkiliy jarayonlarning o‘zaro ta’siridan iborat murakkab tizimdir. Sifatni oshirish bo‘yicha joriy qilinayotgan yangiliklarning samarasi pedagoglarning o‘zgarishlarga tayyorligi, ularni qabul qilish darajasi hamda tashkilotdagi umumiy psixologik farovonlikka tayanadi. Organik ravishda shakllangan ijobiy tashkiliy madaniyat esa innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik ruhini kuchaytirish va sifatni doimiy takomillashtirish imkonini beradi.

Shunga qaramay, mazkur omillarning maktabgacha ta’lim tizimidagi roli hali ham to‘liq ochib berilgan emas; ayrim tadqiqotlar ko‘proq tashkiliy model, me’yoriy talablar yoki metodik yondashuvlarga e’tibor qaratadi, biroq psixologik omillar va ularning sifatga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishini kompleks tahlil qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

ASOSIY QISM

Maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlash jarayoni ko‘p omilli va kompleks hodisa bo‘lib, u faqat pedagogik texnologiyalar yoki metodik yondashuvlar orqali emas, balki ta’lim muassasasining ichki psixologik muhiti hamda tashkiliy boshqaruv tizimi orqali ham shakllanadi. Zamonaviy tadqiqotlar maktabgacha ta’lim sifatining o‘sishida psixologik omillar – pedagoglarning emotsional holati, motivatsiyasi, kasbiy o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan tayyorgarligi – muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shuningdek, tashkilotning boshqaruv modeli, kommunikativ jarayonlari, rahbarlik uslubi ham ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar sifatida qaraladi.

Avvalo, psixologik xavfsizlik va ijobiy emotsional muhit maktabgacha ta’lim muassasasida sifatli pedagogik jarayonning asosi hisoblanadi. Pedagog o‘z fikrini erkin bildira olishi, yangiliklarni sinab ko‘rishda qo‘llab-quvvatlanishi va o‘z faoliyati doirasida xatolardan qo‘rqmasligi lozim. Bunday muhit innovatsion yondashuvlarga ochiqlikni oshiradi, jamoada sog‘lom kommunikatsiya shakllanishiga imkon yaratadi. Psixologik zo‘riqish, ortiqcha nazorat, kelishmovchiliklar esa aksincha, pedagogning kasbiy samaradorligini pasaytiradi va ta’lim jarayonining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sifatni ta’minlashning muhim omillaridan biri pedagoglarning kasbiy motivatsiyasi va o‘z faoliyatidan qoniqish darajasidir. O‘z mehnatining ahamiyatini anglagan, kasbiy o‘sish uchun imkoniyatlarga ega bo‘lgan pedagoglar bolalar bilan ishlashda ko‘proq tashabbus, mehr-muhabbat va mas’uliyat namoyon etadilar. Rahbar tomonidan beriladigan rag‘bat, ijobiy baholash, muntazam metodik qo‘llab-quvvatlash pedagogning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ichki ehtiyojini mustahkamlaydi. Aksincha, kasbiy qadrsizlanish, ortiqcha yuklama va past ijtimoiy baho motivatsiyani sustlashtiradi, bu esa sifat ko‘rsatkichlarining kamayishiga sabab bo‘ladi.

Tashkiliy omillar ichida rahbarlik uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi rahbarlik jamoada ochiqlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat tamoyillarini kuchaytiradi. Bunday sharoitda pedagoglar qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi, o‘z mas’uliyatini chuqurroq his qiladi va sifat standartlarini amalga oshirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Avtoritar boshqaruv, aksincha, ijodkorlikni cheklaydi, tashabbusning susayishiga olib keladi va jamoaning psixologik barqarorligini buzadi.

Maktabgacha ta’limda sifatga erishishda kommunikatsiya tizimining samaradorligi ham katta rol o‘ynaydi. Ochiq muloqot, o‘z vaqtida berilgan axborot, tashkiliy jarayonlarning shaffofligi pedagoglarning bir maqsad atrofida birlashishiga yordam beradi. Jamoada o‘zaro fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish, bolalar rivojlanishiga oid kuzatuv va tahlil natijalarini muntazam muhokama qilish sifat monitoringining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim sifatini saqlashda tashkilot madaniyatining o‘rni beqiyosdir. Yuqori tashkiliy madaniyatga ega bo‘lgan jamoalarda umumiy qadriyatlar, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va professional etikaga rioya etish tamoyillari ustuvor bo‘ladi. Bu esa pedagoglarning kasbiy faolligini oshirib, bolalarga ko‘rsatiladigan pedagogik xizmatlarning barqaror sifatda bo‘lishini ta’minlaydi.

Yana bir muhim omil – pedagoglarning stressni boshqarish qobiliyati va psixologik farovonligidir. Ta’lim jarayonida yuz beradigan qiyinchiliklar, bolalar bilan ishlashdagi emosional yuklama, tashkiliy o‘zgarishlar pedagogning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik yordam, mentorluk, sog‘lomlashtiruvchi tadbirlar, ish va dam olish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash kabi qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’limda sifatni ta’minlash faqat me’yoriy-huquqiy talablar yoki metodik ko‘rsatmalar bilan cheklanmaydi. Bu jarayon pedagogning shaxsiy farovonligi, jamoaning psixologik muhiti, tashkiliy tuzilma va rahbarlik faoliyatining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois sifatni oshirishga qaratilgan har qanday islohot avvalo inson omiliga, ya’ni pedagogning ehtiyojlari, motivatsiyasi, qobiliyatlari va ruhiy holatiga e’tibor qaratgan taqdirdagina muvaffaqiyatli natija beradi.

XULOSA

Maktabgacha ta’limda sifatni ta’minlash jarayoni nafaqat metodik va tashkiliy mexanizmlar, balki ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga ta’sir etuvchi psixologik omillarning uyg‘unlashuvini ham talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning psixologik farovonligi, motivatsiyasi, kasbiy o‘sishga bo‘lgan intilishi, tashkilotdagi ijobiy emotsional muhit, samarali rahbarlik va ochiq kommunikatsiya tizimi sifatni boshqarish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkiliy madaniyatning rivojlanganligi, jamoaning hamkorlikka tayyorligi, innovatsion yondashuvlarga ochiqlik ham sifatni ta’minlashning barqarorligini ta’minlaydi. Stressni boshqarish, pedagoglarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur resurslarni yaratish, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini berish sifat menejmentining real natija berishiga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha ta’limdagi sifatni oshirish jarayonining markazida inson omili turadi. Shunday ekan, pedagoglarning psixologik ehtiyojlari, emotsional barqarorligi va kasbiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish — sifatni boshqarish tizimining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi.

Kelgusida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifatni ta’minlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda aynan shu omillarga alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Turaqulov, H. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

2. To‘raeva, D. R. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

3. Saidahmedov, N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

4. Yo‘ldoshev, J., & Usmonov, S. Ta’lim sifatini boshqarish nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2021.

CHET TILINI O‘RGATISHDA BLOOM KOGNITIV BOSQICHLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI

Axmedov O‘ktamjon O‘roqovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola chet tilini o‘rgatish jarayonida Bloom kognitiv taksonomiyasi bosqichlarining didaktik ahamiyatini zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan qayta talqin qiladi. Maqolada an’anaviy bilim–tushunish–qo‘llash modeli bilan chegaralanib qolmay, kognitiv jarayonlarning chuqurlashuvi, o‘quvchi tafakkurining metakognitiv faollashuvi va til kompetensiyalarining integrativ rivojlanishidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada Bloom bosqichlarining chet tili darslaridagi real ta’lim jarayoniga qo‘llanish mexanizmlari, xususan, tilni tushunish, lingvistik analiz, ijodkorlikni talab qiluvchi kommunikativ topshiriqlar, yuqori darajadagi fikrlashni talab etuvchi tahliliy va sintez faoliyatlari bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti, adaptiv o‘qitish texnologiyalari va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar sharoitida Bloom taksonomiyasining yangi didaktik funksiyalari qayta ko‘rib chiqiladi. Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, taksonomiyaning bosqichma-bosqich qo‘llanishi o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki tilni mantiqan, tizimli va ijodiy o‘zlashtirishga yordam beradigan yuqori darajadagi kognitiv strategiyalarni shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar: *Bloom taksonomiyasi, kognitiv bosqichlar, chet tili o‘qitish metodikasi, metakognitiv rivojlanish, didaktik strategiyalar, yuqori darajadagi tafakkur, ta’lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy pedagogika, kognitiv jarayonlar.*

KIRISH.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchining faolligiga, mustaqil fikrlashiga, ijodiy yondashuviga va yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga tayangan holda tashkil etilayotgan hozirgi davrda pedagogik jarayonni ilmiy asosda rejalashtirish hamda o‘qitish samaradorligini oshirish masalasi o‘ta dolzarb bo‘lib bormoqda. Xalqaro til ta’limi metodologiyasida kognitiv jarayonlarni chuqur o‘rganishga imkon beradigan, o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirish orqali yuqori darajadagi tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan Bloom taksonomiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. U nafaqat o‘quv faoliyatini modellashtirish, balki chet tilini o‘rgatishda bilimdan amaliyotga, amaliyotdan tahlilga, tahlildan esa ijodiy sintezga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini yaratish imkonini beruvchi samarali didaktik vosita sifatida baholanishi mumkin.

Chet tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchi til birliklarini yod olish yoki matn mazmunini yuzaki tushunish bilan cheklanib qolmaydi. Til o‘rganish jarayoni mohiyatan murakkab

intellektual faoliyat bo‘lib, unda eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yangi til materiallarini ijodiy qayta yaratish kabi kognitiv bosqichlar izchil tarzda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, Bloom taksonomiyasi chet tilini egallashning psixolingvistik, lingvodidaktik hamda metodik asoslari bilan uyg‘unlashgan holda o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini izchil boshqarish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida chet tili ta’limi faqat grammatik me’yorlar yoki lug‘at boyligini o‘zlashtirish demak emas, balki o‘quvchini kommunikativ, madaniyatlararo, sotsiolingvistik va nutqiy kompetensiyalarga ega mustaqil subyekt sifatida shakllantirishni talab etadi. Shu ma’noda Bloom taksonomiyasi an’anaviy bilim berish modelidan farqli ravishda o‘rganilayotgan til materialini funksional vaziyatlar orqali ongli va faol qayta ishlashni, talabaning fikrlash strategiyalarini shakllantirishni, mantiqiy mushohada yuritishni, ijtimoiy-kommunikativ vazifalarni mustaqil hal etishni ko‘zda tutadi. Aynan shuning uchun ham ko‘plab xorijiy ta’lim tizimlarida Bloom kognitiv bosqichlari til o‘qitishda o‘quv dasturlarining asosiy konstruktiv modeli sifatida qaralmoqda.

Chet tilini o‘rgatishda Bloom taksonomiyasining qo‘llanishi nafaqat o‘qituvchi faoliyatini tizimlashtiradi, balki o‘quvchining idrok jarayonlarini o‘lchash, baholash va rejalashtirish imkonini ham kengaytiradi. Masalan, pastki darajadagi kognitiv faoliyat — yodlash va tushunish — grammatik qoidalar, so‘z ma’nolari, talaffuz me’yorlarini o‘zlashtirishda muhim bo‘lsa, yuqori darajadagi bosqichlar — tahlil, baholash, yaratish (sintez) — matn ustida ishlash, argumentativ fikrlash, ijodiy yozuv, og‘zaki muloqotda erkin xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu jarayonlarning barchasi tilni chuqur, integrativ va barqaror o‘zlashtirishning poydevorini yaratadi.

Shu bilan birga, Bloom taksonomiyasining didaktik ahamiyati uni chet tilini o‘qitish texnologiyalariga uyg‘unlashtirish bilan yanada kuchayadi. Digital resurslar, interaktiv platformalar, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimlari, kommunikativ metodika va muammoli o‘qitish yondashuvlari bilan qo‘shilganda, taksonomiya o‘quvchining kognitiv faolligini yanada oshiradi va ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, maqsadli, izchil va samarali qiladi. Natijada, chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar nafaqat til birliklarini biladilar, balki ularni muloqotda, tahlilda, ijodiy fikrlashda erkin qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘ladilar.

Shu sababli, ushbu maqola chet tilini o‘rgatishda Bloom kognitiv bosqichlarining didaktik ahamiyatini yangicha ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tahlil qilish, uning o‘qitish samaradorligiga ta’sirini asoslash, shuningdek, taksonomiyaga tayangan holda til o‘rgatish jarayonini yanada takomillashtirish bo‘yicha konseptual g‘oyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali loyihalash, o‘quvchilarning fikrlash darajasini izchil shakllantirish va chet tili ta’limining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Asosiy qism

2022-yilda raqamli monitoringdan foydalanish darajasi 62 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 88 % ga yetgani ta’lim jarayonida raqamlashtirish sur’atlarining keskin oshganini anglatadi. Bu davrda maktablarga monitoring modullari integratsiyasi, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, elektron kundalik va raqamli kuzatuv platformalarining ommalashuvi raqamli qamrovning yuqori o‘sishini ta’minladi. Shuningdek, monitoring tizimlari orqali o‘quv jarayonidagi real vaqt ma’lumotlariga ega bo‘lish boshqaruv qarorlarining aniq va tezkor bo‘lishiga imkon yaratdi.

O‘qituvchilarning kasbiy qoniqish ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘sish kuzatiladi: 2022-yildagi 69 % dan 2025-yilda 81 % ga ko‘tarilgan. Bu monitoring texnologiyalari o‘qituvchilarning mehnat jarayonini yengillashtirayotgani, ortiqcha qog‘ozbozlikni kamaytirayotgani, hisobotlarni avtomatlashtirayotgani va baholash jarayonining shaffofligini ta’minlayotganini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar darsdagi o‘zgarishlarni kuzatish, individual yondashuvni rejalashtirish va o‘quvchilar qiyinchiliklarini tez aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi.

Ta’lim jarayonining shaffofligi ta’lim sifatining muhim indikatorlaridan biri sifatida baholandi. Elektron monitoring tizimi ota-onalarga real vaqt rejimida farzandining o‘qish faoliyati haqida ma’lumot olish imkonini berdi. Ota-onalar fikriga ko‘ra, raqamli shaffoflik

ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirgan. Bu esa pedagogik jarayonning barqarorligi va natijadorligini oshiruvchi yana bir omildir.

Monitoring jarayonining samaradorligi ta’lim sifatining umumiy ko‘rsatkichlariga ham ta’sir qilgani aniqlandi. Tadqiqot davomida 6 ta sinfda ilg‘or monitoring texnologiyalari qo‘llanildi va ularning natijalari an’anaviy monitoring bilan olib borilgan sinflardan 12–18 foiz yuqori bo‘ldi. O‘quvchilarning umumiy reyting natijalari, test ballari hamda topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Bu natijalar ilg‘or monitoringning ta’lim samaradorligini oshirishda kuchli omil ekanini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or monitoring tizimining joriy etilishi ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U bilimlarning o‘zlashtirilishini optimallashtiradi, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi, o‘qituvchining metodik salohiyatini rivojlantiradi, ta’lim shaffofligini ta’minlaydi va umumiy pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or monitoring tizimlarini ta’lim jarayoniga joriy etish pedagogik boshqaruvni takomillashtirishda, o‘quvchilar bilimini baholashda va o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. 2022–2025-yillar kesimida kuzatilgan statistik ko‘rsatkichlar raqamli monitoringning qamrovi, o‘qituvchilar qoniqish darajasi hamda o‘quvchilar natijalaridagi o‘sish bosqichma-bosqich barqaror rivojlanganini tasdiqladi.

Ayniqsa, real vaqt rejimida kuzatuvning yo‘lga qo‘yilishi ta’lim jarayonidagi muammolarni erta aniqlash va tezkor tahlil asosida samarali pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini berdi.

Monitoringning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlashda, o‘qituvchilarning metodik faoliyatini optimallashtirishda, individual ta’lim trajektoriyalarini shakllantirishda va ta’lim sifatini oshirishda asosiy instrumentga aylandi.

Olingan natijalar shuni anglatadiki, ilg‘or monitoring usullari o‘quv jarayonining shaffofligini oshirib, ta’lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ–4312. 2019-yil 29-aprel.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Umumiy o‘rta ta’limda raqamli monitoring tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 824-son qaror. 2020-yil 31-dekabr.

[3] Black, P., Wiliam, D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education.–1998.–Vol.5(1).–P.7–74.URL:

[4] Sadler, D. R. Formative assessment and the design of instructional systems // InstructionalScience.–1989.–Vol.18(2).–P.119–144.URL: https://doi.org/10.1007/BF00117714

[5] UNESCO. Education Monitoring Global Report 2022. – Paris: UNESCO Publishing, 2022.URL: https://www.unesco.org/reports

[6] Murodova, J. Raqamli ta'lim tizimi va monitoringning yangi shakllari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.URL: https://ziyouz.uz/ilm

[7] OECD. Digital Education Outlook 2021: Learning Analytics in Schools. – Paris: OECD Publishing, 2021.URL: https://www.oecd-ilibrary.org

[8] Anderson, L. Effective Digital Assessment and Monitoring Tools in Modern Education. – London: EdTech Press, 2020.URL: https://edtechpress.co.uk

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ

Баймуратова Малика Муратбаевна

Докторант Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: *Данная статья посвящена комплексному анализу влияния цифровизации экономики Узбекистана на финансовую устойчивость предприятий. В работе использованы актуальные данные Государственного комитета по статистике, МИТС и других официальных источников. Выявлены различия в уровне цифровизации в зависимости от размера и отрасли предприятий, а также региональные диспропорции. Разработаны практические рекомендации для предприятий и государственных органов по повышению эффективности цифровой трансформации.*

Ключевые слова: *финансовая устойчивость, цифровизация, Узбекистан, ERP-системы, FinTech, кибербезопасность.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirishning korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Tezisda Davlat statistika qo'mitasi, Transport va kommunikatsiyalar vazirligi va boshqa rasmiy manbalardan olingan joriy ma'lumotlardan foydalanilgan. Korxonalarning hajmi va sohasiga qarab raqamlashtirish darajasidagi farqlar, shuningdek, mintaqaviy tafovutlar aniqlangan. Raqamli transformatsiya samaradorligini oshirish bo'yicha korxonalar va davlat idoralari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish, O'zbekiston, ERP tizimlari, FinTech, kiberxavfsizlik.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the impact of digitalization of the Uzbek economy on the financial stability of enterprises. The paper utilizes current data from the State Statistics Committee, the Ministry of Transport and Communications, and other official sources. Differences in the level of digitalization depending on the size and industry of enterprises, as well as regional disparities, are identified. Practical recommendations for enterprises and government agencies to improve the effectiveness of digital transformation are developed.*

Keywords: *financial stability, digitalization, Uzbekistan, ERP systems, FinTech, cybersecurity.*

ВВЕДЕНИЕ

Экономика Узбекистана претерпевает значительные структурные преобразования, направленные на либерализацию рынков, диверсификацию производства и интеграцию в глобальные экономические процессы. В этих условиях обеспечение финансовой устойчивости предприятий становится критическим фактором их конкурентоспособности и долгосрочного выживания. Параллельно глобальный тренд цифровизации, нашедший отражение в стратегии «Цифровой Узбекистан 2030» [1], создает новые вызовы и возможности для бизнеса.

Финансовая устойчивость традиционно понимается как способность предприятия поддерживать оптимальную структуру активов и пассивов, обеспечивая платежеспособность и доходность в условиях изменчивой внешней среды. Цифровая трансформация кардинально меняет параметры этой среды, требуя новых подходов к финансовому управлению.

Цель исследования - оценить влияние цифровизации на финансовую устойчивость предприятий Узбекистана и разработать практические рекомендации по ее укреплению в современных условиях.

Методы

Исследование проводилось с использованием следующих методов:

- Сравнительный анализ статистических данных Государственного комитета по статистике РУз [2]
- Мониторинг показателей развития ИКТ Министерства по развитию ИТ и коммуникаций РУз [3]
- Анализ финансовой отчетности предприятий различных отраслей
- Корреляционный анализ между уровнем цифровизации и ключевыми финансовыми показателями
- Экспертные интервью с представителями бизнеса и государственных органов

Были исследованы данные по 250 предприятиям промышленности, торговли и сферы услуг за период 2020-2023 годы.

Результаты

1. Уровень цифровизации предприятий. Согласно данным [2], проникновение цифровых технологий среди предприятий Узбекистана характеризуется значительной дифференциацией:

- Крупные предприятия: 78% используют ERP-системы

• Средние предприятия: 45% внедрили системы электронного документооборота

• Малые предприятия: только 22% используют специализированное ПО для финансового управления

2. Влияние на финансовые показатели. Анализ выявил значительную корреляцию между уровнем цифровизации и ключевыми финансовыми показателями:

Таблица 1. Влияние цифровизации на финансовые показатели

Показатель	Предприятия с высоким уровнем цифровизации	Предприятия с низким уровнем цифровизации
Рентабельность активов	8.5%	4.2%
Оборачиваемость запасов	6.2 оборота/год	3.8 оборота/год
Период погашения дебиторской задолженности	32 дня	58 дней

3. Региональные различия. Наблюдается значительный разрыв между столичным регионом и другими областями:

- Ташкент: 65% предприятий используют облачные сервисы
- Ферганская долина: 28% предприятий автоматизировали финансовые процессы
- Каракалпакстан: только 15% малых предприятий используют онлайн-банкинг

Обсуждение. Полученные результаты демонстрируют четкую зависимость между уровнем цифровизации и финансовой устойчивостью предприятий. Предприятия, активно внедряющие цифровые технологии, показывают значительно лучшие финансовые результаты.

Ключевые проблемы:

1.Высокая стоимость внедрения цифровых решений для МСП. Доля малого и среднего бизнеса (МСП) в экономике Узбекистана растёт из года в год. Однако в последние годы переход к глобальной цифровой экономике поставил перед МСП

сложные задачи. Несмотря на то, что внедрение цифровых технологий (ERP-систем, CRM, электронной бухгалтерии, облачных сервисов, автоматизированных торговых систем) необходимо для многих предприятий, их стоимость остаётся относительно высокой. Это является одним из основных препятствий, снижающих конкурентоспособность сектора МСП.Дефицит квалифицированных кадров в регионах

2. Недостаточная развитость ИКТ-инфраструктуры в отдельных областях. Несмотря на активную цифровую трансформацию в Узбекистане, уровень развития ИКТ-инфраструктуры существенно различается между регионами. В крупных городах (Ташкент, Самарканд, Фергана) цифровые сервисы активно внедряются, однако во многих сельских и отдалённых районах инфраструктура остаётся слабой. Это создаёт существенные барьеры для малого и среднего бизнеса (МСБ), ограничивая их возможности цифровизации.

3. Низкая осведомленность о преимуществах цифровизации. Одной из ключевых проблем, препятствующих цифровой трансформации малого и среднего бизнеса (МСБ) в Узбекистане, является низкий уровень осведомлённости предпринимателей о выгодах, возможностях и экономическом эффекте цифровизации. Несмотря на то что цифровые решения становятся всё более доступными, значительная часть МСБ либо не понимает их ценности, либо воспринимает цифровизацию как необязательный и дорогостоящий процесс.

Рекомендации. Опираясь на изложенные выше три проблемы, рекомендуется принять следующие шаги:

1. Разработать поэтапный план цифровой трансформации. Это позволит бизнесу последовательно внедрять цифровые инструменты, снижая риски, распределяя затраты и контролируя эффективность каждого этапа модернизации.

2. Внедрить облачные решения для снижения капитальных затрат. Облачные сервисы позволяют отказаться от дорогостоящего оборудования и технического обслуживания, что уменьшает первоначальные инвестиции и обеспечивает гибкость масштабирования.

3. Обучить сотрудников работе с цифровыми инструментами. Повышение цифровой грамотности персонала гарантирует эффективное использование технологий, снижает количество ошибок и ускоряет адаптацию компании к новым процессам.

4. Использовать аналитические системы для прогнозирования денежных потоков. Аналитические инструменты помогают выявлять тенденции, контролировать финансовые риски и принимать более обоснованные управленческие решения на основе данных.

Выводы. В целом проведённый анализ позволяет сделать вывод, что цифровизация оказывает выраженное позитивное воздействие на финансовую устойчивость предприятий Узбекистана. Наиболее заметные результаты проявляются в сфере управления оборотным капиталом и оптимизации операционных расходов, что способствует повышению эффективности деятельности организаций. Вместе с тем сохраняются существенные региональные различия, преодоление которых может значительно усилить общий эффект цифровой трансформации.

Для достижения максимальных результатов необходима тесная и согласованная работа как со стороны бизнеса, так и со стороны государства, что обеспечит устойчивое развитие и повышение конкурентоспособности национальной экономики.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1.Указ Президента РУз № УП-5699 от 05.10.2020 "Об утверждении стратегии "Цифровой Узбекистан 2030"

2. Данные Государственного комитета по статистике РУз, 2023

3. Отчеты Министерства по развитию ИТ и коммуникаций РУз, 2023

4. Исследование Всемирного банка "Развитие цифровой экономики в Узбекистане", 2022

5. Данные Центрального банка РУз по безналичным платежам, 2023

РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОРХОНАЛАРИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ТАҲЛИЛ, МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

Баймуратова Малика Муратбаевна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти

Аннотация: *Мақолада рақамлаштиришнинг Ўзбекистон Республикаси корхоналарининг молиявий барқарорлигига таъсири кенг қамровли таҳлил қилинган. Давлат статистикасининг долзарб маълумотлари, халқаро ташкилотлар ҳисоботлари ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида асосий тенденциялар, таркибий муаммолар ва ўсиш драйверлари аниқланди. Молиявий менежмент тизимини рақамли муҳитга мослаштиришнинг муаллифлик модели ишлаб чиқилган бўлиб, унда корхоналар учун амалий воситалар ва давлат органлари учун тавсиялар келтирилган. Тадқиқот Ўзбекистоннинг замонавий иқтисодий шароитида молиявий функцияни стратегик ва изчил рақамлаштириш бизнесни барқарор ривожлантиришнинг муҳим омили эканлиги ҳақидаги фаразни тасдиқлайди.*

Калит сўзлар: *молиявий барқарорлик, рақамлаштириш, Ўзбекистон, ERP, FinTech, киберхавф-хатарлар, "Рақамли Ўзбекистон 2030," маълумотлар, таҳлил.*

Ўзбекистон иқтисодиёти бугунги кунда диверсификация, рақобатбардошликни ошириш ва жаҳон қиймат занжирларига қўшилишга қаратилган фаол таркибий ўзгаришлар босқичида.

Бундай шароитда тадбиркорлик субъектларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш тактик вазифалар тоифасидан миллий ривожланишнинг стратегик устувор йўналишлари тоифасига ўтмоқда. Шу билан бирга, "Рақамли Ўзбекистон 2030" стратегиясида институционал мустаҳкамланган глобал рақамлаштириш мегатенденцияси ўзгаришларнинг асосий катализатори бўлиб хизмат қилмоқда. [1]

Тадқиқотнинг долзарблиги рақамлаштиришнинг ҳақиқий тараққиёти ва унинг корхоналар молиявий кўрсаткичлари билан ўзаро боғлиқлигини эмпирик таҳлил қилиш зарурати билан белгиланади, бу эса Ўзбекистонга нисбатан ҳали ҳам кам ўрганилган мавзу бўлиб қолмоқда.

Тадқиқотнинг мақсади - долзарб маълумотларни таҳлил қилиш асосида рақамли трансформациянинг Ўзбекистон корхоналари молиявий барқарорлигига таъсирини баҳолаш ва уни мустаҳкамлаш учун илмий-амалий воситаларни ишлаб чиқишдан иборат.

1. Ўзбекистон иқтисодиётини рақамлаштиришнинг ҳозирги ҳолати таҳлили: маълумотлар ва тенденциялар

Контекстни тушуниш учун асосий статистик кўрсаткичларга мурожаат қиламиз.

● Интернет тармоғи ва инфратузилма: Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг ҳисоботига кўра (2024 йил I чораги учун), мамлакатда интернетдан фойдаланувчилар сони 27,9 миллион кишига етди, бу умумий аҳолининг қарийб 78 фоизини ташкил этади [2].

Кенг қамровли уланишнинг кириб бориши 22.3 млн абонентни ташкил этади. Бироқ, минтақавий номутаносиблик сақланиб қолмоқда: агар Тошкентда интернетга уланиш 95%га яқин бўлса, бир қатор қишлоқ туманларида бу кўрсаткич 50-60% дан ошмайди [2].

● Бизнес муҳитини рақамлаштириш: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари рақамли муҳитда корхоналар фаоллиги ортиб бораётганидан далолат беради. 2023 йил ҳолатига:

o Бошқарув учун махсус дастурий таъминотдан (ERP, CRM) фойдаланадиган корхоналарнинг улуши 38%ни ташкил этди (йирик корхоналар орасида - 72%, ўрта корхоналар орасида - 45%, кичик корхоналар орасида - атиги 18%) [3].

o Юридик шахсларнинг 92дан ортиғи онлайн солиқ ҳисоботи тизимидан мунтазам фойдаланади.

o 2023 йилда "Электрон ҳукумат" тизими орқали амалга оширилган операциялар сони 150 миллиондан ошди, шундан қарийб 30 фоизи бизнеснинг давлат билан ўзаро ҳамкорлигига тўғри келди [5].

● Молиявий рақамлаштириш (FinTech): Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотларига кўра:

o 2023 йилда терминаллар орқали нақд пулсиз тўловлар ҳажми 2022 йилга нисбатан 55 фоизга ўсиб, 107 триллион сўмни ташкил этди [6].

o Мобил тўлов тизимлари (жумладан, Payme, Click, Узумбанк) орқали амалга оширилган операциялар сони 42 фоизга ошиб, бир йил ичида 450 миллион транзакцияга етди [6].

o Онлайн кредитлашнинг ўсиши кузатилмоқда: 2022-2023 йилларда онлайн платформалар орқали берилган микрокредитлар портфели 3,5 бараварга ошди [7].

2. Рақамлаштиришнинг молиявий барқарорликнинг асосий кўрсаткичларига таъсири: корреляцион таҳлил

Молиявий барқарорлик коэффициентлар тизими орқали баҳоланади: ликвидлилик, молиявий мустақиллик, рентабеллик ва ишбилармонлик фаоллиги. Рақамлаштириш бу кўрсаткичларга бевосита таъсир кўрсатади.

● Айланмага таъсири: Таъминот занжирини бошқариш (SCM) учун ERP тизимларини жорий этган корхоналар операцион циклнинг қисқаришини кўрсатмоқда.

Ўрганилган маълумотларни таҳлил қилиш орқали 2023 йилда 150 та саноат корхоналари маълумотларига кўра, захиралар ҳисобини автоматлаштириш товар-моддий захираларнинг айланиш даврини ўртача 12-15%га қисқартириш имконини берган. Бу бевосита айланма маблағларни бўшатади ва мутлақ ликвидлик коэффициентини яхшилайди.

● Рентабелликка таъсири: CRM тизимлари ва рақамли маркетинг воситаларидан фойдаланиш мижозларни аниқроқ сегментлаш ва савдо самарадорлигини ошириш имконини беради.

Хизмат кўрсатиш соҳасидаги 50 та компания бўйича маълумотлар таҳлили шуни кўрсатдики, ушбу технологияларни жорий этиш мижозни жалб қилиш харажатларини камайтириш ва ўртача чекни ошириш орқали сотув рентабеллигини ўртача 2-3 фоиз пунктига оширди.

● Харажатларни бошқаришга таъсири: Одатий молиявий операцияларни автоматлаштириш (масалан, онлайн банкинг ва ЭҲМ орқали) маъмурий харажатларни бевосита камайтиришга олиб келади. Ўзбекистон электрон тижорат ассоциациясининг ҳисоб-китобларига кўра, тўлиқ электрон ҳужжат айланишига ўтиш ўртача катталикдаги компанияларга ҳар ойда қоғоз, босма ва логистика харажатларидан 15-20 миллион сўмгача тежаш имконини беради [8].

3. Тизим муаммолари ва қийинчиликлари

Юқоридагиларни таҳлил қилиш натижасидаги ижобий динамикага қарамасдан, соҳада бирқанча таркибий муаммолар аниқланди:

1. Йирик ва кичик бизнес ўртасидаги "рақамли тафовут": маълумотларга кўра, ҳар бешинчи кичик ва ўрта бизнес корхонаси замонавий бошқарув тизимларидан фойдаланади. [3]

Бу уларни янада технологик рақобатчилар томонидан бозордан сиқиб чиқариш хавфини туғдиради.

2. Киберхавфлар: Рақамли фаолликнинг ўсиши билан киберҳужумлар хавфи ҳам ортиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси Киберхавфсизлик марказининг маълумотларига кўра, 2023 йилда корпоратив тармоқларга 1200 дан ортиқ муваффақиятли ҳужумлар қайд этилган бўлиб, уларнинг 40 фоизи зарар кўрган компанияларнинг молиявий йўқотишларига олиб келган [9].

Кўпгина кичик ва ўрта бизнес корхоналари учун киберхавфсизлик тизимини яратиш харажатлари катта эмас.

3. Кадрлар танқислиги: Жаҳон банкининг "Ўзбекистон: Рақамли кўникмаларни ривожлантириш" (2023) тадқиқотига кўра, Ўзбекистондаги компанияларнинг қарийб 65%и ИТ-мутахассисларини, 80%и эса катта маълумотлар (Big Data) билан ишлаш усулларини биладиган молиявий таҳлилчиларни ёллашда қийинчиликларга дуч келмоқда [10].

4. Маълумотларни интеграциялаш муаммоси: Кўпгина корхоналар рақамли ечимларни нуқтали тарзда (масалан, алоҳида бухгалтерия, алоҳида омборхона) жорий этмоқда, бу эса "ахборот туркумлари"ни яратишга олиб келмоқда.

Ягона рақамли контурнинг йўқлиги бошқарув қарорларининг самарадорлигини пасайтиради.

4. Таклиф этилаётган модель ва тавсиялар

Таҳлиллар асосида молиявий барқарорликни рақамлаштиришнинг уч контурли модели таклиф этилади.

1-контур: операцион самарадорлик

● Кичик ва ўрта бизнес даражасида: Булутли SaaS ечимларига босқичма-босқич ўтиш (масалан, 1С: Булутли хотирага эга корхона, маҳаллий аналоглар). Бу капитал харажатларни минималлаштиради.

● Йирик бизнес даражасида: Барча бизнес жараёнларини бирлаштириш учун SAP S/4HANA ёки Oracle NetSuite синфидаги ERP тизимлари модулларини жорий этиш.

● Давлат даражасида: Кичик ва ўрта бизнес корхоналарининг маҳаллий ишлаб чиқарилган лицензияланган дастурий таъминотни сотиб олиш ва жорий

этиш харажатларига 50%гача бўлган мақсадли субсидия дастурларини жорий этиш.

2-контур: Пул оқимлари ва хатарларни бошқариш

● Мажбурий фойдаланиш: Тўлов тақвимини автоматик шакллантириш учун ҳисоб тизимларига API интеграциясига эга онлайн банкинг тизимлари.

● FinTech воситаларини жорий этиш: Айланма маблағларни бошқариш учун факторинг ва Supply Chain Finance платформаларидан фойдаланиш.

● Киберхавфларни мониторинг қилиш марказини ташкил этиш: Йирик компаниялар даражасида - SOC (Security Operations Center) ташкил этиш, кичик ва ўрта бизнес учун - киберхавфсизлик бўйича аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш.

3-контур: Таҳлил ва прогноз

● BI -тизимларини жорий этиш: ERP ва CRMдан олинган жамланган маълумотлар асосида маълумотларни визуализация қилиш воситаларини (Tableau, Power BI, маҳаллий Astrum BI) жорий этиш.

● Прогнозли таҳлилдан фойдаланиш: Машинали ўрганиш асосида пул оқимларини ва контрагентларнинг дефолт эҳтимолини башорат қилиш моделларини яратиш (Microsoft Azure, Amazon AWS булутли хизматлари орқали мавжуд).

Хулоса. Маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики, рақамлаштириш Ўзбекистон корхоналарининг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш учун танлов эмас, балки объектив заруратдир.

Асосий молиявий коэффициентларга (айланувчанлик, рентабеллик) ижобий таъсир кўрсатиши эмпирик маълумотлар билан тасдиқланган.

Бироқ, рақамли трансформациянинг муваффақияти тизимли муаммоларни бартараф этишга боғлиқ бўлиб, уларнинг асосийлари рақамли тенгсизлик ва кадрлар танқислигидир.

Мақолада таклиф этилган модель турли кўлам ва йўналишдаги корхоналар учун классификацияланган ёндашувни таклиф этади. Ўйлаймизки, ушбу таклиф ва тавсиялар амалиётда қўлланилса бугунги рақамли трансформация шароитида Ўзбекистон Республикаси корхоналари молиявий барқарорлигини такомиллаштиришда бирқанча ижобий натижаларга эришилган бўлар эди.

Кейинги тадқиқотлар тармоқ рақамли йўл харитасини ишлаб чиқишга (қишлоқ хўжалиги, тўқимачилик саноати, хизмат кўрсатиш соҳалари учун) ва

Ўзбекистон компаниялари учун рақамли технологияларга киритилган инвестициялар рентабеллигини миқдорий баҳолашга қаратилиши керак.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (МАНБАЛАР):

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.10.2020 йилдаги ПФ-5699-сон "Рақамли Ўзбекистон - 2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. - https://lex.uz/docs/5031157

2. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги. "2024 йил И чоракда АКТ соҳасини ривожлантириш тўғрисида ҳисобот." - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

3. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. "2023 йилда тадбиркорлик субъектларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишни ўрганиш натижалари." - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

4. Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси. "2023 йил учун солиқ ҳисоботларини топшириш бўйича статистик бюллетень." - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

5. Электрон ҳукуматни ривожлантириш агентлиги. "2023 йил учун йиллик фаолият тўғрисида ҳисобот." -https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. "2023 йил учун нақд пулсиз тўловлар шарҳи." -https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

7. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш маркази. "Ўзбекистонда онлайн кредитлаш бозори таҳлили, 2023 йил." - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

8. Ўзбекистон электрон тижорат уюшмаси. "Бизнес учун ЭҲАни жорий этишнинг иқтисодий самарасини ўрганиш," 2023 йил. - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

9. Ўзбекистон Республикаси Киберхавфсизлик маркази. "2023 йил учун кибертаҳдидлар тўғрисида миллий ҳисобот." - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

10.Жаҳон банки. "Uzbekistan: Digital Skills Development." 2023. - https://mitc.uz/uz/pages/otchet-o-razvitii-otrasli-ikt-za-1-kvartal-2024-goda

EKOTURIZM – IQTISODIY O‘SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI UYG‘UNLASHTIRUVCHI YO‘NALISH

Seylxanova Gulsinay Bisenbay qizi
TDIU Soliqlar va byudjet hisobi fakulteti bakalavriat 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola global ekologik muammolar fonida ekoturizmni barqaror iqtisodiy o‘sish va atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg‘unlashtiruvchi strategik yo‘nalish sifatida tahlil qiladi. U ekoturizmni tabiatni saqlash, mahalliy jamoalarning farovonligini oshirish va ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida asoslaydi.*

Tadqiqotning diqqat markazida O‘zbekistonning boy tabiiy resurslari va muhofaza etiladigan hududlari tufayli ekoturizmni rivojlantirishdagi ulkan salohiyati yotadi. Maqolada mamlakatning “Yashil iqtisodiyot” siyosati doirasida ekoturizmni ustuvor tarmoq sifatida rivojlantirishning iqtisodiy (yangi ish o‘rinlari, valyuta tushumi) va ekologik (ekologik ong, resurslardan oqilona foydalanish) afzalliklari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, sohada mavjud infratuzilma kamchiliklari, kadrlar muammolari va institutsional to‘siqlar ko‘rsatilib, ekoturizmni kompleks rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *Ekoturizm, Yashil iqtisodiyot, Barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, Atrof-muhitni muhofaza qilish, Iqtisodiy o‘sish, Tabiiy resurslar, Ekologik barqarorlik.*

Abstract: *This article examines ecotourism as a strategic direction that integrates sustainable economic growth with environmental protection in the context of global ecological challenges. It conceptualizes ecotourism as a system that contributes to nature conservation, enhances the well-being of local communities, and promotes environmental culture.*

The research focuses on Uzbekistan’s enormous potential for ecotourism development, stemming from its rich natural resources and protected areas. Within the framework of the country’s “Green Economy” policy, the article provides a comprehensive analysis of the economic (job creation, foreign currency inflows) and environmental (ecological awareness, rational use of natural resources) benefits of prioritizing ecotourism.

In addition, the study identifies major challenges hindering sectoral development — including infrastructural deficiencies, human resource limitations, and institutional barriers — and proposes practical recommendations for the comprehensive and sustainable advancement of ecotourism in Uzbekistan.

Keywords: *Ecotourism, Green economy, Sustainable development, Uzbekistan, Environmental protection, Economic growth, Natural resources, Ecological sustainability.*

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishi oqibatlarining tezlashuvi, global miqyosdagi ekologik inqiroz va cheklangan tabiiy resurslar zaxiralari insoniyatni oldinga siljishning yangi paradigmasini yaratishga majbur qilmoqda. Aksariyat an’anaviy iqtisodiy faoliyat turlari atrof-muhitga doimiy zarar yetkazib, ekologik muvozanatni izdan chiqarar ekan, iqtisodiy farovonlikni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtira oladigan muqobil tarmoqlarni rivojlantirish zaruriyati tobora oshib bormoqda. Mana shunday strategik yo‘nalishlardan biri sifatida ekoturizm jahon iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘inlaridan biriga aylanmoqda. Bu soha tabiatni asrash, mahalliy aholi turmush darajasini yuksaltirish hamda keng jamoatchilikda ekologik mas’uliyatni rivojlantirish kabi uchta muhim tamoyilga asoslanadi.

Ekoturizm – bu sayohatning yuksak mas’uliyat talab qiluvchi shakli bo‘lib, u muhofaza etiladigan hududlarga minimal darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishni, noyob tabiiy boyliklarning qadriga yetishni o‘rgatadi. Eng muhimi, ekoturizmdan olingan daromadning bir qismi bevosita biologik xilma-xillikni saqlash ishlariga yo‘naltirilishi orqali muhofazani moliyalashtiradi. Ijtimoiy jihatdan, ekoturizm ayniqsa chekka, qishloq va tog‘li mintaqalarda istiqomat qiluvchi aholi uchun yangi va barqaror iqtisodiy daromad manbalarini yaratadi. Bu holat esa mahalliy jamoalarning o‘z atrof-muhitini himoya qilishga bo‘lgan iqtisodiy rag‘batini kuchaytiradi, natijada ekologik va iqtisodiy manfaatlarning o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimi shakllanadi.

O‘zbekiston o‘zining turli-tuman landshaftlari (masalan, Sirdaryo-Amudaryo vohalari, Qizilqum cho‘llari, G‘arbiy Tyan-Shan tog‘lari) hamda Milliy bog‘lar va tabiat qo‘riqxonalaridan iborat muhofaza etiladigan boy hududlar tarmog‘iga ega. Bu xususiyatlar mamlakatda ekoturizmni faol rivojlantirish uchun katta, ammo hali to‘liq ishga solinmagan salohiyatni vujudga keltiradi. Mamlakat Hukumatining “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha strategik qarashlari doirasida ekoturizm iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish iqtisodiy sur'atlarni jadallashtirish bilan bir qatorda, qurg‘oqchil iqlim sharoitida ekologik xavfsizlik va muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shularga asoslanib, mazkur maqola O‘zbekiston sharoitida ekoturizmni rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik samaradorligini atroflicha tahlil qilishni, shu yo‘lda mavjud bo‘lgan asosiy muammolarni (jumladan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish va institutsional to‘siqlar) aniqlashni, hamda ushbu strategik tarmoqni kompleks va barqaror asosda ilgari surishga qaratilgan fundamental ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishni maqsad qilib olgan. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari mamlakatda “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalga tatbiq etishga va hududlarning ekologik-iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga muhim nazariy hamda amaliy hissa qo‘shishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotga tegishli ilmiy manbalar tahlili ekoturizm, barqaror rivojlanish va "Yashil iqtisodiyot" tamoyillarining nazariy hamda amaliy asoslarini o‘zlashtirishga qaratildi. Dastlab, G‘arb mutaxassislari, xususan, D. Fennell va M. Honey kabi yetakchi olimlarning fundamental ishlari o‘rganilib, ekoturizmning konseptual bazasi, asosiy mezonlari va ijtimoiy-ekologik mas’uliyatni belgilovchi tushunchalar aniqlandi. Ushbu manbalar ekoturizmni an’anaviy turizm turlaridan ajratib turuvchi asosiy talablarni — atrof-muhitga eng kam salbiy ta’sir ko‘rsatish, mahalliy jamoalarga iqtisodiy ustunlik berish hamda sayohatchilar uchun ekologik ta’lim vazifasini bajarish zaruratini ta’kidladi.

Qo‘shimcha ravishda, Markaziy Osiyo va MDH davlatlari doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili ekologik turizmning qurg‘oqchil mintaqalar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va tabiiy resurslarni saqlashdagi muhimligini baholash imkonini berdi. Bu tadqiqotlar ekoturizmning mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashdagi amaliy hissasi hamda aholining ekologik ongi darajasini oshirishdagi rolini yoritdi.

O‘zbekiston kontekstiga bevosita tegishli bo‘lgan adabiyotlar tahlilida, "Yashil iqtisodiyot" strategiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirishga qaratilgan Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Hukumat dasturlari diqqat bilan o‘rganildi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ekoturizmning milliy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashdagi ustuvor o‘rnini belgilashda asos bo‘ldi.

Adabiyotlar manbalarini tizimli tahlil qilish, mavjud ilmiy ishlarda O‘zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekoturizmni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda mahalliy aholi ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmlari yetarli darajada yoritilmaganligini ko‘rsatdi. Bu natija mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshiruvchi asosiy bo‘shliq sifatida baholanadi.

Ekoturizmning iqtisodiy-ekologik tomonlarini har tomonlama tahlil qilish, muammolarni aniqlash va asosli takliflar ishlab chiqish maqsadida tadqiqotda ko‘p bosqichli ilmiy yondashuv va quyidagi metodlar tizimi qo‘llanildi:

1. Mantiqiy tahlil va sintez yondashuvi: Ekoturizmning nazariy poydevori, asosiy tamoyillari va uning barqaror rivojlanish jarayonidagi vazifasini nazariy jihatdan tahlil qilish uchun asos bo‘ldi. Bu metod turli nazariy manbalardagi ma’lumotlarni birlashtirib, ularning O‘zbekistonning amaliy sharoitiga mosligini tizimli aniqlashga yordam berdi.

2. Statistik va qiyosiy tahlil metodi: Xorijiy davlatlar (jumladan, Kosta-Rika, Keniya, Gruziya) ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha erishgan muvaffaqiyatli tajribalar batafsil o‘rganildi. Ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari O‘zbekistondagi mavjud imkoniyatlar bilan qiyosiy taqqoslandi. Bu taqqoslash natijalari mamlakatimiz uchun eng maqbul strategik yo‘nalishlarni asoslashda ishlatildi.

3. Institutsional tahlil metodi: Ushbu metod ekoturizm sohasini tartibga soluvchi milliy qonunchilik bazasi, normativ hujjatlar hamda davlat boshqaruvi tizimida mavjud bo‘lgan institutsional cheklovlar va to‘siqlarni aniqlashda qo‘llanildi.

4. Sistemali yondashuv: Ekoturizmni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligiga asoslangan kompleks tizim sifatida baholash imkonini berdi. Bu yondashuv tadqiqot yakunida taqdim etilgan takliflarning komplekslik va barqarorlik tamoyillariga to‘liq mos kelishini ta’minladi.

NATIJALAR

Ekoturizmning iqtisodiy potensiali va diversifikatsiya effektlari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekoturizm O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti uchun yangi strategik o‘sish drayveri bo‘lib xizmat qilishi va "Yashil iqtisodiyot" modelining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanishi isbotlandi. Mamlakatning tabiiy-geografik boyliklari – baland tog‘li tizmalar, keng cho‘l landshaftlari va suv resurslariga boy vohalarning xilma-xilligi ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun zamin yaratuvchi beqiyos tabiiy kapital hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekoturizm turizm sektorini tubdan diversifikatsiya qilish mexanizmi bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri valyuta tushumini oshirish va mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirishga qodir. Xalqaro tajriba (Kosta-Rika, Keniya, Gruziya) misolida, ekoturizmning umumiy turizm daromadlaridagi ulushi 20% dan 70% gacha o‘zgarishi kuzatiladi. Shu asosda, O‘zbekistonda kompleks rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish orqali yaqin 5–10 yil ichida umumiy turizm daromadining 25–30% gacha bo‘lgan qismi ekoturizm hisobidan ta’minlanishi mumkin. Bu iqtisodiy prognoz quyidagi jiddiy iqtisodiy-ijtimoiy samaralarni beradi:

- Minglab yangi, yuqori qiymatli “yashil” ish o‘rinlarini yaratish;
- Chekka qishloq va tog‘li hududlarning infratuzilmasiga maqsadli investitsiyalarni jalb qilish;
- Mamlakatning to‘lov balansini yaxshilash orqali valyuta tushumini sezilarli darajada oshirish;
- Mahalliy kichik va o‘rta biznes faoliyatini rag‘batlantirish.

Ekoturizm: ekologik xizmatlar iqtisodiyoti va integratsiyasi

Ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikni saqlash mexanizmini iqtisodiy jihatdan mustahkamlaydi. Qo‘riqxonalar va milliy bog‘larga tashriflardan undiriladigan ekologik to‘lovlar bevosita tabiatni muhofaza qilish, ya’ni ekologik xizmatlarni moliyalashtirishning barqaror manbai vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, mahalliy jamoalarning ekoturizmga jalb qilinishi ularning iqtisodiy manfaatdorligini institutsional oshiradi, shu tariqa o‘z yashash joylaridagi tabiatni saqlashga bo‘lgan mas’uliyat darajasini kuchaytiradi. Gidlik, hunarmandchilik

mahsulotlarini sotish va ekologik qo‘riq xizmatlarini tashkil etish kabi faoliyatlar mahalliy iqtisodiyotga qo‘shimcha qiymat yaratadi va daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi.

Rivojlanishdagi asosiy iqtisodiy va institutsional to‘siqlar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda ekoturizmning to‘liq iqtisodiy potensialini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi bir nechta muhim cheklovlar aniqlangan:

- Infratuzilma cheklovlari: Ekologik talablarga asoslangan, ya’ni energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan, chiqindilarni minimalizatsiya qiluvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalanadigan ekoturistik obyektlar va marshrutlar soni kam. Bu holat turizm oqimini jiddiy cheklaydi va potensial iqtisodiy foydani kamaytiradi.
- Kadrlar tizimidagi bo‘shliqlar: Xalqaro servis, ekologiya va biznes yuritish standartlariga mos keladigan malakali gid-ekologlar va turizm menejerlarining yetishmasligi xizmatlar sifatini pasaytirib, mahalliy iqtisodiy daromadning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.
- Institutsional tartibga solishdagi muammolar: Ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish, ularga investitsiya jalb qilish jarayonlari murakkab. Eng muhimi, mahalliy aholining daromad ulushini kafolatlovchi va turistik operatorlar uchun aniq, yagona me’yoriy-huquqiy baza mavjud emas. Bu esa iqtisodiy rentabellikni pasaytiradi va xususiy investorlar qiziqishini susaytiradi.

Strategik iqtisodiy ahamiyat

Tadqiqot yakunlari O‘zbekistonning tabiiy resurslariga tayangan holda va “Yashil iqtisodiyot” strategiyasini amaliyotga tatbiq etish orqali Markaziy Osiyoda ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy yetakchi markazga aylanish salohiyatiga ega ekanini isbotlaydi.

Bu strategik maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, asosan, iqtisodiy siyosatga bog‘liq:

1. Ekoturizm infratuzilmasini investitsiya orqali modernizatsiya qilish va xalqaro ekologik standartlarga mos obyektlar qurish;
2. Malakali kadrlarni tayyorlash orqali inson kapitali sifatini oshirish;
3. Mahalliy jamoalarning iqtisodiy manfaatdorligini kafolatlovchi va sarmoyadorlar uchun shaffof institutsional mexanizmlarni joriy etish.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari ekoturizmning O‘zbekiston uchun iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni birgalikda mustahkamlovchi ikki tomonlama strategik ahamiyatga ega yo‘nalish ekanligini amalda isbotlaydi.

MUHOKAMA

Ekoturizmning iqtisodiy strategik roli

O‘zbekiston sharoitida ekoturizmning rivojlanishi nafaqat turizm daromadlarini oshirish vositasi, balki milliy iqtisodiy diversifikatsiya va yashil iqtisodiyotga o‘tish

strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekoturizm mahalliy jamoalarning daromad manbalarini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va valyuta tushumini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadi. Bu iqtisodiy nuqtai nazardan, an’anaviy resurs talab qiluvchi tarmoqlarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba (Kosta-Rika, Keniya, Gruziya) ko‘rsatadiki, ekoturizmning mahalliy iqtisodiyotga integratsiyasi natijasida daromadning katta qismi mahalliy jamoalarga yetib boradi, bu esa iqtisodiy rag‘bat va resurslarni saqlashga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Shu nuqtai nazardan, ekoturizmni rivojlantirish – bu nafaqat ekologik maqsad, balki iqtisodiy samaradorlikka erishish mexanizmidir.

Institutsional va iqtisodiy xavflar

Aniqlangan muammolar iqtisodiy va strategik nuqtai nazardan quyidagi tavsiflarni oladi:

1. Infratuzilma cheklovlari: ekologik sertifikatlanmagan obyektlar yuqori daromadli sayyohlarni jalb qilmaydi, bu esa O‘zbekistonning potentsial valyuta tushumini kamaytiradi va iqtisodiy rentabellikni pasaytiradi. Yashil infratuzilma yaratish esa turistlarning o‘rtacha xarajatini oshirib, mahalliy iqtisodiy manfaatni ko‘paytiradi.

2. Institutsional zaiflik: mahalliy jamoalarning daromad ulushi kafolatlanmaganligi va huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi xorijiy sarmoyadorlar uchun xavf darajasini oshiradi. Natijada investitsiya oqimi cheklanadi, mahalliy iqtisodiy sheriklik rivojlanmaydi va loyihalarning uzoq muddatli barqarorligi xavf ostida qoladi.

3. Kadrlar tizimi: malakali gid-ekologlar va menejerlarning yetishmasligi xizmat sifatini pasaytiradi, bu esa narx va xizmat rentabelligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar ekoturizmning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega.

Iqtisodiy va ekologik uyg‘unlik

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ekoturizm orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni birgalikda ta’minlash imkoniyatiga ega. Buning uchun strategik yo‘nalishlar quyidagicha:

- Ekoturizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ekologik talablar bilan mos obyektlar qurish;
- Mahalliy jamoalarning iqtisodiy ulushini kafolatlovchi institutsional tizimni yaratish;
- Malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish;
- Mahalliy iqtisodiy sheriklikni kuchaytirish orqali sarmoya jalb qilish va valyuta tushumini oshirish.

Shunday qilib, tadqiqot muhokamasi O‘zbekiston ekoturizmi uchun iqtisodiy strategik imkoniyatlar va risklarni birgalikda ochib beradi, natijalardan farqli o‘laroq, amaliy chora-tadbirlar va iqtisodiy oqibatlarga yo‘naltirilgan tahlilni taqdim etadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot, ekoturizmning O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni ta’minlovchi ikki tomonlama strategik ustun ekanligini nazariy va amaliy asoslar bilan tasdiqladi. Mamlakatning noyob tabiiy-geografik resurslari zaxirasi va “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga sodiqligi bu yo‘nalishni tizimli rivojlantirish uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatadiki, kompleks rivojlantirish strategiyasini joriy etish orqali ekoturizm kelgusi 5–10 yil ichida umumiy turizm daromadining 25-30% ini ta’minlashi, bu esa minglab yuqori qiymatli yashil ish o‘rinlari yaratish va milliy iqtisodiy rentabellikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Ekoturizmning qiymati faqatgina bevosita iqtisodiy foyda bilan cheklanmaydi. U ekologik xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirish orqali tabiatni muhofaza qilishni barqaror moliyalashtirish tizimini mustahkamlaydi. Ekologik to‘lovlarni biologik xilma-xillikni saqlashga yo‘naltirish mexanizmi joriy etilishi natijasida, mahalliy jamoalar o‘z hududidagi tabiiy boyliklarni asrashga iqtisodiy rag‘bat oladi va bu ekologik barqarorlikning ijtimoiy kafolatini kuchaytiradi.

Biroq, tadqiqot tahlillari ekoturizmning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘siq bo‘layotgan bir qator institutsional va infratuzilmaviy cheklovlar mavjudligini ko‘rsatdi:

- Ekologik sertifikatlangan infratuzilmaning yo‘qligi yuqori daromadli mas’uliyatli sayyohlar oqimini cheklab, potensial valyuta tushumining pasayishiga olib keluvchi asosiy iqtisodiy xavfdir.
- Malakali gid-ekologlar va turizm menejerlarining yetishmasligi xizmat ko‘rsatish sifatini cheklab, sohaning uzoq muddatli iqtisodiy rentabelligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Mahalliy jamoalarning daromad ulushini kafolatlovchi aniq me’yoriy-huquqiy bazaning yo‘qligi xususiy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish jarayonini murakkablashtiruvchi institutsional to‘siq hisoblanadi.

Xulosa yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy yetakchiga aylanish imkoniyatiga ega. Buning uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni zudlik bilan amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Infratuzilmani modernizatsiya qilish va ekologik standartlarga mos (yashil) obyektlarni yaratish orqali turistik xizmatlarning narxini va sifatini oshirish.

2. Mahalliy aholining iqtisodiy manfaatdorligini institutsional kafolatlovchi tizimni joriy etish orqali loyihalarga xususiy sarmoyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish.

3. Malakali kadrlarni tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida kuchaytirish va xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirish.

Ushbu takliflar majmui O‘zbekistonni ekoturizm orqali iqtisodiy diversifikatsiya va ekologik barqarorlikni birlashtirgan strategik iqtisodiy modelga aylantirishga yordam beradi va mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Fennell, D. A. Ekoturizm asoslari: Konsepsiya va Nazariyalar. – Nyu-York: Routledge Nashriyoti, 2020. – 315 b. (Fennell, D. A. (2020). Ecotourism Fundamentals: Concept and Theories. – New York: Routledge. – 315 p.)

2. Honey, M. Ekoturizm va Barqaror Rivojlanish: Sayyoramiz va Odamlar uchun strategiya. – Vashington: Island Press, 2008. – 420 b. (Honey, M. (2008). Ecotourism and Sustainable Development: A Strategy for Planet and People. – Washington: Island Press. – 420 p.)

3. To‘laganov, A. K. O‘zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o‘tish sharoitida turizm sektorini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari. // "Iqtisodiyot va Moliya" jurnali. Toshkent, 2022. – № 4. – B. 65-71. (Tulaganov, A. K. (2022). Diversification opportunities of the tourism sector in the context of Uzbekistan’s transition to a "Green Economy". // "Economics and Finance" Journal. Tashkent, (4). – P. 65-71.)

4. Vahobov, A. V., & Alimova, M. Sh. O‘zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning institutsional asoslari. – T.: "Iqtisodiyot" Nashriyoti, 2023. – 280 b. (Vahobov, A. V., & Alimova, M. Sh. (2023). Institutional foundations for the development of ecological tourism in protected natural areas of Uzbekistan. – T.: "Iqtisodiyot" Publishing House. – 280 p.)

5. Ahmedov, Sh. R. Ekoturizmning mintaqaviy iqtisodiyotga ta’siri: Markaziy Osiyo tajribasi. // Xalqaro Ilmiy-Amaliy Konferensiya materiallari. Samarqand, 2021 yil 15-16 may. – B. 120-125. (Ahmedov, Sh. R. (2021). The impact of ecotourism on the regional economy: The experience of Central Asia. // Materials of the International Scientific-Practical Conference. Samarkand, May 15-16. – P. 120-125.)

6. UNWTO. Barqaror Turizm: Iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy inklyuzivlik. (2024). BMT Jahon Turizm Tashkiloti Rasmiy Veb-sayti. https://www.unwto.org/sustainable-tourism-development (UNWTO. (2024). Sustainable Tourism: Economic growth and social inclusivity. UN World Tourism Organization Official Website.)

7. Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekistonda Turizmning Rivojlanish Ko‘rsatkichlari (2018-2023 yillar). – T.: Davlat Statistika Qo‘mitasi hisoboti. 2024. (State Statistics Committee. (2024). Tourism Development Indicators in Uzbekistan (2018-2023). – T.: State Statistics Committee Report.)

8. Pulatova, M. R. Ekoturizmda mahalliy jamoalarning rolini oshirish muammolari. // "Geografiya va Tabiat Resurslari" jurnali. Toshkent, 2023 yil. – № 3. – B. 45-49. (Pulatova, M. R. (2023). Problems of enhancing the role of local communities in ecotourism. // "Geography and Natural Resources" Journal. Tashkent, (3). – P. 45-49.)

THE JURISDICTION OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT: CRITICISMS, POLITICAL PRESSURES, AND THE CHALLENGES OF ITS EXPANSION.

Safarova Zebiniso Ziyodilli daughter
Tashkent State University of Law 2nd student Zebiniso2401@gmail.com

Abstract: *The International Criminal Court is an international tribunal for war crimes, genocide, crimes against humanity, and the crime of aggression, and it holds an important place in the global system of legal justice. However, the Court's jurisdiction and activities face a number of serious criticisms. First, powerful non-member states (for example, several major powers) do not recognize the ICC's judgments or orders, which undermines confidence in universal justice. Second, the court's enforcement—arrests, investigations, detentions, and sentence executions—largely depends on states' cooperation. In many cases, if states do not cooperate, the court's judgments remain "on paper." Third, the court is under criticism of "selective justice"; Critics point out that the court tends to focus on cases in relatively weak states or in Africa, often overlooking those of powerful states (even if they are not members).*

Ultimately, while the International Criminal Court can be an important instrument for global justice and accountability, ensuring its expansion and effectiveness requires a coherent and fair concept among the global community, states, and international organizations.

Qozoq ustalari uchun bu san’at turfa shaklda namoyon bo‘ladi: kimdir qadimiy naqshni saqlashga intilsa, kimdir uni zamonaviy modaga moslashtiradi. Ammo ularni birlashtiruvchi yagona g‘oya — bu milliy merosni asrab, kelajak avlodga yetkazish istagidir. Zamonaviy Qozog‘iston zargarligi — bu o‘tmishning davomchisi, xalqning badiiy xotirasi va milliy o‘zlik ramzidir.

Qadimiy naqshlar va timsollar zamonaviy san’at bilan uyg‘unlashgan holda, bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ustalar ijodida qadimiy ruh, zamonaviy tafakkur va milliy g‘urur birlashgan.

Shu sababli, qozoq zargarlik san’ati — bu nafaqat bezak san’ati, balki xalqning madaniy genetik xotirasi, tarix bilan kelajakni bog‘lovchi abadiy badiiy ko‘prikdir. Qozog‘iston zargarlik sanati — bu xalqning ko‘p asrlik tarixiy, madaniy va ma’naviy merosini o‘zida mujassam etgan noyob hodisadir.

U o‘z ildizlarini qadimiy Sak va Usun davrlaridan olgan bo‘lib, o‘sha paytlardanoq metallga ishlov berish, hayvoniy uslubdagi naqshlar, ramziy tasvirlar orqali xalqning dunyoqarashi, e’tiqodi va ijtimoiy mavqeini ifoda etgan.

Zargarlik buyumlari faqat bezak vositasi emas, balki xalqning ruhiy dunyosini, diniy qarashlarini va falsafasini aks ettiruvchi san’at namunasi sifatida shakllangan. O‘rta asrlarda Qozog‘iston hududida zargarlik san’ati yanada rivojlanib, hunarmandlar orasida maxsus maktab va ustaxonalar vujudga kelgan.

Bu davrda oltin, kumush, jez kabi metallardan yasalgan taqinchoqlar, bilakuzuk, sirg‘a, marjon, kamar va boshqalar nafaqat estetik, balki ma’naviy ma’noga ham ega bo‘lgan. Har bir naqsh, har bir ramz xalqning urf-odatlari, diniy qarashlari va hayot tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. 19–20-asrlarda esa zargarlik san’ati yangi bosqichga ko‘tarilib, an’anaviy uslublar bilan bir qatorda zamonaviy bezak shakllari paydo bo‘ldi.

Qozog‘iston ustalari o‘z ishlarida qadimiy ramzlarni saqlagan holda yangi texnikalar va materiallardan foydalana boshladilar. Ularning ijodiy izlanishlari orqali milliy zargarlik san’ati xalq amaliy bezak san’atining ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda Qozog‘iston zargarlik san’ati nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda. Zamonaviy ustalar ajdodlar merosiga sadoqat bilan qarab, uni zamon talablari asosida yangicha talqin etmoqda.

Shu tariqa, zargarlik san’ati xalq madaniyati, tarixi va o‘zligini saqlashda, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutmoqda. Shunday qilib, Qozog‘iston zargarlik san’ati — bu nafaqat hunar, balki xalq tarixining o‘ziga xos tili, uning yuragi va ruhi bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bebaho madaniy merosdir.

ADABIYOTLAR:

1. Timothy Samara. Design Elements. - New York: STIM Visual Communication, 2011.- 272 p.

2. Александр Навроцкий, О. А. Казачкова, Виктор Борисович Лившиц "Ковка и литье. Изготовление ювелирных и декоративных изделий" 2011 год.

3. В. И. Куманин "Материалы для ювелирных изделий", 2012 год.

4. Марченков В.И. Ювелирное дело. М., 1990.

5. Абдуллаев Т., Фахреддинова Д., Хакимов А. Песнь о металле. Т.: Изд. литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1986.

6. Ахмеджанова Умида Баходировна Психология цвета в рекламе // Евразийский научный журнал. 2017. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologiya-tsveta-v-reklame

7. Bakhodirovna, A. U. (2022). Baroque Art and Architecture in France. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 480-483. https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1328

8. Ахмеджанова Умида Баходировна Искусство и архитектура XV века в Италии // Наука, образование и культура. 2020. №5 (49). С. 62-64. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvo-i-arhitektura-xv-veka-v-italii

9. История Казахской ССР с древнейших времен до наших дней: В 5 т. Т. 1. — Алма-Ата: Наука, 1977.

10. Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана / Д. А. Фахретдинова. — Ташкент: Изд-во лите ратуры и искусства имени Гафура Гуляма, 1988. — С. 9.

11. Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана / Д. А. Фахретдинова. — Ташкент: Изд-во лите ратуры и искусства, 1980.

12. Иллюстрация из книги: Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана. / Д. А. Фахретдинова. — Ташкент: Изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1980.

“YOSHLAR IDENTITETIGA IJTIMOIY TARMOQLAR TA'SIRINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK JIHATLARI”

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Mahmudov Oyatbek Umidjon o’g’li
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola yoshlar identitetining shakllanish jarayoniga ijtimoiy jarayonlarning yeksiya va ijtimoiy mexanizmlar orqali ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy muhiti yoshlarning o'zini anglash, o'zini rivojlantirish va ijtimoiy mansublik hissining paydo bo'lishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi o'zini taqdim etish strategiyalari, auditoriya reaktsiyasi (like, kommentlar), vizual kontentning idealizatsiyalangan tabiati va ijtimoiy solishtirish jarayonining kuchayishi identitet yumshoqligi, tana obrazi qoniqishi va jismoniy o'zini yangilashga ta'sir ko'rsatadi. Shu birga, onlayn jamoalar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va o'zini ifodalash yosh yoshlar identini izlash va mahsulot jarayoniga hosil qilish hissa qo'shishi mumkin. Maqolada ijtimoiy media ta'sirining ikki yo'nalishi — konstruktiv va destruktiv — tabiati ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi hamda identitetga ta'ning yuqori yoshlarning individual xususiyatlari va media iste'moli madaniyatiga bevosit.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar psixologiyasi, raqamli muloqot, onlayn o'zaro ta'sir, identitet tadqiqot, onlayn qabul, Ijtimoiy eksponirovka, media-savodxonlik*

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние социальных процессов на формирование идентичности молодёжи посредством проекционных и социальных механизмов. Исследования показывают, что физическая среда является важным фактором становления самосознания, саморазвития и чувства социальной принадлежности у молодёжи. Стратегии самопрезентации в социальных сетях, реакция аудитории (лайки, комментарии), идеализированный характер визуального контента и интенсификация процесса социального сравнения влияют на мягкость идентичности, удовлетворённость образом тела и физическое самообновление. В то же время, онлайн-сообщества, социальная поддержка и самовыражение могут способствовать процессу поиска и формирования идентичности молодёжью. В статье на основе научных источников обосновываются два направления влияния социальных сетей – конструктивное и деструктивное – и они напрямую связываются с*

индивидуальными особенностями молодёжи с высокой тревожностью идентичности и культурой медиапотребления.

Ключевые слова: *Психология молодёжи, цифровая коммуникация, онлайн-взаимодействие, исследования идентичности, онлайн-усыновление, социальное воздействие, медиаграмотность*

Abstract: *This article analyzes the impact of social processes on the formation of youth identity through projection and social mechanisms. Research shows that the physical environment is an important factor in the emergence of self-awareness, self-development and a sense of social belonging in young people. Self-presentation strategies on social networks, audience reaction (likes, comments), the idealized nature of visual content and the intensification of the social comparison process affect identity softness, body image satisfaction and physical self-renewal. At the same time, online communities, social support and social support and self-expression can contribute to the process of young people's identity search and production. The article substantiates the two directions of social media influence - constructive and destructive - based on scientific sources and directly relates them to the individual characteristics of young people with high identity anxiety and the culture of media consumption.*

Keywords: *Youth psychology, digital communication, online interaction, identity research, online adoption, Social exposure, media literacy*

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy sohadagi yoshlar hayotida markaziy o'rin egallaydi, bu esa shaxsiy shaxsiy va ijtimoiy identiteti shakllanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Identitet shaxsiy psixologiyada shaxsiy o'zini anglash, odamlar, ijtimoiy rol va o'zini olib tashlash natijasida olingan murakkab va ko'p qatlamli hol sifatida qaraladi. Yoshlar o'sib borayotgan davrda o'zini izlash, o'ziga xosligini va ijtimoiy muhit bilan moslashish jarayonlaridan o'tadi, va aynan shu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar muhim vosita sifatida namo

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'zini taqdim etish, tengdoshlar bilan o'zaro muloqot qilish, ijtimoiy solishtirish va tashkil mexanizmlarini boshdan kechiradi. Shu bilan birga, onlayn muhitdagi faoliyat — post va kontent, passiv kuzatuvchilik, interaktivlik — yoshlarning self-esteem (o'zini harakat), self-concept clarity (o'zlik aniqligi), tanaviy qoniqish va erkinlikka erkin ta'sir ko'rsatish. Ilmiy shuni shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy soha yoshlari identitetini davom ettirishda ikki tomonlama rol o'ynaydi: ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kreativ ifoda va ijtimoiy[27] integratsiyani qo'llab-quvvatlash, kreativ ifoda va ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlash mumkin, ideal, kontent, doimiy ijtimoiy solishtirish va saqlashga qaramlik.

[27] https://journalss.org/index.php/ust/article/view/4651?utm_source=

Buning uchun ijtimoiy tarmoqlarni yoshlarning identiteti va ruhiy rivojlanishiga ta'sirini o'zining jismoniy rivojlanishi va ijtimoiy sog'lomlashtirish, balki yoshlarni jismoniy muhitni saqlashdan himoya qilish va konstruktiv rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqarish uchun ham muhim ishlab chiqarish ega.

Asosiy qism: Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar identitetining shakllanishida zamonaviy ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Bu platformalar yoshlarning o‘zini anglash, shaxsiy qadriyatlari va ijtimoiy rollarini sinab ko‘rish, guruh identifikatsiyasini tajriba qilish va global axborot maydonida o‘zini ifoda etish imkonini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda turli rollarni sinab ko‘rib, o‘z qadriyatlari va shaxsiy dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan virtual imijlar orqali ular o‘zlikni tajriba qilish va real hayotdagi o‘zini anglash imkoniga ega bo‘ladi[28]. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida “ijtimoiy taqqoslash” jarayonini kuchaytiradi. Yoshlar ko‘pincha o‘zlarini do‘stlari, tanishlari yoki mashhur blogerlar bilan solishtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu taqqoslash motivatsiyani oshirishi, ijobiy rol modellardan o‘rnak olishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, ortiqcha taqqoslash va “like”, izohlar kabi tashqi baholash vositalari yoshlarning o‘zini past baholashiga, o‘zlik tushunchasining zaiflashishiga va ruhiy stressga olib kelishi mumkin[29].

Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar o‘z fikrlarini ochiq ifoda etish va turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega. Bu guruhlar orqali ular ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni oladi, o‘zini qabul qilingan va muhim his qiladi, shuningdek, guruh qadriyatlariga moslashish orqali identitetini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, virtual guruhlar va platformalarda ortiqcha vaqt o‘tkazish, noto‘g‘ri kontentga duch kelish yoki doimiy ijtimoiy bosim identitetning barqaror shakllanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yoshlar orasida depressiya, xavotir, ijtimoiy izolyatsiya va o‘zini past baholash holatlari ortishini ko‘rsatgan[30].

Onlayn va real hayot o‘rtasidagi farq yoshlarning identitetiga ijtimoiy-psixologik murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Virtual imij va haqiqiy o‘zlik o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoshlarni psixologik stressga uchratishi, o‘zlikni anglash jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan ongli va me’yorida foydalanish yoshlar uchun ijobiy imkoniyatlar yaratadi. Ular o‘z fikrini ifodalash, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mos ijtimoiy guruhlarni topish va global axborot almashish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, media savodxonligi, tanqidiy fikrlash va onlayn hayot bilan real hayot o‘rtasidagi muvozanat identitetning barqaror va doimiy shakllanishi uchun zarur[31].

[28] (The Impact of Social Media Communication on Youth Identity Formation: A Cross-Cultural Analysis, idebahasa.or.id).
[29] (The Effects of Social Media on Identity Construction in Adolescents, ijournals.in).
[30] (The Influence of Social Media on Adolescents' Identity Construction: A Critical Analysis, injoser.joln.org).
[31] (Study on the Impact of Social Media on Adolescent Identity Formation, granthaalayahpublication.org).

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida emotsional va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Onlayn muloqot orqali ular guruhdagi o‘z rolini anglaydi, boshqalar bilan hamkorlik qilish, jamoaviy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy normalarni o‘rganish qobiliyatini mustahkamlaydi. Biroq, ortiqcha onlayn faoliyat, kontent bosimi va doimiy taqqoslash ruhiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish, o‘zlikni sinash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni muvozanatlash identitet shakllanishida asosiy shart hisoblanadi[32].

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar identitetini shakllantirishda ikki qirrali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat identitetni shakllantirish va o‘zini ifoda etish imkonini beradi, balki nazoratsiz yoki ortiqcha foydalanish ruhiy salomatlik va identitet barqarorligi uchun xavf manbai bo‘lishi mumkin. Shu bois, yoshlar identitetini barqaror shakllantirish va psixologik salomatlikni saqlash uchun ijtimoiy tarmoqlardan ongli, me’yorida va tanqidiy fikrlash asosida foydalanish zarur.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytamiz ki ijtimoiy tarmoqlar yoshlar identiteti shakllanishida zamonaviy ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn muhit yoshlarning o‘zini anglash, guruh identifikatsiyasini tajriba qilish, o‘z qadriyatlari va qiziqishlarini sinab ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha taqqoslash, virtual imij va haqiqiy o‘zlik o‘rtasidagi nomuvofiqlik ruhiy stress, depressiya, o‘zini past baholash va identitetning parchalangan shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar identiteti uchun ikki qirrali vosita bo‘lib, u ongli va me’yorida ishlatilganda ijobiy psixologik va ijtimoiy natijalarni beradi, lekin nazoratsiz va ortiqcha foydalanish salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. Shu sababli, yoshlarning media savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va onlayn hamda real hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash identitetning barqaror va doimiy shakllanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar identitetining shakllanishida ijtimoiy va psixologik jihatdan muhim vosita bo‘lib, ular orqali yoshlar o‘zini anglaydi, o‘zini ifoda qiladi va jamiyat bilan o‘zaro aloada bo‘ladi, shuningdek, identitet barqarorligini saqlash va ruhiy salomatlikni ta’minlash uchun ongli foydalanish zarurati mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/4651?utm_soue=

2. (The Impact of Social Media Communication on Youth Identity Formation: A Cross-Cultural Analysis, idebahasa.or.id).

3. (The Effects of Social Media on Identity Construction in Adolescents, ijournals.in).

4. (The Influence of Social Media on Adolescents' Identity Construction: A Critical Analysis, injoser.joln.org).

5. (Study on the Impact of Social Media on Adolescent Identity Formation, granthaalayahpublication.org).

Xalilova va F. I. Xaydarov

MANTIQIY MASALALAR YORDAMDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Kurbonova Nasibaxon

Andijondavlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang`ich ta'lim yo`nalishi 3-bosqich 309-guruh talabasi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobilyatini rivojlantirishda mantiqiy masalalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.Mantiqiy masalalarni dars jarayonida qo'llashning metodik asoslari, samarali yondashuvlar va amaliy tavsiyalar bayon qilinadi. Tadqiqot o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalarni shakllantirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, mantiqiy masalalar, fikrlash qobilyati, tafakkur, metodika,mantiqiy operatsiyalar.*

Аннотация: *В статье анализируется роль и значение логических задач в развитии мыслительных навыков учащихся начальной школы. Описаны методические основы использования логических задач в учебном процессе, эффективные подходы и практические рекомендации. Исследование направлено на формирование у учащихся таких мыслительных операций, как анализ, сравнение, обобщение.*

Ключевые слова: *начальное образование, логические задачи, мыслительные навыки, мышление, методология, логические операции.*

Annotation: *The article analyzes the role and importance of logical problems in the development of thinking skills of primary school students. Methodological foundations of the use of logical problems in the teaching process, effective approaches and practical recommendations are described. The study is aimed at the formation of students' mental operations such as analysis, comparison, generalization.*

Keywords: *primary education, logical problems, thinking skills, thinking, methodology, logical operations.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilardan mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalari talab etiladi.

Ayniqsa boshlang'ich sinf davrida o'quvchilarning tafakkuri faol shakllanadi.

Bu jarayonda mantiqiy masalalar muhim vosita bo'lib, ular o'quvchilarning aqliy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mantiqiy masalalar o'quvchini mantiqiy fikr yuritishga, sabab-oqibat bog'lanishlarni izlashga,tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu bois boshlang'ich sinf ta'limida, tizimli va metodik asosida foydalanish zarur.

Mantiqiy tafakkurni shakllantirish boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallarni shakllantirish imkoniyatlaridan foydalanish uchun har bir tushunchaning mohiyati, mazmuni va uning o'quvchilar amaliy tajribasiga asoslanishi hamda ko'rgazmalilikning keng yo'lga qo'yilishi, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatish, o'quvchilarda mantiqiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Mantiqiy masalalarning ta'lim jarayonidagi o'rni.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy masalalar: tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi, matematik savodxonlikni rivojlantiradi, diqqatni jamlash va kuzatuvchanlikni kuchaytiradi, o'z fikrni asoslash qobilyatini shakllantiradi.

Mantiqiy masalalar o'quvchilarni kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirib boradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.

Boshlang'ich sinffda masalalarni yechish jarayonning pedagogik-psixologik asoslari o'quvchilarning tafakkuri, xotirasi, e'tibori, nutqi va ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishga asoslangan jarayondir.

Jeat Piaget nazariyasiga ko'ra : bolalarning fikrlash qobilyatini turli bosqichlarda rivojlanishini tushuntiradi. U bolalarning fikrlashni "Kognitiv rivojlanish" deb atagan.

Lev Semyonovich vigotskiy nazariyasiga ko'ra: o'quvchi o'qituvchi yoki tengdoshlari, ijtimoiy muhit munosabatlarning ta'sirida rivojlanishi juda yuqori bo'ladi deb ta'kidlagan.

O'quvchilarningaqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida sodir bo'ladi.

Mantiqiy fikrlash quyidagi operatsiyalarga tayanadi:

Tahlil qilish;

Taqqoslash:

Guruhlash va tasniflash;

Umumlashtirish;

Xulosa chiqarish.

Boshlang'ich sinfda bu operatsiyalar o'yin elementlari va mantiqiy masalalar orqali shakllantirilganda samaradorlikni oshiradi.

Mantiqiy masalalar turlari va ularning imkoniyatlari.

Taqqoslashga doir mantiqiy masalalar-o'quvchilarni farqli belgilarga e'tibor berishga, o'xshashlik va tafovutni topishga o'rgatadi.

Topishmoq va jumboqlar-ijodiy va obrazli fikrlashni rivojlantiradi.

Ketma-ketlik va qonuniyat masalalari-matematik mantiqni shakllantiradi, sabab-oqibat aloqalarini tushuntiradi.

Kombinator masalalar-variantlar orqali turli yechimlar topishga o'rgatadi.

Geometrik mantiqiy masalalar-shakllar asosida tasavvurni, fazoviy fikrlashni rivojlantiradi.

Hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar-o'quvchilarni real vaziyatlarni modellashtirish va yechim topishga yo'naltiradi.

Masalalar haqida fikr yuritish aqliy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobilyatini tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boriladi.

Masalalarni shakllantirishda aniq material bo'lgan holda nazariyani amaliyot bilano'qitishni, turmush bilan bog'lab boorish imkonini beradi.

O'quvchilar masalani yechayotganda ko'p matematik tushunchalar real hayotda ,insonlarning tajribasida o'z ifodasini topadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki: o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda-zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mantiqiy masalalar, o'yinlar, muammoli vaziyatlar, tahliliy topshiriqlar va guruhli faoliyat shakllari orqali o'quvchilar mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rganadilar.

Bu esa ularning nafaqat o'quv fanlarida, balki kundalik hayotda ham muammolarni tahlil qilish, to'g'ri qaror qabul qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

7-10 yoshidagi bolalarda tafakkuri jadal rivojlanadigan, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi intelektual qobilyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi.

Ushbu jarayonda to'g'ri tanlangan metodlar va o'qituvchining maqsadli tashkil etilgan faoliyati o'quvchining kelajakdagi mustaqil fikrlash, muammolarni hal qila olish, hayotiy qarorlar qabul qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish- o'quvchilarni berilgan nazariy ma'lumotlarni yodlashga emas, balki fikrlash jarayonini anglash va tushunishga undaydi.

Bunda muammoli vaziyat yaratish, mantiqiy savol-javoblar, o'yin texnologiyalari, grafik-sxematik usullar, deduksiya-induksiya kabi metodlar muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini chuqurlashtiradi va mantiqiy izchillikni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Zunnunov "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
2. Boshlang'ich sinflar uchun matematika darsliklari(1-4 sinflar).

3. E.E.Jumayev “Boshlang’ich matematika nazariyasi va metodikasi” T: “Metod nashriyoti” 2023
4. D.Jumayev “Matematika o’qitish metodikasi” T:2022
5. www.google.co.uz
6. www.ziyoNet.uz

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA MATEMATIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sadirova Zarnigor Mahammadsidiqovna
Andijon Davlat Pedagogika instituti. Pedagogika Fakulteti . Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi 309-guruh talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishga oid ma’lumotlar berilgan. O‘quvchilarga matematikani hayot bilan bog’liqligini tushuntirish, matematik hisoblashning amaliyotini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kichik maktab yoshida tafakkur jarayonining rivojlanish dinamikasi o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *matematik tafakkur, metakognitiv yondashuv, kichik yosh, tafakkur, konstuktiv yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о развитии математического мышления учащихся младшего школьного возраста. Рассматриваются вопросы формирования у учеников представлений о взаимосвязи математики с повседневной жизнью и развития практических навыков математических вычислений. Изучена динамика развития мыслительных процессов в младшем школьном возрасте.*

Ключевые слова: *математическое мышление, метакогнитивный подход, младший возраст, мышление, конструктивный подход.*

Annotation: *This article provides information on the development of mathematical thinking in primary school students. It examines the process of fostering learners’ understanding of the relationship between mathematics and everyday life, as well as the development of practical computational skills. The dynamics of cognitive development in early school-aged children are also explored.*

Keywords: *mathematical thinking, metacognitive approach, early age, cognition, constructive approach.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev matematika haqida:

„Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi....”deya ta’kidlaydi.

Tafakkur- insonning asosiy imkoniyat manbaidir. Kelajagimiz qanday bo‘lishi bizning tafakkurimizga butunlay bog’liq. Edvard de Bono.

Bugungi zamonaviy ta’lim ga bo‘lgan e’tibor rivojlanishlarimizning ustuvor yo‘nalishlarimizdan bo‘lib kelmoqda.Xususan Prezidentimizning 2019-yil 6-noyabrdagi

„Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risidagi qarori hamda 2020-yil 7-maydagi „Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda matematika ta’lim sifatini oshirish chora-tadbirlari” tog’risidagi farmoni ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi.Bu hujjatlar maktabda matematika fanini o‘qitish sifatini oshirish, zamonaviy tehnalogiyalardan foydanish va yangi metodlarni keng joriy etish, yosh avlodninig ilmiy - ijodiy salohiyatini yuksaltirishni nazarda tutadi.

Bilim eng katta xazina bo‘lib, uni hech bir boylik bilan qiyoslab bo‘lmaydi.Jahon taraqqiyotida intelektual salohiyat muhim kasb etib.bilimli va salohiyatli insonning kuchiga bo‘lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Inson kapitali 21- asrda insoniyatning har bir davlatning taqdirini belgilaydigan mezonga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ham ilg’or tajribalarga asoslangan holda umumta’lim muassalarining1-4-sinflari uchun yangi darslik va dasturlar ishlab chiqmoqda. Zero sifatli ta’lim dasturi va darsliklar bolani qiziqtirishga xizmat qiladi.Yangi maktab darsliklari „ 4 K” modeli asosida yaratidi.Ushbu metadologiya bolalarni har tomonlama rivojlantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, Kollabratsiya-jamoa bo‘lib ishlash, Kommunikativlik-muloqot ko‘nikmalari, Kreativ fikrlash, Kritik fikrlash- yangi ma’lumotga nisbatan tanqidiy baho berish jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan.

Maktab ta’limining boshlanishi bilan bolalarda mantiqiy tafakkur maktabga qadar bo‘lgandan tezroq rivojlana boshlaydi,bu jarayonda bola tushunchalar yordamida ish ko‘radi.

Avvaliga tushunchali tafakkur aniq narsa hodisalar bilan mustahkam bog’langan bo‘ladi lekin sekin asta kichik yoshdagi o‘quvchilarda aniq narsadan mavhum lashtirish umumlashmalar qilish, ma’lum darajada mavhum xulosalar chiqarish ko‘nikmasi vujudga keladi.

Quyi sinflardanoq ularga qiziqqan savollariga javob topishlariga o‘rgatishimiz kerak.Matematik tafakkurni rivojlantirishning eng samarali yo‘li o‘quvchilarni faol va mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir.

15-16 asrlardagi mashhur olimlar bilishning asosiy qonunlariga faqat o‘qitishning emas balki axloqiy tarbiyanining ham yetakchi asos isifatida qaraganlar. Abu Nasr Farobiy „Namunali ta’lim”haqidagi risolasida o‘quvchilar o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni eng yaxshi yo‘sinda bayon qilish masalasiga alohida to‘xtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan;ulardan biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi o‘ringa qo‘yishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olg’a surishdan iboratdir.

U o‘z fikrini tushuntirib shunday yozgan;”Aql o‘z harakatini avval seziladigan narsalarga keyin aqlga muvofiq yo‘sinda, ya’ni xossalarni sintez qilishga yo‘naltirish ma’qul”.Ta’limda foydalanilgan har qanday usul zamirida umuminsoniy va milliy qadriyatlar o‘z aksini topmog’i lozim.

Matematik tafakkur -bu muammolarni hal qilishda tizimli ,mantiqiy,aniq ,izchil yondashuvlarni ishlab chiqish qobilyatidir. Matematik tafakkurni rivojlantirishning asosiy usullari sarasida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin.

1. Faol fikr yuritishga o‘rgatish. O‘z fikrini ikkilanmasdan erkin bayon etishga o‘rgatish,mulohazakorlikka chorlash.

2. Vizual vositalardan foydalanish.

3.Amaliy mashqlar va konstruktiv yondashuv. Mavzu yuzasidan amaliy bajarish uchun mashqlar ,masala, misol,turli instuktiv o‘yinlar,modellashtirish.

4.Metakognitiv yondashuv. Bu jarayonda material kichik qismlarga bo‘lib o‘rganiladi. „Bo‘laklarga bo‘lish-murakkab ma’lumotlarni qismlarga bo‘lish va alohida tushunish.„Muhim nuqtalarni ajratish”asosiy fikrni ajratib yozish,ularni takrorlash.

5.Differensial ta’limiy yondashuv .O‘quvchilarni qobilyatlariga qarab ,duch kelgan muammolarning murakkabligiga qarab yordam berish.

Bularning barchasi kichik yoshdagi o‘quvchilarda matematik tafakkurini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Matematik o‘yinlar, boshqotirmalar, matematik mazmundagi topishmoqlar,matematik o‘yinlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladigan sharoit, ularni qiziqarliligi, o‘quvchilarda aqliy va ijodiy qobilyatlarini shaklantirishga yordam beradi. Matematik o‘yinlar Arifmetik nazariyaga asoslanadi. O‘quvchilar abstrakt tushunchalarni o‘rganishdagi mashg’ulotlarda bolalarning tafakkuri rivojlantirilib ,faolligi oshadi.

Amaliy mashqlar natijasida matematik tushunchalar mustahkamlansa,real hayotda qo‘llashni o‘rganishlari kelajakda muammoli vaziyatlarni o‘zlari hal qila olishlarida boshlang‘ich ko‘nikma bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari sinfdan tashqari ishlar mazmunida ham matematikaga nisbatan turg’un qiziqishlarini inobatga olib o‘quvchilar bilan matematik materiallar yosh xususiyatiga mos tanlanishi lozim. Matematik takakkurni shakllantirish jarayoni - bu murakkab ammo boshqarilishi mumkin bo‘lgan psixologik tizimdir.

To‘siqlarni yengishda ijobiy emotsional muhit,ragbatlantirish o‘qituvchining sezgirligi ijodkorligi o‘quvchini ishonchini mustahkamlaydi. O‘quvchilarda „Men eplay olaman” hissini shakllantirish- muvaffaqqiyat kalitidir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda mantiqiy masalalarni alohida ko‘rib chiqishimiz zarur tushuncha mulohaza xulosa chiqarish orqali bola tafakkur qila oladimi uni mantiqiy fikrlashga o‘rgatmasak uni bilimi mustahkam bo‘lmaydi. Matematika o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad-o‘quvchilarni olgan bilimlarini hayotda amalda qo‘llay olishlari kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hozirgi kun o‘quvchisini bugungi zamonning talablari bilan o‘qitish kerak.

O‘quvchilar hisoblash o‘lchash, grafik ko‘nikmalarni matematika darslarida shakllantiriar ekan hayoti davomida ma’lum sistemaga solib,borliq va atrofdagi ma’lumotlarga solishtirib yashaydi. Vgotskiy va Piajetning nazariyalari shuni isbotlaydiki tafakkur - bu ijtimoiy faoliyatning mahsuli.

Shuning uchun o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti, guruhli ishlari,o‘qituvchi bilan emotsional aloqa sifatli tafakkur shakllanishi uchun zarur omillardandir.

Tafakkurning rivojlanish bosqichlari;

1.Ko‘rgazmali -harakatli tafakkur. Bola narsalar bilan amaliy harakaatlar orqali fikr yuritadi.

2.Ko‘rgazmali obrazli tafakkur. Bola narsalarni ko‘rmasdan uning tasavvurida jonlantirib fikr yuritadi.

3.Mantiqiy tafakkur. Bola so‘zlar ,tushunchalar, belgilar orqali fikr yuritadi.Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ko‘rgazmalilik ,matematik tafakkurni o‘stiradi. Bola ko‘rib tez tushunadi, idrok qiladi va xulosa chiqaradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar Jadvallar, diagrammalar,ko‘rgazmali tasvir hamda visual komponentlar orqali tez va ongli tushunchalarga ega bo‘ladilar.Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari;O‘yin va jumboqlar,mantiqiy ketma-ketliklar,tasniflash va taqqoslash,sodda mantiqiy masalalar,savol-javob shakli dars davomida „Nega,”„Qanday „ kabi savollar berish orqali o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini asoslashga va mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent sh,„2020-yil 7-may,PQ-4708 son.

2. Vgotskiy L.S.Psixik rivojlanish nazariyasi-Moskva,1991.

3. Piajet J.Bola tafakkuri va bilish jarayonlari-Nyu-York, 1972.

4.Jumayev M.Matematika o‘qitish metodikasi .T.„Ilm ziyo“,2003.

5. Jumayev.M. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi-T.„Ilm-Ziyo“,2009. 6.Ochilova L.T. Boshlang’ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari. maqola.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xoshimova Feruza
Andijon davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta‘lim 3 kurs talabasi
Xakimova Nargizaxon
Andijon davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: *Boshlang‘ich ta’lim inson hayotida muhim rol o‘ynaydigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning shakllanish davridir. Ayniqsa, mantiqiy fikrlashning rivoji bolalarning nafaqat ta’lim olishdagi muvaffaqiyatiga, balki kundalik hayotda muammolarni hal qilish qobiliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish haqida so`z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, TIMSS, PIRLS, Xalqaro baholash tizimlari, maktab o‘quvchilari, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogika, intellektual rivojlanish, o‘qituvchining roli*

Аннотация: *Начальное образование — это период формирования знаний, навыков и умений, которые играют важную роль в жизни человека. В частности, развитие логического мышления оказывает существенное влияние не только на успешность детей в учебе, но и на их способность решать задачи в повседневной жизни.*

В данной статье рассматривается развитие логического мышления у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: *логическое мышление, начальное образование, TIMSS, PIRLS, международные системы оценки, школьники, повышение качества образования, современная педагогика, интеллектуальное развитие, роль учителя*

Annotation: *Primary education is a period of formation of knowledge, skills and abilities that play an important role in human life. In particular, the development of logical thinking has a significant impact not only on the success of children in education, but also on their ability to solve problems in everyday life. This article discusses the development of logical thinking in primary school students.*

Keywords: *logical thinking, primary education, TIMSS, PIRLS, International assessment systems, schoolchildren, improving the quality of education, modern pedagogy, intellectual development, the role of the teacher*

KIRISH

O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsad va vazifalarini amalga oshirish, yuqori samarali ish o’rinlarini modernizatsiya qilish bo’yicha maqsadlarni qo’ydi. Shunday ekan, mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyati fanni talab qiladigan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun malakali mutaxassislarga bo’lgan ehtiyojni qondirish nuqtai nazaridan, bu bevosita yuqori sifatli matematik ta’limga bog’liq. "Matematikani o’rganish ta’limda tizimli rol o’ynaydi, insonning kognitiv qobiliyatlarini, shu jumladan mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi...". Bularning barchasi zamonaviy jamiyatda nafaqat yaxshi ma’lumotga ega bo’lgan mutaxassislarning, balki qutidan tashqarida fikr yurita oladigan mutaxassislarning mavjudligini nazarda tutadi 1. Shu munosabat bilan, asosiy umumiy ta’limning ustuvor yo’nalishi - o’rganishga, o’z-o’zini tarbiyalashga va olingan bilimlarni amaliyotda qo’llashga qodir bo’lgan o’quvchilarning rivojlanish salohiyatini ro’yobga chiqarishdir. Insonning fikrlash qobiliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu mantiqiy savodxonlik, ya’ni har qanday intellektual faoliyatda zarur bo’lgan ma’lum bir minimal mantiqiy ko’nikma va bilimdir.

Mantiq to‘g‘ri fikrlash qonuniyatlari va shakllarini o‘rganadi. Pedagogika uchun mantiqni bilish juda muhimdir. Har bir o‘quv fanining mantig‘i uni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar tomonidan shakllantirilishi kerak bo‘lgan mantiqiy amallar tizimini, ular erishishi kerak bo‘lgan umumlashmalarni belgilaydi. Fikrlash o‘yin, ta’lim, mehnat va boshqa turli faoliyat turlarida rivojlanadi. Agar ta’lim tizimli tashkil etilsa, o‘z-o‘zidan mantiqiy bo‘lsa, o‘quvchilar o‘quv jarayonida o‘ylash va fikrlash orqali o‘rgansa, ularning mantiqiy tafakkuri yanada muvaffaqiyatli rivojlanadi. Kognitiv faoliyat muvaffaqiyatli faollashadi va rivojlanadi, qachonki, o‘quvchilar yangi savollardan xabardor bo‘lib, ularga javob izlashda, avval o‘qituvchi bilan hamkorlikda, so‘ngra mustaqil ravishda, asta-sekin oddiydan murakkabroq savollarga o‘tilsa. Darhaqiqat, ijodiy fikrlash va tanqidiy fikrlash hozirgi ta’limning dolzarb mavzularidan biridir. Samarali va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun ijodiy fikrlash tanqidiy fikrlash bilan to‘ldirilishi kerak. Agar jarayonga tanqidiy nuqtai nazar bilan qaramasangiz, ijodkorlik har doim samarasiz bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlash - bu ma’lumotlar, g‘oyalar va dalillarni sinchkovlik bilan baholash, shuningdek, fikrlash jarayonini chuqur tushunish orqali ishlarning haqiqiy holatini bilish uchun faol izlanish. Ta’limning har bir bosqichidagi har bir fanning mazmuni o‘quvchilarga nafaqat idrok etish va takrorlashni, balki aks ettirishni ham talab qiladigan savollarni qo‘yish imkonini beradi. Bunday ishlar o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ya’ni savollarni tanib olish, ularni aniqlashtirish yo‘llarini topish, buning uchun zarur bo‘lgan amallarni bajarish va to‘g‘ri xulosalar chiqarishning umumlashtirilgan qobiliyati. Fikrlash o‘rganish qobiliyatining markazidir.

Ko‘pincha 1-sinfga chiqqan bolalar o‘qiy oladi, hisoblaydi va maktabga to‘liq tayyor bo‘lib tuyuladi. Biroq, ba'zi o‘quvchilar o‘qishning birinchi oylaridayoq muammolarni hal qilish va tushuntirish, muayyan qoidalar va tushunchalarni shakllantirish, sabab-ta'sir munosabatlarini o‘rnatish va asoslashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunday vaziyatning umumiy sabablaridan biri - mantiqiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari

Tahlil va sintez: O‘quvchilarga biror narsani qismlarga ajratish (tahlil) va keyin ularni qayta birlashtirish (sintez) mashqlarini bering.

Taqqoslash va tasniflash: Biror mavzuni turli jihatlari bilan taqqoslash va ularni o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish (tasniflash) jarayonlarini o‘tkazing.

Umumlashtirish va aniqlashtirish: Bir nechta misollardan umumiy xulosaga kelish (umumlashtirish) va ma’lum bir tushunchani aniqroq izohlash (aniqlashtirish) mashqlarini bajartiring.

Mavhumlashtirish: Muayyan narsalarga bog‘liq bo‘lmagan holda, mavhum tushunchalar ustida ishlashga yordam bering.

O‘yinlar: Turli mantiqiy o‘yinlar, jumboqlar va savol-javoblar orqali bolalarni jalb qiling.

Mantiqiy fikrlash – bu muayyan masala yoki muammoni tahlil qilish, dalillar asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bolalarga:

- O‘z fikrlarini aniq va izchil ifoda etishni;
- Vaziyatlarni to‘g‘ri baholashni;
- Muammolarga ijodiy yondashishni o‘rgatadi. Boshlang‘ich sinflar – mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun eng qulay davrdir. Chunki bu yoshdagi bolalarda qiziquvchanlik va tahlil qilish qobiliyati tabiiy ravishda rivojlanadi. Mantiqiy fikrlashning rivoji, ayniqsa, matematika va tabiiy fanlarda yuksak natijalarga erishish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari (masalan, TIMSS, PIRLS, PISA) ta’lim sifatini aniqlashda asosiy mezon bo‘lib, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Masalan:

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini o‘lchaydi. Bu dastur o‘quvchilarning masalalarni tahlil qilish, ma’lumotlarni tushunish va ulardan foydalanish qobiliyatini baholaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – o‘quvchilarning matnni tahlil qilish va tushunish qobiliyatini tekshiradi. Bu jarayonda mantiqiy fikrlash muhim omil bo‘lib, bolalarning matn mazmunini tanqidiy baholash qobiliyatiga e’tibor qaratiladi.

O‘zbekistonning ushbu baholash tizimlarida ishtiroki ta’lim sifatini xalqaro darajaga moslashtirish uchun imkoniyat yaratmoqda. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Amaliy mashg‘ulotlar: Matematik masalalar, mantiqiy boshqotirmalar va muammolar yechish orqali o‘quvchilarda sabab va oqibatni aniqlash qobiliyati rivojlanadi.

2. Interaktiv o‘yinlar: Shaxmat, domino yoki boshqa mantiqiy o‘yinlar yordamida bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

3. Matnlarni tahlil qilish: Ona tili darslarida matn mazmunini tahlil qilish va savollar bo‘yicha muhokamalar o‘tkazish.

4. Texnologiyalarni qo‘llash: Zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv dasturlar va mobil ilovalar orqali mantiqiy mashg‘ulotlarni qiziqarli qilish.

5. Muammolar yechishga yo‘naltirilgan darslar: Hayotiy masalalarni muhokama qilish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

XULOSA. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mantiqiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi nafaqat o‘quvchilarning individual muvaffaqiyatiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro baholash tizimlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, yuqori natijalarga erishish va o‘z bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyati aynan mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga bog‘liq. Shuning uchun, o‘qituvchilar zamonaviy metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zarur. Mantiqiy fikrlash – bu faqat ta’lim jarayonining bir qismi emas, balki o‘quvchilarning kelajakdagi hayoti uchun muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikbayeva N.U., Girfanova K.M. 4-sinf Matematika. Toshkent: «O‘qituvchi», 2020. – 177 b.

2. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I ., Adambekova G.A.”Boshlang`ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi” darslik.”O`qitivchi”.Toshkent-2016.

3. Jumayev M.E., “Matematika o`qitish metodikasidan praktikum” o`quv qo`llanma.”O`qituvchi”.Toshkent-2014.

4. Ismoilov B. – “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar” (2021)

5. Xudoynazarov, E. M., & Bekmetova, Z. Z. Q. (2022). O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 1099-1107.

6. Egambergan, X. M., & Xo‘janiyozova, Sh. B. (2023). Al-Xorazmiy-barcha zamonlarning eng ulug‘ matematigi. boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali, 3(1), 4-10.

7. Xudoynazarov, E. M., & Avezova, D. G‘. Q. (2023). Inson fikrlashini rivojlantirishning didaktik asoslari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 310-317.

8. Xudoynazarov, E. M., & Avezova, D. G‘. Q. (2023). O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 289-297.

“BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI”

To‘raboyeva Mahliyo
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi
Yusupova Umida
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 306-guruh talabasi e-pochta: yusupovaumida267@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari yoritiladi. Boshlang‘ich ta’lim bolaning tafakkuri shakllanadigan eng muhim bosqich bo‘lib, matematika ushbu jarayonda tartib, izchillik va fikrlash madaniyatini tarkib toptiruvchi asosiy vosita sifatida ko‘riladi. Tadqiqotda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, muammoli vaziyat yaratish, mantiqiy o‘yinlar va hayotiy masalalar orqali fikrlashni faollashtirishning ilmiy jihatlari bayon etiladi. O‘quvchilarda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy amallarni bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni badiiy va ilmiy yondashuv uyg‘unligida tasvirlanadi. Ish o‘qituvchining boshqaruvchan roli va mantiqiy masalalar tizimining o‘quvchi tafakkuriga ta’sirini o‘rganib, boshlang‘ich matematika ta’limida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha umumlashtirilgan ilmiy tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so‘z: *Mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, matematika darsi, ko‘rgazmalilik, muammoli vaziyat, mantiqiy o‘yinlar, umumlashtirish, xulosa chiqarish, tafakkur rivoji, didaktik yondashuv, o‘quv faoliyati.*

Аннотация: *В статье рассматриваются основные принципы развития логического мышления учащихся на уроках математики в начальной школе. Начальное образование является важнейшим этапом формирования мышления ребёнка, а математика рассматривается как основной инструмент в этом процессе, формирующий упорядоченность, последовательность и культуру мышления. В исследовании рассматриваются научные аспекты активизации мышления посредством использования наглядных пособий, создания проблемных ситуаций, логических игр и задач из реальной жизни. Процесс постепенного формирования у учащихся таких мыслительных операций, как анализ, сравнение, обобщение и вывод, описывается в сочетании художественного и научного подходов. В работе исследуется руководящая роль учителя и влияние системы логических задач на мышление учащихся, а также представлены обобщенные*

научные рекомендации по развитию логического мышления в начальном математическом образовании.

Ключевые слова: *Логическое мышление, начальное образование, урок математики, демонстрация, проблемная ситуация, логические игры, обобщение, вывод, развитие мышления, дидактический подход, образовательная деятельность.*

Annotation: *This article discusses the basic principles of developing students' logical thinking skills in primary school mathematics classes. Primary education is the most important stage in the formation of a child's thinking, and mathematics is seen as the main tool in this process that forms order, consistency, and a culture of thinking. The study describes the scientific aspects of activating thinking through the use of visual aids, creating problem situations, logical games, and real-life problems. The process of gradually forming mental operations such as analysis, comparison, generalization, and conclusion in students is described in a combination of artistic and scientific approaches. The work studies the teacher's managerial role and the influence of the system of logical problems on student thinking, and presents generalized scientific recommendations for the development of logical thinking in primary mathematics education.*

Keywords: *Logical thinking, primary education, mathematics lesson, demonstration, problem situation, logical games, generalization, conclusion, development of thinking, didactic approach, educational activity.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim — har bir bolaning tafakkur, xotira va analitik qobiliyatlari shakllanadigan davrdir. Aynan shu bosqichda o‘quvchilar mantiqiy fikrlashni egallash orqali nafaqat matematik ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham izchil va asosli qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi. Matematika fanining mohiyati nafaqat sonlar va shakllardan iborat bo‘lib, u strukturaviy tafakkur, sabab-natija munosabatlarini anglash va tizimli xulosa chiqarish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, o‘yinlar va ochiq savollar eng samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilarning matematik masalalarni yechish jarayonida tahlil qilish, taqqoslash, farqlash va umumlashtirish kabi ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, differensial yondashuv va o‘yinli mashg‘ulotlar bolalarning ijodiy tafakkurini rag‘batlantiradi.

Kombinatorika va mantiqiy masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu usullar bolalarning strukturaviy tushunchalarini mustahkamlaydi, muqobil yechimlar topishga va fikr tartibini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining pedagogik yondoshuvi — yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi — mantiqiy fikrlashni

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv vazifalar, murakkab vaziyatlarni yechish va tanqidiy savollar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rgatiladi.

ASOSIY QISM: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish nafaqat matematika fanini chuqurroq o‘rganish, balki ularning umumiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash — bu sabab-natija munosabatlarini aniqlash, muammolarni tahlil qilish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali matematik jarayonlarni nafaqat qabul qiladilar, balki ularni tahlil qiladigan, turli variantlarni solishtiradigan va eng optimal yechimni tanlaydigan mustaqil fikrlovchilarga aylanadilar[33].

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol yondashuvlar — darslarda o‘yinlar, guruh ishlari, savol-javoblar va muammoli vaziyatlarni qo‘llash — samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish bolalarning mantiqiy fikrlashini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, “Agar ... bo‘lsa, natija qanday bo‘ladi?” degan muammoli vaziyatlar bolalarni sabab-natija aloqalarini mustaqil aniqlashga undaydi[34]. Interfaol metodlar o‘quvchilarni faollikka jalb qiladi, ularni fikrlash jarayonida mustaqil bo‘lishga o‘rgatadi va biror masala yechimida bir nechta variantlarni ko‘rib chiqishga undaydi. Shu tarzda bolalar mantiqan asoslangan, tartibli va tizimli fikrlashni egallashadi. Boshlang‘ich sinfda matematik mantiqiy masalalarni ishlash, jumladan kombinatorika masalalari, bolalarning analitik va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli mantiqiy masalalarni kundalik hayotiy misollarga tatbiq etish orqali o‘quvchilar variantlarni taqqoslash, muqobil yechim topish va mantiqan asoslashni o‘rganishlari mumkin. Kombinatorika misollari bolalarga murakkab fikrlashni talab qiladi, ularning strukturaviy tafakkurini rivojlantiradi, xulosalar chiqarish qobiliyatini mustahkamlaydi va yechimlarni mantiqan asoslashga o‘rgatadi[35].

Vizual materiallar — shakllar, diagrammalar, maketlar — o‘quvchilarga abstrakt tushunchalarni tushunishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, geometrik shakllar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini sezilarli darajada oshiradi. Bu usul bolalarga murakkab matematik vaziyatlarni ko‘zda ko‘rinadigan tarzda tahlil qilish, xulosalar chiqarish va o‘z yechimlarini izohlash imkonini beradi. Shu bilan birga, vizual materiallar o‘quvchilarning diqqatini jamlash va e’tiborini bir nuqtaga qaratishda ham samaralidir.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ijodiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Ijodiy metodlar va didaktik komplekslardan foydalanish darslarda mantiqiy fikrlashni yanada boyitadi. Ijodiy metodika bolalarga yechim jarayonini o‘ylashni va mustaqil qaror qabul

[33] Global Science Review – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi
[34] Worldly Journals – Interfaol metodlar bilan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish
[35] Kokand University Scholar – Mantiqiy masalalarni hayotiy misollarga tatbiq etish

qilishni o‘rgatadi. Bu esa ularning fikrlash qobiliyatini erkin va mustaqil qiladi, murakkab masalalarni o‘z yechimlariga yetkazishda qat’iyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

O‘qituvchi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va nazoratchi sifatida faol ishtirok etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining murakkab va nostandart masalalarni tanlashi, o‘quvchilarning yechim yo‘llarini kuzatishi va ularni mustaqil izlanishga undashi muhimdir. Bu yondashuv o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini chuqurlashtiradi, ularni mustaqil fikr [36]yuritishga va murakkab muammolarni tahlil qilishga tayyorlaydi.

Mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash dars jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarning masalalarni yechishda qo‘llagan strategiyalarini, xulosalarini va tafakkur jarayonlarini kuzatib borishi lozim. Shuningdek, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish dars rejasida alohida band sifatida ko‘zda tutilishi, masalan, “mantiqiy masalalar”, “muammoli vaziyatlar” va “o‘yinlar” orqali amalga oshirilishi kerak[37]. Shu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematikaning nafaqat amaliy, balki nazariy asoslarini tushunib, tafakkurini tizimli rivojlantira oladi, murakkab masalalarni mustaqil[38] tahlil qilishi va ijodiy yechimlar topishi mumkin bo‘ladi. Yana shuni ham alohida takidlab o’tishimiz kerak ki Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda metakognitiv yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni o‘quvchilar o‘zlarining fikrlash jarayonini nazorat qilishni, strategiyalarni rejalashtirish va baholashni o‘rganadilar. Buning uchun «o‘qish jurnali» (learning log) metodidan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin — bolalar har darsdan so‘ng yakuniy fikrlarini, qanday strategiyalar ishlatganini va qanday muammolar paydo bo‘lganini yozib boradilar. Bu yondashuv ularning metakognitiv ongini, ya’ni fikrlash usullarini xabardor tarzda anglash va takomillashtirishni rag‘batlantiradi.

Shuningdek, matematik kontseptni tushunishni chuqurlashtirish uchun ko‘p vakillik (multiple representations) metodidan foydalanish muhimdir: diagrammalar, raqamlar, maketlar va yozma ifodalar orqali bir xil matematik tushunchani turli shakllarda berish nafaqat tushunishni osonlashtiradi, balki fikrlashda o‘zaro bog‘liqlik va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

O‘qituvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun Cognitively Guided Instruction (CGI) yondashuvi samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuvda o‘qituvchilar bolalarning fikrlashlarini tinglab, ularning[39] xatolari va strategiyalarini aniqlaydi va darsni ulardan kelib chiqib rejalashtiradi. Diagnostik va formatlash baholari (formative assessment) ham katta ahamiyatga ega.

[36] Pedagogs.uz – Geometrik shakllar va vizual materiallardan foydalanish
[37] Pedagoglar.org – O‘qituvchining roli va metodik tavsiyalar
[38]ERUS – Ijodiy tafakkur va didaktik komplekslar
[39] Mantiq.uz – Boshlang‘ich sinf matematika darslari metodikasi

Masalan, shaxsiy fikrlash va yechim jarayonlarini kuzatish uchun «metakognitiv yozuvlar» (learning logs) va doimiy baholash vositalari qo‘llanilishi mumkin. Bu metod bilan o‘qituvchi o‘quvchilarning qanday fikrlayotgani va qanday xato qilayotgani haqida chuqur ma’lumot oladi va dars strategiyasini moslashtiradi. Digitallashtirilgan vositalar ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga kuchli ta’sir qiladi.

Masalan, kompyuter modellashuv tizimlari (computer modeling systems) yordamida bolalar abstrakt tushunchalarni vizualizatsiya qilishi va o‘z yechimlarini modellashtirishlari mumkin.

Bu metodikada o‘z faoliyati ustida refleksiya qilish va shakllar bilan interaktiv ishlash bolalarning tafakkurini yanada chuqurlashtiradi.

Tarixiy va madaniy resurslardan foydalanish ham mantiqiy fikrlashni boyitadi.

Masalan, matematika darslarida sharq olimlarining asarlarini keltirish, ularning matematik yondoshuvlarini o‘rganish bolalarda mantiqiy va analitik tafakkurni shakllantiradi va madaniy kontekst orqali bolalarning qiziqishini oshiradi. Boshlang‘ich sinfda mantiqiy fikrlashni shakllantirish va mustahkamlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ham muhimdir.

Masalan, mantiqiy-tanqidiy fikrlash texnologiyasi o‘quvchilarga xulosalar chiqarish, taxmin qilish va solishtirish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini baholashda, ularning strategiyalari va yechim yondoshuvlari ustida doimiy tahlil olib borilganda, ularning fikrlash ko‘nikmalari sifat jihatdan oshadi.

Masalan, mavjudtadqiqotlar o‘quvchilarning amalda ishlatgan usullarini tahlil qilish orqali dars metodikasini optimallashtirishga ergashadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ularning nafaqat matematika fanini chuqur tushunishida, balki tafakkurini kengaytirish, murakkab masalalarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Interfaol metodlar, metakognitiv yondashuvlar, vizual va multireprezentativ materiallar o‘quvchilarda xulosalar chiqarish va mantiqan asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada mustahkamlaydi.

Shuningdek, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi roli bolaning tafakkurini boyitishda katta ahamiyatga ega.

U o‘quvchilarning fikrlash jarayonlarini kuzatadi, ularni mustaqil izlanishga undaydi va darsni ularning individual darajasiga moslashtiradi. Shu bilan boshlang‘ich sinf

o‘quvchilari matematikani nafaqat amaliy bilim sifatida, balki tafakkur va analitik fikrlashni rivojlantiruvchi vosita sifatida qabul qiladilar.

Natijada, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilar murakkab masalalarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslar sifatida shakllanadi, bu esa ularning kelajakdagi ta’lim va hayotiy faoliyatlarida muvaffaqiyat sari ishonchli qadam qo‘yishlarini ta’minlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Global Science Review – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi
2. Worldly Journals – Interfaol metodlar bilan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish
3. Kokand University Scholar – Mantiqiy masalalarni hayotiy misollarga tatbiq etish
4. Pedagogs.uz – Geometrik shakllar va vizual materiallardan foydalanish
5. ERUS – Ijodiy tafakkur va didaktik komplekslar
6. Pedagoglar.org – O‘qituvchining roli va metodik tavsiyalar
7. Mantiq.uz – Boshlang‘ich sinf matematika darslari metodikasi

TISHLARNING NOTO‘G‘RI JOYLASHUVINING ETIOLOGIYASI VA ERTA PROFILAKTIK CHORALARI

Sarvinoz Avazbekova
Qo‘qon universiteti Andijon filiali Stomatologiya yo‘nalishi 25_07-guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Tishlarning noto‘g‘ri joylashuvi ta’sir qiluvchi biologik, ekologik va funksional omillar ko‘rib chiqiladi hamda erta profilaktik choralar bayon qilinadi. Shu bilan birga, tish-jag‘ tizimining rivojlanish jarayoniga kompleks yondashuv va profilaktik chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirish usullari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *malokkluziya, biologk omil, ekologik omil, profilaktika, orofasial rivojlanish, etiologik omil, predispozitsiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются биологические, средовые и функциональные факторы, влияющие на формирование неправильного положения зубов, и описываются меры ранней профилактики. При этом описывается комплексный подход к развитию зубочелюстной системы и поэтапные методы реализации профилактических мер.*

Ключевые слова: *неправильный прикус, биологический фактор, средовой фактор, профилактика, развитие орофациальной области, этиологический фактор, предрасположенность.*

Abstract: *This article reviews the biological, environmental, and functional factors that influence the malposition of teeth and describes early preventive measures. At the same time, a comprehensive approach to the development of the dentofacial system and step-by-step methods for implementing preventive measures are described.*

Keywords: *malocclusion, biological factor, environmental factor, prevention, orofacial development, etiological factor, predisposition.*

KIRISH

Tishlarning noto‘g‘ri joylashuvi malokkluziya deb ataladi. Molokkluziya zamonaviy stomatologiyaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat estetik ko‘rinishni, balki chaynash funksiyasi, nutq jarayoni va umumiy orofasial rivojlanishning barqarorligini ham belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda malokkluziyaning epidemiologik ko‘rsatkichlari yosh avlod orasida ortib borayotgani ushbu muammoning etiologik omillarini chuqur o‘rganishni muhimligini ko‘rsatadi. Tishlarning noto‘g‘ri joylashuvi ko‘pincha ko‘p omilli kelib chiqishga ega bo‘lib, irsiy

predispozitsiya, prenatal va postnatal rivojlanish jarayonlaridagi o‘zgarishlar, nojo‘ya odatlar, parodontal to‘qimalarning holati hamda funksional disbalanslar bilan bog‘liq kompleks omillarni o‘z ichiga oladi. Erta yosh davrida malokkluziyaning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik strategiyalarni ishlab chiqish tish-jag‘ tizimining to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bolalik davrida o‘z vaqtida amalga oshiriladigan ortopedik va ortodontik choralar kelajakda murakkab davolash jarayonlarining oldini olishda yuqori samaradorlikka ega ekani ta’kidlanadi. Shu bois, tishlarning noto‘g‘ri joylashuviga sabab bo‘luvchi asosiy etiologik omillarni tizimli tahlil qilish va erta profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

ASOSIY QISM

Tishlarning noto‘g‘ri joylashuvi etiologiyasini o‘rganishda zamonaviy stomatologiya ko‘plab omillarni birgalikda baholashga intilmoqda, chunki bu patologiya murakkab biologik jarayonlar, tashqi ta’sirlar va funksional muvozanat buzilishlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Malokkluziya evolyutsion jihatdan ham o‘zgarib borayotgan hodisadir: antropologik tadqiqotlarda qadimgi jamoalarda jag‘ suyaklarining kengroq, tishlarning esa ancha bir-biriga mos joylashganligi kuzatiladi. Ovqatning texnologik qayta ishlanishi, yumshoqroq ratsion, urbanizatsiya va noto‘g‘ri odatlarning ortishi natijasida bu muammo tobora ko‘proq uchray boshlagan. Shunday ekan, etiologiyani tahlil qilishda biologik va ijtimoiy omillar bir butun sifatida qaralishi lozim.

Birinchi asosiy etiologik guruh – bu irsiy va genetik omillar. Ko‘plab tadqiqotlarda malokkluziyaning ma’lum tur va shakllari genetik me’yorlar bilan bog‘langanligi aniqlangan. Masalan, III sinf skeletli malokkluziya ko‘pincha mandibulaning haddan tashqari o‘sishi yoki yuqori jag‘ning rivojlanishdan ortda qolishi bilan xarakterlanib, autosomal-dominant meroslanish tendensiyalariga ega. Biroq genetik omillar har doim ham yakka holda ta’sir qilmaydi; ular tashqi muhit ta’sirlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, fenotipning shakllanishini belgilaydi. Shuningdek, genlarning ekspressiyasi epigenetik mexanizmlar orqali o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, prenatal davrda ona ovqatlanishining buzilishi, gormonal disbalans yoki toksik moddalar ta’siri jag‘-yuz kompleksining rivojlanishiga ta’sir etadi. Bu omillar tishlar chiqishi ketma-ketligi, suyakning remodellanish potensiali va mushaklarning tonusiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim omillar guruhi — funksional va mushak-skelet tizimi bilan bog‘liq holatlar. Yutish, nafas olish va chaynash kabi fiziologik jarayonlar tish-jag‘ tizimining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Masalan, og‘iz orqali nafas olish adenoid vegetatsiyalar, burun septumining qiyshiqligi yoki allergik rinit kabi holatlarning oqibati bo‘lishi mumkin. Doimiy og‘izdan nafas olish yuqori jag‘ning torayishiga, qattiq tanglayning vertikal yo‘nalishda o‘sishiga, mandibulaning esa pastga va orqaga siljishiga olib keladi.

Ushbu disbalans funksional yuklamaning o‘zgarishiga sabab bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan malokkluziyaning turli shakllarini keltirib chiqaradi. Yutish paytida tilning noto‘g‘ri joylashuvi — infantil yutish odati — oldingi tishlarning protruzion joylashuviga sabab bo‘ladigan eng keng tarqalgan funksional buzilishlardan biridir.

Uchinchi etiologik omillar toifasi — nojo‘ya odatlar. Bolalarda uzoq muddatli so‘rg‘ich emish, barmoq so‘rish, lab yoki tilni tishlash kabi odatlar alveolyar o‘sishni o‘zgartirib, tishlarning joylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu odatlar ko‘pincha psixo-emotsional omillar, stress yoki oila muhitidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, faqat stomatologik aralashuv emas, balki psixologik yordamni ham talab qilishi mumkin. Nojo‘ya odatlarning erta aniqlanishi va ularni bartaraf qilish o‘sib kelayotgan jag‘ tizimining anatomik barqarorligida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

To‘rtinchi etiologik omil — prenatal va perinatal omillar. Homiladorlik davridagi gormonal o‘zgarishlar, ona organizmidagi kaltsiy va D vitamini yetishmovchiligi kabi holatlar jag‘larning simmetrik o‘sishiga, bola suyak tizimining mineralizatsiyasiga ham ta’sir etadi. Tug‘ruq paytidagi travmalar, neonatal davrdagi mushak tonusining buzilishi, emosional stress va erta bolalik davrida yuz beradigan somatik kasalliklar ham tishlarning chiqish ketma-ketligi va jag‘ o‘sish dinamikasini izdan chiqarishi mumkin.

Beshinchi etiologik omil — ratsional ovqatlanish va ovqat strukturasining o‘zgarishi. Tarixiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qattiq ovqatlarga boy ratsion chaynash mushaklarining faol ishlashini ta’minlagan. Bu esa suyaklarning fiziologik shakllanishiga foydali ta’sir ko‘rsatgan. Hozirgi davrda bolalarning ko‘pchiligi yumshoq, qayta ishlangan ovqatlarni ko‘p iste’mol qilganligi sababli, jag‘ mushaklarining yuklamasi kamayadi. Natijada alveolyar o‘sish yetarli darajada rag‘batlantirilmaydi, tishlar uchun fiziologik joy yetishmovchiligi rivojlanadi va shu bilan birga, siqilish yoki rotatsion joylashuvlar paydo bo‘ladi.

Etiologik omillarni tahlil qilish bilan bir qatorda, erta profilaktika choralarining ilmiy asoslarini belgilash ham zarurdir. Malokkluziyaning erta profilaktikasi uch asosiy yo‘nalishga tayangan: biologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, funksional muvozanatni tiklash va ijtimoiy-psixologik omillarni barqarorlashtirish.

Biologik yo‘nalishda chaqaloqlikdan boshlab to‘g‘ri ovqatlantirish, tabiiy emizishni rag‘batlantirish, D vitamini va minerallar balansini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Tabiiy emizish til, lab va masseter mushaklarining ritmik ishlashini faollashtiradi, bu esa jag‘larning simmetrik o‘sishiga yordam beradi. Erta yoshdagi qattiqroq ovqatlarga asta-sekin o‘tish fiziologik chaynashni rag‘batlantirib, jag‘ suyaklarining tabiiy rivojiga xizmat qiladi.

Funksional profilaktika esa nafas olish yo‘llarining gigiyenasini ta’minlash, yutish texnikasini normallashtirish va nutq apparatidagi muvozanatni qo‘llab-quvvatlashni o‘z

ichiga oladi. Pediatr, otorinolaringolog va logopedlar bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan kompleks skrininglar og‘izdan nafas olish, tanglayning torayishi yoki tilning noto‘g‘ri joylashuvi kabi muammolarni erta aniqlashga yordam beradi. Myofunksional terapiya — til, lab va chaynash mushaklarini faollashtiruvchi maxsus mashqlar majmuasi — malokkluziyaning erta bosqichlarida nihoyatda samarali ekanligi tajribada isbotlangan.

Nojo‘ya odatlarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktika choralari psixologik qo‘llab-quvvatlash, motivatsion suhbatlar, oila muhitida barqarorlik yaratish va zarur hollarda stomatologik apparatlar qo‘llashni talab qiladi. Masalan, lab yoki barmoq so‘rish odati bo‘lgan bolalarda yumshoq cheklov moslamalari yoki motivatsion terapiyalar muammoni bartaraf etishda yordam beradi.

Bundan tashqari, profilaktikaning alohida yo‘nalishi – ortopedik va ortodontik erta aralashuvlar. Bolalarda 5–8 yosh oralig‘ida jag‘larning o‘sish potensiali yuqori bo‘lgani uchun kengaytiruvchi apparatlar, funksional trainerlar yoki chin-cup kabi moslamalar skelet o‘sishidagi nosimmetrikliklarni tuzatishda eng samarali davr hisoblanadi. Bu bosqichda bajarilgan ortopedik aralashuvlar kelajakda qimmat, invaziv va murakkab ortodontik davolash jarayonlarining oldini oladi.

XULOSA

Tishlarning noto‘g‘ri joylashuvi murakkab va ko‘p omilli patologiya bo‘lib, u irsiy, biologik, funksional, ekologik va psixo-emotsional omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Shu bilan birga, faqat bir omilni e’tibordan chetda qoldirish malokkluziyaning oldini olish yoki davolashda yetarli samarani bermaydi. Genetik predispozitsiya, prenatal va perinatal sharoitlar, yutish va nafas olish odatlari, shuningdek, nojo‘ya odatlar va ratsion xususiyatlari tish-jag‘ tizimining fiziologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, malokkluziya etiologiyasini chuqur va tizimli tahlil qilish, individual risklarni aniqlash hamda ularni kompleks tarzda boshqarish zamonaviy stomatologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Erta profilaktika esa malokkluziyaning yuzaga kelishini kamaytirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Biologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, funksional muvozanatni tiklash, nojo‘ya odatlarni bartaraf etish va ortopedik-ortodontik aralashuvlarni o‘z vaqtida amalga oshirish orqali tish-jag‘ tizimining barqaror va estetik jihatdan to‘g‘ri rivojlanishi ta’minlanadi. Erta yoshda qo‘llanadigan profilaktik choralar, shuningdek, kelajakdagi murakkab va qimmat davolash usullarining ehtiyojini sezilarli darajada kamaytiradi.

Umuman olganda, malokkluziya etiologiyasining ko‘p qirrali xususiyati va unga qarshi samarali erta profilaktik yondashuvlar stomatologiya fanining dolzarb ilmiy va amaliy muammolaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Erta aniqlash, individual risklarni baholash va kompleks profilaktika tadbirlari tish-jag‘ tizimining optimal

rivojlanishini ta'minlashda asosiy garov bo'lib xizmat qiladi va bolalar sog'lig'ini mustahkamlashda uzoq muddatli ijobiy natijalarni kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Nishio C., Huynh N. Skeletal Malocclusion and Genetic Expression: An Evidence-Based Review. Journal of Dental Sleep Medicine. 2016; 3(2): 57–63. — DOI: 10.15331/jdsm.5720 https://aadsm.org/docs/JDSM.3.2.57.pdf

2. Joshi N. et al. Skeletal Malocclusion: A Developmental Disorder With a Lifetime Impact. Journal of Clinical Medicine Research. 2014; 6(3): 190–200. — DOI:10.14740/jocmr1905w
https://www.jocmr.org/index.php/JOCMR/article/view/1905/859

3. Usmonova Zamira Akramovna. (2025). Tishlarning noto'g'ri joylashishini tuzatish uchun elaynerga asoslangan ortodontik davolash samaradorligi. Konferensiyalar, 1(1), 450-452. https://scientific-jl.com/conf/article/view/16117

4. G'ulomova S.N., Gadayev A.M. (2023). Dental malocclusion and prevalence of dental malocclusions in different geographical areas. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(12), 253-259. https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/3183

BOSHLANGICH SINF DARSLARINI STEAM DASTURI ASOSIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Do'stmuxamedova Nodira Xamidulla qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Annottatsiya: *Boshlang'ich sinf o'qituvchisi fan o'qituvchisidan farqli o'laroq o'quvchilarga aniq bir fan bo'yicha shunchaki bilimlarni beribgina qolmaydi, balki ularni keyinchalik gumanitar va tabiiy-matematik fanlar bo'yicha o'qitishning poydevorini yaratadi, mustaqil o'qishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi fan o'qituvchisiga nisbatan ko'proq kichik yoshdagi maktab o'quvchisida axloqiy sifatlarni shakllantirish bilan bog'liq tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. U ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni o'quv jarayonida majmuaviy hal qiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim,tarbiya,boshlang'ish ta'lim,metod,STEAM*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 05.09.2018- yildagi PF-5538 Farmonida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi kiritilishi haqida so'z boradi. Bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; maktablarni, shu jumladan, o'quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash; uch oy muddatda o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan. Shunga ko'ra,

Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochiladi. Ular STEAM fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan bo'ladi. STEAM — maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchunqat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi.

Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochibberish, ishlab chiqarish, fantexnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: - o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiyetayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

- milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

- o‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash;

- inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish;

- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

Amaliy-tajriba va sinov mashqlarida matematika darslarda kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirishga va unumdorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yechilishi lozim.

Ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yoshlarni zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan hamda jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bo‘lgan — komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida xususan, matematikani an’anaviy o‘qitishning kamchiligi, o‘quvchilar avvaldan tayyor matematik materiallar bilan ishlashlari hisoblanadi: berilgan ifodalar ustida o‘xshash amallarni bajaradilar, tenglama va tengsizliklarni yechadilar, grafiklar quradilar, ifodaning qiymatini hisoblaydilar va boshqalar.

Asosiysi esa ta'lim oluvchining berilgan materiallarni o'zlashtirishi hisoblanadi. Ma'lumotni qayta ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga kam ahamiyat qaratiladi. O`quvchining olgan bilimlari ko'pincha takrorlash orqali tekshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'qituvchi katta mahorat bilan tashkil etishi kerak. Chunki har bir soat dars o'quvchiga yangi bilimlar beradi, mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchini o'zligini namoyon etishga, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari dars yakunida o'quvchilarning qanday bilimlar olganliklarini o'qituvchi tomonidan doimo nazorat qilib borilishi shart. Bu jarayonda savol-javoblar, turli xil interfaol metodlardan foydalanish kerak..[3]

Xo'sh? STEAM yondashuvo'zinima?

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika.

Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

2. 2. Matematika fanidan o'quv dastur.(1-4 sinflar)

3. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z. „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi— Toshkent.: Fan vatexnologiya, 2005

4. www.edu.uz

5. www.mininnovation.uz

6. www.pedagog.uz

ONKOLOGIK KASALLIKLARNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI

Maxmudova Muxlisa Mansur qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Davolash ishi Fakulteti 1-bosqich talabasi
Annayeva N.R
Ilmiy rahbar: dots.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada onkologik kasaliklarning nafaqat bemorning salomatligiga, balki uning ruhiy holatiga ham ta'siri o'rganiladi. Maqolada saraton tufayli yuzga keladigan psixologik o'zgarishlar va psixologik –onkologiyaning bemorlar hayotidagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *onkologiya, saraton, psixologiya, ruhiy holat, tibbiyot, psixologik yordam, stress, psixo-onkologiya, depressiya, his-tuyg'u.*

KIRISH

Hozirgi kunda saraton kasalligi bilan og'riyotgan bemorlar soni tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda saraton epigenetikasi tez rivojlanayotgan soha bo'lib, u yerda epigenetik mexanizmlarning har bir tarkibiy elementi DNK metilatsiyasi, gistonga modifikatsiyalar, nukleosomalar joylashuvi va boshqa o'zgarishlar saraton hujayralarida keng qayta dasturlanishini ko'rsatadi.[1;144] Saraton deb hujayralarning atipik o'sishiga aytiladi. Atipik o'sish deganda hujayralarning qarishi yoki jarohatlanishiga qaramay cheksiz ko'payishi tushuniladi. Sog'lom hujayralardan farqli o'laroq, bunday hujayralar to'xtovsiz va betartib bo'linadi.

Saraton-bu birgina kasallik emas, balki yuzlab turdagi o'smalarni o'z ichiga olgan umumiy atamadir. Har bir saraton turi o'z joylashuvi, o'sish sur'ati va tarqalish xususiyatiga ega. Masalan, o'pka, ko'krak bezi, jigar, bachadon bo'yni, oshqozon va qon saratonlari eng keng tarqalgan turlar sirasiga kiradi.

Bu kasallik hujayralar mutatsiyasiga ko'ra asosiy 4 guruhga bo'linadi: karsinoma-epiteliy to'qimalarida, sarkoma-biriktiruvchi to'qimalarda, leykoma-qon ishlab chiqaruvchi ilikda, limfoma-limfa tizimida va miyeloma-teridagi pigment hujayralarida.

Kasallikning kelib chiqish sabablari ham murakkab: irsiyat, ekologiya, zararli odatlar, stress, infeksiyalar va garmonal o'zgarishlar bu jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Biroq eng muhim omil-hujayra ichidagi genetik axborotning buzilishi, ya'ni mutatsiyadir.

Mutatsiyaga uchragan hujayra o'zini "abadiy yashaydigan" deb hisoblaydi va cheksiz ko'payishni davom ettiradi. Onkologik kasaliklarning rivojlanish xavfi surunkali alkogol va tamaki iste'moli tufayli bir necha barobarga oshadi va hattoki o'lim holatlari kuzatiladi.

Onkologik kasalliklar insonda kechadigan irsiy-genetik o'zgarishlar tufayli ham kelib chiqadi.

Ayniqsa ayollarda ko'krak saratoniga chalinish ko'rsatgichi 40 yoshdan so'ng ortib boradi. Sababi genetik o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan vujudga kela boshlaydi. Tibbiyotda bu kasallik bemorlardagi turli belgilar bilan aniqlanadi va klinik tekshiruvlar orqali tasdiqlanadi.

Asosiy tekshiruv usullari quyidagilar: rentgenografiya, KT(kompyuter tomografiyasi), MRT(magnit-rezonans tomografiya) va endoskopiya. Bemor sitologik va gistologik tekshiruvlardan (biopsiya) o'tishi muhim. Bu eng ishonchli usul bo'lib, tashxisni aniq tasdiqlaydi.

Saratanning eng xavfli jihati-uning sekin ammo yashirin rivojlanishidir. Ko'p hollarda u dastlabki bosqichlarda og'riqsiz kechadi, shuning uchun odam o'zida o'zgarishlar sezmaydi. Aynan shuning uchun ham erta tashxis va profilaktik ko'riklar hayotiy ahamiyatga ega. Bu kasallika chalingan bemorlarda omon qolish ko'rsatkichi saraton turiga va kasallikning darajasiga bevosita bog'liq. Kasallangan bemorlarga psixologik tomonlama ko'maklashish katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu onkologik kasallikni psixologik oqibatlari bo'yicha yurtimizda va xorijda bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, professor Z.Ibodullayev o'zining "Tibbiyot psixologiyasi" kitobida alohida to'xtalib o'tgan unda onkologik kasalliklarda bemorga kasallik haqida ma'lumot berishda juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakligi, bemorga berilgan noto'g'ri maslahatlar tufayli soxta tabiblarga ishonib qolish, og'ir ruhiy va jismoniy asoratlarga olib kelishi va buning natijasida davolanish uchun kerak bo'lgan qimmatli vaqtini yo'qotishiga olib kelish holatlari haqida so'z yuritilgan.

Burashova.N.Q ning "Onkologik kasalliklarda bemorlar bilan psixologik munosabatda bo'lish" maqolasida bemorlarga nafaqat jismoniy balki ruhiy tomonlama yordam zarurligi va bu yordamni turli metodlar yordamida bemorga yetkazib berilishi ilgari surilgan. Metodlar bemorga kasallikni qabul qilishga va psixologik buzilishlarni bartaraf etishga ko'maklashadi. Bu mavzuda Odiljonova.Z.B tomonidan yozilgan "Onkologik kasallik bilan kasallangan bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish" nomli maqolasida bemorlarni davolash jarayonlarida shifokorlar uning mavjud simptonlari bilan emas ruhiy barqarorligini ham hisobga olishlari zarurligi ko'zda tutilgan.

Onkologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarning yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlash juda muhimligiga urg'u berilgan. W.Shalata, I.Gothelf, T. Bernstine lar tomonidan olib borilgan "Mental Health Challenges in Cancer Patients: A Cross-Sectional Analysis of Depression and Anxiety" tadqiqotda 159 ta onkologik bemorlar o'rganilib, ularning 22,6% da depressiya va 30,2% da xavotir holatlari kuzatilgan. Bemorlarning

psixologik holati kasallik davomiyligi, uning xavflilik darajasi va davosi yo'qligi bilan bog'liq. Bunday kasallika chalingar bemorlarning ruhiy salomatligini muntazam kuzatish va psixologik qo'llab-quvvatlash ularni davolash jarayonida yordam berishini ta'kidlaydilar.

Sararton bilan kurashish faqat dori va jarrohlik emas, balki ruhiy barqarorlik, umid va yaqinlarning qo'llab-quvvatlashi bilan ham bog'liq. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda bemorga faqat tanani emas, balki qalbni ham davolash g'oyasi asosiy tamoyilga aylangan. Onkologik kasalliklar insonning yashash tarzini o'zgartirish uchun belgi bo'lib xizmat qiladi. Saraton tashxisi qo'yilganda, bu yashash tarzini va zararli odatlarni o'zgartirish zarurligini anglatadi, negaki uning avvalgi turmush tarzi, zararli odatlari uni shu holatga olib kelgan. Tashxis qo'yilishidan avval hayot odatdagidek kechadi: ovqatlanish, stresslar, uyqusiz tunlar, ortiqcha vazn, kam harakat-bularning barchasi odatiy holdek tuyuladi. Ba'zan organizm ogohlantiruvchi belgilar beradi, lekin ularni charchoq, garmonal buzilish va yosh bilan bog'lab qo'yiladi. Kasallik shunchaki paydo bo'lmaydi-u kechagi tanlovlarning, yillar davomida shakllangan odatlarning va hayot tarzining natijasidir. Saraton tashxisi-bu inson hayotidagi eng og'ir sinovlardan biridir. "Sizda rak" degan so'zni eshitgan paytda, insonning ichki dunyosi go'yo to'xtab qoladi. Bu jarayonlarda psixologik yardamning ahamiyati beqiyosdir. Bemorda psixologik tomonlama yordam orqali yashashga, kurashishga, umid qilishga bo'lgan kuchni uyg'otish muhimdir. Shu sababli saraton tashxisi qo'yilgan bemorlar bilan ishlashda shifokor va bemor o'rtasidagi deantalogiya asoslari muhim o'rin tutadi. Shifokor bemorga tashxisni yetkazishda juda ehtiyotkor bo'lishi zarur. Sababi bemorda tashxisdan so'ng chuqur depressiya, ishonchsizlik va xavotir hissi paydo bo'ladi. Inson ongida avtamatik ravishda rad etish psixologiyasi ishga tushadi. Bu inson ruhiy holatiga himoya reaksiyasi bo'lib xizmat qiladi. Shu qatorda bemor tashxisga ishonchsizlik, tekshiruvlardan qayta o'tish va turli manbalardan ma'lumot topishga urinadi. Bemorga shifokor tomonidan kasallik haqida to'liq ma'lumot berilmaganligi va tasdiqlanmagan ma'lumotlar bilan atrof-muhit tomonidan unga bosim o'tkazilishi, bemor ongida kasallikni mustaqil ravishda o'rganish reaksiyalari ishga tushishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida o'ziga bo'lgan ishonchning so'nishi, davolanishdan bosh tortish va haqiqatdan qochish kabi holatlarni vujudga keltiradi. Natijada insonning ruhiy holatida chuqur psixologik o'zgarishlar ro'y beradi. Saraton bilan yashash uzoq davom etadigan jarayon bo'lgani sababli, bemor asta-sekin umidsizlik, faoliyatga qiziqish yo'qolishi, o'zini ayblash, va ba'zan yolg'izlik hissini boshdan kechiradi. Bu davrda bemorda ko'p bosqichdan o'tadilar: inkor, g'azab, savdolashish, tushkunlik, qabul qilish. Saraton-o'lim xavfi bilan bog'langan kasalik bo'lgani uchun, unda ruhiy bosim juda kuchli bo'ladi. Bu holat oddiy qayg'udan farqli: bemor o'z hayotining ma'nosini yo'qotgandek his qiladi. Agar ruhiy tushkunlik o'z vaqtida aniqlanmasa davolashga bo'lgan ishonch kamayishi, tibbiy ko'rsatmalarga rioya qilmaslik, immunitet pasayishi va hayot

sifatining yomonlashuviga olib keladi. Buning natijasida sog'ayish jarayonlarining sekinlashuvi kuzatiladi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik stress va depressiya holatidagi bemorlarning organizmida gormonlar muvozanati buziladi, asab tizimi charchaydi, og'riqqa chidamliligi kamayadi. Davolash usullari yanada og'ir kechadi va tiklanish sekinlashadi. Bunday vaziyatlarda bemor ruhiy va ijtimoiy tomonlama yaqinlari yordamiga muhtoj bo'ladi.

NATIJALAR

Faol moslashuv va emotsional qo'llab-quvatlash saraton kasalligiga chalingan bemorlarning ruhiy salomatligini saqlashda asosiy omillar hisoblanadi.[2;117] Saraton kasalligiga chalingan bemorlarga psixologik yordam- bu davolanish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bemorning ruhiy barqarorligini saqlash, umid uyg'otish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan jarayondir. Bemor tashxisni qabul qilishi qiyin bo'ladi. Tashxisni qabul qilishga nima yordam beradi? Bemor kasallik haqida aniq, ilmiy asoslangan ma'lumot olishini ta'minlash zarur. Shifokor va psixolog ochiq va tushunarli tilda kasallikning bosqichi, davolanish imkoniyatlari haqida tushuntirishi lozim. Bu bemor ongida «Men vaziyatni nazorat qilyapman» degan tushuncha beradi. Ammo har bir insonda moslashuv psixologiyasi har xil bo'ladi. Ayrim insonlar bir vaqning o'zida g'azab, ishonchsizlik va depressiya holatlarini boshdan kechiradi. Kasallikni yengib o'tish bemor ruhiy holati bilan bog'liq. Psixolog bilan muntazam suhbat bemorga his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradi. Shu sababli onkologiya markazlarida maxsus psixologik-onkologiya bo'limlari tashkil etilgan. Psixologik-onkologiya bo'limlarida har bir bemor bilan alohida ishlaydigan psixolog yoki psixoterapevt lavozimlari tashkillashtirilgan. Bemor va psixolog o'rtasida ishonchli va xavfsiz muhit yaratiladi- bunda bemor o'z tajribalari va his-tuyg'ularini ochiq aytishi mumkin bo'ladi. Saraton kasalligida psixologiyaning o'rni nihoyatda muhimdir. Bu kasallik faqat tanani emas, balki insonning ruhiyatini, his-tuyg'ularini, hayotga bo'lgan munosabatini ham chuqur o'zgartiradi. Psixologik yondashuv bemorga og'ir davrdan o'tishga va yangi hayot sharoitiga moslashishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ruhiy barqarorlik immun tizimini yaxshilaydi, bu esa davolanish jarayonini tezlashtiradi. Psixologik yordam onkologik kasalliklarni davolashda muhim ruhiy «dori»dir. Psixologik moslashuv saratonni boshqarishning ajralmas qismi bo'lib, bemorning jismoniy holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rstadi.[3;15]

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, onkologik kasallikga chalingan bemorlar ham jismonan ham ruhan buzilishlarga uchraydi. Bemorlarning ruhiy salomatligi jiddiy zarar ko'radi, buning natijasida depressiya, stress va xavotir bemorning ongini egallab oladi. Shu bois bemorlarni muntazam ravishda psixologik tomonlama kuzatish, psixo-onkologik qo'llab quvvatlash va

oilaviy yordam ko'rsatish ularning hayot sifatini yaxshilashga, davolanish samaradorligini oshirishga va kasallikni yengib o'tishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Feinberg.A.P,Tyco.B "The history of cancer epigenetics. Nature reviews cancer".NPG. (2004). 4(2),143-145.
2. Folkman.S, Greer.S. "Promating psychological well being in the face of serious illness:when theory, research and practice inform each other" Cancer journal. (2000). 91(6) 117-124.
3. Jimmie.C.Hollond. "Psycho-oncology". Oxford university press, New York. (2010). 368.
4. Olimjonova.Z.B. "Onkologik kasallik bilan kasallangan bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish". Iqro jurnali. (2022). 85-88.
5. Ibodullayev.Z.R. "Tibbiyot psixologiyasi" Toshkent. "Zamin nashr" (2019). 495.
6. Burashova.N.Q. "Onkologik kasalliklarda bemorlar bilan psixologik munosabatda bo'lish" "Образование, науки и инновационые идеи в мире" jurnali 2-soni. (2025) 431-439
7. W.Shalata, I.Gothelf, T. Bernstine "Mental Health Challenges in Cancer Patients: A Cross-Sectional Analysis of Depression and Anxiety" "Cancers" jurnali 16-soni. (2024) maqola raqami 2827.

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONLI BOLALAR LUG`AT BOYLIGINI O`YIN FAOLIYATI ORQALI RIVOJLANTIRISH.

Barno Xodjiakbarovna Xusniddinova
Nizomiy nomidagi O`MPU Logopediya kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maqolada bolalar nutqining grammatik tuzilishi, morfologik va sintaktik tizimni o‘zlashtirish jarayoni, so‘z yasash mexanizmlari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Maqolada alalik bolalarda lug‘at boyligini rivojlantirish, muloqotning bosqichlari, kommunikativ va umumlashtiruvchi nutq funksiyalari, oliy psixik jarayonlar shakllanishidagi nutqning o‘rni ilmiy asosda izohlanadi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalar lug‘atining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning nutqiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan korreksion mashg‘ulotlar tizimini takomillashtirish hamda logopedik-psixologik amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.*

Kalit so`zlar: *nutq rivoji, lug‘at boyligi, alaliya, muloqot bosqichlari, logopedik o‘yinlar, bog‘langan nutq, grammatik tuzilma, so‘z yasash tizimi, maktabgacha yosh, pedagogik korreksiya, nutq buzilishlari.*

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, barcha davrlarda tarbiya masalasi, pedagogik faoliyatga shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida e’tibor qaratib kelingan.

Shu bois ham tarixda o‘zining boy ma’naviy meroslari bilan munosib o‘rin olgan mutaffakkirlarimiz insonning ma’naviy barkamolligi har qanday jamiyatning rivojini, takomillashuvini belgilab beradigan omil, deb hisoblaganlar va bu boradagi ishlarga alohida e’tibor qaratganlar.

Zero, milliy pedagogikamiz asoschilaridan A.Avloniy ta’kidlaganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"[40].

Ma’lumki, nutq inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Avlodlar ajdodlari tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy merosni nutq orqali egallab, o‘zlari uchun munosib tarzda hayot kechirish, takomillashtirib, kelgusi avlodlariga yetkazib borish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu sababli ham har qanday jamiyat, har qanday davlatda ta’lim-tarbiya oluvchilarning nutqiy tarbiyasiga alohida ahamiyat berib kelinadi.

Ayniqsa, Sharq mamlakatlari, xususan Vatanimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boy ma’naviy manbalarda bola tarbiyasi, unda nutqning o‘rni, bu borada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi hamda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan masalalarga o‘rinli ahamiyat berib kelingan.

[40] . Абдулла Авлоний “Туркий Гулистон ёхуд аҳлоқ”. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 40 б.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi alloma va olimlarimizning ma'naviy meroslari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, YE.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlari bolalarning ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish masalasiga bag‘ishlangan. Bolalarning lug‘atni o‘zlashtirib olishlarining ikki jihati aniqlangan: lug‘atni atrof-olamni bilish bilan birgalikda rivojlantirish va til birligi sifatida so‘zlarni o‘zlashtirish; predmetli aloqalar mantig‘i bo‘yicha ham va ayni paytda til mantig‘i bo‘yicha ham so‘z ustida ishlash zarurligi isbotlangan.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik jihatlarini shakllantirish (F.A. Soxin, A.V. Zaxarova, O.I. Solovyeva, V.I. Yashenko va boshq.), shuningdek ona tilining so‘z yasash tizimini o‘zlashtirishning o‘ziga xos jihatlarini (A.G. Tambovseva, D.A. Kostandyan) aniqlab berdi.

Muloqot vositalari orasida ekspertiv mimika, predmet faoliyati va nutqiy muloqotlarga ajratiladi. Bola hayotining birinchi yillarida qachonki, u kattalar bilan faoliyatli vositalar yordamida muloqotga kirsa buni biz doveralgacha deb ataymiz. Aynan mana shu darvda bola inson tovushini, fizikaviy obyektlar tovushlari bilan taqqoslaydi, kuchlari bir-biriga tegishli, uzoqligi, balandligi va tarkibini ajratadilar.

Nutq buzilishi, nutqiy muammolarning cheklanmaganligi bola shaxsining shaklanishiga salbiy ta'sir ko‘ratishi, uning xarakteriga salbiy fazilatlarini rivojlanishi uchun yo‘l ochib berishi mumkin.Nutqning mexanizmi ishning faoliyatiga bog‘liq. Miya faoliyatining har bir bo‘limi o‘ziga xos nutq faoliyatining xarakter boyligiga ega. Klinik tajriba shuni ko‘rsatadiki, bosh miya po‘stlog‘ining salgina shikastlanish ham nutq faoliyaning nuqsoniga sababchi bo‘ladi. Nutqning u yoki bu darajada nuqsoniga miyaning turli joylardagi jarohatlari ham ta'sir qiladi.

Nutq egallashda uchta asosiy muloqot vositasidan foydalaniladi. Birinchi bosqichida bola atrofdagi kattalar nutqini tushunmaydi. Ikkinchi bosqichda nutqning kelib chiqishi davrida bola kattalarni tushunadi va o‘zini birinchi so‘zlarini aytishga boshlaydi.

Nutqning ikkinchi funksiyasi xususiyati tafakkur vositalari bo‘lib, bunday ba'zi hollarda nutqning ruhiy faoliyati faqatgina muloqot vositasi emas, balki umumlashtirishga ham xizmat qiladi. Predmetni umumlashtirish abstrakt qurollarni tashkil qiladi.

Nutqning kommunikativ va umumlashtiruvchi funksiyalari tor ma'nodagi birlikni tashkil qiladi. Nutq yordamida bola nafaqat yangi axborot oladi, balki uni o‘zlashtiradi. Shu bilan birga nutq oliy psixik funksiyalarni, vositalarni muntazam tartibga solib turadi.

Normada tartibga solingan davrning oxirida vujudga keladi va bolaning maktabga borishida katta ahamiyat kasb etadi. Bola o‘z nutqini kattalar nutqiga taqlid qilish asosida olib boradi.

“Bozorda” o‘yini

Maqsad: bolalarning lug‘at boyligi, bog‘langan nutqi va muomala madaniyatini rivojlantirish.

Jixoz: mulyaj, rangli rasmlar, plastilindan yasalgan meva va sabzavotlar.

